


JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN



FRANS KAFKA
JARAYON

Insoniyatning OJIZLIGI – har bir inson IMKONSIZ degan
so'z bilan tanishligidir!

821 112-2
K 30

50

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

FRANS KAFKA



JARAYON

Roman



ZIYO NASHR

Toshkent
2022

UO'K: 821.112.2
KBK 83.3(2Ros=Nem)
K 30


Tahrir hay'ati:

Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy Jabborov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev

Tarjimon:
Vafo FAYZULLO

Asar qahramoni Yozef K. qamoqqa olinganida kimdir tuhmat qilgan bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. O'z aybining nimadan iborat ekanligini bilmagan yigit bank xizmatchisi edi. Oqlanuv qarorini kutib yashar ekan, turli kishilar bilan uchrashadi. Sud maslahatchilarining yordamidan umidvor bo'ladi. Lekin odatiy kunlarning birida qatl hukmi ijro etiladi.

Nima uchun? Yigit qanday jinoyatga qo'l urgan edi?
Muallif bu savollarga javob topishni har bir kitobxonning o'ziga havola qiladi.



ISBN 978-9943-6831-0-5

© Vafo Fayzullo (tarj.).
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqımız. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloni, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyat, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyat, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyatı, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariiga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishta yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasinizi izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyat, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqımız ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti xayrli bir ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N. Tolstoy, A. Dyuma, N.V. Gogol, O.de Balzak, A.P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimi, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'girgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingen namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

I bob

QAMOQ

Frau Grubax bilan, keyin esa Froylyayn Byurstner ila gurung

Aftidan, kimdir Yozef K.ga tuhmat qilgan chog'i, axir u hech kimga yomonlik qilmagan, biron-bir nojo'ya ish ham sodir etmagandi, shunga qaramay uni hibsga olishdi. Ijara xona bekasi, oshpaz ayol frau Grubax har kuni sakkizga yaqin uning xonasiga nonushta olib kirardi. Bu ertalab esa qorasini ko'rsatmadi. Bunaqasi hali bo'limgandi. K. birpas kutmoqchi bo'ldi, o'rnidan qo'zg'almasdan ro'parada ya-shaydigan kampirchani kuzatdi – kampircha ham odatdan tashqari qiziqish bilan uni tomosha qilardi – yana biroz taajjublanib turdi-yu, oxiri bo'lindi, ochiqqani jonidan o'tib ketgach, bekani chaqirdi. Shu zahoti taqillash ovozi eshitildi va xonaga allaqanday bir kishi kirdi. K. shu paytgacha bu xonadonda uni hech ham ko'rmagandi. Kishi oriq bo'lishiga qaramay, chayirgina, ustidagi po'rim qop-qora kastyumi ko'chaga kiyadigan xirqani eslatardi – unda allambalo to'qalar osilgan, cho'ntaklari ko'p, orqasida belbandi bo'lib, bu temir-tersaklar va bejamalikning nimaga kerakligini bir qarashda bilib olish ancha mushkul edi. Nafsila mriini aytganda esa bu kastyum jamiyatda anchagini mavqe kasb etuvchi, moltopar ekanligi ko'rinish turardi.

– Siz kim bo'lasiz? – K. karavotida sal qimirlab olib, o'tirgancha so'radi.

Biroq notanish kishi o'zining tashrifi tamoman qonuniyligiga qattiq ishonganidan, savolni javobsiz qoldirdi, fagat til uchidagina so'radi:

– Sizga sim qoqishmadimi?

– E bo‘pti. Anna menga nonushtani olib kiraversin, – o‘tgan ishga salavot qabilidami, K. shunday dedi-yu, indamay turib, kim o‘zi bu, buning ichida nima bor, deganday notanish odamga razm solib, haqiqatning tagiga yetishga urinardi. Biroq, notanish kishi o‘ziga ko‘p ham e’tibor qaratishlariga imkon berib qo‘ymadi. Eshikka yaqinlashib, uni qiya ochdi va, aftidan, shunday eshik yonida o‘tirgan birrovga ostonadan turib dedi:

– Buning ko‘ngli nimani tusab qolganini eshit: Anna unga nonushta kiritib bersinmish. E, ko‘nglingdan o‘rgildim.

Qo‘shni xonada qisqagina kulgi ovozi ko‘tarildi. U yoqda bir kishimi yoki ko‘pchilikmi – bilib bo‘lmas, ovozlarni ajratib olish ham amrimahol edi. Har qalay, notanishing gap-so‘zi, xatti-harakatida o‘zi uchun biron-bir yaxshi yangilik kutib bo‘lmasdi, mana u rasmiy ohangda K.ga shuni ma’lum qildi:

– Bu mumkin emas.

– Shu yangilik yetmay turuvdi o‘zi! – K. shunday derkan, karavotdan sakrab turdi, shoshib-pishib shimini kiydi. – Qo‘shni xonada bu odamlar nima qilyapti o‘zi. Hozir qarayman, hozir. Ko‘ramiz, boshqalarning ishiga tumshuq suqish qanday bo‘larkin, buni frau Grubax nima bilan oqlay olar ekan?

To‘g‘risi, shu joyda u hozir o‘ylab turgan gap-so‘zlarim ovoz chiqarib aytishga arziydimi, deb o‘ylanib qoldi. Bularning shu tarzda og‘izdan chiqishi, qay darajadadir notanish xonani nazorat qilib turganning hukm-farmoligini tan olishday gap edi, ammo hozir eng muhimmi bu emasdi. Har qalay, ko‘rinib turgani uchunmi, notanish kishi ham buni tushuna qoldi va tezgina qo‘srimcha qildi:

– Balki, tek tura tursangiz, bu o‘zingiz uchun ham yaxshi bo‘larmidi?

— Siz o‘zi kimsiz? Kimligingizni aytmas ekansiz, bu yerda tinch o‘tirmayman, siz bilan gaplashishni ham istamayman.

— Menden behudaga achchiqlanyapsiz, — notanish kishi shunday der ekan, o‘zi borib eshikni ochdi.

K. qo‘snni xonada nima ham qilardi, u yoqqa sudralib o‘tdi. Uy jihozlari, mebellar-u gilamlar, chinnilar va suratlar joy talashgudek tirband bu xona frau Grubaxning mehmonxonasi bo‘lib, bir qarashda kecha kechqurungiga qaraganda xonada hech nima o‘zgarmagandi. Faqat xona avvalgiga qaraganda sal kengaygandek ko‘rinar, yana unda o‘zgacha — o‘zgarish bor degan fikrga asos beradigan holat hukmron xonada allaqanday bir kishi o‘tirar edi. Qo‘lida kitob ushlagancha ochiq deraza oldida o‘tirgan bu odam K. xonaga kirganida nigohini yerdan uzib dedi:

— Sizni tergov qilish o‘z xonangizda olib boriladigan bo‘lgan! Nahotki sizga Frans hech nima demagan bo‘lsa?

— Gapning po‘skallasini aytadigan bo‘lsam, sizga o‘zi nima kerak? — K. o‘smoqchilab so‘rarkan, xonaga tashrif buyurgan yangi kishiga — hali Frans deb atalganga (u eshik yonida turardi) nigoh tashladi, ammo bir zum o‘tmay nazarini yana birinchisiga qaratdi. Ochiq derazadan hamon kampirchaning xatti-harakati ko‘zga tashlanib turibdi, u jazavali bir qiziqishda bir derazadan ikkinchisiga yugrugudek borib-kelib turar, oxiri nima bilan tugarkin, degandek ko‘zları olma-kesak terar edi.

— Mana, hoziroq bularning barini frau Grubaxdan surishtirib bilaman, — tutaqdi K. Holbuki u ikkisining o‘rtasida tutqunday turardi. Shu boisdan baayni bularning qo‘lidan qutulib chiqmoqchidek shiddatli bir harakat qilgandi, ana shu bosilgan ildam qadamlari bilan bir hatlashda xonaning narigi chetiga borib qoldi.

— Yo‘q, bunaqasi ketmaydi, — deraza yonidagi kishi shunday derkan, kitobni stolga uloqtirdi va joyidan shosh-

qin turdi. – Sizga bu yerdan ketish mumkin emas. Siz axir hibsga olingansiz.

– Shunga o‘xshab qoldi, – dedi K. va bunga qo‘srimcha qildi: – Lekin nima uchun?

– Buni tushuntirib berishga bizning vakolatimiz yo‘q. O‘zingizning xonangizga o‘ting-da, sabr bilan kuting. Siz uchun shunisi durust. Kun kelib lozim bo‘lgan paytda hammasini ipidan ignasigacha bilib olasiz. Men shunday ham sizga do‘stona munosabatda bo‘lib, xizmat tartibiga xilof ish tutdim va bizga berilgan vakolat doirasidan chiqib ketdim. Baxtimizga Fransdan bo‘lak hech kim bizning gapi-mizni eshitmaydi, deb umid qilaman, uning o‘zi bo‘lsa har qanaqa topshirig‘-u farmoyishlarga qaramasdan, sizga juda ham mehribon. Agar bundan bu yog‘iga ham sizga qorovullik qilish shu tartibda davom etsa, omadning kelgani shu, bundan ko‘ngilni to‘q qilaversa ham bo‘ladi.

K.ning qayergadir o‘tirgisi keldi. Biroq xonada deraza oldidagidan boshqa oromkursi ko‘rinmas, unga o‘tirishning esa hech iloji yo‘q edi.

– Bu gaplar qanchalik ishonchli, qanchalik haqli ekanligini siz oldin yaxshilab tushunib oling, – Frans shunday derkan, ikkovlashib uning ustiga bostirib borishdi.

Hamrohlarning ikkinchisi K.ga qaraganda juda nay-nov edi. U K.ning yelkasiga qoqib qo‘ydi. Ular birgalikda K.ning yotoqdagi kiyimlarini paypaslab chiqishdi. Shunda K. nomus qiladigan bundan ham battar voqeа yuz berdi. Ya’ni ular o‘zlaricha bir qarorga kelib olishib, bu kiyim-larning bari-barini yig‘ib oldilar va faqat ish uning foydasiga o‘zgarsagina bu latta-puttalar unga qaytarib berilishini ma’lum qilishdi.

– Bu kiyim-kechaklaringizni biron-bir omborga topshirguncha bizga bera qoling, – chuvullashdi ikkisi baravar. – Omboxonada kiyimlar almashib ketishi ham mumkin.

Bundan tashqari, ish qanday, qachon tugaydi, Xudo biladi. Bir qancha vaqt o‘tib ketadigan bo‘lsa, bularning hammasini sotib yuborishlari turgan gap. Bunaqa sud jarayonlari, ayniqsa, bugungi kunlarda qanchalik uzoq davom etishini, sudralgandan sudralishini siz hatto tasavvur ham qilolma-sangiz kerak! Ha endi, bir kunmas-bir kun, albatta, ombordan hech bo‘lmasa narsalarining bahosini to‘lashsa ajab emas. Biroq ungacha bularning rangi-raftori qolmaydi. Ar-zimas darajaga kelib qoladi-da, birinchidan, sotuvdag'i baho kiyimning turishiga emas, balki olinishiga qarab belgilanadi. Bir yilning o‘zida esa bu kiyimlar necha bora, qanchadan qancha qo‘ldan o‘tadi va shu qo‘ldan qo‘lga o‘tishda bu narx tushib boradi, ko‘ryapsizki, sohibi kiyimga hech vaqo ham qolmaydi.

Biroq K.ning qulog‘iga hech narsa kirmasdi, nima ha-qida gapirishmasin, loqayd, hatto uning shaxsiy kiyim-lariga xo‘jayinlik huquqi ham go‘yo hozirdanoq ularning o‘ziga daxldorday edi. Uning uchun hammasidan muhimi o‘zining vaziyatini aniqlashtirib olish edi, biroq bu kishi-lar ishtirokida hatto o‘ylarini bir joyga yig‘ishga ham ojiz edi, ular kim o‘zi? Bular hech ham qo‘riqchiga o‘xsha-maydi-ku – barzangi, ikkinchi qorovul do‘stlarcha uni ni-magadir undar, biroq qachonki, K. nigohini yerdan uzib tepaga qarasa, bu suyakdor yuzli, burni bir tomonga sal qiyshaygan ulkan maxluqning hech narsaga mas’uliya-ti yo‘qligining guvohi bo‘lar, nimanidir qo‘lga tushirish-ga ishqiboz olmakesak nigohi ila K.ning boshi ustidan turib, o‘rtog‘i bilan ko‘z urishtirib o‘tirardi. Kim bo‘ldi bu kishilar? Ular nima haqida bunchalik kuyib-pishib ga-piryaptilar? Ular qaysi idoradan ekan? Axir u hammaning huquqlari kafolatlangan, osoyishtalik hukmron davlatda ya-shayapti-ku, bunda qonunlar buzilmasligi darkor emasmi? Shunday ekan, uning yotog‘iga bostirib kirishga kimning

haqqi bor? Hamisha u har qanaqa favqulodda vaziyatlarga osongina moslashmoqchi bo‘lar, ammo ishning chatog‘i chiqqan taqdirda ham, hatto, borgan sari u chigallashib, oshkora tahdid xavf solib turganida ham, odatlanib qolganidek, oldindan hech bir narsa qilishga kirishmaydi. Hozir esa bularning bari unga noto‘g‘ri, anglashilmovchilikday tuyulayotgan edi. Hatto bu voqealarning hammasi chinakamiga bo‘layotgan taqdirda ham, hazil, borib turgan qaltis hazil deb qarardi – u axir ayni kunda 30 yoshni to‘ldiradi. Buni yaxshi bilgan bankdagi hamkasblari unga bo‘lgan hurmat va sho‘xlik yuzasidan, u bilan o‘ynashmoqchi bo‘lgan bo‘lsalar ham ajab emas. Aftidan, buni ular kulgili soqchilik tarzida amalga oshirmoqchi-yu, u bilan bir ha-zillashmoqchi bo‘lishibdi. Ha, albatta, bu juda ham bo‘lishi mumkin, ehtimol, bu mirshablik nimanidir unga shunchaki bildirmoq uchundir, qoyil, juda o‘xshabdi. Lekin nega unda bu Frans degani birinchi qarashdayoq unga astoydil yopishib oldi, qolganlari ham yon beray demaydi. K. hozir bu beo‘xshov hazilni tushunmay, keyin afsuslanib qolishdan hammasidan ham ko‘ra kamroq qo‘rqardi, holbuki u o‘z tajribasidan shuni yaxshi bilar ediki, hatto bularni hisobga olmaganda ham, ba’zi hodisalar o‘z-o‘zicha, hech narsaga arzimasa-da, oqibatda, do‘sstariga iltifotsiz munosabatda bo‘lganini ongli tarzda tushunib yetgandan keyin, o‘ylamay va ehtiyyotsizlik bilan qilingan bu yondashuvi o‘ziga juda ham og‘ir botar, bu uchun chinakamiga ich-etini yeishishga to‘g‘ri kelardi. Agar bu rostdan ham yangi bir komediya bo‘lib, uning o‘zi ham anavilarga qo‘shilib o‘ynayotgan bo‘lsa-da, bo‘ldi, yetar, endi uni ortiqcha davom ettirishning hojati qolmadi. Qolaversa, u hozircha bu mas-xarabozlikka kuyingani ham yo‘q.

– Ruxsat etsangiz, – K. shunday deb, ularning yonidan yashin tezligida o‘tdi-da, o‘z xonasi sari yo‘naldi.

– G‘alchaligi ko‘rinib turibdi, – orqasidan aytilgan shu luqmani u eshitib qoldi.

Xonasiga kirgan zahoti stol g‘aladonini ochdi; unda hamisha namunali bir tarzdagi kerakli qog‘ozlar saranjom-sarishta turardi. Ammo hozir hayajondanmi, u shaxsiy guvohnomasini izlab, hamma yoqni titkilab chiqsa-da, uni hech topa olmasdi. Nihoyat guvohnomani velosipedidan topdi-da, u bilan qo‘riqchilar oldiga chiqib bormoqchi bo‘ldi, lekin bir zum o‘tmay bu qog‘oz unga ishonchsizday, yetarli emasday tuyuldi va yana qayta hamma joyni titkilab, o‘zining tug‘ilganlik guvohnomasini izlashga tushdi.

U ortga qaytib qo‘shti xonaga kirayotganda, ro‘paradagi eshik ham ochilib, undan frau Grubax chiqdi. Biroq ayol K.ni ko‘rgach, eshiklar orasida talmovsirab to‘xtab qoldi. U xijolatga tushgan, dovdiragan bir ahvolda juda ehtiyotkorlik bilan eshikni qayta yopti.

– Kirsangiz-chi! – K. faqat shu so‘zni aytishga ulgurdi. So‘ng uning o‘zi ham qo‘lidagi qog‘oz bilan xonaning o‘rtasida turib qoldi. K. eshik qayta ochilmasmikan deb u tomonga qarab qo‘yar, ora-sirada esa qo‘riqchilar biron narsa demasmikin, deb ular tomon xavfsirab, olazarak boqardi. Qo‘riqchilar esa ochiq deraza oldidagi stol tevaragida o‘tirib olishib, K.ning nonushtasini paqqos tushirishardi.

– Nega u kirmadi? – so‘radi K.

– Ruxsat etilmagan, – naynov javob qildi. – Siz axir hibsga olingansiz-da.

– Bu qanaqa mahbuslik? Nahotki, u shunaqa tartibda bo‘lsa?

– Siz hamon bir gapdan qolmayapsiz, – yana o‘sha kishi unga javob qaytarar ekan, qo‘lidagi nonini asalli idishga botirib oldi. – Biz bunaqa savollarga javob bermaymiz.

– Lekin javob berishingizga to‘g‘ri keladi, – dedi K. – Mana mening hujjatlarim. Endi sizlar o‘zingiznikini

ko‘rsatinglar, birinchi navbatda, marhamat qilib hibsga olish haqidagi qog‘ozni.

– Sichqon sig‘mas iniga, g‘alvir bog‘lar dumiga, deb shunga aytса kerak-da! – dedi naynov. – Nega siz o‘z ahvolingizga bir razm solmaysiz? Bizga to‘xtovsiz qilayotgan bu qo‘rslik bilan biron-bir natijaga erishib bo‘ladimi, bularning bari behuda. Axir, hozir sizning bu dunyoda bizdan yaqin kishingiz yo‘qligini tushunasizmi, o‘zi?! Eng yaqin kishilar biz bo‘lamiz, biz.

– Aynan shunday, – Frans gap boshladi. – Siz menga to‘la ishonsangiz bo‘ladi, – u qo‘lida qahvali finjonni ushlagancha yuqoridan turib K.ga serma’no, ammo tushunarsiz bir alfozda uzoq tikilib turdi.

Fransning serma’no, yeb yuborgudek o‘qraygan nigoхiga qarab, K. unga biron narsa deb javob qilishni istamasdi, biroq u ham ko‘zini lo‘q qilib, Fransga hujjatlarini tutdi:

– Mana mening hujjatlarim.

– Bizga bu ashqol-dashqollarning nima keragi bor! – o‘shqirdi naynov. – Yashang-e, bir mishiqi boladan ham batтар tutyapsiz o‘zingizni, nima istaysiz o‘zi? Nahotki bizga har qanaqa qog‘ozlarni dastak qilib, hibs haqidagi qog‘oz talab qilinsa va nazoratimiz sababini qayta-qayta so‘rab bezor qilinsa, ustingizdan qo‘zg‘atilgan ulkan, dahshatli tergov jarayoni tez orada barham topadi deb o‘ylaysiz. Biz juda kichkina odamlarmiz, har qanday hujjatlar haqidada biz hech qanaqa tasavvurga, fikr-o‘yga ega emasmiz. Bizning bor-yo‘q vazifamiz har kun o‘n soat davomida sizni qo‘riqlamoq, bizga shu qo‘riqchiligidimiz uchun haq to‘lashadi. Shu tartib-qoidanigina biz yaxshi bilamiz. Hammasidan oldin hibs, uning sababi-yu hibsga olinuvchining shaxsi aniqlangachgina farmoyish beriladi. Bunda hech qanaqa xatolik bo‘lmaydi. Bizning vakolatimiz shu. Yuqori hokimiyat nimani buyursa shuni bajaramiz. Ishxonada o‘zim

kabi – eng past tabaqadagi xizmatchilarni tanisam-da, shuni yaxshi bilamanki, bizning idorada hech qachon aholi orasidan o‘z-o‘zicha aybdorlar izlanmaydi. Qonunda aytilgandek, gunohkor – aybdorning o‘zi, o‘zini sudga, adolatga topshiradi. Shundagina hokimiyatdagilar bizni bu ishga jalb etishadi, to‘g‘rirog‘i, qo‘riqchilikka yuborishadi. Buni qonun deydilar. Buning qayerida xatolik bo‘lishi mumkin?

– Men bunaqa qonunni bilmayman, – dedi K.
 – Bu siz uchun yanada yomon, – javob qaytardi naynov.
 – Ha, bu fikr sizning boshingizga o‘rnashib qolgani ko‘rinib turibdi, – kesatdi K. U qorovullarga nimanidir tu-shuntirmoqni istardi, ayniqsa, fikrlarini o‘zining foydasiga o‘zgartirishni juda xohlar, hech bo‘limganda o‘zi ham ha-qiqatni bilib olmoqchi edi. Biroq naynov lo‘nda qilib qo‘ya qoldi:

– Siz qonunni o‘zingizcha tasavvur qilasiz-da.
 Shu yerdan bahsga Frans ham aralashdi:
 – Mana ko‘rdingmi, Villem, qonunni bilmasligini o‘zi ham tan oldi. Yana o‘zicha aybsizligini isbotlamoqchi ham bo‘ladi.

Yonidagi uning gapini quvvatladi:
 – Sen mutlaqo haqsan, biroq bunga biron-bir narsani uqtirish amrimahol.

K. ular bilan ortiq tortishib o‘tirmadi: nahotki, o‘zlarini o‘zları amaldor deb atagan shu laqqi va laqma shotirlarga men o‘zimning butun emin-ixtiyorimni berib qo‘ysam, deb o‘ylardi u. Ular allanarsalar haqida tortishib-talashayotganga qaramay, umuman, ushbu voqealarning mohiyati haqidada jiddiy o‘ylab ko‘rmoqqa butunlay noqobil ekanliklari ko‘rinib turibdi. O‘zlariga ishonchlari esa nodonliklariga yarasha baland. Dildoshlarimning bir-ikki kalimasining teran ma’nosiga bu ikkovining achchiq ichakdek cho‘zilgan tushunarsiz vaysashlarini hech ham tenglashtirib bo‘lmaydi.

Shu o‘ylar bilan u bir necha bor xonaning u boshidan bu boshiga borib kelar ekan, qarshi uydagi kampircha endi haddan tashqari qartaygan cholni qo‘ltiqlab, majburlab, sudrab deraza oldiga olib kelganini ko‘rdi. U bu tomoshaga chek qo‘yish zarurligini his qildi.

— Meni boshliqlaringizning oldiga olib boring, — talab qildi K.

— Boshliqlarga ma’qul keladigan ish qilishning kechi yo‘q, — dedi Villem deb atalgan qorovullardan biri. — Endi bo‘lsa, — qo‘srimcha qilib davom etdi u, — sizga mening beradigan maslahatim bitta: xonangizga imi-jimida o‘ting-da, taqdiringizni qanday hal qilishlarini sabr-toqat bilan kutib o‘tiring, shu siz uchun koni foyda bo‘ladi. Ha, bizning sizga beradigan maslahatimiz shu: kuchingizni bema’ni mulo-hazalar yuritishga sarflab o‘tirmang, yaxshisi, imkon qadar biron-bir fikr yuritishdan tiyiling. Sizdan talab qilinadigan eng katta vazifa shu. Xuddi biz o‘z xatti-harakatimiz bilan biron-bir narsani oshirib yuborgandek, bizga bunaqa muomala qilmang. Har ne bo‘lganda ham siz bir narsani unutib qo‘ydingiz chog‘i. Ha, biz kim bo‘lishimizdan qat‘i nazar, sizga solishtirib ko‘rganda, o‘z erki o‘zida bo‘lgan ozod kishilarmiz. Bu esa hazilakam ustunlik emas. Shunga qaramay, pul-mulingiz bo‘lsa nonushta qilmog‘ingiz uchun ro‘paradagi oshxonadan biron-bir yegulik keltirib berishga tayyormiz.

K. birmuncha vaqt o‘ylanib turdi, ammo bu taklifga hech nima deb javob bermadi. Agar u qo‘sni xona eshigini ochsa, yoki dahlizga yuzlansa, bu ikkisi uni to‘xtatib qolishga urinishi mumkindir; balki, jo‘ngina bir qarorga kelib tikkasiga solvorsa-chi? Biroq shunaqa qilinsa, unga darrov yopishib ketishlari tayin. Yaxshisi, bu xo‘rliklarga biroz chidagani ma’qul, shundagina ular oldidagi erkini salgina bo‘lsa-da saqlab qolishi mumkin bo‘lar, ko‘rinib turgan mu-

omala-munosabatga ko‘ra, o‘z erki o‘zida desa bo‘ladi. Ha, ha, eng to‘g‘risi, oqibatini kutib, sabr qilgani ma’qul. Voqealarning tabiiy maromiga qarab ularning o‘zlari biror-bir qarorga keladilar-ku. K. shunday o‘ylar bilan endi soqchilar ila hech narsa ustida tortishmaslikni, ularga biron so‘z demaslikni diliqa tugib, o‘zining xonasiga yo‘naldi.

U qo‘lyuvgich ustidagi yal-yal olmani oldi-da, o‘zini karavotiga otdi, bu olma kecha kechqurunoq nonushta uchun ko‘z ostiga olingandi. Qolaversa, nonushta qilishi uchun hozircha unga boshqa yegulikning o‘zi ham yo‘q, ammo olmaning katta bir bo‘lagini qarsillatib tishlarkan, bu olma qorovullarning marhamati bilan qarshidagi qahvaxonadan olib kelinadigan, kechadan qolib achigan yegulikdan ming karra ortiqligiga amin bo‘ldi. U o‘zini ancha bardam va o‘ktam his qila boshladi, to‘g‘ri, bankka yarim kun kechikib boradigan bo‘ldi, biroq uning anchayin nufuzli lavozimi, kerakli xodimligini hisobga olishib, bu kechikishni kechirishar. Ammo yuz bergen voqeanning haqiqiy sababini oqlab, kechirib bo‘ladimi? U ana shuni bildirib qo‘yishni niyat qildi. Mabodo unga ishonmasalar-chi? U bunga hech ham ajablanmaydi-da, frau Grubaxni yoki ikkala deraza o‘rtasida yugurib yurgan mana bu qariyalarni guvoh sifatida olib boradi. K. qorovullarning unga munosabatiga juda hayron qoldi, bu ajablansa arzigulik-da o‘zi ham: qaysi kalla bilan ular uni narigi xonaga jo‘natib, o‘zini yolg‘iz tashlab qo‘yishlari mumkin, axir K. unda o‘z joniga qasd qilish uchun o‘nlab usullar topishi mumkin emasmi? Ammo qay sababga ko‘ra u o‘z joniga qasd qilishi mumkin? Shu yerda u o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib o‘ylanib qoldi. Nahotki, mana bu ikkisi yonma-yon o‘tirib olib, ochofatlarcha uning nonushtasini paqqos tushirayotgani uchun, burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirsa? Uning miyasiga har qanaqa xohish-istiklar kelib-ketib turganiga qaramay, o‘z joniga qasd qilish shunchalar aqlsizlik

ediki, bunday bema’ni ishni qilishi dushvor edi. Bu boshqa bir narsani isbotlab berdi: qorovullar shunchalik darajada kaltafahmki, ular bu yerga, hech bir xavf-xatar bo‘lmaydi degan xayolda kelishgan va K.ning ahvol-ruhiyasidan tamoman g‘ofil bo‘lganlari bois ham bitta o‘zini yolg‘iz qoldirishdi. Mayli, shu ularga ma’qul ekan, bilganlarini qilishmaydimi, mana hozir u devoriy shkafcha oldiga boradi-da, unda a’lo navli, rohatijon konyak yashirib qo‘ygan edi, birinchi qadahni nonushtaning o‘rniga ko‘tara qoladi, keyin esa dadillik uchun ikkinchi qadahni bo‘shatadi, eh, bu yerda dadillikka balo bormi, unga kimning ko‘zi uchib turibdi.

Biroq shu payt u qo‘shni xonadagi o‘kirikdan qattiq cho‘chib tushdi va derazalar titragandek tishlari g‘ijirlab ketdi.

– Sizni nazoratchi o‘z oldiga chorlaydi! – u yoqdan turib bo‘kirishdi.

Uni aynan ana shu lo‘nda, buyruq ohangidagi harbiy-cha murojaat qo‘rqiidi, holbuki u hech qachon Frans bu-naqa yo‘g‘on ovozda gapiradi deb o‘ylamagandi. Ammo bu amrning o‘zi uni xursand qildi.

– Xayriyat-e! – K. ham beixtiyor hayqirib yubordi va shkafchaning tavaqasini yopib, mehmonxonaga shoshildi. Biroq uning yo‘lini ikki soqchi to‘sdi va xuddi shunday bo‘lishi kerakday, shu zahoti uni o‘z xonasiga qaytarishdi.

– Nima balo, aqldan ozganmisiz?! – ikkisi ham unga qarab o‘shqirib ketishdi. – Nazoratchining oldiga hech bo‘lmasa ko‘ylak kiyib chiqiladi-da! Bu qiling‘ingiz uchun u sizni savlashga buyursa arziydi, bunga biz ham jon deb qo‘shilardik.

– O‘z holimga qo‘ying-e meni, jin urgurlar! – K. ham ayyuhannos solib shitob bilan ortga qaytdiki, o‘z kiyim il-gichini ag‘darib yuborishiga sal qoldi. – Odam hali o‘z o‘rnidan qo‘zg‘almaganligidan ham istihola qilmay, bostirib kiri-shadi-yu, yana egnингda frak bo‘lishini istashadi!

– Qo‘lingdan hech narsa kelmaydi! – ikkisi ham uning og‘-ziga urdi, ammo K. g‘azabga minib shovqin-suron ko‘targanda, ularni ham xotirjam deb bo‘lmasdi, hatto qanaqadir g‘amga botishgan, uni kuch bilan urib-qaytarish qo‘llaridan kelsa-da, har holda, tinchlanfirmoq payida ekanliklari ko‘rinardi.

– Turgan-bitgani masxarabozlik! – u shunday deb to‘n-g‘illasa-da, kursiga yechib qo‘yilgan kamzulini qo‘lida tutgancha, go‘yo uning bu turishi qorovullarga ma’qulmi yoki yo‘q, bilmoqchi bo‘layotganga o‘xshardi.

Haligilar boshlarini qimirlatardi.

– Qora kamzul kiyish kerak, – ikkisi ham shunday dedi.

K. kamzulini polga irg‘itdi va nima maqsadda gapirayotganligini o‘zi ham bilmasdan shitob bilan dedi:

– Biroq hozir ish ko‘rilmasa kerak?

Qorovullar irshayib qo‘yishdi, ammo qat’iyat bilan yana avvalgi gaplarini qaytardilar: (*) No 2024/N13-17

– Qora kamzulni kiyish zarur.

– Shu bilan ish jadallahib keta qolsa, men qarshi-emasman, – dedi K. va shkafni ochib, kiyim-kechlagini uzoq tilkiladi, oxiri ular orasidan eng ko‘rimli bo‘lgan bir juft qora ranglisini tanladi – u tanishlarining ko‘zini o‘ynatar darajada serhasham, yarqiroq edi, – u dastavval bu kiyimlar ichidan gard yuqmagan ko‘ylagini oldi, so‘ng o‘zining butun san’atini ishga solib, astoydil kiyinishga tushdi. Endi hech qanaqa orqaga surishlar bo‘lmaydi – qorovullar uni tamoman unutishgan chog‘i, hatto uni vannaga kirib chiqishga zo‘rlab o‘tirishmadi, ich-ichidan o‘ylardi K. U bu kishilarni zimdan kuzatib o‘tirarkan, hali zamon o‘zini eslab qolishlari xayoliga kelmaganini anglatdi. Holbuki, Villem K.ning kiyina boshlagani xabarini yetkazish uchun Fransni nazoratchining oldiga yuborishni unutmagandi.

K. obi-tobida kiyinib bo‘lgach, Villem uni hayhotdek bo‘m-bo‘sh mehmonxona orqali olib o‘tdi, bu mahal nav-

batdag'i xonaning eshiklari allaqachon lang olib qo'yilgandi. Yaqinginada bu xonaga nusxa ko'chiruvchi qiz froylyayn Byurstner ko'chib kirganini K. aniq bilardi. Bu qiz saharmardonda ishiga ketib, allamahal bo'lgandagina uyga qaytadi. K. u bilan tuzuk-quruq tanishib ham olmagan, salom-alik qilib turadi, xolos. Mana endi esa uning tungi stoli tergov uchun xonaning o'rtasiga surilgan, stol oldida nazoratchi g'o'ddayib o'tirardi. U oyoqlarini chalishtirgancha, qo'l-laridan birini o'rindiq suyanchig'iga tirab olgandi.

Xonaning bir burchagida yana uch yigitcha bo'lib – ular devorga osilgan gilamga qadalib olishgancha, froylyayn Byurstnerning fotosuratlarini tomosha qilishardi. Ochiq deraza dastagida esa qizning mayin matoli bluzkasi osilgancha turibdi. Qarama-qarshi uyning oynasi oldida turgan haligi qariyalarga endi bu kamlik qilganday, gavdalaring yarmidan ko'pini tashqariga chiqarishgancha, hangomatlablik qilishar, unda endi tomoshabinlar soni ham ortgan edi. Qariyalar orqasida tog'day bo'lib, bir erkak kishi ko'kraklarini kerib, yoqavayron o'tirar, paydar-pay malla soqolini pastdan yuqoriga, yuqoridan pastga silagani-silagan edi.

– Yozef K. deganlari sizmi? – nazoratchi o'smoqchilab so'rarkan, aftidan, parishonxotir K.ning diqqatini shu yo'l bilan o'ziga qaratmoqchiligi ko'rrib turardi.

K. some'larcha bosh egdi.

– Albatta, sizni bugun ertalab yuz bergen voqeа hayratga solgan bo'lishi kerak? – deb u ikkala qo'li bilan stoldagi narsalarni o'ziga biroz tortdi. Stolda esa sham ila gugurt, kitobcha, nina sanchib qo'yiladigan yostiqcha turar, go'yo bu narsalar tergov uchun suv va havoday zarur edi.

– Albatta, – K. shunday derkan, uni ko'tarinki bir kayfiyat chulg'ab oldi: mana, nihoyat u fahm-farosatli bir kishiga ro'para bo'lib turibdi, u bilan o'zining ustidan qo'zg'atilgan

jinoiy ish bo'yicha mufassal, yurakdan gaplashib olsa bo'ladi. – Albatta, men ajablanmadim desam yolg'on bo'ladi, biroq nafsilamrini aytganda, bu voqeа meni juda ham hayron qoldirgani yo'q.

– Juda ham emas deganingiz nimasi? – nazoratchi buni qayta ajablanib so'rarkan, shamni stolchaning o'rtasiga surib bordi va qolgan anjomlarni uning tegrasiga terib chiqdi.

– Ehtimol, men nima demoqchi bo'lqanimni sizga tu-shuntira olmadim chog'i, – shoshilib dedi K. – Men faqat shuni aytishni xohlaymanki... – shunda u birdan o'ziga o'tirish uchun joy izlab, tegrasiga olazarak qaradi, qayerga bo'lsa ham o'tirishni istardi.

– Mumkinmi o'tirsam? – so'radi u.

– Buni xayolingizdan chiqarib tashlang, – jerkib berdi nazoratchi.

– Men faqat bu bilan shuni aytmoqchi edimki, – to'xtovsiz gapira ketdi K. – albatta, men bu qo'qqisdan yuz bergen voqeadan juda ajablandim, biroq bu yorug' olamda o'ttiz yil yashaganidan keyin, ayniqsa, o'zimdagidek hayotda turli to'siqlardan oshib o'tishga to'g'ri kelavergach, chor-nochor har qanaqa kutilmagan ishlarga ham odatlanib qolarkansan va ularni yuragingga yaqin olmaslik payida bo'lasan. Ayniqsa, bugundagidek.

– Nima uchun bugundagidek?

– Yo'q, bularning bari hazil-huzul demoqchi emasman, u allaqachon quyushqondan chiqib ketdi, menimcha. Rasvoyi jahon bo'lgandek, axir unda pansionda istiqomat qiladiganlarning qatnashmagani qolmadi-ku, bu yoqda yana sizlar ham bor, ularning bari esa hazil eng so'nggi nuqtasiga yetganini ko'rsatadi, hazil zilga aylanmasa. Shu bois ham men buni shunchaki hazillashish deb o'ylamayman.

– To'g'ri o'yabsiz, – nazoratchi shunday derkan, necha dona qolibdi deya gugurt qutisiga qaradi.

– Biroq, boshqa tomondan esa, – K. bu yerda hozir bo‘lganlarning barchasiga murojaat qilib, so‘zini davom ettirdi, ayniqsa, u fotosuratlarni tomosha qilayotgan anavi uch yigitchaning diqqatini o‘ziga qaratishni istardi. – Ha, ha, boshqa tomondan bularning bariga alohida ahamiyat berib o‘tirish kerak emas. Ko‘rib turibmanki, nima uchundir meni bular aybdor hisoblashayotganlari aniq, ammo men o‘zimda zarracha ham ayb borligini his qilayotganim yo‘q. Mayli, hozir buning hech qanaqa ahamiyati yo‘q, buni bir chekkaga qo‘yib turaylik, men faqat shuni bilishni istayman – kim meni ayblayotir? Qaysi idora bu ishni ko‘rishi o‘z zimmasiga olgan? Sizmi o‘sha idoraning amaldorlari? Biroq sizlarning egningizdagи kiyim-kechakda ham hatto buning biron-bir belgisi – alomati yo‘q-ku. Agar siz mening kamzulim-chi, demoqchi bo‘lsangiz, – shu yerda, u Fransga yuzlandi. – Meni kechirasiz-u, bu ham forma o‘rniga o‘tmaydi, to‘g‘risi, u ko‘proq yo‘lsozlarning korjomasiga o‘xshaydi-ku. Mana shu savollarga men aniq-ravshan javob talab qilaman, bularning bari oydinlashgach esa hech shubhasiz, bir-birimiz bilan til topishib, hammamiz do‘sslashib ketishimizga ishonaman.

Shu payt nazoratchi shaqir-shuqur qilib gugurt qutisini stolga qo‘ydi.

– Siz haddan tashqari qattiq yanglishayotirsiz, – so‘z boshladi nazoratchi. – Men ham, mana bu janoblar ham – hech qaysimiz sizning ustingizdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishga aloqamiz yo‘q. Bundan ham ortig‘i, biz u haqda qariyb hech narsa bilmaymiz. Biz rasmiy formada ham kelishimiz mumkin, bu bilan sizning ishingiz yomonlashmasa go‘rga edi. Men hatto siz nima sababdan ayblanyapsiz, shuni aytib berishim ham dushvor, ochig‘i, bu haqda menga hech narsa ma’lum emas. Gapning po‘skallasi, sizning qamoqqa olinganiningiznigina bilaman, boshqasi menga qorong‘i.

Ehtimol, sizga qorovullar u-bu deb laqillab qo‘yan bo‘lishlari mumkin, lekin bularning bari behuda safsatadan boshqa narsa emas. Shu bois ham men sizning savollaringizga javob qilmasam-da, birgina maslahat bera olishim mumkin: biz haqimizda kamroq o‘ylang, bizni yo‘q deb hisoblang, vassalom. Yaxshisi, u yoqda sizni nima kutyapti, nima qilinsa sizga yaxshi bo‘ladi, ishingiz o‘nglanadi, shu xususda chuqurroq mulohaza qiling. Ha, yana o‘zingizning aybsizligingizni pesh qilaverib, huda-behudaga qichqiravermang, bu siz haqingizdagи umumiy, yomon deb bo‘lmaydigan taassurotga soya soladi, uni buzadi. Uuman, musohabalarda sizning bosiqroq bo‘lganiningiz tuzuk. Siz bo‘lsangiz, og‘zingizga kelganini qaytarmay, hammasini to‘kib solyapsiz, holbuki siz ikkita so‘zni aytgаниngizdayoq shu badfe’llilingiz ko‘rinadi-qoladi, shunday bo‘lgandan keyin, oxir-oqibat ish sizning foydangizga hal bo‘larmidi?

K. nazoratchiga taajjublanib qaradi. Uni maktab bolasini koyigandek koyishmoqda, yana kim deng? Holbuki bu tirranchaning ona suti og‘zidan ketmagan. Tanbeh berayotganday o‘dag‘aylashini, o‘rgatayotganday uqtirishini qarang. Uni nega qamoqqa olishdi, qamoqqa olishga kim buyurdi – bu haqda esa bir og‘iz gap yo‘q! U hatto xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar ekan, kimdir bunga g‘ov bo‘lasmikan deb ham tashvishga tushib qoldi. U yenglarini tortib to‘g‘riladi, yeng tugmalarini o‘tkazdi, sochlarini tekislab oldi va uch yigitchaning yaqinidan o‘tib borarkan: „Qanday bema’nilik!“ – dedi ichida, so‘ng ular o‘ziga keskin va qat’iy tarzda qarab turganligini ichki bir tuyg‘u bilan fahmlagach, o‘girildi-yu, nazoratchining stolchasi oldiga borib to‘xtadi. Va dedi:

– Prokuror Gasterer mening eski oshnam bo‘ladi, unga qo‘ng‘iroq qilsam bo‘ladimi?

– Albatta, – javob qildi nazoratchi. – Lekin buning jo‘yali bir mulohazaligi xususida biron narsa deyishim qiyin, u bilan shaxsiy ishingiz borasida gaplashishingiz shunchalik shartmi?

– Qanaqa mulohazaligi bilan sizning nima ishingiz bor? – K. achchiqlanib hayqirdi, ammo tezda uning o‘rnini nochorlik egalladi. – Hayronman, qanaqa odamsiz o‘zi? O‘ylab-netib o‘tirmay, allaqanday bema’ni bir dahmazani chiqarasiz-da, undan ham mantiq izlab topmoqchi bo‘lasiz. Gung ham tilga kiradi-da bunaqa qilingandan keyin. Avvaliga bu janoblar xonamga bostirib kirib, mening halovatimni buzishdi, endi esa chalayotgan nog‘orangizga meni qanday o‘ynar ekan deb bir joyda to‘dalashib olib, qiziqsinib qaraganlari-qaragan. Siz qamoqqa olindingiz deb aytasiz-u, yana prokurorga qo‘ng‘iroq qilaymi desam, nima uchun deb so‘rab-surishtirasiz ham. Bo‘pti, siz istagancha bo‘la qolsin, men prokurorga qo‘ng‘iroq qilmayman!

– Yo‘q, nega? – nazoratchi shunday derkan, qo‘lini oldinga – telefon go‘sagi osilgan joyga cho‘zdi. – Istagangizcha qo‘ngiroq qilavering.

– Yo‘q, bo‘ldi, endi buni mening o‘zim ham xohlamayman, – K. shunday deb deraza yaqinlashdi.

K. derazaga yaqinlashishi bilan ro‘paradagi uyning derazasida terilib o‘tirgan tomoshabinlarning tinchi buzildi. Qariyalar o‘rinlaridan qo‘zg‘alishni istab qolishdi, biroq orqalarida turgan erkak ularni tinchlantirdi.

– Mana bularga qarang, rosa tomosha qilib yotishibdi? – u nazoratchiga qarab baqirdi va barmog‘i bilan derazani urdi:

– Qani bu yerdan bir tuyuoqlaringni shiqillatinglar-chi, – deraza tabaqasidan boshini chiqarib o‘shqirdi u.

Tomoshabinlar ortga tisarilib, o‘zlarini ichkariga olishdi, hatto qariyalar qo‘schnilar ortiga o‘tib olib, uning beso‘naqay gavdasi bilan o‘zlarini yashirmoqchi bo‘ldilar,

qo'shni bo'lsa nimadir der, bu labi-labiga tegmaganidan aniq bilinib turar, lekin oraliq uzoq bo'lgani uchun nima deganini fahmlab olish juda ham mushkul edi. Biroq ular deraza oldidan butunlay ketishmadi, taraddudlanib turishar, hali zamon ularga e'tibor berilmay qo'yilgandan keyin yana deraza oldiga kelib olib, voqeani maza qilib tomosha qilishmoqchi edilar chog'i.

– Shunaqa ham shilqim bo'ladimi odam? Bu qanday be-andishalik? – K. shunday deb derazadan nari ketdi.

Nazoratchi ham go'yo uning bu mulohazalariga qo'-shilganday edi, to'g'rirog'i, K. nazoratchiga qaraganda shunday tuyuldi. Aslida esa bu paytda nazoratchi uni tinglamagan, o'zi bilan o'zi andarmon bo'lgan bo'lishi ham mumkin, chunki u butun stolni qulochlab olgancha o'tirar, go'yo uning uzunligini o'z qarichi bilan o'lchayotgandek edi. Ikki soqchi ham sandiq ustiga chiqib olgancha gilamga urilgan ajib gullarga tizzalarini ishqalab o'tirishardi. Uch yigitcha ham qo'llarini bellariga tiragancha, alang-jalang to'rt tomonga bemaqsad termilishadi. Xona g'arib bir idoraday sokin bo'lib qoldi.

– Qani bo'lmasa janoblar! – K. hammasi uchun o'zi javob berishi kerakday birdan hayqirib yubordi. – Ha, ha, sizlarning bu o'tirishlaringizga qarab mening ishimni, shunday ham rosa sudralgan bu ishni xotimalab qo'ysa bo'lar deyman. Kelinglar, yaxshisi, hech narsani muhokama qilib o'tirmasdan, bir-birimizga do'stona qo'l tashlab, tinchgina tarqalib qo'ya qolaylik, shu bilan sizlarning xatti-harakatlariningizni na oqlash, na qoralash mumkin bo'ladi. Men shunday hisoblayman. Agar bu taklifimga rozi bo'lsangizlar, sizlardan shuni so'raymanki... – K. nazoratchining stoliga yaqinlashib kelib, unga qo'lini uzatdi.

Nazoratchi nigohini yerdan ko'tarib, lablarini tishlagancha, uzatilgan qo'lga razm soldi. K. hozir u qo'limni siqadi,

deb xayol qildi. Ammo nazoratchi dik etib o'rnidan turib, froylyayn Byurstnerning to'shagi ustida yotgan doirasimon dag'al shlyapasini qo'liga oldi va juda ham ehtiyotkorlik bilan, go'yo yangi matoh menga mos kelarmikan, degandek boshiga o'lchab ko'rayotgandek bo'lib, uni ikki qo'li bilan boshiga ohista qo'ndirdi.

– Siz bularni namuncha jo'n tasavvur qilmasangiz, – U K.ga shunday deb davom etdi. – Demak, sizningcha, biz jimgina tarqalishimiz kerak, shundaymi? Yo'q, yo'q, bu-naqa qilish bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ammo bu bilan men siz hammasidan umid uzavering, demoqchimaman. Yo'q, hech ham bunaqa emas. Siz bor-yo'g'i hibsga olindingiz, xolos, boshqa hech narsa yuz bergani yo'q. Men sizga buni ma'lum qilib qo'yishim kerak edi, mana aytdim ham, uni qanday qabul qilganingizni esa ko'rib turibman. Buguncha yetar, endi siz bilan xayrlashsak ham bo'ladi, har bir ishning o'z vaqtida bo'lgani yaxshi. Ehtimol, siz hozir bankka bormoqni istarsiz?

– Bankka deysizmi? – hayron qolib so'radi K. – Axir men hibsga olinganman-ku!

K. bu so'zni biroz da'vatkorona ruhda aytdi, mayli, uning qo'lini qisishni rad etishgan bo'lsa-da, ayniqsa nazoratchi o'rnidan turgach, hammadan ko'ra mana shu kishilarga kamroq tobelligini his qildi. Bu odamlar bilan bir o'ynashsa o'ynashibdi-da. U hatto, agar bu odamlar ketadigan bo'lsa, darvozagacha ular ortidan yugurib borib, o'zini qamoqqa olib ketishlarini taklif qilmoqni ham diliga tugdi. Shuning uchun ham haligi so'rog'ini yana qaytardi.

– Hibsga olingan ekanman, qanday qilib bankka boraman?

– Voy, buni qaranglar! – qariyb eshik yoniga borib qolgan nazoratchi taajjublandi. – Aftidan, siz meni umuman tu-shunmabsiz. Ha, qamoqqa olinganingiz rost, ammo bu xiz-

mat vazifangizni ado etishga xalaqit bermasligi kerak. Va, umuman, bu sizning kundalik hayotingizga monelik qilmasligi, to'siq bo'imasligi lozim...

– Demak, unda bu hibsga olishdan hech ham qo'rmasa bo'lar ekan, – K. shunday deb nazoratchiga yaqinlashdi.

– Men ham shunday deb bilaman, – dedi nazoratchi.

– U holda hibsga olingenini ma'lum qilish ham hech narsaga arzimaydi. – K. battar nazoratchiga taqalib bordi.

Qolganlar ham ularga yaqinlashib kelishdi. Hamma shundoq eshik oldida uymalashib qoldi.

– Buni ma'lum qilish mening vazifam edi, – dedi nazoratchi.

– Ahmoqona vazifa, – K. ham bo'sh kelmadi.

– Ehtimol, – qo'shilganday bo'ldi nazoratchi, – ammo vaqtini bunday laqillab o'tirishga sarflash yaramaydi. Men sizga, agar istasangiz, bankka borishingiz mumkinligini taklif qildim, xolos. – Agar siz har bir so'zga shunday ahamiyat berayotgan ekansiz, sizga yana shuni ham qo'shimcha qilishim mumkin: ha, ha, istasangiz ishingizga boring, lekin sizni bankka boring, deb majburlamoqchi emasman. Ha, darvoqe, ishqilib, bu ko'zga tashlanmas xatti-harakatlar sizga monelik qilmasa, yengillik tug'dirsa deyman, shu bois ham sizga qarab yurishni hamkasblaringiz bo'lgan mana bu uch janobning zimmasiga yuklamoqchiman.

– Nima dedingiz? – K. baqira turib, uch yigitga sinchkovlik bilan qaradi.

Birovning nazari tushmaydigan bu yigitchalarini u shu paytgacha begona kishilar deb xayol qilgan, holbuki fotosuratlarni ko'rib o'tirganlar haqiqatan ham uning bankida ishlashardi, hamkasblar deb tanishtirilishi kurakda turmaydigan gap bo'lsa-da, bu gapda ham jon bor – farmonbardorligidan shishib ketib, og'ziga erk bergen nazoratchi ularning ishlarini chuqur bilmasa-da, baribir, bular u faoliyat ko'rsa-

tayotgan bankning kichik xizmatchilari – yugurdaklaridan edi. K. ularni qanday qilib taniyolmay qoldi-ya. Ha, u nazoratchi va qorovullar bilan suhbatga berilib ketib, ular bilan andarmon bo‘lib qolganidan, bu uchovini taniyolmaslik darajasiga yetgan! Bular – qoqchakak Rabenshteyner, ko‘zлari ichiga botgan, hamisha qo‘llarini bir-biriga chalish-tirib yuradigan malla Kullix va huda-behudaga og‘zining tanobi qochib irshayaverganidan yuzining eti titrab turadi-gan Kamener edi.

Uchchovi ham go‘yo buni kutib o‘tirgandek, jilmayishga tayyor holda bosh qimirlatishdi. K. o‘z shlyapasini izlab topol-maganida esa – uning qalpog‘i o‘z xonasida qolgandi, – ular birin-ketin o‘sha yoqqa oyoqlarini qo‘llariga olib chopishdi va anglashilganidek biroz dovdirliklarini ham ko‘rsatishdi.

K. joyida turgancha ularni tabaqalarini lang ochiq ikki eshik osha kuzatdi, albatta, oxirida tepsa-tebranmas Rabenshteyner borar, uning xushbichim odimi jo‘ngina lo‘kil-lash edi. Kamener shlyapani keltirganda, K.ning yodiga Kamenerning bir qilig‘i tushdi, qizig‘i, Kamener birov ustidan atayin kulmas, kulganda ham ishkal chiqarar, u mazax qilishni do‘ndirolmas, bu hodisa esa bankda ba’zan takrorlanib turardi.

Dahlizdagi eshikni oolib, butun to‘da oldida paydo bo‘lgan frau Grnbaxning tusida hech bir o‘zgarish sezilmas, ayniqsa, biron-bir ayb ish qilib qo‘ygandek, besaranjomlik ko‘rinmasdi: ayolning qaddi-qomati ko‘ngilni sust keltiradigan darajada edi, ammo K., odatiga ko‘ra, uning peshbandi bog‘ichiga qaradi, xolos. Ko‘chaga chiqqan K. soatiga qaradi-da, taksi ushlashga qaror qildi, axir u rosa kechikdi, bunga yana yarim soat qo‘shilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Kamener taksi to‘xtatish uchun burchakka yugurdi, qolgan ikki xizmatchi ham K.ning ko‘nglini olishga intilayotgani aniq ko‘rinib turardi. Va shu yerda birdan Kullix kattakon uy

tarafdan hozirgina chiqib kelgan baland bo‘yli, tillarang so-qolli kishini ko‘rsatarkan, kishi bo‘y-bastiga mos kelmagan xijolatli alfozda orqaga chekindi va g‘ovga suyanib qoldi. Aftidan, qariyalar hali zinapoyadan tushib bo‘lganlaricha yo‘q edi. K. Kullixdan ranjigan bo‘lsa-da, butun diqqatini bu odamga qaratdi, u bu kishini hali deraza oldida ko‘rgandayoq hammadan ham ko‘ra undan biron-bir dahmaza chiqadi, deb kutgandi.

– U yoqqa alanglamang, – u shunday uzuq-yuluq gap qilarkan, so‘zlash ohangi katta kishilarga munosabatda juda bema’ni ekanligiga ham e’tibor qilmadi.

Biroq avtomobil kelib qolib, buni tushuntirib o‘tirishning imkonи bo‘lmadi, hamma unga o‘tirdi-yu, jo‘nab ketildi. Faqat shundagina K. yana bir xatoga yo‘l qo‘yganini tushundi, axir u nazoratchi qorovullari bilan qanday ketganidan butunlay bexabar qolibdi, kuzatsa bo‘lardi. Avval u nazoratchi bilan bo‘lib, bu uch xizmatchini ko‘rmay qolgandi, endi esa bu xizmatchilarga xayoli ketdi-yu, nazoratchini boy berib qo‘ydi. Buning uchun ortiqcha bir fahm-farosat ham kerak emas, K. ayni shu munosabatni obdan kuzatib borishni diliga tugdi.

U vaqt o‘tganiga qaramay shu lahza beixtiyor taksidan boshini chiqarib, nazoratchi bilan uning qorovullari uyda bor-yo‘qligini yana bir bor tekshirmoqchiday ortga qaradi. Biroq u orqaga qayrilaman deb bir chekkaga yaxshigina o‘tirib oldi, xolos, ammo haligilar uyda bormi-yo‘qligini bilish uchun hatto ko‘z tashlashning ham imkonи bo‘lmadi. Darvoqe, shu lahzalarda uning turqi-tarovatidan ot hurkar, birovga ko‘ringulik ahvolda emas, baxtga qarshi u ayni shu damda kim bilandir dardlashmoq istardi. Hamrohlarining esa haddan tashqari holdan toyganliklari bilinib turar: Rabenshteyner o‘ngga, Kullix esa chapga qarab olgan, faqatgina Kamener o‘zining hamishagi hiring-hiringi bilan

birovning ustidan mazax qilishga tayyorday turar, afsuski, uning sho‘riga sho‘rva to‘kilgan, ayni paytda biror narsaning ustidan jo‘ngina kulishning ham o‘rni emasdi.

K. bu bahorda kechalari asosiy vaqtini ushbu tarzda o‘tkazdi: ishdan keyin ham yana allavaqtgacha, ja cho‘zilib borsa, kech to‘qqizlargacha idorada qolib ketadi, bir o‘zi yoki xizmatchilardan birortasini olib aylanib yuradi, so‘ngra esa qariyalarning bir to‘dasi o‘z ulfatlari bilan ko‘p stollarni band qilib oladigan pivoxonaga yo‘l oladi va u yerda o‘n birlargacha o‘tiradi. Goho bu tartibni buzib turishga ham to‘g‘ri keladi, masalan, bank direktori K.ni iqtidorli va umidli xodim deb bilgani uchun, buni qadrlovchi boshliq sifatida uni o‘z avtomobilida sayr qilishga yoki dala hovlisida kechlik qilishga taklif qilib qoladi. Bundan tashqari, K. haftada bir marta ismi-shariflari Elza deb ataluvchi kuydirmajon bir oyimtillanikiga ham borib turadi, oyimtila butun tun – toki tonggacha restoranda oqsochlik qiladi, kunduzlari bo‘lsa, hech bir andishaga bormay, mehmonlarini o‘z to‘shagidan qo‘zg‘almay qabul qiladi.

Biroq bu oqshom u hech narsaga qaramasdan uyga tezroq qaytishni diliqa tugib qo‘ydi, butun kun esa og‘ir, shiddatli ish tashvishlari, yana ustiga-ustak, uning tug‘ilgan kuni munosabati bilan izhor qilingan har turli dilga yoqadigan qutlovlari bilan bilinmay o‘tib ketdi. Ammo ish orasidagi bir zumlik tanaffuslar, tin olishlarda u qayta-qayta ertalabki noxush voqeа haqida o‘ylab ketardi: nega ertalab yuz bergen noxush voqeа frau Grubax xonodonida hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi, holbuki bu voqeaning o‘zi undagi tartibni isloh qilishi kerak emasmidi? Tartib-ku bir marta tiklanadi, ertalabki voqeа izlaridan asar ham qolmaydi va hammasi asli qadimgi holiga qaytadi. Mana bu uch xizmatchidan ham xavotirlanishga unchalik hojat yo‘q, ular ham bankning sonsiz xizmatchilari uyumi ichida zarra

kabi yo‘qolib ketdilar va e’tiborga olsa bo‘ladigan biror-bir nojo‘ya xatti-harakat sodir etishgani yo‘q. K. bir necha bor o‘zining rejasiga ko‘ra sinab ko‘rish uchun ularni birligida va yakka-yakka holda chaqirib ko‘rdi va har safar ulardan butunlay ko‘ngli to‘lib, hech bir gumoni qolmagach, javobini berdi.

U o‘n yarimlarda o‘z uyiga yaqinlashib qolganida, yo‘lakda oyoqlarini kerib olgancha, tishlari orasiga mushtuk qistirib olgan bir yigitchaga duch keldi.

– Siz kim bo‘lasiz? – K. unga yaqin keliboq o‘smoq-chilab so‘radi, yarim qorong‘i yo‘lakda biror-bir narsani ko‘rish nihoyatda mushkul edi.

– Men eshik og‘asining o‘g‘liman, afandim, – dedi yigit va trubkasini og‘zidan olib, K. o‘tadigan yo‘lni bo‘shatdi.

– Eshik og‘asining o‘g‘limisiz? – K. qayta so‘rarkan, sabrsizlanib hassasi bilan yerni do‘qillatib urib qo‘ydi.

– Ehtimol, sizga biror narsa lozim bo‘lib qolgandir? Buyura qoling, otamni chaqirib kelaymi?

– Yo‘q, yo‘q, – K. shunday der ekan, uning ovozi bilinar-bilinmas siniq chiqdi, go‘yo bu yigitcha biror nojo‘ya ish sodir qilgan-u, u kechirayotgandek bo‘lib gapiga qo‘srimcha qildi, – hammasi joyida. – U yo‘lida davom etdi, ammo zinalardan ko‘tarilish oldidan baribir yana bir qur orqasiga ko‘z tashladi.

To‘g‘ri o‘zining xonasiga yo‘l olsa bo‘lardi, biroq unga frau Grubax bilan gaplashib olish muhimday tuyuldi va shu zahoti xonimning qo‘ng‘irog‘ini bosdi. U qo‘lida paypoqlar bilan stol yonida o‘tirar, oldida ham eski paypoqlardan bir qanchasi yotardi. K. allamahal bo‘lganiga qaramay, uni bezovta qilgani uchun qizarib-bo‘zarib kechirim so‘ragan bo‘ldi, frau Grubax esa uni haddan tashqari ochiqchehralik bilan qarshilab, xijolat chekishga o‘rin qoldirmasdan, hech qanaqa afv so‘rashlarni eshitishni ham istamadi. Bu xona-

donda xonim uchun barcha ijarchilar ichida eng sevimlisi o‘zi ekanligini K. juda ham yaxshi bilar edi. K. xonaga zim-dan razm soldi: hamma narsa o‘zining asl-qadimgi joyida, de-raza oldidagi stolda ertalab nonushta uchun qo‘yilgan idish-tovoqlar ham yig‘ishtirib olinib, saranjom-sarishta qilingan edi. Ayol qo‘llari hamma narsani mo‘jizadek sezdirmasdan muhayyo qilishga qodir, deb o‘yladi u; uning o‘zi, ehtimol, barcha idish-tovoqni tezroq yig‘ishtiraman deb ishkak chiqarib, urib-surib sindirib qo‘ygan bo‘lar, ammo, shubhasiz, ularni bekam-u ko‘st joylashtirishning hech epini qilolmasdi. U minnatdorlik tuyg‘usi ila frau Grubaxga termildi.

– Nega bunchalik kech bo‘lishiga qaramay dam olay demaysiz, – qiziqsinib so‘radi u.

Nihoyat, ikkovi stol yonida baqamti o‘tirib olishdi, K. ham vaqt o‘tgan sari frau Grubaxning ishiga qiziqib, ip eshishga tushib ketdi.

– Ish boshdan oshib yotibdi, – yozg‘irdi ayol. – Kun bo‘yi ijarchilar keladi-ketadi, kiradi-chiqadi, shuning uchun ham faqat tundagina buyumlarni sarishta qilish mumkin bo‘ladi.

– Ustiga-ustak, men bugun sizga yana ancha-muncha tashvish ham orttirdim-a?

– Nimani aftyapsiz? – u shunday der ekan, ancha jonlanib oldi, paypoqlarni ham tizzalari ustiga tashladi.

– Ertalab kelgan haligi odamlarni aytaman-da.

– E, ularmi, – dedi ayol avvalgidek xotirjam ovozda, – o‘pkalangudek biron-bir ko‘ngilsizlik bo‘lgani yo‘q-ku.

Ayol yana qo‘liga qanday qilib paypoqlarni olar ekan, deb K. unga indamay razm solib turdi. Nazarimda, bu haqida gap ochganim uni ajablantirdi, ha, mening bu haqda gapir-ganimni u noto‘g‘ri deb hisoblaydi, o‘ylardi K. Shunga qaramay, unga hammasini birato‘la to‘kib solgani ma’qul. Baxtga qarshi men bu qari ayolga barchasini to‘kib sololmayman.

— Yo‘g-e, ular sizga rosa tashvish orttirishdi, — ovoz chiqarib dedi K. — Rosa dardisar bo‘lishdi. Ammo-lekin bu voqeа endi qaytarilmaydi!

— Ha, bunday voqeа qayta sodir bo‘lishi mumkin emas, — ayol K.ning gapini qo‘llar ekan, unga birmuncha g‘amgin tabassum bilan qarab qo‘ydi.

— Rostdan ham siz shunaqa deb o‘ylaysizmi? — o‘smoq-chiladi K.

— Ha, albatta, — ohista javob qildi ayol. — Biroq eng asosiyisi, siz bu voqealarni yuragingizga yaqin olib yurmang. Bu yorug‘ olamda nimalar bo‘lmaydi deysiz? Janob K., siz hech qachon men bilan bunaqa darajada yuragingizni ochib dardlashmagan edingiz, shu bois ham u-bu eshitgan-bilganlarimni izhor etsam bo‘lar: ha, men eshik ortida turib ham ba’zi gaplarni eshitishga muvaffaq bo‘ldim, qolaversa, qorovullar ham bu haqda jindaygina gapning uchini chiqarishdi. Sizning taqdiringiz haqida so‘z borar ekan, mening qalbim shunaqa tirnaldiki, so‘ramang, holbuki men sizning hech kimingiz bo‘lmayman, bor-yo‘g‘i ijaraxona bekasi-man, xolos. Ammo eshitganlarim shunchalik noxushki, ularni aytishga tilim bormaydi. Yo‘q, yo‘q, men bunday demoqchi emasdym. To‘g‘ri, siz hibsga olingansiz, ammo buni o‘g‘rilarning qo‘lga tushirilib, qamalishiga hech ham solishtirib bo‘lmaydi. O‘g‘rilar qo‘lga tushdimi, bu yog‘iga ular biron-bir omonlik kutishmasa ham bo‘ladi. Tamom, ishlarining pachavasi chiqqani shu, biroq sizning qamoqqa olinishingiz esa... nima desam ekan, unda qandaydir hikmat borday. To‘g‘ri, men bunaqa narsalarga kam tushunaman, biroq, menimcha, buni tushunish uchun ko‘p narsa kerak ham emas.

— Ha, buni haddan tashqari gustoхlik deb bo‘lmaydi, frau Grubax, qolaversa, o‘zim ham fikringizga qisman qo‘shilaman. Ochig‘i, to‘g‘ri, men bu voqeа haqida mulohaza yu-

ritayotganda, albatta, sizga nisbatan unga haddan tashqari jiddiy qaraganim rost, shuning uchun ham menimcha, bu hibsga olishda biror-bir hikmatgina emas, balki oddiy, tayinli bir mantiqning o‘zi yo‘q. Bor-yo‘g‘i, menga qo‘qqis dan tahdid qildilar, xolos. Agar uyg‘onib, joyimdan turgan bo‘lganimda, Anna meni yo‘qlamaganiga ham qaramasdan hech narsadan tashvish qilmasdan, sarosimaga tushib o‘tir may, birovga duch kelishimni ham xayolimga keltirmas dan sizga yuzlangan bo‘lardim, mayli, bu safar oshxonada nonushta qilishim ilojsiz ekan. Menga kiyimlarimni o‘z xonamga keltirib berishingizni so‘rardim; shu bilan boshimizga keladigan barcha balolar ildizi bilan sug‘urib olingan bo‘lar, bunda hech bir noxush voqeа sodir bo‘lmasdi. Ammo bunday vaziyatlarda hadeganda labbay topilmaydi deganlaridek, odam bolasi shoshib, noqulay ahvolga tushib qolar ekan. Masalan, men bankda hammasiga tayyorgarlik ko‘rib qo‘yganman, unda bunga o‘xhash noxush voqeа yuz berishi qiyin, xonamda mening o‘z gumashtam bor, stolda ichki va shahar telefoni ulangan, har lahza xonaga hamkasblar va mijozlar kirib turadi, kelib-ketuvchilar serob bo‘lishiga qaramay, doim ish bilan band bo‘laman va hammasi uchun javob berishga to‘g‘ri keladi, ammo ishdagi bunaqa ahvol menga hamisha yoqadi, huzur-halovat bag‘ishlaydi. Mana endi bularning hammasi nihoya topadigan bo‘ldi, mayli, nima ham qilardim. Ochig‘ini aytganda, men hatto bu haqda gapirishni ham istamayman, faqatgina sizdek aqli butun ayolning fikrini eshitmoqni istardim, qarangki, fikrimiz bir joydan chiqdi, biz har tomonlama til topisha bilganimizdan behad xursandman. Bunaqa hamfikrlik, dildoshlik uchun qo‘lni qo‘lga tashlasak bo‘ladi.

Ajab, u menga qo‘lini berarmikin yoki yo‘q? Nazoratchi menga qo‘lini bermadi, u shunday deb o‘ylarkan, bekaga uzoq payt sinovchan nigoh bilan qarab turdi. Ayol o‘rnidan

turarkan, u ham bilinar-bilinmas qo‘zg‘alib qo‘ydi, birozgina xijolatpazlik ham yuz berdi, ayol K.ning hamma gapini ham tushungan deb bo‘lmasdi. Xuddi shu talvasadan bo‘lsa kerak, ayol bir nimalar deb bidirlab qo‘ydi, ammo bu gaplarning biri bog‘dan, biri tog‘dan bo‘lib, ularni jo‘yali, o‘ylab aytilgan deb bo‘lmasdi.

– Janob K., bularning barini yuragingizga yaqin olib yurmang, – u hiqillagan ovozda taskin bergen esa-da, qo‘l tashlashni unutib qo‘ydi.

– Albatta, men ham bularni o‘zimga yaqinlashtirmoqchi emasman, – K. shunday derkan, birdan qattiq horiganini his etdi va shu darajada bu ayolning vaziyatni idrok etishiga hech bir hojati yo‘qligini ham anglaganday bo‘ldi. U eshik oldida turib yana bir bor surishtirdi:

– Darvoqe, froylyayn Byurstner xonasidami?

– Yo‘q, – negadir qo‘rs qilib qaytargan javobini o‘zi bilgan zahoti frau Grubax kechikib bo‘lsa-da, yumshoqqina, tushungan kishiday tabassum qilib dedi: – U teatrda-da. Nima, u sizga kerakmi? Aytavering, ehtimol, unga biror-bir gapni yetkazib ko‘yish lozimdir?

– Yo‘q, men shunchaki u bilan bir-ikki og‘iz gaplashib olmoqchi edim, xolos.

– Afsuski, men uning qachon qaytishini bilmayman. Teatrdan esa odatdagidek, juda kech qaytadi.

– Mayli, hechqisi yo‘q, – K. shunday derkan, boshini quyi egib, eshikka qarab yurdi. – Men faqat bugun kelgangular uning xonasidan istifoda qilganlari uchun xonimdan kechirim so‘rab qo‘ymoqchi edim.

– E, janob K., bu hech ham shart emas, namuncha nozikta’b bo‘lmasangiz, axir xonimqizning o‘zi ertalab bu yerda yo‘q edi, men bo‘lsa uning xonasidagi hamma narsani joy-joyiga qo‘yib, saranjom-sarishta qilib qo‘ydim, demak, uning o‘zi bu haqida hech narsa bilmaydi, ishonmasangiz

xonasiga bir qarang. Shunday bo‘lgach, bu gapni unga aytib o‘tirish shartmi. – U froylyayn Byurstner xonasining eshigini ochdi. – Mana, o‘zingiz bir razm soling.

– Shart emas, men shusiz ham sizga ishonaman, – K. shunday deyishga qaramay, ochiq eshikka yaqinlashib keldi. Nimqorong‘i xona bir tekisda oy nurida yorishib turardi. Haqiqatan ham, xona tartibga keltirilgan, past-balandiga qaralgan, hamma narsa o‘z joyida, hatto qizning zarli bluzkasi ham osilgan joyi – deraza tutqichidan olib qo‘yilgan edi. Ayniqsa, qizning joyxobiga qiyalab tushib turgan bir to‘-sham oy nuri uni balanddan boshqacha bir jiloda maftunkor qilib ko‘rsatardi.

– Oyimqiz hamisha shunday kech qaytadilarmi? – deb so‘rarkan, K. bu uchun frau Grubax javobgarday unga qaradi.

– Yoshlik – beboshlik-da! – frau Grubax go‘yo bundan xijolat bo‘layotganday javob qildi.

– Ha, ha, albatta, – deb qo‘ydi K. – Ammo bu juda uzoqqa qatnashidan ham bo‘lishi mumkin.

– Qaniydi shunday bo‘lsa! – bidirlab ketdi frau Grubax, – unda janob K., siz mutlaqo haq bo‘lib chiqar edingiz. Men froylyayn Byurstnerni g‘iybat qilishni istamayman, u biram yaxshi, yoqimtoy, istarasi issiq, chehrasi ham oydek go‘zal qiz, yana ishchan, tirishqoqligini ayt-maysizmi, men uning bu tomonlarini juda qadrlayman. Lekin nima desamikan: ozgina o‘z sha’nini o‘ylasa, biroz tiyilibroq yursa yaxshi bo‘larmidi. Men shu oyning o‘zida uni ikki bor xilvat ko‘chalarda ko‘rib qoldim, har safar boshqa erkak bilan qo‘ltiqlashib yuribdi. Bu men uchun juda ham ko‘ngilsiz. Tepamda Xudo bor, bu haqda faqat sizga aytayapman, ammo ma’lum bo‘layotirki, bu haqida oyimtillaning o‘zi bilan ham ochiqchasiga gaplashib olish vaqt kelganga o‘xshaydi. Ha, meni shubha-gumonlarga boshlayotgan hodisa birgina bu emas.

– Siz froylyayn Byurstner haqida juda ham qattiq yanglishayotirsiz, – K. achchiq bilan shunday derkan, ichidan toshib kelayotgan g‘azabni arang bosib turardi. – Va, umuman, oyimqiz haqidagi gaplarimni boshqacha tushunibsiz, men bu haqida sizdan biron narsa so‘ramoqchi emasdum. Sizga astoydil maslahatim, shubha-gumonlaringiz haqida unga aslo ayta ko‘rmang. Ha, ha, siz juda ham yanglishayotirsiz, men uni juda yaxshi bilaman va siz nima degan bo‘lsangiz hammasi bo‘hton deb hisoblayman. Ehtimol, juda ortiqcha narsani o‘z zimmamga olib yuborgandirman, kim qo‘yibdi menga bosh-qalarning hayotiga tumshuq suqishni. Unga nima demoqchi bo‘lsangiz, istaganingizni aytavermaysizmi. Xayrli tun!

– Janob K., – frau Grubax yalinchoq ovozda shunday deb K.ning ortidan yugurganda, u allaqachon o‘z xonasi eshigiga yetib borgan va hatto uni ochishga ham ulgurgandi – ha, men bu haqda hali oyimqiz bilan gaplashib olishga tayyorman deb aytolmayman. Buning uchun uni obdan kuzatib, bir qarorga kelib olishim kerak, men faqat sizga astoydil ishonganim bois, bu haqda gapirdim. Xullasi kalom, xonadonimizga dog‘ tushmasa deyman, pansionda umrguzaronlik qilayotgan har bir kishi ham bu fikrimga qo‘shiladi va shuni istashadi, men ham faqat shuning uchun qayg‘uraman, bu yerni nahs bosib ketmasligi kerak-da!

– Oh, poklikmish-a! – K. chinqirib yuborib, o‘z eshigini gumbullatib tepdi. – Agar siz pansionda pokdomonlik bo‘lishini istar ekansiz, bu yerdan birinchi bo‘lib meni quvishingiz kerak bo‘ladi, qani bo‘lmasa, shuning tadbirini ko‘ravering. – U eshigini jahd bilan yopti, eshik ortidagi qo‘rqa-pisa chertishlarga umuman javob qilmadi.

Biroq K. uqlashni xayoliga ham keltirgani yo‘q, hatto, bu safar froylyayn Byurstner qachon qaytishini aniq bilmox maqsadida ko‘ziga uyqu yo‘latmaslikka qaror qildi. Ehtimol, unga bir nimalar deyishga muvaffaq bo‘lar, ammo

ayni paytda buning hech ham mavridi emasdi. U derazadan boshini chiqarib, uyqusizlikdan qisilib ketgan ko‘zlar bilan atrofga termilarkan, frau Grubaxning tanbehiga ko‘ra, froylyayn Byurstnerga nasihat qilish haqida o‘ylash o‘rniga, bu yerdan butunlay bosh olib ketishni – ijaraxonasini almash-tirishni xayol qilardi. Ammo shu lahzada ertalabki voqeadan keyin uning shunchaki o‘z xohishiga ko‘ra ijaraxonani al-mashtirish istagi vaziyatni bo‘rttirishi, u xususidagi shuba-gumonlarni oshirib-toshirib yuborishi ko‘ngliga keldi. Ishqilib, hech qanaqa bema’ni, ayniqsa, bemaqsad va no-jo‘ya o‘y-xayollarga borib bo‘lmazı.

Oxiri, kimsasiz ko‘chaga termilib o‘tirish uning joniga tekkach, o‘zini o‘rindiqqa tashladi, ammo undan oldin xo-nadonga kim kirganini o‘rnidan turmasdanoq ko‘rmoq maqsadida dahlizga chiqadigan eshikni yarim ochib qo‘ydi. O‘n birlargacha o‘rnida cho‘zilgancha xotirjam tamaki tutatib yotdi. Keyin esa bunga ham sabri chidamadi, o‘zini ush-lolmay dahlizga chiqdi, go‘yo bu harakati bilan froylyayn Byurstnerning uyga qaytishini tezlashtiradigandek edi. As-lida, qizni ko‘rishdan uning biron-bir maqsadi yo‘q bo‘lib, hatto u qiz bunga qanday qarashini ham ko‘z oldiga keltira olmadi, biroq qiz bilan gaplashib olmasa bo‘lmas, bo‘lg‘usi suhbatdan u hayajonlanar, mana endi allamahalga kelib uning kechikayotganligi K.ni notinch qilib qo‘ydi, parishon ahvolda vasvosday u yoqdan bu yoqqa yurar, ammo nima qilishi kerakligini bilmasdi, ha, barchasining sababchisi qiz edi, unga achchiq qilib, kechlik ham qilmadi, holbuki kelish-gani bo‘yicha bugun Elzaning oldiga tashrif buyurishi kerak edi, buni ham o‘tkazib yubordi. Albatta, hali ham bu boy berilgan fursatning o‘rnini to‘ldirish mumkin. Elza xizmat qilayotgan quling o‘rgilsin restoranchaga yo‘l olsa bo‘ladi. U froylyayn Byurstner bilan suhbatlashib olgandan keyin shunday qilishi diliga tugib qo‘ydi.

O'n bir yarimlar bo'lib qolgandi ham, zinalardan kimningdir qadam tovushi eshitildi. K. bir joyda turolmay qoldi, yuziga qon tepib, dahlizga tapir-tupur qilib chiqdi, unda xuddi o'zining xonasidagidek u yoqdan bu yoqqa borib-kelib turdi va dahlizga froylyayn Byurstner kirib kelarkan, shoshib-pishib arang o'zini bir chekkaga oldi. Eshik yopilarkan, ostonada yelkalariga ipak ro'molini tashlab olgan nozik-nihol qiz junjikkancha turardi. Bir zumdan so'ng qiz o'z xonasiga kirib ketadi, qarabsizki, keyin – bu yarim kechada K. uning xonasiga kira olmasligi aniq va tushunarli. Demak, shuning uchun ham K. u bilan shu lahzaning o'zida gaplashib olmasa bo'lmaydi; baxtga qarshi u o'z xonasida chiroq yoqib qo'yishni ham unutibdi, agar hozir qorong'ida shu alfozda chiqib borsa, bu qizga tajovuz qilishga o'xshab ketadi. Nima bo'lganda ham, u qizni juda ham qo'rqtib yuborishi mumkin. Bu sarosima aralash vaqtini boy bermaslik payida qo'rqa-pisa eshik kesakisini ushlab shivirlabgina ovoz berdi:

– Froylyayn Byurstner! – bu ovoz o'zi kutganday sekin chiqmadi, balki jimlikni chaqmoqday kesib o'tdi.

– Kim u, shu mahalda bezovta qilgan? – froylyayn Byurstner qo'rqa-pisa shunday deb so'rarkan, chor-atrofga alanglardi.

– Bu menman, – K. shunday deb uning oldiga chiqib bordi.

– Voy, janob K., bu sizmi? – froylyayn Byurstner tabassum bilan yigitga qo'lini uzatdi: – Xayrli kech!

– Agar ruxsat bersangiz, mening sizga aytadigan bir og'iz gapim bor edi.

– Hozirmi? – dedi froylyayn Byurstner. – Nahotki, hozirning o'zida? Axir bu biroz g'alati-ku. Shunday emasmi?

– Men sizni soat to'qqizdan buyon kutib o'tiribman.

– Siz meni bir og'iz ogohlantirib qo'ysangiz bo'lardi-ku, odatdagidek, men teatrda edim.

– Biroq, gaplashib olishimiz uchun sabab faqat bugun tug‘ilib qoldi.

– Eh, sabil qolsin. Nafsilaqrini aytganda, men bunga qarshi emasman, faqat hozir o‘lgudek charchaganman. E, mayli, bir daqiqadan keyin oldimga kiring. Bu yerda gaplashib o‘tirishimiz yaxshi emas, uydagilarning shirin uyqusini buzib qo‘yamiz, sho‘rliklarga jabr qilmaylik, qolaversa, bu o‘zimiz uchun ham noqlay. Shoshmang, men hozir xonamdagi chiroqni yoqaman, siz bundagini o‘chiring.

K. yumushni aytigandek ado etdi-da, froylyayn Byurstner uni yana bir bor shivirlabgina o‘z xonasiga chorlashini intazorlik bilan kutib o‘tirdi.

– O‘tiring, – qiz shunday deb unga divanni ko‘rsatdi, o‘zi esa karavot oldidan jilmadi, buni hisobga olmaganda ham, uning gapidan juda charchaganligi sezilgan edi; hatto o‘zining bezirimgina, inja gullar solinib bezalgan shlyapasini ham yechmadi. – Shunday qilib siz menga nimanidir aymoqni istaysiz, shundaymi? Ochig‘i, bu meni juda qiziqtrradi, – u yengilgina qilib, oyoqlarini chalishtirib oldi.

– Ehtimol, siz yana shuni ham aytishingiz mumkinki, – so‘z boshladi K. – Bu ish shunchalik tez hal qilishni tablab etadimi, axir biron-bir narsani muhokama qilib o‘tirish uchun hozir juda kech-ku, deb, biroq...

– Bu kirish so‘zi, nazarimda, hamishagidek ortiqcha, – dedi froylyayn Byurstner.

– Bu mening vazifamni biroz yengillashtiradi, – K. yana so‘z boshladi. – Bugun ertalab qisman mening aybim bilan, ha, mening aybim bilan sizning xonangizga begona kishilar kirib, bunda ancha-muncha tartibsizlik yuz berdi, albatta, ular mening xohish-irodamga qarshi bu ishni qildilar, shu bois, men sizning oldingizda gunohkorman, kechirim so‘ramoqchiman.

– Mening xonamga kirishdimi? – froylyayn Byurstner bu savolni qayta berarkan, olazarak nigoh bilan butun xo-

nani ko'zdan kechiribgina qolmadi, balki K.ning o'ziga-da sinchkov nazar tashladi.

– Shunaqa bo'ldi, – K. shunday der ekan, ilk bor ularning nigohlari to'qnashdi. – Biroq bo'lib o'tgan voqeaneaning sababi gapirishga ham arzimaydi.

– Bu hammasidan ham ajabtovur-ku, – deb yubordi froylyayn Byurstner.

– Unchalik emas, – dedi K.

– Unda nima bu, – yanada qiziqdi froylyayn Byurstner. – Men sizning siringizni bozor qilmoqchi emasman, faqat siz uning haqiqatdan ham ajablantiradigan jihat yo'qligiga meni ishontira olsangiz bas, bunga qarshi birorta ham so'z aytib o'tirmayman. Men faqat bir narsani sizdan astoydil so'raymanki, axir sizning o'zingiz ham shuning uchun kechirim so'ramoqchi bo'lyapsiz chog'i, ha, mening bu yerda hech qanaqa tartibsizlik iziga ko'zim tushmasin.

Qiz holsiz qo'llarini beliga tirab, butun xonani aylanib chiqdi. Faqat fotosuratlar osilgan bo'yra oldida to'xtab qoldi.

– Bularga qarang, – qichqirib yubordi u. – Barcha suratlarni aralash-quralash qilib tashlashibdi-ku. Voy, shunaqa ham peslik qilishadimi? Demak, kimdir mening xonamga kirib, xuddi o'zining uyidagidek nima noma'qulchilikni istasa shuni qilibdi-da.

K. faqat boshini xam qilib o'tirishdan boshqa iloj topa olmadi, ammo ichida landavur va befahm Kamenermi o'zini tiya bilmasligi, hovliqmaligi uchun yanib o'tirdi.

– Bu peslikni qarang, – froylyayn Byurstner tobora tutaqib borardi, – men yo'g'imda xonamga kirishsa, bu axir haddidan oshish-da, ajabo, ajabo, menga qolsa aynan sizning kirishingizni taqiqlagan bo'lardim, chunki siz mening xonamga ularning kirishini taqiqlashingiz kerak edi.

– Froylyayn, men axir buni sizga tushuntirdim-ku, – shunday deb K. fotosuratlarga yaqin keldi, – sizning fotosu-

ratlaringizga tekkanim yo‘q, ularni men ag‘dar-to‘ntar qilganim yo‘q, siz bo‘lsa menga ishonishni istamayapsiz, lekin shunga iqrormanki, tergov hay’ati bilan birgalikda bankimizning uch xizmatchisi ham bu yerga kelishdi, ayniqsa, ulardan biri sizning fotosuratlariningizga tirg‘algani rost, men uni birinchi imkoniyat tug‘ilishi bilanoq bankdan quritish payida bo‘larman. – Froylyayn Byurstnerning savol nazari bilan qarab turganini ko‘rib K. yana gapiga qo‘shimcha qildi, – Ha, ha, bu yerda tergov hay’ati bo‘ldi.

- Siz uchunmi? – qiziqsindi qiz.
- Ha, – javob berdi K.
- Bo‘lishi mumkin emas! – xonimqiz ajablanib xitob qilar ekan, tirjayib ham qo‘ydi.

– Mumkin ekan, – deb qo‘ydi K. – Nahot siz menda hech qanaqa gunoh yo‘q deb hisoblaysiz?

– Hech qanaqa – bu qanday gap, ayting-chi? – savolga savol bilan javob qaytarib, bidirlab ketdi oyimqiz, – Hozir o‘z fikrimni aytmoqchi emasman, qolaversa, agarki jiddiygina fikr kerak ekan, men sizni tuzuk-quruq bilmayman ham, ammo bu yerga bir zumda tergov hay’atining kelib-ketishi g‘alati axir, ular og‘ir bir jinoyat sodir etilgan taqdirdagina yugurib kelishadi. Holbuki, xuddi shunday bo‘lishi kerakday, siz ozodlikdasiz, hech qanaqa qamoqdan qochib ketish ehtimolingiz yo‘q ekan chog‘i, sizning ishingizga mas’ul tergovchi ham xotirjam – tarallabedod qilib yuribdi, demakki, siz hech qanaqa og‘ir jinoyat sodir etgan bo‘lishingiz mumkin emas.

– Ha, shunaqaga o‘xshaydi, – dedi K. – Biroq, aftidan, taxmin qilinayotgandek tergov hay’ati mening aybsizligimni yoxud hech bo‘lmaganda, bu ayb u darajada emasligini aniqlab berishsa ajab emas.

– Shunday bo‘lib chiqishi turgan gap, – juda ham parishonxotirlik bilan javob qildi froylyayn Byurstner.

— Mana ko‘ryapsizmi, — dedi K. — Aftidan, siz ham jinoiy ishni ko‘rish tartibini unchalik bilmaysiz chog‘i.

— Yo‘q, albatta, — tan oldi froylyayn Byurstner. — Ko‘pincha shu bilmaganimdan afsuslanib ketaman, lekin meni aynan sudga oshirilgan jinoiy ish jarayonini o‘rganish qiziqtirib keladi. Qani endi bunga aloqador hamma narsani bilsam edi. Qolaversa, sud ishining o‘zi dahshatli darajada o‘ziga tortadigan soha-da, shunday emasmi? Biroq bu sohada men o‘z bilimlarimni to‘la-to‘kis qiyomiga yetkazmasam bo‘lmaydi: shuning uchun ham keyingi oydan oqlovchilar devonxonasisiga ishga kirmoqchiman.

— Juda ham yaxshi-da! — dedi K. — Ha, unda siz mening ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish bo‘yicha oz bo‘lsa-da yordam berishingiz mumkin bo‘ladi.

— Bo‘lmasam-chi, — froylyayn Byurstner juda ham ishonch bilan yigitning gapiga javob qildi. — Nimaga ham bo‘lmasin? Men axir o‘z bilimlarimni amalda sinab ko‘rishni juda-juda istayman.

— Ammo, mening iltimosim jiddiy, — dedi K. — Yoki xuddi siz kabi bilsa hazil, bilmasa chin qabilida aytilyapti. Bu ish atayin bir oqlovchi yollashga, uni ovora qilishga arzimaydi, shunga qaramay, menga bir maslahatgo‘y juda asqatib qolishi mumkin.

— Mayli, men bu taklifingizga roziman, ammo sizning maslahatchingiz bo‘lishdan oldin, ish nimadan iboratligini, so‘z nima haqida borayotganligidan xabardor bo‘lishim kerak-da.

— Bu yerda bir chatoqlik shundaki, — dedi K., — buning nimadan iborat ekanligini bilmasdan, boshim qotib turibdi.

— E, shunaqami, bundan chiqdi siz men bilan hazillashmoqchi bo‘libsiz-da, — dedi froylyayn Byurstner tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan ohangda. — Biroq hazillashish uchun yarim kechani tanlash ham aqli kishining ishi emas. — Qiz

devordagi fotosuratlar oldida yelkama-yelka turgan K.ning oldidan ketmoqchi bo'ldi.

– E, to'xtang, bunday o'ylaganingizni qarang-u, – hovliqib dedi K., – men umuman hazillashayotganim yo'q. Sizning menga ishonmayotganligingiz juda g'alati-da! Men nima bilsam, hamma-hammasini sizga aytib berdim. Hatto bilganimdan ham ko'proq narsani aytdim; nafsilamrini aytganda, bu yerga hech qanaqa tergov hay'ati tashrif buyurgani yo'q, men faqat bu yerga kelganlarni shunday deb atadim, bularni yana boshqacha qilib nima deb atashni bilmaganim uchun shunday qildim. Va, umuman, hali hech qanaqa jinoiy ish ko'rilmagi yo'q, bor-yo'g'i meni hibsga olishdi, xolos. Biroq buning uchun bu yerga butun bir to'da tashrif buyurdi.

Froylyayn Byurstner divanga o'tirarkan, yana jilmayib qo'ydi.

– Bularning bari bir yo'la qanday sodir bo'lganiga aql bovar qilmaydi-ya? – surishtirdi u.

– O, dahshat! – K. shunday deb ko'pirib gapirkagan, bo'lib o'tgan voqeа haqida qariyb o'ylamas, balki divan yostiq-chasiga butun og'irligini tashlab olgancha, bir qo'lini yuziga tirab, ikkinchisi bilan goh-goh ohistagina tizzasini silayotgan froylyayn Byurstnerning husni-tavajjuhiga tamoman asir edi.

– Bu gap menga hech narsani anglatganicha yo'q, – deb qo'ydi froylyayn Byurstner.

– Aynan nima haqida so'rayapsiz? – o'smoqchiladi K., biroq shu lahzadayoq nima kerakligini anglab yetib so'radi: – Sizga buni ko'rsatib bersam qanday bo'larkin? – U nima qilib bo'lsa-da shu xonadan ketmasam derdi.

– Men juda ham charchadim, – dedi froylyayn Byurstner.

– Ha, siz juda ham kech qaytar ekansiz, – javob qildi K.

– Mana nihoyat, endi o'pkalashga o'tildi, bunga ham o'zim sababchiman. Aslida, bu yerga kirishingizga ruxsat bermasligim kerak edi. Shuning uchun ham, har qanaqa

qilib, u yoq-bu yog'i so'rab-surishtirilmasin – bu yerda hech qanaqa foydali bir hodisa sodir bo'lmasdi.

– Yo'q, bo'lganicha bo'ldi, – e'tiroz bildirdi K., – hozir siz hammasini tushunib olasiz, karavot oldidagi stolni mana bu yerga olib kelish mumkinmi?

– Shu paytda siz nimalarni o'ylab topyapsiz? – ajablandi froylyayn Byurstner. – Albatta, mumkin emas!

– Unda men sizga hech narsani ko'rsata olmayman-ku, – K. bu gapni shunchalar achchiqlanish bilan aytdiki, uni go'yo anglab bo'lmas bir musibat o'z domiga tortib ketayotganday edi.

– Oh, biron-bir narsani oydinlashtirib olish uchun agar sizga shu kerak ekan, stolni qancha xohlasangiz shuncha surishingiz mumkin, – dedi froylyayn Byurstner va ramaqijon ovozda qo'shimcha ham qilib qo'ydi: – Men shunaqa ham charchadimki, bu tomoshani davom ettirgandan ko'ra sizga ruxsat berib yuborishni jon-jon deb istardim.

K. stolni xonaning o'rtasiga eltib qo'ydi va yoniga o'zi cho'kdi.

– Siz hamma-hammasini – bu kishilar bu yerga kelib qanday tomosha ko'rsatganligini aniq-tiniq, bor-bo'yicha tasavvur qilishingiz kerak, bu juda qiziq bo'ldi. Meni nazoratchi deb tasavvur qiling, huv anavi sandiqning ustida qorovullar o'tiribdi, ular ikki kishi edi; fotosuratlar yonida esa uch yigitcha tizilib olishdi. Deraza dastagida esa oppoq, harir nimcha osilib turibdi, men uning yonida turib gapiraman. Va shunday qilib hammasi boshlanadi. E, men o'zimni unutib qo'yibman-ku, vaholanki voqeanning asosiy ishtirokchisi, harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan men, huv anavi, stolning oldida turaman. Nazoratchi o'ziga juda qulay holda kursiga cho'kkancha oyoqlarini chalishtirib o'tiradi, bir qo'lini stulning orqasiga tashlab olgan, uni bir tepsa-tebranmas, takasaltang desangiz ham kam. Va mana shunday holatda hammasi

boshlanadi. Nazoratchi meni oldiga chaqirar ekan, go‘yo tosh qotgan uyqudan uyg‘otmoqchi bo‘lganiday, naq o‘kirib ovoz beradi. Taassufki, bularning hammasi sizga kundek ravshan bo‘lishi uchun o‘zimning ham baqirvorgim kelyapti. To‘g‘ri, u faqat mening nomimni tilga olgandagina baqirdi.

Froylyayn Byurstner jilmayib qo‘ydi va K. baqirib yubormasin deb barmoqlarini labiga bosdi, lekin vaqt o‘tgandi. „Yozef K.“ K. shunchalik darajada rol ijrosiga kirib ketgанди, o‘zining nomi uning og‘zidan uzayib, yo‘g‘on bir alfozda chiqdi. Bu baqiriq unchalik baland bo‘lmasa-da, nimanidir va‘da qilayotganday bo‘lib, bir zumda butun xonani egalladi.

Shu zahoti qo‘shni xonaning eshigi qisqa-qisqa, qattiq-qattiq, bir maromda taqilladi. Froylyayn Byurstnerning rang-ro‘yi bo‘zarib, yuragi orqaga tortib ketdi. K. bo‘lsa ertalabki ko‘ngilsiz voqeani hamisha o‘ylab yurganidan beshbattar qo‘rqib ketdi. U bor-yo‘g‘i bu voqeani froylyayn Byurstnerga qanday bo‘lsa shunday ko‘rsatib bermoqchi edi, xolos. Yana u hozir tezda o‘zini qo‘lga ola bildi va qiz sari yuzlanib, unga dalda bermoqchi bo‘lib qo‘llaridan tutdi.

– Hech narsadan qo‘rmang, – shivirlab dedi u. – Men hammasining ilojini qilaman. Biroq kim bo‘ldi ekan bu taqillatgan? Qo‘shni xona mehmonxonami – unda hech kim tunamaydi-ku.

– Yo‘q, tunaydi, – froylyayn Byurstner uning qulog‘iga pichirlab dedi. – Kechadan boshlab unda frau Grubaxning jiyani, kapitan yotadigan bo‘lgan. Uning uchun alohida – bo‘sh xona yo‘qqa o‘xshaydi. Buni unutib qo‘yibman-a. Ey, siz nega bunchalik baqirvordingiz! Men noqulay – mushkul ahvolga tushib qoldim-ku.

– Behuda tashvishga tushyapsiz! – derkan, K. engashib yostiqchalarni tekislayotgan qizning peshonasidan o‘pib oldi.

– Bu nima qilganingiz, nima qilganingiz bu, a? – qiz shunday derkan, shitob bilan qaddini rostladi, – keting,

yo'qoling, imkon qadar bu yerdan tezroq qorangiz o'chsin. U axir eshikning orqasida turib hammasini eshitib oladi. Siz esa meni rosa qiyab yubordingiz!

– Siz tinchlanmas ekansiz, men bu yerdan hech qayoqqa ketmayman! Anavi burchakka yuring, u yerda hech gap begona quloqqa yetmaydi.

Qiz o'zini burchakka olishga astoydil rozi bo'ldi.

– Siz bir nima haqida o'ylamagan ko'rinasiz, – dedi K. – To'g'ri, ehtimol, siz uchun biron-bir ko'ngilsizlik bo'lishi mumkin, ammo hech qanaqa xavf sizga tahdid sola olmaydi. Siz yaxshi bilasizki, bu uyda frau Grubaxning gapi gap, har qanaqa muammoni u hal qiladi, kapitan uning jiyani bo'lishidan qat'i nazar, buni ham yaxshi bilsangiz kerak, frau Grubax meni shunchalik yoqtiradiki, hech bir e'tiborsiz har bir aytgan gapimga ishonadi. O'rni kelganda yana shuni ham aytay, mening oldimda uning tili qisiq – men unga katta miqdorda qarz ham bergenman. Men bu allamahalgi uchrashuvimizni izohlab beradigan sizning har qanaqa taklifingizni qabul qilishga tayyorman, faqat u ozgina bo'lsa-da haqiqatga to'g'ri keladigan bo'lsa, frau Grubax uni faqatgina burchdorligidan yoki rasmiyatichilik uchungina qabul qilib qolmaydi, balki hech bir gap-so'zsiz samimiyat ila unga ishonadi ham. Sizdan menga ozgina bo'lsa-da shafqat qilishingizni o'tinaman. Agar men sizni kech palla rosa jonizingizga tekkan bo'lsam, bu gap-so'zlarni yetkazish kerak desangiz, men barini qanday bo'lsa shundayligicha frau Grubaxga ayta qolaman, u ham men ga bo'lgan hurmatiga, qadrlashiga qaramay ne istasangiz shuni joriy etadi.

Froylyayn Byurstner jimib qoldi, yelkalarini bo'sh tashlab, nigohini yerdan uzmasdi.

– Ha, nima uchun frau Grubax buni men sizga tushuntirib berganimga ishonmasligi kerak ekan? – qo'shib qo'ydi K.

Yigit qizning sochlariiga, farqi ochilgancha, ostidan tarang qilib turmaklab qo'yilgan tillarang sochlariqa qaradi. K. qiz hozir nigohini yerdan uzib, menga qaraydi, deb kutdi, ammo u holatini o'zgartirmasdan so'zlashga tushdi.

– Meni afv eting, ammo bu kutilmagan taqillatishdan yuragim chiqib ketgani rost, mayli, gap taqillashda ham emas, ammo kapitani tushmagur buni jiddiylashtirib yubormasa edi, deb xavotirdaman. Hamma yoq osuda, siz bo'lsangiz qo'qisdan baqirib qoldingiz, o'sha zahoti esa u yoqdan taqillash eshitildi, ha, men shundoq eshikning yonida edim, taqillash ham xuddi eshik yaqinidan keldi, xuddi shu narsa meni dahshatga soldi-da. Menga joningiz achib o'rtaga tashlagan taklifingiz uchun tashakkur, ammo men uni qabul qila olmayman. Mening xonamda nima hodisa bo'lib o'tmasin, hammasi uchun kimning oldida bo'lmasin, o'zim javob beraman. Ajabo, sizning bu takliflaringiz meni qanchalar ranjitganini bilsangiz edi, holbuki, bu kuyib-yonishlaringizning bari yaxshi niyatda ekanligiga men zarracha ham shubha qilmayman. Endi bo'lsa boring, meni yolg'iz qoldiring, bu men uchun avvalgiga qaraganda ham muhimroq. Bir necha daqiqangizningina olaman, deb so'ragandingiz, holbuki, yarim soat bo'ldi, hatto undan ham o'tib ketdiki, boshimni qotirib o'tiribsiz.

K. qizning barmoqlari uchidan tutdi.

– Biroq mendan xafa bo'lishingiz kerak emas-da?

Qiz qo'lini tortib ola turib dedi:

– Yo'q, yo'q, men hech kimdan hech qachon xafa bo'lmayman.

Yigit yana uning qo'llarini oldi, qiz bu safar qarshilik ko'rsatmadi-yu, uni eshik sari boshladi. Yigit, nachora, astoydil ketishga azm-u qaror qildi. Biroq ostonada birdan to'xtab qoldi, bu daqiqadan foydalanmoq umidida froylyayn Byurstner qo'lini yigitning qo'lidan bo'shatib olib eshikni ochdi, dahlizga sirg'alibgina o'tisharkan, shivirladi:

– Iltimos qilaman, tezroq keting, – ha-ya, u ko‘rinadimi? – qiz chirog‘i tushib turgan kapitanning xonasiga imo qildi, – u chiroqlarni yoqib bizni kuzatib o‘tiribdi.

– Ketyapman, ketyapman, – K. shunday derkan, qizga qarab talpindi, nihoyat uni quchog‘iga olib, lablariga labini bosdi. Shunda uning battar jazavasi tutdi va qizning yuzidan harislarcha o‘pa boshladi; go‘yo allaqanday bir yutoqqan maxluq kichik bir daryochaga duch kelib, undan tashnaligini qondirar, tillarini chapillatib zilol suvni yutayotgandek edi. U oxiri qizning dudoqlaridan bo‘yniga tushdi-yu, uzoq payt undan lablarini ololmadi. Uni faqat kapitanning eshidigan kelgan shovqin bosh ko‘tarishga majbur etdi.

– Endi men ketaman, – K. shunday derkan, froylyayn Byurstnerni ismi sharifi bo‘yicha chaqirmoqchi bo‘ldi, biroq uni nima deb atashni bilmadi.

Qiz horg‘ingina qimirlab, go‘yo buning unga daxli yo‘qday, qiyo boqmasdan qo‘llarini o‘pich uchun berdi-da, xonasiga ravona bo‘ldi.

Bir zum o‘tmay K. ham o‘z o‘rnida cho‘zilib yotardi. Ko‘zi ham ilina qoldi, ammo uyquga ketish oldidan yana bir bor o‘z xulq-atvori xususida o‘ylab ketdi va o‘zidan roziligidcha qoldi, holbuki, bu ko‘nglito‘qlik omonat ekanligini u ichki bir esankirash bilan his qilib turardi. Bundan tashqari, mana bu kapitan bois, froylyayn Byurstner bir baloga qolmasa edi deb ham astoydil tashvishlandi.

II bob

Tergovning boshlanishi

Kelgusi yakshanbada uning ishi bo‘yicha birinchi bor tergov belgilanganini oldindan K.ga telefon orqali ma’lum qilishdi. Unga yana tergov bir maromda olib borilishini, har

holda, har yakshanbada bo‘lmasa ham, mavridi bilan hali ko‘p bora uni chaqirishlarini alohida ta’kidlab qo‘yishdi. Bir tomondan, bu barcha diqqat-e’tibor uning ishini ko‘rib chiqish jarayonini qancha tez oxiriga yetkazsa, shuncha yaxshi bo‘lardi, biroq boshqa tomondan, tergovda barcha imkoniyatlar ishga solinib, ish puxta o‘rganilishi kerak: biroq tergov talab qiladigan bu katta zalvor ostidagi jarayon haddan tashqari diqqatbozlikka, asabbuzarlikka aylanib, cho‘zilib ketishining oldini olmasa bo‘lmaydi. Mana shuning uchun ham tergovlar maromi qisqa-qisqa, ammo tez-tez olib borilishi ma’qul ko‘rilgan chiqar. Tergov azbaroyi K.ning xizmat vazifasiga xalaqit bermasligi uchun yakshanbaga belgilangandi. Belgilangan bu tartibga K. rozi bo‘lishini taxmin qilishgan, mabodo biron-bir muammo tug‘ilsa, yo bunga qarshi bo‘lsa, uchrashib aytsa bo‘ladi. Aytaylik, tergovni olib borish tunga belgilandi, bu allamahalda esa shubhasiz, K.ning boshi charchagan bo‘ladi. Ishqilib, hozircha har qanday voqealarga qaramay, K. qarshi bo‘lmasa, yakshanba kunlarini tergov uchun ushlab turishga qaror qilindi. Albatta, o‘z-o‘zidan tushunarlik, maxfiy uchrashuv joyiga borish uning uchun shart, bu haqida gapirish, eslatib o‘tirish ortiqcha, tergov olib boriladigan uyning tartib raqami aytildi, u shahar atrofidagi chekka ko‘chalardan biriga joylashgan bo‘lib, hozirgacha K. u yerda bo‘lmasa.

Bu farmoyishni tinglab bo‘lgach, hech bir javob qilmay go‘shakni joyiga ilib qo‘ydi va shu zahoti aytilgan joyga yakshanba kuni so‘zsiz borishga qaror qildi, mana nihoyat uning jinoiy ishini ko‘rish jarayoni ham boshlandi, u katta bir muhoraba oldida turibdi, bu ilk tergov, shak-shubhasiz, oxirgisi bo‘lishini ta’minalash kerak.

U parishonxotirlik bilan telefon oldida turib qoldi, shunda uning ortida qo‘ng‘iroq qilib olish uchun kutib qolgan direktor muovini ovoz berdi, K. uni telefondan to‘sib turardi.

— Noxush xabarmi? — muovin beparvo ohangda, shunchaki gap tashladi. Ishqilib, K. tezroq telefon oldidan uzoqlashsa bo‘lgani edi.

— Yo‘q, yo‘q, — derkan, K. o‘zini chetga oldi, biroq bu yerdan ketmadi.

Direktor muovini go‘shakni oldi-da, ulab berishlarini kutib turar ekan, dedi:

— Janob K., sizdan bir narsani iltimos qilmoqchi edim, yakshanba kuni mening yaxtamda ulfatlar bilan o‘tirmoq-chimiz, marhamatingizni darig‘ tutmasdan, biz bilan birga bo‘la olasizmi? Kattagina davra bo‘ladi, ehtimol, ularning orasida sizning tanishlaringiz, masalan, prokuror Gasterer ham bo‘lishi mumkin. Borasizmi? Albatta, boring!

K. direktor muovininining har bir so‘zini uqib olmoq payida bo‘ldi. Bu uning uchun juda muhim, chunki direktor muovininining mulozamatidan u hazilakam dovdiragani yo‘q, chunki K. kabi bankda o‘z chorig‘ini o‘zi tortib yurgan kichik bir xizmatchiga qilinayotgan bu iltifot kelishib, do‘stona hamkor bo‘lib ishlashga chorlovdai tuyuldi, bankdagi martabali bir shaxsning iliq munosabatiga o‘ziga yarasha do‘stona javob qilish, hech bo‘limganda betaraf qolib, dilini ranjitmaslik kerakligi ko‘rinib turardi. Unga esa telefon go‘shagi tepasidan turib qilingan bu taklif shunchaki, boryo‘g‘i yo‘l-yo‘lakay mulozamat bo‘lib, xushomad qilayotganday eshitildi. Direktor muovininining taklifini u yanada yerga urganday qilib dedi:

— Tashakkur! Baxtga qarshi, men yakshanba kuni band bo‘laman. Oldindan kelishib qo‘ygan uchrashuvimiz bor edi.

— Attang, — direktor muovini shunday deb turganda uni telefonga ulab berishdi, u suhbatga tutindi.

Suhbat uzoq davom etdi, K. esa parishxonotirligi tutib, bu yerda yana anchagina turib qoldi. Faqatgina muovin go‘shakni joyiga qo‘yayotgandagina birdan cho‘chib o‘ziga

keldi va noqulay ahvolga tushib, bu yerda turib qolganini bir og‘iz tushuntirishga tutindi:

— Menga hozirgina qo‘ng‘iroq qilishib, bir joyga borishimni tayinlashdi, ammo qaysi paytda borishni aytishni unutishibdi.

— Unda siz yana bir bor sim qoqing, — maslahat berdi direktor muovini.

— E, bu shart emas, — K. ning bu luqmasi o‘ylamay aytilgan bo‘lib, hech bir ma’no bermas edi.

Direktor muovini ketish oldidan butunlay boshqa narsalar haqida yana bir talay maslahatlar berdi. K. bularga o‘zini zo‘rlab bo‘lsa-da javob qaytarmoqchi bo‘ldi-yu, uning o‘rniga o‘z xayollari bilan bo‘lib, yaxshisi, yakshanba kuni soat to‘qqizda aytilgan joyga bora qolganim ma’qul, bu paytda butun jinoyat-qidiruv bo‘linmasi harakatga tushib, ish boshlangan bo‘ladi, deb reja tuzardi.

Yakshanba kuni havoning avzoyi buzildi. K., sal bo‘lmasa, uqlab qolar ekan, chunki hamishagidek qahvaxonadagi bazmda yarim kechaga qolib ketgan, rosa biti to‘kilgandi. U har yakshanbada butun hafta davomida qiladigan ishlari rejasini tuzib olardi, hozir esa na o‘ylashga, na rejalgarda vaqt qoldirmasdan, shoshib-pishib kiyindi, nonushta ham qilmasdan, shahar chekkasidagi aytilgan joyga yo‘l oldi. Har qalay, uning orqa-oldiga qiziqsinib qarashga imkon bo‘lmadi, biroq qanchalik g‘alati bo‘lmasin, uning ishiga aralashgan uch amaldor – Rabenshteyner, Kullix, Kamenerga yo‘lda uning ko‘zi tushdi. Dastavval ikkisini – tramvayda yaqinginasida turganlarini ko‘rdi, K. qahvaxona yonidan shoshilib o‘tayotganda, qiziquvchanlik bilan panjaradan pastga engashdi-yu, qahvaxona ayvonida o‘tirgan Kamenerni ham ko‘rib qoldi. Aftidan, ularning uchchovi ham boshliqlari qanday qilib oyog‘ini qo‘liga olib yugurayotganidan hayratda, uni kuzatishardi.

Qanaqadir o'jarligi tutib, K.ning yurgisi kelmay qoldi, unga daxldor bo'lgan ishga begonalarning aralashishini, misqlolcha bo'lsa-da tumshuq suqishini uning jini suymas, allaqanday shart-sharoitlarni istifoda qilib, kimdir ozgina vaqtini ajratib, bu kechmishtga o'zini bag'ishlashi uning tasavvuriga sig'mas, yana u buni sira-sira istamasdi ham va oxiri unda andakkina bo'lsa-da tergov hay'ati oldida o'zini tahqirlashga yo'l qo'ymaslik istagi yorqin bir ko'rinishda jo'sh urayozdi. Shunga qaramay, roppa-rosa to'qqizda u o'sha yerda bo'lish uchun oyog'ini qo'liga olib shoshildi. Holbuki, chaqirilganda aniq bir vaqt ni ma'lum qilishmagandi.

Uningcha, qandaydir belgilari bilan chaqirilgan uy uzoq-danoq ajralib ko'rini turar, buning yaxlit bir manzarasini ko'z oldiga keltira olmasa-da, hech bo'lmasa aynan kirish joyi g'ala-g'ovur, tirband bo'lishi kerak deb o'ylardi. Bi-roq Yuliusshtressning boshlanishidayoq u serrayib, biroz turib qoldi, ko'chaning ikki tomoni ham keta-ketguncha qariyb bir xil: baland, kulrang, aholining qashshoqlar tabaqasi ijara ga qo'yiladigan uylar qad rostlagan edi. Bu yakshanba tongida uylarning qariyb barcha derazalari oldida kishilar ko'rindaridi. Ustiga kamzul ilmagan erkaklar chekib o'tirishar, kichkina bolalar bo'lsa ma'yus va ehtiyyotkorlik bilan deraza rafidan tutishgan yoki yarim beligacha tash-qariga chiqarib, engashib o'tirardilar. Boshqa deraza raflarida esa ko'rpa-to'shaklar solintirib qo'yilgan, yonida kichkina, sochlari hurpaygan ayollarning boshlari lip-lip etib ko'rini qolardi. Yuzma-yuz qurilgan uydagilarning aksariyati ko'cha osha bir-birlari bilan chaqchaqlashishardi, shunday baqir-chaqir bilan hol so'rashlardan biri naq K.ning boshi uzra yangrab, kuchli kulgi portlashiga sabab bo'ldi. Butun ko'cha bo'ylab bir xil masofada yarim yerto'ladagidek holda ichkilik do'konlari joylashgan bo'lib, shundoq zinalar oldidayoq ularga o'rindiqchalar ham hozir-u nozir edi. Uy-

lardan xonadon sohiblari kirib-chiqib turishar, o'rindiqlarda o'tirib olishib, gap sotishardi. Meva sotuvchi o'z mollarini maqtash bilan ovora bo'lib, oynadan boshini chiqardi-yu, uning aravasi K.ning oyog'ini bosib olishiga sal qoldi, shunda ular bir-birlariga yuzma-yuz holda angrayib turib qoldilar. Qayerdadir grammonfon odamni jonidan to'ydirar darajada shovqin solar, har qalay, bu ovoz ancha-muncha o'ziga to'q mavzelardan kelayotgani aniq edi.

K. vaqtı qancha xohlasa shuncha yetarlidek, ko'cha bo'ylab sekin qadam tashlab borardi; go'yo shunda qaysi bir derazadan qarab turgan tergovchi K. bu yerga kelganidan xabar topadigandek edi. To'qqiz ham bo'lib qoldi. Uy esa hali ancha olisda, haddan tashqari uzun tushgan, ayniqsa, darvozasi tarvaqaylagan, har turli mollarni tashib yuradigan soyabon aravalar bermalol kirib-chiqishi uchun mo'ljallangan bino yaqinida edi. Hozir hovlidagi barcha omborlar qulflug'liq, K. ularning peshtoqiga yozilgan firma nomlariga ko'z tashlab bildiki, allaqanchasi ularning banki bilan o'z ishini bitiradi. K. o'zining fe'l-atvorida bo'lmasa ham, atrof-ga sinchiklab nazar soldi, hatto hovliga kirish joyida to'xtab ham oldi. Undan uncha olis bo'lmanan quti ustida bir kishi sarpoychan holda o'tirib olib, mukka tushgancha ro'znama o'qirdi. Ikki bolakay zambilg'altakni u yoq-bu yoqqa surib o'ynashardi. Bir ustuncha ustida hilviroq tungi ko'ylakchada kasalmand qizcha turar, uning ko'zasi suvgaga to'lganicha yo'q, o'zi bo'lsa K. dan hech ko'zini uzmadsi. Hovlining bir chekkasidagi ikki deraza orasiga arqon tortilgan, unda yuvilgan kiyimlar allaqachondan buyon osilib turardi. Pastda esa bir kishi baqirib-chaqirgancha ishboshilik qilardi.

K. tergovchining xonasiga ko'tarilish uchun zinalarga yetayozganda, birdan to'xtab qoldi: binoga qadam qo'yish uchun yana uchta kirish joyi bor bo'lib, hovlining to'rida ikkinchi bir hovliga o'tadigan torgina yo'lak ham ko'zga

tashlanardi. Qaysi go'rda ekan aytilgan xona, qayerdan topadi uni, belgilangan joyning aniq ko'rsatilmagani uning jig'ibiyronini chiqarardi; nima bo'lsa-da, odamni hayron qoldiradigan darajada unga loqayd va napisand munosabatda bo'lishdi, u, albatta, buni aniq qilib baland ovozda bildirib qo'yemoqni diliga tugdi. Nachora, u zinalardan yuqoriga ko'tarilar ekan, qorovullardan biri Villem ta'riflagandek, har qanday aybdorlik o'zini o'zi muqarrar jazo – sudga olib boradi, deb xayolan o'ylar ekan, o'z savqi tabiiysiga ko'ra, uning taxmini to'g'ri chiqishi kerak, u ko'tarilayotgan xuddi mana shu zinalar aynan tergovchining xonasiga olib borishi shartday edi.

U zinalardan ko'tarilar ekan, unda o'ynayotgan bolalarga har damda xalaqit berar, shuning uchun ham bo'lsa kerak, bolalar uni dushman ko'zi bilan kuzatib qolishardi. U o'z-o'ziga yanagi safar bu yerga kelinadigan bo'lsa, cho'ntakka bolalarni o'z tomoniga og'dirib olishga asqatadigan qand-qurs solib olish yoki o'ziga yo'l ochish uchun kaltak-paltak ko'tarib kelish kerak ekan, deb g'udranib qo'ydi. Hatto ikkinchi qavatda koptok pastga sirg'alib tushguncha kutib turishga ham majbur bo'ldi: ashaddiy bezorilar kabi ko'ringan ikki bolacha uning shimiga xippa yopishdi. K. bazo'r ularning qo'lini siltab, o'zini bo'shatar ekan, bu bolalarning jonini sal-pal og'ritib qo'ysam, ular uyni boshlariga ko'tarib dod-voy soladilar, deb juda qo'rqib ketdi.

Hammasi ikkinchi qavatda boshlandi. Harna bo'lganda ham u nima uchundir, tergov hay'ati qayerda joylashgan deb so'rashga botina olmadi va shu yerda birdan duradgor Lans nomini o'ylab topdi, bu familiya uning xayoliga qayerdan keldi dersiz – frau Grubaxning jiyani bo'lgan kapitanni shunday deb chaqirishardi, bu nomni tanlar ekan, har bir xonodon eshigini bemalol taqillatib, bu yerda duradgor Lans yashamaydimi, deb so'rayman va shu bahonada eshigi ochil-

gan har bir xonaga bir qur nazar solib olaman, deb ko'ngliga tugdi. Biroq bu bahonasiz ham aksariyat xonadonlarga razm solish mumkinga o'xshar, barchasining eshiklari lang ochiq, bolalar quvlashmachoq o'ynab, u xonadan bu xonaga o'tib, chopqillab yurishardi. Xonalarning ko'pchiligi bir derazali, tang-tor, uning oldida ayollar pishir-kuydir uchun kuymalanishardi. Ko'pgina ayollar bir qo'lida emizikli go'dagini ko'tarib olishgan, ikkinchisi bilan plita ustidagi yumushlarini ado etardilar. Hammadan ham ko'p o'spirin qizchalar behalovat g'izillab yurishar, aftidan, ularning egnida peshbanddan boshqa hech vaqo yo'q ko'rindi. Aksariyat xonalar yig'ishtirilmagan, karavotlarda odamlar ag'anab yotishar, ularning qaysisidir xasta, qaysisidir hali uyqudan uyg'onmagan, boshqalari shunchaki bekorchixo'jalikdan cho'zilib olishgan edi. Berk xonadonlardangina K. eshikni taqillatib, duradgor Lans bu yerda yashamaydimi deb so'rardi.

Aksariyat xonadonlarning eshigini ayollar ochishar, uning savolini tinglab bo'lgach, ichkariga boshlarini burib, karovtoda cho'zilib yotgan sohibi xonadonga qarab murojaat etardilar:

– Mana bu janob duradgor Lans qayerda yashaydi, deb so'rayapti!

– Duradgor Lansmi? – qaytib so'rardi o'rinda cho'zilgan kishi.

– Ha, – deb javob qilar ekan, K. ko'rardiki, hech qanaqa tergov hay'ati yo'q va, natijada, bu yerda uning boshqa ishi qolmagani ayon bo'lardi.

Ularning ko'pchiligi K. uchun duradgor Lansni topish kerak ekan, degan xayolga borganlaridan, uzoq o'ylanib turishar, ismi Lans bo'lman duradgorlarni eslab tilga olishar yoki „Lans“ deya alohida ohangda jaranglovchi bu nomni bilish-bilmasliklarini qo'shnilaridan surishtirib, K. ni kuzatishar ekan, biron-bir chekka xonadonda yangi bir kishi

qo‘yilgan bo‘lishi mumkin deb buni o‘zlariga qaraganda yaxshi biladigan boshqa birovning manzilini aytishardi. Xullasi kalom, qavatdan qavatga izg‘ib, tinka-madoridan ayrilgan K. bu so‘rab-surishtirishlardan hech bir ish chiqara olmadi. Boshida juda qulay, omadli ko‘ringan bu uydirmasidan oxiri uning ixlosi qaytdi. Oltinchi qavatga yetay deganda u bu qidiruvni butunlay bas qilish kerak degan qarorga keldi va yoshgina ishchi bilan salomlashib-surishtirarkan, yana ozgina izlamoq istagi tug‘ildi, shunda ham bo‘lmasa, pastga tushadigan bo‘ldi. Biroq shu joyda bu bema’ni tartib-qoidalardan asabi qo‘zib, u yana tepaga ko‘tarildi va oltinchi qavatda ko‘ringan birinchi eshikni qoqdi. Uning katalakdek xonada ko‘rgan birinchi narsasi devorda osig‘liq kattakon soat bo‘ldi, u roppa-rosa o‘nni ko‘rsatib turardi.

– Bu yerda duradgor Lans yashamaydimi?

– Kiravering! – dedi ko‘zлari charaqlab turgan yoshgina juvon unga. U bolasingin kiyimini tog‘oraga solgandi, ho‘l, mag‘zavali qo‘llari bilan eshigi ochiq qo‘shni xonani ko‘rsatdi.

K. avvaliga majlis bo‘layotgan xonaga kirib qoldim deb o‘yladi. Bu yerda turli xil kishilar guruhi uymalashar, o‘rtacha kattalikdagi ikki derazali xona odamga liq to‘la, hatto shipgacha ham yetgan, ship tagidagilar boshlari tegmasligi uchun egilibgina turishardi; ularning hech biri aytarli darajadagi e’tibor bilan K.ga razm solishmadidi. K. bu yerda bo‘g‘ilib, diqqinafa bo‘lib ketdi va xonadan chiqib, meni tushunmagandir, deb yosh juvonga dedi:

– Men duradgor Lansni surishtirgandim?

– Yaxshi, – dedi yoshgina juvon, – marhamat qilib ichkariga kiravering!

Ehtimol, shu gapdan keyin K. uni tinch qo‘ygan bo‘lardi, ammo yoshgina juvon uni boshlab kelib, nozikkina qo‘lchalar bilan eshik dastagidan ushladi-da, dedi:

— Men sizning ortingizdan eshikni mahkamlashim kerak, qolaversa, boshqa birov bu yerga kirishi mumkin emas.

— Aqli gap bo'ldi, — javob qildi K. — Shuningsiz ham u yer odamga liq to'la. — Biroq shunga qaramay u yana shu xonaga yo'l oldi. Naq eshikning oldida ikki erkak gurunglashib o'tirishar: biri, ikkala qo'lini qimirlatib go'yo pul sanayotganday harakatlar qilar, ikkinchisi, diqqat bilan uning ko'ziga tikilib turardi; ularning orasidan allaqanday qo'lcha chiqib kelib, K. ni mahkam tutdi. Bu kichkinagina qizilmag'iz bolakayniki edi.

— Yuring, yuring, — dedi u.

K. ana shu kishilar uymalashgan joy orqali o'tmoqchi bo'ldi, har qalay, torgina bo'lsa-da, o'rtaliqda kichkinagina yo'lak bo'lib, bundagi kishilarning ham ikki guruuhga bo'linib olganini fahmlasa bo'lardi, bu gapda jon bor, K. birinchi qatordagilardan birortasining ham yuzini ko'ra olmadi, ularning bari o'tish yo'lagiga orqa qilib olgancha o'tirishar, faqat o'z guruhining gap-so'zлari bilan andarmon edilar. Hammalari bayramgi, ammo to'zigan, halpillagan, qora kamzul kiyib olishgandi. Xuddi shu bir tusli kiyimni ko'rib miyasiga bir fikr keldi, u qanaqadir siyosiy tashkiloting tuman miqyosidagi yig'ilishiga tushib qolibman, deb o'yladi.

K. boshlab borilgan zalning u boshida pastgina, yana da odamga tirband katlarning birida uncha katta bo'lma gan stol qo'yilgan bo'lib, o'sha katning chekkasida bir kaltabaqay baqaloq harsillab o'tirar, ortida turganlar bilan qisqa-qisqa gaplashar ekan, baland ovozda xaxolab kulib qo'yar, oromkursiga bir tirsagini suyagancha turar, oyoqlarini esa chalishtirib olgandi. U yana kimgadir mas-xaraomuz taqlid qilayotganday, qo'lini yuqoriga ko'tardi. K. ni yetaklab borgan bolakay ming bir mashaqqat bilan bu haqida xabar berishga urinardi. Bola xabar berishga oshi-

qib, ikki bor zanjirchasini ko'tardi, biroq oromkursidagi kishi unga hech ham diqqat qilmadi. Faqat katda turganlardan biri unga bolakayni ko'rsatgachgina o'sha tomonga burilib, engashgancha bolaning xotirjam ma'ruzasini tingladi. Va shu zahoti yon cho'ntagidan soatini olib, shartta K.ga razm soldi.

– Siz rosa bir soat-u besh daqiqa oldin shu yerda hozir bo'lishingiz kerak edi, – dedi u.

K. unga nimadir deb javob qilmoqchi edi, biroq ulgurolmadi, baqaloqning luqmasi tugar-tugamas, zalning o'ng qismida ko'tarilgan ovozlar hamma yoqni bosib ketdi.

– Siz rosa bir soat-u besh daqiqa oldin shu yerda hozir bo'lishingiz kerak edi, – ovozlarni bosib, gapini yana qaytardi baqaloq va shoshib-pishib quyiga qaradi. Olomon battar guvulladi, ammo baqaloq hech nima demaganidek, shovqin ham bora-bora tinib qoldi. Zaldagilar ham K. kirgan paytdagiga qaraganda ancha xotirjam bo'lib qolishgandi. Biroq galereyada o'tirgan kishilar hamon bir-birlari bilan gap talashib yotishardi. Bu yarim qorong'i, chang-to'zonli, is-tutunga to'lgan xonada bir narsani ko'rish juda qiyinligiga qaramay, ular pastdagilarga qaraganda aftoda kiyinganliklarini sezish unchalik qiyin emasdi. Ko'pchiligi o'zлari bilan birga to'shamma sholchalar olib kelishgan, pastdagi kishilarning boshlari va shift oralig'ida terdan pishib, ishqilib, qonni-da artishga to'g'ri kelmasin, deb qisinib-qimtinib o'tirishardi.

K. gapirib o'tirgandan ko'ra ko'proq, asosan, kuzatishga qaror qildi, o'zini oqlash payida ham bo'lindi, faqatgina bir og'iz dedi:

– Mayli, men kech qolib kelgan bo'lay, biroq aytilgan joyga kelib turibman-ku.

O'ng tomondagilar chapakbozlik qilishdi. Bular o'zlarini namuncha yengiltak tutmasalar, deb o'yładi K. Uni faqat ikkinchi taraf dagilarning jimligi dovdiratib qo'ydi, uning orqa

tarafida yakkam-dukkam chapak bo‘ldi. Bu olomonga u ni-manidir shunday bir alfozda aytishi kerakki, ishqilib, ham-maning diqqati o‘ziga qarasin, agar buning imkoniyati yo‘q ekan, jilla qursa, vaqtincha bo‘lsa ham xaloyiqning ikkinchi qismini o‘z tomoniga og‘dirib olishi kerak, deb o‘ylardi u.

— Him, shunaqami, — deb sado berdi katlardan birida o‘tirgan kishi, — biroq endi men sizni tergov qilishga burchli emasman. — Va yana hamma yoqni olomon hayqirig‘i — hushtakbozlik tutib ketdi, bu juda ham haddan oshish edi, shuning uchun u qo‘rslik bilan pastga qarab chinqirdi-da, so‘zida davom etdi: — Mayli, bugunchalik bunga istisno tariqasida qaraganim bo‘lsin. Biroq kechikib kelish ikkinchi bor qaytarilmasligi kerak. Endi bo‘lsa, yaqinroq keling.

K.ga joy bo‘shatish uchun kimdir o‘rnidan sakrab turdi va u o‘sha joyga ko‘tarildi. U tergovchining naq peshonasiga, stol oldiga kelib qoldi, chunki orqasi olomon bilan liq to‘la, kishilar bir-birini surib, oldinga intilishar, yo‘qsa u tergovchining stoliga, tergovchi esa unga shunchalik yaqindan ro‘para kelib o‘tirarmidi?

Ammo tergovchi bundan sira ham bezovtalanmadi, ak-sincha, oromkursiga yanada qulayroq joylashib oldi-da, or-qasida turgan kishi bilan gurungini bamaylixotir nihoyasiga yetkazdi, so‘ngra esa stolda turgan bor-yo‘q narsa — kichkinagina yondaftarchasini qo‘liga oldi. O‘quv daftariga o‘x-shab ketadigan yondaftarcha titkilanaverganidan eskirib, to‘zg‘ib ketgandi.

— Demak, bunday, — tergovchi avvaliga shunchaki ming‘irlab qo‘ydi, bir zumdan keyin esa K.ga savolomuz qarab, ishonch bilan dedi: — Siz bo‘yoqchimisiz?

— Yo‘q, — dedi K. — Men yirik bir bankning ish yurituv-chisiman.

Uning javobidan o‘ngdagi guruhning hammasi qahqaha otishdi, hatto zavqi kelganidan bu kulgiga K.ning o‘zi ham

qo'shildi. Kishilar to'xtatib bo'lmaydigan yo'talga chalingsanday jazava bilan, silkinib-silkinib, qo'llarini tizzalariga urib shapillatishardi. Hatto galereyada – tepada o'tirganlardan ham kimdir qiqirlab kului. Bundan tergovchining astoydil achchig'i chiqdi, pastda o'tirgan kishilarga qarshi biron-bir harakat qilishga u ojiz ko'rinar va bu mushkul ahvoldan chiqib ketish uchun ham yuqoridagilarga qarab sapchidi, o'midan sakrab turdi-da, mushtini do'laytirib, ularga dag'dag'a qildi, uning bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan qora, baroq qoshlari naq qanshariga qo'shilib ketgudek bo'ldi.

Biroq zalning chap yarmi hamon suv quygandek jimjiti edi. Shundoq yonma-yon turgan bu kishilar, katlarga yuzma-yuz o'tirgancha, xotirjamlik bilan tepadagi gurungga va o'ng yoqda bo'layotgan shovqin-suronga qulqutishardi, hatto vaqt o'tgan sari ulardan bir qismi ikkinchi guruhi qo'shilib ketayotganiga ham qaramay, biron-bir narsa deyishmasdi. Chap tarafdagagi bu kishilar guruhi o'ng yoqdagilardek ko'pchilikni tashkil qilmas, aytarli ta'sir kuchiga ega emas, nufuzlari ham shunga yarasha nochor, baribir ularning borligi butun bir xotirjamlik uchun ahamiyat, zalvor kasb etib turardi. K.ga bu guruhdagilar uning fikriga someday ko'rindi.

– Men bo'yoqchi emasman, janob tergovchi, sizning bu savolningiz kurakda turmaydi, qolaversa, u hech bir tortishuv-siz ko'rilibayotgan ishning boshidanoq menga qarshi, faqat qoralashdan, bo'lsa-bo'lmasa aybni bo'ynimga qo'yishga qaratilganligini isbotlab turibdi. Siz, ehtimol, bu fikrga e'tiroz bildirib, hali hech qanaqa ish ko'rilibayotgani yo'q, hammasi qonun asosida olib boriladi, desangizgina haq bo'lib chiqasiz, negaki men hammasini bo'ynimga olib, iqror bo'lsamgina, so'ng ish ko'rilyapti deb hisoblash mumkin. Yaxshi, shuni tushuningki, ayni pallada sizga hurmatim bois, istisno tariqasida roziman, mayli, bunga biron-bir sabab bo'lsa ke-

rakki, shu ish ko‘tarilibdi. Faqat siz ham marhamatingizni darig‘ tutmasangiz, nima sodir etilgan bo‘lsa, umuman hammasi, boshidan oxirigacha diqqat bilan ko‘rib chiqilsa. Ko‘rilayotgan ish apil-tapil, chala-chulpa yopib qo‘yilishi haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas, buni ayniqsa o‘zingiz chuqur his qilishingizni, mas’uliyat bilan yondashishiningizni istar edim.

Zalga qarab olgancha gapiroayotgan K.ning chakagi tinay demasdi. Kesib-kesib tashlash maqsadida aytilgan bu gaplar keskin, biroq barchasi to‘g‘ri edi. U bu gaplari bilan u yoki bu guruh uni qo‘llab-quvvatlashi uchun hech bir shubha-gumonga o‘rin qoldirmay, ancha-muncha ish ko‘rsatib qo‘ydi, biroq hamma yoq suv quygandek sokin, hamma bu yog‘i nima bo‘larkin, deb orziqib kutishar, bu sukut oxir-oqibat qattiq portlash bilan yakunlanishi ehtimoldan xoli emasdi. Biroq shu on bemavridgina eshik ochildi va zalga yoshgina kirchi juvon qadam qo‘ydi. U o‘z ishini nihoyasiga yetkazgani ko‘rinib turardi, juvon qanchalik ehtiyyotkorlik bilan cho‘chinqirab, imkon qadar boshqalarning ko‘zini o‘ynatmaslikka harakat qilgan bo‘lsa-da, ko‘plar unga ko‘zlarini lo‘q qilib, yeb qo‘ygudek harislik bilan tikilishdi. K.ning esa tergovchiga ko‘zi tushib chinakamiga xursand bo‘lib ketdi: nazarida, gaplari unga kor qilgandek tuyuldi. Tergovchi uning gaplarini tik oyoqda tinglagan, chunki yuqori galeriyadagilarning popugini pasaytirish uchun K. gapini boshlasmasdanoq u turib olgandi.

Mana, nihoyat, bir zumlik tinchlik cho‘kkanidan foydalaniib, go‘yo buni hech kim bilishni istamagandek, tergovchi oromkursiga sekinlik bilan o‘tirdi. Va yana hayajonga tushmaslik uchun, ehtimol, shu zahoti daftarchasini qo‘liga oldi.

— Janob tergovchi, hech nima sizga yordam berolmaydi, — deb davom etdi K., — ha, ha, daftarchangizdagiyaydlar ham faqat mening so‘zlarimni tasdiqlaydi.

Shunga yarasha bir qoniqish bilan zalda faqat uning vazmin ovoziga hukmfarmolik qilar, K. hatto hech bir qochiriq qilmasdan ham shartta, biroq undan jirkangan-dek barmog‘ining uchi bilan tergovchining daftarchasini olishga jur’at etdi va undagi sarg‘ayib ketgan joyini ochar ekan, uning ikki tomoni ham mayda-chuyda harflar bilan bo‘yab-chatib yozilgan edi.

– Mana bu tergov-qidiruv hujjatlari deb ataladi! – der-kan, „shap“ etib stolni urgancha, daftarchani sovuqqonlik bilan joyiga tashladi. – Janob tergovchi, bu ayblovlarining qator-qator ro‘yxati meni hech ham dahshatga sololmaydi, ularni istak bo‘lsa, ehtimol, ipidan ignasigacha o‘qib chiqish mumkin. Lekin u bilan tanishib chiqishning hojati bor-mikin, chunki ularning biri ikkinchisiga ikki tomchi suvdek o‘xshaydi, shu bois, men bu tentaklikka nima qilaman borib, ha-ha, unga qo‘limni ham tekkizmaganim bo‘lsin.

Daftarcha stolga kelib tushishi bilan, tergovchi unga yopishdi va xuddi shu zumdan bu yerda tartib o‘matish pa-yiga tushgandek, mukka tushib daftarchani o‘qishga tutindi, ehtimol, bu yuz bergen vaziyat o‘zini qattiq xo‘rlash deb tushunganidan, hech bo‘limganda, ma’lum ahvolni shunga yaqinroq qabul qilganidan edi.

K. pastdagi, unga sinchkovlik bilan qarab turgan birinchi qatordagilarning yuziga beixtiyor ko‘zi tushdi. Ularning aksariyati ko‘pni ko‘rgan erkaklar bo‘lib, hatto ba‘zi birlarining soch-soqoli oqargan ham edi. Ehtimol, ular boshqalarga ta’sir etmoq uchungina bu xo‘jako‘rsin tomosha uyuştiril-gan degan qarorga kelib olishgan, shuning uchun ham tergovchining izza bo‘lishiga parvosiz qarab turaverGANLARI kabi K. nutq irod etganda ham dong qotib o‘tirishar, hech bir sas-sado chiqarishmasdi.

– Xo‘p, qani, men qanday aybni sodir etibman, – birinchi qatordagilarga jiddiy nazar tashlab, biroz xotirjam holda K.

gapini davom ettirar ekan, uning nutqi negadir poyintar-soyintar chiqdi. — Ha, qani, mendan nima o'tibdi, aytin, agar u faqat mening shaxsiy hayotimga daxldor bo'lsa, bu yerda uni muhokama qilib o'tirish kerak emas, shundan ke-lib chiqib bu hodisani men yuragimga yaqin olib yurmay-man, biroq bu voqeа shunday bir namunaki, juda ko'plar-ning ishi hech keraksiz, noo'rin bir vaziyatda mana bunday telbalarcha ko'rib o'tiladi. Ha, faqat o'zim uchungina emas, shundaylarning bari uchun ichim yonib-kuyadi-da.

K.ning ovozi beixtiyor ko'tarilib ketdi. Shunda kimdir qo'llarini baland ko'tarib, uni olqishladi va bo'kirib dedi:

— Yashavor, azamat! Xuddi shunday qilish kerak edi. Ofa-rin! — Oxirida u yana bir bor gapini qaytardi: — Yashavor!

Oldingi qatordagi ba'zi birovlar esa parishonxotirlik bilan soqollarini tutamlab qo'yishdi-da, bu sadoga zarracha ham e'tibor qilishmadi. K.ning o'zi bu olqishdan ancha ruhlanib olgan bo'lsa-da, unga juda ko'p ahamiyat berib turmadi: u hatto butun davra uni olqishlab, qarsakbozlik qilishi shart emas deb hisoblar, faqatgina nima sodir bo'layotgani xu-susida bu yerda yig'ilganlarning barchasi xayolga tolib bosh qotirib ko'rsalar yomon bo'lmasdi, deb bilar, hech bo'lma-sa, ularning ozginasiga haqligini uqtirolsa va o'z tomoniga og'dirishga muvaffaq bo'lsa, shuning o'zi unga yetarli edi.

— Men notiqlik bo'yicha biron-bir muvaffaqiyatga erish-moqchi emasman, — K. o'z o'ylariga javoban shunday dedi. — Bu mening imkoniyatimdan tashqaridagi narsa. Bal-ki, janob tergovchi menga qaraganda yaxshi gapira oladilar, qolaversa, uning kasbi ham gapga chechanlikni talab eta-di. Men faqat bir narsani — qonunlar ochiqdan ochiq bu-zilayotganini oshkora muhokama qilishni istayman. O'zla-ring o'ylab ko'rib bir qarorga kelinglar: bundan o'n kun oldin men hibsga olindim. Bu ma'lumotning o'zi men uchun kulgili tuyuladi, ammo hozir so'z bu haqda emas. Erta tongda

hali men joyxobimdan turmasimdanoq, menga daxl qilishib, qo‘lga olishdi, ehtimol, bu sud tergovchisining buyrug‘iga ko‘ra bo‘lgandir. Lekin bu bilan sodir etilgan noxushlikdan ko‘z yumib bo‘lmaydi, ha, ehtimol, allaqanday bo‘yoqchini qo‘lga olish kerakdir, ammo bu ko‘rgilik men kabi bir aybsiz insonning boshiga tushdi. Menga devor-darmiyon bo‘lgan qo‘shni xonani ikki go‘rso‘xta – qorovullar egallab olishdi. Go‘yoki men o‘taketgan kallakesar qaroqchiman-u, bunga yengil-yelpi qaramaslik uchun haddan tashqari ehtiyyot chorasi ko‘rildi. Bundan tashqari, bu kishilar buzuqbosh, borib turgan firibgarlar ko‘rinadi, laqillab mening rosa boshimni qotirishdi, do‘q-po‘pisa qilib biron narsa undirmoqchi bo‘lishdi, o‘zlaricha to‘planib olishdi-da, allaqanday vaj-karsonlarni ro‘kach qilib, mening jami kiyim-kechagimni ayyorlik bilan o‘zlariniki qilib olishmoqchi bo‘lishdi. Menga nonushta keltirib berishni va‘da qilib, pul talab qildilar, qolaversa, mening ko‘z oldimda bezbetlarcha menga atab tayyorlangan nonushtani paqqos tushirishdi. Biroq, bu hali hammasi emas. Meni uchinchi bir xonaga olib o‘tishdi. Unda bu shotirlarning nazoratchisi tanda qo‘ygan ekan. Bu xonada men haddan ortiq hurmat qiladigan bir xonim yashardi. Shu narsaga guvoh bo‘ldimki, mening hech bir aybimsiz, lekin aynan mening uchun bu xonaga nazoratchi bilan kirgan qo‘riqchilar uni qay darajadadir rasvosini chiqarishdi. O‘zni tutib turish juda qiyin edi. Ammo men sabr-bardosh bilan o‘zimni tutib, nazoratchidan meni nega hibsga olishgani sababini so‘radim, agar nazoratchi shu yerda bo‘lsa, buni sizga tasdiqlab berishi ham mumkin. Nazoratchi bunga nima deb javob berdi deng? Xuddi hozirgiday ko‘z oldimda turibdi: u hali sizga eslatgan xonimning oromkursisida ahmoqona takabburlik bilan yalpayib olgancha o‘tirardi; o‘, janoblar, gapning po‘skallasini aytganda, u menga hech nima deb javob qilolmadi, ehtimol, u haqiqatdan ham bu haqida

hech bir narsani bilmas, buyruqni bajarib, meni hibsga olgan-u, shu bilan ko'ngli tinchigandir. Bundan ham yomoni, u xonimning xonasiga mening bankimda yugurdaklik qilib yuradigan uch xizmatchini chaqirib kiritdi, ular esa xonimga tegishli, tartib bilan joylashtirilgan fotosuvratlarga tird'alib, xayollariga nima kelsa, shuni qilishdi, xonadagi hamma narsani ag'dar-to'ntar qilib tashlashdi. Tushunishimcha, bu yerda shu xizmatchilar bilan birga tergov ishlari olib borish-moqchi bo'lib, aynan bir maqsadni ko'zlashgan, ya'ni, avvalo, ijara xonam bekasi va uning xizmatkorlari orqali mening hibsga olinganligim haqidagi xunuk xabarni keng yoyishlari, bu bilan esa mening obro'-e'tiborimga ziyon-zahmat yetka-zishmoqchi, asosiysi, bankdagi nufuzimga darz solmoqchi bo'lishgan. Ammo bundan hech nima, mutlaq hech nima chiqmadi, hatto mening ijara xonam sohibasi, oddiy, xokisor bir ayol bo'lishiga qaramay, men uning nomini ehtirom bilan tilga olaman: hatto frau Grubax ham bunaqa hibsga olish ko'prik ostida yoqalashadigan bolakaylarning o'yinidan ortiq ahamiyatga ega emasligini tushunib yetibdi. Takror bo'lsa ham aytaman, bu men uchun faqatgina ko'ngilsizlik keltirib chiqardi. Bir kunlik o'tar-ketar xafachilik qirq kunlik barakani uchiradi, buning oqibati ertaga battar yomon bo'lmasa edi, deyman?

K. shu joyda gapirishdan to'xtadi, u miq etmay o'tirgan, ammo imo-ishora bilan pastdagilardan qaysi biri bilandir tillashayotgan tergovchiga ko'zi tushib qolgandi.

K. tabassum qilib dedi:

— Hozirgina janob tergovchi qatorda o'tirgan kimgadir maxfiy bir ishora qildi. Demak, sizlarning ichingizda shunday kishilar borki, o'z joyida o'tirgancha davrani yo'nalti-rib turadi. Bilmadim, uning alomati hushtakbozlikmi yoki qarsakbozlikka chorlashmi, har qalay, ularning til biriktir-gani aniq, ammo bu sariq chaqaga arzimasligini oldindan

bo'lsa-da ayta olaman. Rost, eng baland nuqtadan turib aftyapman, menga buning hech farqi yo'q, shu bois men janob tergovchiga o'z ishini ochiq-oydin adog'iga yetkazish huquqini bermoqchiman, nima qiladi sir tutaman deb qiy-nalib, qandaydir imo-ishoralar bilan ishini bajaraman deb ovora bo'lish shartmi, undan ko'ra huv anavi pastda o'tirgan o'zining shogirdlariga, istasa to'g'ridan to'g'ri, hammaning oldida oshkora „Hushtak chalinglar“ deb amr qilsin yoki boshqa safar shu kerak ekan, „Qarsakbozlikni boshlang“, deb ochiq-oydin aytsin.

Tergovchi xijolat bo'lganidanmi yoxud sabri chidama-ganidanmi, o'rnidan turib ketdi. Uning orqasida turib ter-govchi bilan avval ham shakarguftorlik qilgan kishi yana u tomon nimadir demoqchi bo'lib engashdi, u tergovchining ko'nglini ko'tarmoqchi yoki unga biron-bir jo'yali masla-hat bermoqchi edi chog'i. Pastdagi kishilar past ovozda shivirlashib gaplashar, ular ancha jonlanib qolishgandi. Ikki guruhdagilar, boshda o'z fikrlariga ko'ra go'yo alohi-da-alohida ko'rinar edilar, endi bo'lsa buni bilib bo'lmas, aralash-quralash bo'lib ketgandilar, shunday bo'lsa-da, biri barmog'i bilan niqtab K.ni ko'rsatsa, ikkinchisi tergovchiga qo'lini bigiz qilardi.

Odamga liq to'la xona, quyuq tutun kishini bo'g'ib o'l-dirar darajadagi dimlikni keltirib chiqardi, hatto sal narida turgan kishini ko'rib bo'lmay qoldi. Ayniqsa tepe-galereyada o'tirganlarga bu azob bo'ldi, ularning chekiga noqulay joy tushgan, qo'rqbina tergovchiga qarab qo'yishar, ko'rileyot-gan ishdan bexabar qolmaslik maqsadida tepadan turib past-dagilardan so'rab-surishtirishardi. Javob qaytaruvchilar ham shunga yarasha og'izlarini kaftlari bilan berkitib, shivirlab-gina bir nima derdilar.

– Hozir tugataman, – K. shunday derkan, u yerda qo'n-g'iroq yo'qligidan, mushti bilan stolga urib taqillatdi, qo'r-

qib ketgan tergovchi va uning maslahatchisi bir-biridan chetlandilar. – Bu ishlarning menga hech aloqasi yo‘q, shu bois ham bu xususda mening ko‘nglim to‘q, xotirjam o‘z fikrimni aytaveraman, biroq gapimga qulqoq solsangiz bu sizlar uchun zarar qilmaydi, albatta jinoiy ish ko‘rilishiga ixlosi bo‘lganlarga yanada asqotib qolishi mumkin. Buni shunchalikka borib, muhokama qilib o‘tirish nimaga kerak, men ham bekorchixo‘ja emasman, vaqtim juda tig‘iz, hali-zamon bu yerdan ketaman, shu bois, astoydil bu ishning ko‘rilishi to‘xtatilishini so‘rayman.

K.ning gapi davraga qattiq ta’sir qilgan, butun yig‘ilganlarni tamoman asir etgandi. Shu onda hamma yoq suv quyganday jimb qoldi. Boshda bo‘lgan holat takrorlanmadi, hech kim boshqaga qarab qiyqirmadi yoki ma’qul-lagan ohangda biron-bir joydan qarsak ovozi ham chiqmadi. Aftidan, qariyb hamma nimagadir ishongan yoki ishonishga tayyor turganga o‘xshardi.

– Hech shak-shubhasiz, – K. juda ham xotirjamlik bilan gapini davom ettirdi, butun davraning unga astoydil diqqat-e’tibor qilayotgani, so‘zini jon qulog‘i bilan eshitayotgani ko‘nglini chog‘ etdi, shu bilan birga sukunatdan tug‘ilib kelgan g‘ala-g‘ovur, ayniqsa, qarsakbozlik, olqishlar uning ruhini ko‘tarib yubordi, – hech shubha yo‘qli, mening taqdirim misolidagi bu hibsga olish, bu sud jarayonining hamma-hammasi, uni bugungidek ko‘rib chiqish ulkan bir tashkilotning ishi desa arziydi. Bunday tashkilot o‘z ish yo‘rig‘ida faqat sotib olingan qorovullarga ega bo‘lib qolmasdan, kaltafahm nazoratchi-yu tergovchilarga, yuqori va past darajadagi sud hakamlariga, jandarm va ularning yordamchilariga, mirza va yana allaqancha hisobsiz xizmatchilar, ha, hatto, men bu so‘zni aytishdan hech ham qo‘rqmayman – mirg‘azab jallodlarga egadir. Ammo janoblar, bunday bosh-adog‘i yo‘q ulkan tashkilot nima maqsadda ish olib boradi?

Xuddi mening taqdirimda yuz bergandek, gunohsiz kishilarni hibsga olish, ularga qarshi jinoiy ish qo'zg'ab, bor bema'ni, aslida, yo'q ayblarni taqash biron-bir ijobiy natijaga erishib bo'lmaydigan sud jarayonidir. Butun bir tizimning ana shunday mutlaq bema'nilik asosida ish yuritishidan, balo-qazoday yopirilgan to'ralarning ashaddiy ishratbozligidan qanday qilib qochib qutulish mumkin? Bunga muyassar bo'lish dushvor, bunday sharoitda eng yuksak maqomdag'i qozi ham halol qola olmaydi. Shuning uchun ham qo'riqchilar hibsdagilarning kiyim-kechagini o'marish, o'ziniki qilish payida bo'ladi, shuning uchun bu soqchilar hamrohligidagi nazoratchi begona bir xonadonga eshigini buzgudek kirib boradi, yana bu ham yetmagandek, shuning uchun ham hech bir aybi yo'qlarni so'rabb-surishtirmasdan butun bir davra oldiga chaqirib, sharmisor qiladi. Soqchilar menga qamoqqa olinganlarning kiyim-kechaklari saqlanuvchi omborlar haqida u-bu narsani aytib berishdi, bu bilan men omborlarning qanday ekanligini tasavvur qilishimni ko'zlashdi chog'i, chunki bu kiyim-kechaklarni mabodo baxti chopibmi yoki nazariga ilmaymi, hibsdagilarning narsasi o'g'ri xizmatchilar tomonidan talon-toroj qilinmaganida ham irib-chirib ketar ekan.

Biroq shu payt xonaning bir burchagidan chiqqan qiy-qiriq ila K.ning nutqi bo'linib qoldi. U yaxshiroq ko'rish umidida ko'zi ustiga qo'lini soyabon qilib qaradi, biroq xira chiroq yorug'ida oqarishibgina turgan, tutunga liq to'la xonada buning iloji bo'lmasdi. Uning sababkori kirchi juvon edi: juvon kirib kelgandayoq turgan-bitgani xalaqit berishdan iborat bo'lganligini K. ham tushunib turardi. Ammo hozir u buning uchun aybdormi yoki yo'q – buni aytish qiyin edi. K. faqat eshik yonida turgan allaqanday bir erkak unga xiralik qilib, ochofatlarcha juvonni bag'riga tortganini ko'rib qoldi. Biroq bu uchun juvon emas, balki erkak ayyuhannos soldi,

so'ng shift yaqinida joylashib, og'zini katta ochib homuza tortdi. Bu K. davraga olib kirgan jiddiylikka putur yetkazgan, erkakni yon-veridan joy olgan tepa-gallereyadagilar unga yanada yaqinroq kelib olgancha bu odamga boshqacha bir hayrat ko'zi bilan qarab turishardi. K. birinchi taassurot ila o'z o'midan sakrab turib, o'sha yoqqa borishi, bunda hamma istayotgandek tartib o'rnatishi, hech bo'limganda bu juftni zaldan chiqarib yuborishga qaror qildi; biroq birinchi qatordagilar siqilib, tizilib o'tirishar, hech biri joyidan qimir-lamas, K. biron-bir harakat qilganda ham unga yo'l bo'shatib beradigan ko'rinasdi. Qaytaga unga xalaqit berishardi: qariyalar qo'lllarini oldinga uzatishgan, ulardan qaysi biring qo'li yoqasiga tegib turar, hech ham qayrilib qarashning fursati emas, mabodo bu yuz bersa, g'ippa bo'g'zidan oladi-ganday edi. K. qariyb bu oshiq-ma'shuq juftni esidan chiqardi va atrofini qurshab turgan bu olomon uni shu holicha hibsga olib o'tirgani xayoliga keldi va uning ozodligiga daxl qilayotganday bo'ldi, bu uni o'rtab yubordi, u sakrab turib katdan pastga tushdi. U endi olomon bilan qariyb yuzma-yuz turardi. Nahotki bu olomon haqida u noto'g'ri fikrga borgan bo'lsa? Nahotki, u o'z nutqining bu kishilarga ta'sir qilishiga butun umidini tikkan bo'lsa? Nahotki ular shunchalikka borib hammasini uyushtirishgan, bilib turib mug'ambirlik qilishgan, endi esa bu qilg'iliklari jonlariga tekkan bo'lsa? Uning tegrasini qanday kishilar o'rabi oldi o'zi?! Kichkina bit ko'zlar atrofga olazarak qaraydi, yelkalariga gadoyto'rva ildirib olishgan, xuddi mast-alastlardek, yakkam-dukkam, soqollari yovuzona hurpayib turadi, ularning qo'llariga erk bersa bormi, go'yo erkin qo'llarni bukib-bog'lab qo'yadigan, bu ular uchun hech nima emasdek ko'rinaldi. Uning yoqasidagi turli rang va o'lchamli bir xil belgilarning shu'la sochib ko'zga tashlanib turishi K. uchun chinakamiga kashfiyot bo'ldi. Hammada bor bu belgililar nimaga, kimning

ko‘zi uchun qilingan. Demak bu kishilarning o‘ng va so‘l guruhlarga bo‘lingandek ko‘rinishi xo‘jako‘rsin uchun, holbuki, hammasining tili bir, u to‘satdan katga boshini burib, tergovchiga ko‘zi tushgan edi, kishilardagidek uning yoqasida ham o‘shanday belgini ko‘rdi va u qo‘llarini tizzalariga qo‘yib, xotirjam quyiga qaradi.

– Mana gap nimada! – K. ovozini baland ko‘tarib gapirish bilan birga, qo‘lini ham ko‘tarib, shiftga niqtadi, qo‘qisidan qilingan bu harakat ko‘p narsani anglatgandek edi.

– Demak, sizlarning barchangiz amaldorlarsiz! Endi menga bularning barchasi ayon. Bu – hammalaringiz sotilgan, zanjiri bir-biriga bog‘liq to‘dasiz, qaysiki hozirgina men bunga qarshi so‘z aytdim, ha, ha, sizlar hidlab-iskab topmoq, o‘z ko‘zlarining bilan ko‘rib, o‘z quloqlaringiz bilan eshitmoq uchun bu yerga yopirilib kelgansiz va ko‘zni shamg‘alat qilib, chalg‘itish uchungina ikki guruhga bo‘linib, meni olqishlab turgan ekansiz; bu bilan faqat mening misolimdagи begunoh bir kishini qanday qilib qiyabn-abzoblashni tajribada sinab ko‘rmoqchi bo‘lgansizlar. Siz o‘zi nimaga umid qilyapsiz, goh nimaningdir ustidan kulasiz, goh bo‘lsa begunohning himoyasini kutgandek harakatlar qilasiz, goh esa... bu har maqomga yo‘rg‘alashingizning bari-bari siz uchun behuda mashg‘ulot... Qo‘yvor meni, bo‘lmasa hozir ayamasdan solaman! – U o‘ziga hammadan ko‘ra ham yaqinroq kelib qolgan qaltilroq qariyaga qarab baqirdi. – ...bu ham yetmaganday, yana bir balolarni o‘rgatmoqchi bo‘ldingiz. Shularga qaramay ham men sizning xizmat vazifangizga omad yor bo‘lishini tilab qolaman.

U stolning bir chetida yotgan shlyapasini qo‘liga oldi va bu yerdagilarni mutlaq hang-manglikda qoldirib, eshikka yo‘naldi. Biroq, aftidan, tergovchi K. dan peshqadamroq chiqqan, u K.ni eshik oldida kutardi.

– Bir daqiqaga, – dedi u. K. to‘xtadi, lekin u allaqachon eshik dastasini tutgan, nigohi ham tergovchida emas, eshikda edi. – Men faqat bir narsaga e’tiboringizni qaratmoq istar edim, – davom etdi tergovchi, – ehtimol, siz bugun, o‘zingiz anglamasdan turib, har qanaqa sharoitda hibsga olinganda beriladigan tergovni ortiqcha bo‘rttirib yuborib, o‘zingizga g‘alva orttirdingiz.

K. eshikdan hamon nigohini uzmay qahqaha otdi.

– Voy ablah-e, – baqirib dedi K. – E, o‘sha tergovning bilan qo‘shtozor bo‘l! – u eshikni ochdi-da, zinalardan choppib tushib ketdi.

Uning ortidan g‘ala-g‘ovur ko‘tarildi. Davra yanada jontlandi. Aftidan, shu yerda nima sodir bo‘lgan bo‘lsa, hammasini ipidan ignasigacha ilmiy bahs ko‘rinishida muhokama qilib olmoqchi bo‘lishdi chog‘i.

III bob

Bo‘m-bo‘sh majlisxona. Talaba. Devonxonada

K. keyingi haftada har kuni yangi chaqiruvga xabar kutdi, u o‘zining so‘roq berishdan bosh tortganini yakdil qabul qilinganiga ishonolmas, kutilgan yo‘qlov xabari shanba kuni ham kelmagach, o‘zicha bu jimlikni ayni o‘sha vaqtda, o‘sha uyga kelishga taklif deb tushundi. Shuning uchun ham yakshanbada u yana o‘sha joyga yo‘l oldi, to‘g‘ri o‘sha yo‘lakka kirib, zinalardan o‘sha qavatga ko‘tarildi, ayrim uy egalari uni tanib qolishgan, xonadonlari eshigi oldida turib, u bilan salomlashishardi, biroq ulardan biron-bir narsa surishtirmasdan, kerakli eshikni o‘zi topdi. Eshik taqillashi bilanoq ochildi. K. esa eshik oldida turgan tanish juvonga bir qurnazar tashlamasdanoq, navbatdagi xonaga o‘tmoxni istadi.

– Bugun yig‘ilish bo‘lmaydi, – dedi ayol.

– Nega bo‘lmas ekan? – ishonqiramay so‘radi K.

Juvon u ishonsin deb qo'shni xonaning eshigini ochib berdi. Haqiqatan ham u yer bo'm-bo'sh, huvullab yotgani boismi, xona o'tgan yakshanbadan ham ko'ra g'aribroq ko'rinaridi. So'ri ustidagi stolda bir nechta kitob yotibdi.

– Mumkinmi bu kitobchalarga bir qur nazar tashlasam? – K. bu yerga kelishim butunlay behuda ketmasin, de gan xayolda, jillaqursa shu qiziqish buning o'rnini bosadi-gandek umidvorlikda so'radi.

– Yo'q, – juvon eshikni qayta yopib, so'zini davom et-tirdi, – bu mumkin emas, kitoblar tergovchiniki.

– Mana endi ularning nimaligini bilib bo'lmaydi ham, – K. shunday derkan, boshini chayqab qo'ydi, – ular aniq qonunlar majmuasi bo'lishi kerak, endigi sud jarayonlari faqat gunohsiz kishilarni siquvga olib, tergov qilishgina emas, balki ularning huquqlarini himoya qilishdan ham iborat bo'lishi kerak.

– Haliyam xuddi shunday bo'lishi kerak, – juvon shunday deganiga qaramay, hech nimani tushunmasligi ko'rinish turardi.

– Bo'pti, unda men bora qolay, – dedi K.

– Tergovchiga sizdan nimanidir aytib qo'yish kerak-masmi? – so'rab qoldi juvon.

– E, hali siz uni taniysiz hammi? – K. hayron qolib surishtirdi.

– Bo'lmasa-chi, – dedi juvon, – mening erim ham sudda xizmatchi bo'lib ishlaydi.

K. oldingi safar kelganida bu yer majlisxona taassurotini bergen edi, endi esa yaxshilab saranjom-sarishta qilinib, yana asli-qadimgidek holga keltirilganidan kishilar istiqomat qiladigan joy ekanligi bilinib qolgandi. Uning hayratini sezgan juvon izoh berdi:

– Bu xona bizniki, lekin yig'ilish bo'ladigan kunlari uni bo'shatib berishga majburmiz. Ha, erimning xizmatida bir talay noqulayliklar bor.

– Bu hech ham ajablantirgani yo‘q, – K. achchiqlanib juvonga qaradi. – Bundan ham ko‘ra meni sizning eringiz borligi hayratga soldi.

– Siz, aftidan, so‘nggi yig‘ilishda sodir bo‘lgan voqeaga shama qilyapsiz chog‘i, o‘shanda men sizning dardingizni to‘kib solishingizga xalaqit bergandim, shundaymi? – xijolatomuz so‘radi juvon.

– Albatta-da, – dedi K. – Mayli, o‘tgan ishga salavot, o‘shanda men rosa g‘azablangandim. Hozir esa u haqida eslagim ham yo‘q. Buning ustiga, yana o‘zingiz mening boshimda erim bor deb aytib turibsiz.

– So‘zingizning bo‘linib qolganligi siz uchun faqat koni foyda bo‘ldi. Keyin siz haqingizda rosa fisq-u fujur qilishdi, ichiqoralik bilan gapirishdi.

– Ehtimol, – dedi mujmallik bilan K. – Ammo bu ko‘rsatgan karomatingizni oqlolmaydi.

– Yo‘q, yo‘q, tanigan-bilgan kishilarimning bari meni oqlashlari turgan gap, – deb bidirlab ketdi juvon. – O‘sha kuni meni quchoqlagan kimsa allaqachondan buyon orqamdan yugurib yuradi. Ehtimol, boshqa birovning nazarida hech kimdan ortiqcha joyim yo‘qdir, ammo u meni farishtadek ko‘radi. Bunday ahvolda unga qarshi biron-bir chora ko‘rishni ham bilmay qolasan, hatto erim ham oxir-oqibat unga ko‘nikishga majbur bo‘ldi, bu kimsa bor-yo‘g‘i talaba, ehtimol, katta amaldor bo‘lib ketsa ham ajab emas. Chunki biron-bir ishni qilishga qasd qilsa, o‘lsa ham qaytmaydi, qancha kerak bo‘lsa shuncha kutadi. Lekin bir umr orqamdan qolmaydiganga o‘xshaydi. U hozir ham sizning tashrifingizdan biroz oldin bu yerdan qorasini o‘chirgandi.

– Bir tentakka bir tentak har joyda bor, – deb qo‘ydi K., – bu meni hech ham ajablantirmaydi.

– Bu-ku tushunarli, siz bu yerdaadolat bo‘lishini, tartib o‘rnatalishini istaysiz, shunga urinib ko‘rdingiz, shun-

daymi? – juvon bilmoqchi bo‘lganlari o‘zi va K.ga tahdid solishi mumkindek ohista va ehtiyyotkorlik bilan so‘radi. – Sizning nutqizingizdan men shu fikrga keldim. Nafsilaqrini aytganda, fikrlaringiz menga moydek yoqdi. Ammo nutqizingizning hammasini tinglashga muvaffaq bo‘lolmadim, kelganimda u allaqachon boshlanib ketgan ekan, hali oxiriga yetar-yetmas esa talaba bilan polda yumalashib oldik. Ah, bu yermi qanchalar nahs bosgan! – juvon bir daqiqqa tinchidi, keyin esa K.ning qo‘lini qattiq qisib, undan chinqirib so‘radi: – O‘zingiz aytинг, bu yerda yangicha tartib o‘rnata olishingizga haqiqatan ham ishonasizmi?

K. jilmayib qo‘ydi va ohistalik bilan qo‘lini uning nozik barmoqlaridan ajratib oldi.

– Gapning po‘stkallasi, – dedi K., – bu yerda hech kim men uchun hukmfarmolik qilmasin, yangi tartib-qoidalar deb, aytganingizdek, istasalar ustingizdan kulishadi, ibrat uchun hatto jazolamoqchi ham bo‘lishadi, siz bularning bari-barini kerak bo‘lsa tergovchilarga aytib qo‘ying. Hammasidan ham ko‘ra, o‘z xohishim bilan bu ishga aralashmoqchi emasman, ha, ha, uyqudan qolib, jinoiy ish jarayonini ko‘rish tartibini qandaydir boshqacha – ijobiy, muvofiqroq tartibda o‘zgartirib bermoqni hecham niyat qilganim yo‘q. Biroq kelib chiqqan vaziyatga ko‘ra o‘zlarining shaxsiy halovatlari deb mening tinchimni buzishdi, erta tongdan bostirib kirib uyqumni harom qilishdi, oxir-oqibat, ishning topgan yakuni shuki – mahbusman. Qani edi mening ham qo‘limdan sizga foydasi tegadigan biron-bir ish kelsa, men astoydil buni qilishga tayyorman. Buni sira ham odamgarchilik uchun qilmoqchi emasman, balki ol qo‘lim, ber qo‘lim, degan gapda jon bor, siz axir menga yordam bera olishingiz mumkin-da.

– Qanday qilib? – o‘smoqchilab so‘radi ayol.

– Masalan, anavi yerda yotgan kitoblarni menga ko‘rsatishingiz mumkin.

– E, bo‘lmasa-chi! – juvon K.ga xitob qilib, uni stol oldiga boshlab bordi. Kitoblar eski-tuski, rosa titig‘i chiqqan, birining muqovasi o‘rtasidan darz ketgan, qolgan ikki yog‘i ham tikilgan ipning zo‘ridan to‘kilmay turardi.

– Namuncha hamma yoq iflos bo‘lmasa, – K. boshini chayqab shunday deb qo‘ydi, ayol esa stolning, jillaqursa, yuza qismini peshbandi bilan artishga tutindi, avvalo u K. kitoblarni olsin, deb shunday qildi.

K. kitobni ochishi bilan uning yuqori qismidagi behayo bir suratga ko‘zi tushdi. Undagi bor chizgi – bir ayol bilan erkak onadan tug‘ilgandek holda o‘tirishar, rassomning jirkanch niyati shundoq ko‘rinib turar, ammo u shunday uquvsizlik bilan chizilgan ediki, bir so‘z bilan aytganda, unda ko‘z-ko‘z qilingan ayol va erkakning qaddi-qomatidan boshqa hech narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Ayniqsa, ularning ko‘zlarini juda dag‘al chiqqan, shunchaki bo‘yoq chaplangan, o‘zlarini ham juda notabiiy o‘tirishar, hatto noqulay, noto‘g‘ri joylashganliklaridan bir-birlariga qayrilib qarashga ilojsiz edilar. K. bu kitobni varaqlab o‘tirmadi, ikkinchisining nomi va muallifi ko‘rsatilgan ilk varag‘ini ochdi, – bu „O‘z zavjasi Gansning qyinoqlariga chidagan Greta“ nomli bir roman edi.

– Mana bularning o‘qiyotgan huquqiy kitoblarini qarang, – dedi K. – Shunday odamlar meni sud qilishadi, taqidirim ustidan hukm yuritadi!

– Sizga yordam bergenim bo‘lsin, – dedi ayol. – Rozimisiz?

– Agar haqiqatan ham siz menga yordam bermoqchi bo‘lsangiz, bu sizning hayotingizga hech bir xavf solmaydimi? Holbuki, o‘zingiz haligina aytgandek, turmush o‘rtog‘ingiz butunicha o‘z boshliqlariga qaram bir kishi ekan.

– Baribir men sizga yordam beraveraman, – dedi juvon. – Bu yoqqa keling, hammasini muhokama qilib olish kerak. Buning uchun menga biron-bir balo xavf solishi – gapisirishga

ham arzimaydi. Kerak bo‘lsa nimadan qo‘rqishni o‘zim yaxshi bilaman. Bu yoqqa kelsangiz-chi, – juvon katlarni ko‘rsatib, o‘zi bilan K.ning yonma-yon o‘tirishini so‘radi. Ular yonma-yon o‘tirarkan, juvon K.ning yuziga nigoh solib dedi:

– Ko‘zlariningizning ajib bir tarzda tim qoraligini qarang. Aytishlaricha, mening ko‘zlarim ham juda chiroyli-mish, ammo siznikiga yetishga yo‘l bo‘lsin. Men buni siz birinchi bor bu yerga tashrif buyurganingizdayoq payqa-ganga o‘xshayman. Va shu bois ham sizni deb keyin men butun majlisxonani kesib o‘tdim. Boshqa paytlarda men o‘zimcha bunga hech ham jur’at qilmagan bo‘lardim, zarur keptimi, ochig‘ini aytganda, menga hatto bu yerda turish ham taqiqlangan.

Mana, nima uchun u bunchalik kuyib-yonib yotibdi! – deb o‘yladi K. – Xuddi hamma yerda shunday bo‘ladigan-dek, u surobi to‘g‘rilangan oyog‘idan tortib boshigacha, hamma-hammasini menga taklif qilyapti, bularning bari tu-shunarli, suddagi mirzaquruq amaldorlar uning joniga tegib ketgan va u to‘g‘ri kelgan mijozga xuddi uning ko‘zini ni-shonga olgandek suv qilib ichib yuborgan xushomadlar bilan qarshi olaveradi, o‘zini taklif qiladi. – K. go‘yo o‘ylaganla-rini ovoz chiqarib aytmoqchidek indamay o‘rnidan qo‘z-g‘aldi va ayolga xulq-atvorini izohlab so‘z ochdi.

– Ochig‘i, sizning menga biron-bir narsada yordamingiz tegadi deb aytishim qiyin, – dedi u. – Haqiqiy yordam berish uchun dasti uzun katta to‘ralar bilan aloqada bo‘lish kerak. Siz esa kunda-shunda tanda qo‘ygan mayda-chuyda tirkak-lar bilan osh-qatiq bo‘lsangiz kerak. Albatta, siz ularni ko‘zingizni yumib ham yaxshi bilasiz va bunaqalarning qo‘li-dan ko‘p ish kelishiga men ham hech shubhalanmayman, biroq ular hatto imkoniyatlaridagi barcha ishni do‘ndirib, bor vallomatliklarini ko‘rsatgan taqdirlarida ham mening ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayonini ijobiy tomonga

jildirishga kuchlari yetmaydi. Shuning o‘ziga esa siz bir tayyab do‘stlaringizdan ajralib qolishingiz mumkin. Buni men hech ham istamayman. Shundoq ekan, bu kishilar bilan orani ochiq qilish sizga yarashmaydi; menimcha, ular hali sizga kerak bo‘ladi. Hech bir afsuslanishsiz, maqtovlaringizga javob sifatida shuni aytishim mumkinki, siz menga yoqib qoldingiz, ayniqsa hozir, ko‘zlariningizni g‘amginlik bilan suzib turganingizda, holbuki, sizning g‘am-alam chekishingiz uchun bu hech bir asos bo‘lmasa-da. Men kurashishim kerak bo‘lgan odamlar orasida siz o‘z halovatingizni topgansiz, gul-gul yashnab barq urasiz, o‘zingizni osmon-u falakda his qilasiz. Hatto mana bu talabaga siz oshiq-u beqarorsiz, unday bo‘limganda ham uni eringizdan afzal ko‘rasiz. Sizning gap-so‘zlariningizdan bu kundek ayon bo‘lib turibdi.

— Yo‘q, yo‘q, — chinqirib dedi ayol va o‘rnidan qo‘zg‘almasdan, undan qo‘lini bo‘shatishga ulgurmagan K.ning qo‘lini qattiq qisib olgancha davom etdi, — bu yerdan shunday o‘ylar bilan ketishingiz mumkin emas. Siz men haqimda butunlay noo‘rin xayollarga borib yuribsiz, bu yaxshimas. Nahot hammasini shundoq qoldirib ketsangiz? Men shunchalik hech narsaga arzimaymanmi, hech bo‘lmasa shod-u xurramligim haqqi, oz bo‘lsa-da bu yerda qololmaysizmi? Ketishni salgina orqaga cho‘zolmaysizmi?

— Siz meni tushunmadingiz chog‘i, — K. shunday deb yana joyiga o‘tirdi. — Siz mening qolishimni haqiqatan ham istasangiz, vaqtim serob, bemalol o‘tirishim mumkin, men axir bugun bu yerda sud majlisi bo‘ladi, degan xayolda kelgandim-da. Darvoqe, mening ustidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoniga munosabatda biron-bir yumushga kirishib yur mang, iltimos qilaman. Va bu uchun ranjib yurishingiz ham kerak emas, bu sud jarayoni qay tarzda yakun topishining men uchun farqi yo‘q, buni siz tushuning, ularning hukmlari ustidan faqat kulishim mumkin. Albatta, biron-bir voqea

yuz berib, sud bo‘lishi mumkin, ammo men hammadan ko‘p sudning bo‘lishidan shubhadaman. Ehtimol, tezda sud mahkamasidagi tanbal, parishonxotir va ayniqsa, qo‘rroq amal-dorlarning temsa-tebranmasligiga ko‘ra ko‘rilayotgan ish bir chekkada qolib ketar, yoki apil-tapil yumaloq-yostiq qilib ni-hoyasiga yetkazib qo‘yilar deyman. Anglashimcha, bundan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi, ular bu ishni rasmiyatchilikni bahona qilib, achchiq ichakdek rosa cho‘zishlari mumkin va, aslida, o‘zlariga suv yuqtirmay, imi-jimida pora olishdan umidvor bo‘lishlari turgan gap, biroq sizni ishontirib aytamanki, ularning barcha umidlari behuda bo‘lib chiqadi, men hech kimga pora bermayman. Xuddi shu yerda siz mening hojatimni chiqarishingiz mumkin: tergovchimi yoki boshqa biroviga shuni ma’lum qilib qo‘ysangiz degandim, kim bo‘lmasin, har qanaqa ovozalarni semirtirib tarqatmasin, har qanaqa o‘yin-u ko‘zbog‘log‘ichlik ko‘rsatmasinlar, bu janoblar mendan rishva olishning uddasidan chiqqa olmaydilar. Bu urinishlaridan hech ish chiqmaydi, xuddi shunday qilib buni ularga yetkazib qo‘ysangiz. Ehtimol, buni ular tushunib yetishar, balki, yo‘q. Qolaversa, bu haqida hozir xabar topadilarmi yoki keyinroqmi, men uchun bularning hech qanaqa farqi yo‘q. Agarda bularning bari ularga oldindan ma’lum bo‘lsa, biz faqat bu janoblarning yumushlarni yengillatgan bo‘lardik. Ochig‘i, bu men uchun ham bir talay ko‘ngilsizliklar olib keladi, biroq men shu yo‘l bilan ularga ta’sir qila olsam edi, barcha ko‘ngilsizliklarga tayyormen, deya olardim. Men anchadan buyon ana shuni o‘ylab chiqaman. Ishqilib, siz tergovchi bilan tanishmisiz o‘zi?

– E-e, bo‘lmasa-chi! – chiyilladi juvon. – Siz menga yordam berishimni so‘rab, taklif qilganingizdayoq men bu haqida ko‘nglimdan o‘tkazgandim. Men qayerdan bilibman, uning bor-yo‘g‘i kichkina bir amaldor ekanligini, ammo buni siz ta’kidlab aytayotgan ekansiz, bu gap behuda bo‘lmasa

kerak! Lekin uning bir fazilati haqida aytmasam bo‘lmas, bu ham bo‘lsa, uning ma’ruzalari, qandaydir ta’siri bo‘lsa kerakki, u tinimsiz ma’ruzalar yozib, uni yuqoriga paydar-pay yo‘llab turadi. Mana siz, hamma amaldorlarni temsila-tebranmas, ishyoqmaslar, deb atadingiz. Yo‘q, ularning hammasini ham shunday deb bo‘lmaydi, ayniqsa, mana bu tergovchini, u yozgani-yozgan. Masalan, o‘tgan yakshanbadagi majlis qosh qorayguncha davom etdi. Hamma ketgandan keyin ham tergovchi qoldi, unga chiroqni olib kelishga to‘g‘ri keldi, menda bor-yo‘g‘i milmiliq, arang yoritadigan kichkinagina oshxona ischirog‘i bor, biroq u shuning o‘zi bilan qanoatlanib, o‘rniga darrov cho‘kdi-da, yozishga kirishdi. Shu orada erim ham qaytib qoldi, yakshanba uning dam olish kuni, biz uy jihozlariga qarab, o‘rindiqlarni u yoq-bu yoqqa surib, xonani saranjomladik, keyin qo‘shnilarimiz tashrif buyurishdi, biz sham tegrasida yig‘ilib olib, gap bilan dunyoning bu boshidan kirib, u boshidan chiqdik, oxiri yotishga cho‘zildik, tergovchi esimizdan ham chiqib ketdi. Va birdan yarim kechada uyg‘onib ketsam, karavotim yonda tergovchi turar, ishqilib, chiroqning nuri erimning yuziga tushmasin, deb uni qo‘li bilan to‘sishga urinardi, holbuki, bu urinishi keraksiz, mening erim shunday tosh qotib uxlaidiki, hech qanaqa chiroq nuri bilan uyqusini buzib bo‘lmaydi. Haddan tashqari qo‘rqib ketganidan baqirib yuborishimga sal qoldi, tergovchi esa jonolar yoqimtoylilik bilan ovozimni chiqarmasligimni o‘tinib so‘radi, u shu paytgacha ishlaganini, endi esa chiroqni qaytarmoqchi ekanligini aytar ekan, so‘zining oxiriga shu narsani qistirib o‘tdi, u g‘aroyib tushlar og‘ushida ajib tarzda uxlayotganimning guvohi bo‘libdi, buni men o‘la-o‘lguncha unutolmayman, dedi u. Sizga yana bir bor shu narsani aytishni istardimki, tergovchi keyingi paytda ma’ruzalar qoralashga haddan tashqari berilib ketdi, bu ma’ruzalarda esa, hech shubhasiz, asosiy so‘z sizning

taqdiringiz haqida boradi. O'tgan yakshanbadagi majlisda o'rtaga qo'yilgan asosiy masala ham sizning ishingiz bo'ldi. Shunga ko'ra ham bu yozilgan uzundan uzoq ma'ruzalar ham biron-bir ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, mana bu voqeaga shubhalanmasa ham bo'ladi, tergovchiga men yoqaman, aynan hozir shunaqa bo'lib qoldi, yaqin-yalingacha u menga qiyo ham boqmasdi, yaqindan boshlab u menga alohida nazar bilan qaraydigan bo'ldi, shu bois ham unga o'z ta'sirimni o'tkaza olishim mumkin. Uning menga qiziqib qarashiga boshqa dalillarim ham yo'q emas. Kecha talaba orqali – u talaba bilan birga ishlaydi, unga qattiq ishonadi – menga bir juft junpaypoq sovg'a qilibdi, aytishicha bu men majlisxonani supirib-sidirganim, saranjom-sarishta qilganim uchunmish, holbuki bu shunchaki vaj-karson, assida, men o'z vazifamnigina bajaryapman, buning uchun erimga haq to'lashadi. Paypoqlarni aytmaysizmi, shunaqa ajoyibki, mana qarang... – juvon oyoqlarini uzatib, ko'ylagi etagini tizzadan yuqori ko'tardi va o'zi ham paypoqlarga mahliyo bo'lib qaradi. – Ha, paypoqlar juda ham chiroyli, biroq haddan tashqari tor, ular menga to'g'ri kelmaydi.

Birdan u jimb qoldi va qo'lllarini K.ning qo'llariga qo'yib, go'yo uni tinchlantirmoqchi bo'lgandek, shivirladi:

– Gapirmang, Bertold bizni kuzatyapti.

K. ohista nigohini yuqoriga ko'tardi. Majlisxona eshigi oldida bir yigitcha turardi, u o'rta bo'y, oyoqlari qiyshiq, aftidan, o'zini savlatli ko'rsatish uchun bo'lsa kerak, siyrak, kalta, mallatob soqol qo'ygan bo'lib, barmoqlari bilan uni tinimsiz tutamlab turardi, K. unga qiziquvchanlik bilan nazar soldi – u o'zi tushunmaydigan huquqshunoslik fanlari bo'yicha hayotida birinchi bor ko'rib turgan talaba edi, ehtimol, bu talaba haqiqatan ham keyinchalik oliymaqom lavozimlarni egallab ketsa ham ajab emasdi. Talaba bo'lsa K.ga hech qanaqa e'tibor qilmadi, u faqat bir daqiqaga bar-

moqlari bilan soqolini piypalab turdi-da, ayolni o‘z oldiga imo-ishoralar bilan chorladi va o‘zi daricha tomon yurdi, juvon esa K.ga engashgancha shivirladi.

— O‘tinaman sizdan, mendan ranjimang va men haqimda biron-bir yomon xayolga borib yurmang, siz uning qiyshiq oyoqlariga bir qarang, hozir ana shu yaramas nusxaning oldiga bormasam bo‘lmaydi. Men tezda qaytaman va shundan keyin agar siz meni o‘zingiz bilan birga olib ketishni istasangiz, qayga desangiz ketgan, nima qilsangiz shunga ko‘ngan va bundan faqat baxtiyor bo‘lardim, ishqilib, bu yerdan uzoqroq ketsam bo‘ldi, bir umrga bu yerdan bosh olib ketsam-ku nur ustiga nur bo‘lardi.

Juvon K.ga gaplarini qo‘llari bilan ham uqtirdi-da, o‘rnidan dik etib turib, daricha tomon yugurgilab ketdi. K. juvonning qo‘llarini beixtiyor ushladi, lekin behudaga umid qilayotgan emasmikin? Bu ayol haqiqatan ham unga ko‘ngli sust ketgan ko‘rinar, u izlab, bunga qarshi biron-bir dalil topa olmadi. Balki, juvon sudning maxfiy topshirig‘i bilan uni tuzoqqa ilintirish uchun atayin yuborilgandir, degan shubha lip etib uning xayolidan o‘tdi, lekin u shu zumda bu gumonni bir chekkaga uloqtirdi. Bu qanday qilib uni tilidan ilintirishi, tuzoqqa tushirishi mumkin? Axir u hozircha butunlay ozodlikda-ku. Shu bilan ham bularning jinoiy ishni ko‘rish tartiblarini yo‘qqa chiqarish, hech bo‘lmasa o‘z ishi misolida fosh etishi mumkin-ku. Nahotki u o‘ziga misqolcha ham ishonolmay qoldi? Holbuki, juvon unga yordam berishni taklif qilganda ovozi samimiyl chiqdi. Ayolning unga foydasi tegadigan, ish beradigan tomonlarini qanday aniqlasa bo‘ladi? Balki, tergovchi va uning to‘dasini tinch qo‘ygan, ularga xusumat saqlamagan ma’quldir, buning ustiga, mana bu ayolning muhabbatini qozonib, ojizani qutqarmoq kerakdir. Shunda K. haqida to‘plangan yolg‘on uydurmalar ustida rosa boshini qotirib astoydil ishlagan tergovchi yarim

kechaga borib ishi nihoyasida ayolning to'shagi oldiga keladi-yu, biroq to'shakni bo'm-bo'sh ko'radi. O'rni bo'shmi, demak, ayol K.ga tegishli bo'lib chiqadi, ha, bu oyna oldida turgan yumshoqqina, har maqomga kiruvchi, egniga dag'al qora matodan ko'ylak ilgan, ketvorgan qaddi-qomat faqatgina uning o'ziniki bo'ladi.

K. ayolga daxldor shunga o'xshash shubhalarini bir chek-kaga uloqtirdi-da, katga o'tirgancha avvaliga barmog'ining qirrasi bilan oynani astagina chertdi, keyin esa bu sekingina taqillatish xotinchalishlikday asabini qo'zitib yubordi-da, mushti bilan oynani astoydil urdi. Talaba juvonning kichkina yelkasi osha K.ga napisand qaradi, biroq unga hech qanaqa e'tibor qilmadi, qaytaga ayolni battarroq o'ziga tortib, qattiqroq quchoqladi. Juvon cho'rilardek boshini solintirib olgan, baayni uning so'zlarini uqib olayotganday edi, yigit esa juvonning egilgan bo'ynidan cho'lpillatib o'par, so'ng yana hech nima bo'lmagandek so'zida davom etardi. Juvon yozg'irgancha bor ekan, ha, u haq, talaba ayolning ustidan allaqanday egalik o'rnatgan, hukmfarmolik qilar, K. buning guvohi bo'lib, stoldan turdi-da, xonada u yoqdan bu yoqqa borib kela boshladi. U talabaga aloqador xayollar surib, bu yerdan uning izini qancha bo'lsa shuncha tez quritish xususida o'ylardi, K. hatto uning borib kelishidan talabaning g'ashi kelib, ochiqdan ochiq xalaqit bermoqchi bo'lsa, bundan quvonib ketardi, mana nihoyat K.ning sabrsiz tapur-tupur yurib turishi talabaga ham yetib bordi chog'i, u birdan diqqat qildi:

— Agar oshiqayotgan bo'lsangiz bemalol ketishingiz mumkin. Hatto allaqachon survorsangiz bo'lardi, bu yerdasizning yo'qligingizni birov sezmasdi ham. Ha, ha, men kelishim bilan, siz shu zahoti bu yerdan jo'nab qolishingiz kerak edi.

Bu so'zlardan faqatgina qahr-u g'azab isi kelmadi, balki ayblanuvchilar uchun balo-qazo bo'ladigan, kelgusida

oliymaqom bir o'rinni egallaydigan amaldorning turqi yarq etib ketdi.

K. unga qat'iy bir sur'atda yaqinlashib, kulimsibgina gap boshladi:

– Ha, siz haqsiz, bunga sabr qilishim, o'zimni tutib turishim qiyin va bu yuragim siqilishini bir narsagina bartaraf etishi mumkin, bu ham bo'lsa bizni xoli qoldirishingiz. Agar haqiqatan ham siz bu yerga o'quv mashg'uloti uchun kelgan bo'lsangiz, – eshitishimga qaraganda, siz talaba ekansiz – men bajon-u dil o'z joyimni sizga bo'shatib beraman va mana bu ayol bilan bu yerdan jo'nab qolaman. Nafsilmalrini aytganda, hali ko'p o'qib-o'rganishingiz lozim, sud haka-mi bo'lishingiz uchun astoydil ter to'kmasangiz bo'lmaydi. To'g'ri, sud ishlarining tartib-qoidasini men qariyb bilmayman, lekin shu birgina manqa nutqingizning o'zi haddan tashqari behayo ekanligingizni ko'rsatdiki, uning boshi-oxiri yo'q, buni men aniq tasavvur etdim.

– Ozodlikda tarallabedod qilib yurish uchun unga be-korga ruxsat berishgan, – talaba K.ning gapidan og'ringanini ayolga bildirib qo'yish uchun atayin shunday dedi. – Bu, shubhasiz, xato. Men tergovchiga ham aynan shunday deb aytdim. Ha, uni tergovlar orasida hech bo'lmasa uy qa-mog'ida tutib turish kerak. Biroq ba'zi bir laqma tergov-chilarning beparvo xatti-harakatiga hech tushunib bo'lmaydi.

– Ortiqcha gap eshakka yuk, – K. shunday derkan, ayolga qo'lini uzatdi, – ketdik.

– Buni qarang, gap bu yoqda deng, – dedi talaba. – Yo'q, yo'q, uni qo'lga kiritib bo'psiz!

Talaba kutilmagan kuch bilan ayolning qo'lidan tortib, uni eshik tomon yugurgilib yetaklarkan, juvonga suqlanib ko'z tashlab qo'yardi. Hammasi ochiq-ayon, u K.dan qo'r-qib ketdi, biroq shunda ham uning jig'iga tegmaslik yo'lini qilolmadi, o'zini tutib turolmay, ayolni yetaklab ketayotgan

ekan, bo'sh qo'li bilan juvonning yelkasini goh siypalab, goh ezg'ilab borardi. K. bir necha odim otib, ularga shitob bilan yetib olmoqchi bo'ldi. U talabani ushlab qolishni istar, hatto uni bo'g'ib o'ldirishga tayyor turardi, biroq shu payt ayolning ovozi eshitilib qoldi:

— Hech narsa qilib bo'lmaydi, uni mening ortimdan tergovchining o'zi yuborgan, siz bilan biron yoqqa ketishim hech mumkin emas. Bu yaramas chuvalchang, — shu joyda juvon talabaga qo'llarini paxsa qildi, — bu pachoq battol meni bo'shatib bo'pti.

— E, siz erkingiz o'zingizda bo'lishini istamaysizmi? — K. shunday deb chinqirarkan, qo'lini talabaning yelkasidan bo'shatdi va shuning barobarida unga tishlarini g'ijirlatdi.

— Yo'q, — juvon ham chiyillab baqirdi-da, ikkala qo'li bilan K.ni orqaga itardi. — Yo'q, yo'q, faqat bunaqa qilmang, siz jinni bo'lib qolibsiz! Siz bunaqada meni tiriklay go'rga tiqasiz. Uni tinch qo'ying! Sizdan o'tinib so'rayman, uni o'z holiga qo'ying. U faqat tergovchining buyrug'inigina bajaryapti, xolos. U meni tergovchining oldiga olib boradi.

— Xo'p, yaxshi, qani bir bu yerdan qoranganizni o'chiring-chi, men hatto sizni ham ko'rishni istamayman! — K. shunday derkan, ixlosi qaytganicha qahri-g'azabga to'lib butun kuchi bilan talabaning ortidan itardi, u shu joyda qoqilib ketdi, biroq bir amallab yiqilmay qolar ekan, bundan ham ruhlandi va turgan joyida ikki oyoqlab yanada yuqoriqqa sakradi.

K. ular ortidan sekin yurib borar ekan, bu kishilar unga hazilakam mag'lubiyat in'om etmaganini tushunib yetdi. Al-batta, bu yerda alohida notinch bo'ladigan hech narsa yuz bermadi va u bu mag'lubiyatga shuning uchun ham sabr qilishga majbur ediki, o'zi buni izlab-izlab, unga to'qnash kelib turardi. Agar u o'z uyida tinchgina o'tirganda va hamma qatori odmigina hayot tarziga ega bo'lganda, bu kishilar-

dan ming barobar balandda turar, ulardan istaganini bir tepki bilan uloqtirib tashlagan bo'lardi. U o'zi uchun kulgili bir sahna ko'rinishini ko'z oldiga keltirdi: undagi bosh rolni ijro etgan bu xudo urgan talaba, o'zidayo'q go'dak, bu oyog'i qiyshiq to'rvasoqol, Elzaning karavoti oldida tiz cho'kkancha, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, undan o'tinib, shafqat tilab turardi. K. o'zicha tasavvur etgan bu manzaradan shunchalik zavqlanib ketdiki, talabani o'zi bilan birgalikda olvolib, Elzanikiga mehmonga jo'navorishiga bir bahya qoldi.

Qiziquvchanligi zo'r kelgan K. shoshilib tashqariga chiqdi-da, talaba juvonni qayga eltishini ko'rishni istab, yo'lga qaradi, butun ko'cha bo'ylab ayolni qo'llaridan tutib sudrab yurmas-ku axir. Ular hali juda uzoqqa ham ketib ulgurishmagandi. Shundoq ro'paradagi xonadonda torgina yog'och zinapoya boshlanar, ko'rinishidan u chordoqqa olib chiqardi, biroq unda bir qayrilish bo'lib, qolgan qismi ko'rinchay qolar, ishqilib, oxiri qayerga olib borishini ko'rib bo'lmasdi. Shu zinapoyadan talaba juvonni tepaga haddan sekin, inqillab-sinqillab boshlab borar – bu yugur-yugurlar surobini to'g'rilib qo'ygani ko'rini turardi. Juvon K.ga qo'llarini silkitib, yelkalarini uchirib, o'zini xohish-irodasiga qarshi majburlab olib ketilayotganligini tushuntirmoqchi bo'lardi. Ammo ming qilmasin; afsus-nadomat chekkani chehrasida aks etgancha yo'q edi. K. unga loqayd, xuddi begonaday qaradi, ammo o'zining bu ixlosi qaytganligini namoyon qilishni istamas, yana buni yengil-yelpi qabul qilibdi, degan xayolga borishlarini ham xohlamasdi.

Ularning ikkovi ham burilishda ko'zdan g'oyib bo'lishdi, K. bo'lsa hamon eshik oldida turardi. Juvon uni faqatgina al-dabgina qolmadni, balki tergovchiga olib borish yo'lini ham chalg'itib ketdi. Tergovchi chordoqda, uni qachon keladi, deb qarab o'tirmagandir, bu bo'limgan gap-ku. Yog'och zinalarga qanchalik zehn solib qarama, baribir, hech narsani

bilib ololmaysan. To'satdan K. kirish joyidagi kichkinagina, bolalarcha beo'xshov, aji-buji qilib yozilgan qog'ozchaga ko'zi tushib, uni o'qish uchun yaqinlashdi. „*Sud devonxonanasiga kirish*“.

– Demak, shu yerda, kishilar yashaydigan uyning chordog'ida sud devonxonasi joylashgan ekan-da? Tanlangan manzil hech qanaqa hurmat-e'tibor uyg'otishi mumkin emasdi, har qanaqa ayblanuvchi ham bu manzarani jimgina ko'rар ekan, sud degani qanchalik keraksiz va rasvo vositalarni o'ylab chiqarganiga amin bo'lar, uning tasdig'i sifatida o'z ish yurituvida muhim devonxonasaki yalangoyoq va qashshoqlar umrguzaronlik qiladigan uyning hech narsaga yaroqsiz ashqol-dashqollari turadigan joyga uloqtirilgan ekan, boshqasiga nima ham deyish mumkin. To'g'ri, yetarli darajada pul topishlarini mustasno qilib bo'lmaydi, biroq uni bu amaldorlar qonuniy olish o'rniga to'naganday qilib o'maradilar. K. sud hakamini har tomonlama sinab ko'rди, zero, sud ishlaridagi hukmfarmolik ayblanuvchi sha'nini haddan tashqari yerga urib tursa-da, har qalay bu narsa ham sudning g'arib ro'zg'ori haqidagi fikrdan ko'ra kishini ko'proq tinchlantiradi, ko'ngliga taskin bag'ishlaydi. Mana nihoyat, nima uchun birinchi tergovda ayblanuvchini diqqinafa chordoqqa taklif qilishganlari-yu, uning xonadoniga hech narsadan hech narsa yo'q bostirib kirishgani sababi K. uchun ayon bo'ldi-qoldi. Ha, K.ning shart-sharoiti va ahvoli tergovchinikiga nisbatan yaxshi ekan, mana bu kishim chordoqda tiquilib-siqilib o'tirgan ayni vaqtda K. qabulxonasi ham bor, bankning yorug' va keng bir xonasida qo'r to'kib o'tirgancha mahobatli oynavand derazadan hayot qaynab-toshgan shahar xiyobonlarini masrur tomosha qilishi mumkin. Albatta, K.da hech qanaqa qo'shimcha daromadlar yo'q, – pora olmaydi, pul berkitmaydi va shubhasiz, uning ish tartibida allaqanday tasqara xizmatchi mushtipar bir ayolni zo'rlik bilan sudrab,

o‘z ishxonasiga olib borish vakolati ham yo‘q. Qolaversa, K.ning o‘zi ham bunaqa qaltis vaziyatlarda chidab turolmas, har qanaqa qulaylik va imkoniyatlarni astoydil rad etgan bo‘lardi.

Hali hamon xayol bilan yozuv oldida turib qolgan K. al-laqanday bir kishi zinadan yuqoriga ko‘tarilayotganiga ko‘zi tushdi, bu kishi eshigi ochiq xonadan ichkariga mo‘ralab, majlislar zaliga yaxshilab qarab oldi-da, oxiri K.dan shu yerda bir ayolni ko‘rmadingizmi, deb so‘radi.

– Siz sud xizmatchisisiz, shundaymi? – deb o‘smoq-chiladi K.

– Shunday, – javob qila qoldi kishi. – Siz bo‘lsangiz, adashmasam, ayblanuvchi K. bo‘lsangiz kerak? Ha, ha, men sizni endigina tanidim, sizni ko‘rganimdan xursandman, – u K.ni hayratga solib, qo‘lini uzatdi. – Biroq bugun yig‘ilish yo‘q edi-ku, – dedi xizmatchi K.ning indamay turganini ko‘rib.

– Bilaman, – K. xizmatchining amriqocha kamzuliga ko‘z tashlab javob qildi: uning xizmat vazifasini bildirib turgan yagona belgi bu kamzulidagi aynan zabitlar shinelidan uzib olib taqilgan, boshqa oddiy tugmalar ichida ajralib turgan ikki zarhal tugma edi.

– Men hozirgina sizning xotiningiz bilan gaplashgan edim, U hozir bu yerda yo‘q, talaba uni tergovchining oldiga olib ketdi.

– Mana ko‘rdingizmi! – yozg‘irdi xizmatchi. – Hamisha uni mendan ajratmoqchi bo‘ladilar. Axir, bugun yakshanba-ku, men ularning topshiriqlarini bajarishga burchli emasman, shunga qaramay, meni bu yerdan qaysi go‘rgadir guman, qilish uchun, allaqanday keraksiz bir topshiriqnini menga buyurib jo‘natishdi. To‘g‘ri, meni juda olisga jo‘natganlari yo‘q, biroq Xudo berib, vaqtida qaytmoqchi bo‘lib, o‘pkam tushay deb qoldi. Har qanaqa axlatni tozalash bo‘lsin, men

chopaman, tashkilot eshigini ochish bormi, shu zahoti meni chaqirishib, o'shqira-o'shqira buyurishadi, ishqilib, meni bir zum tin oldirgani qo'ymasdan choptirganlari choptirgan, bu bor-kel, chop-choplarning nega bunchalik zarurligini hech ham tushunmayman, ammo talaba qurg'ur mendan ko'ra ham ko'proq shoshiltiriladi: to'g'ri, uning manzili yaqin, u bor-yo'g'i bu chordoq zinapoyalaridan chiqib-tushib yuradi, xolos. Ammo men go'sxo'r bir kishi bo'lib qololmayman, shu bois, talabani allaqachon oynaga urib pachoqlashim kerak edi. Mana bu, yozuv tirkab qo'yilgan joyga. Faqat shu haqida orzu qilaman. Mana bu poldan sal yuqori joy bor-ku, osib qo'yib, butun tanasini pachoq qilsang, qo'llarini ayirib, barmoqlarini qayirib, qiyshiq oyoqlarini o'rama nondek qilib, hech bir joyini sog' qo'ymasang, o'z qoniga o'zini bo'yasang. Biroq hozircha bu haqida faqat orzu qilish mumkin.

– Nahotki, buning boshqa bir yo'li yo'q, – K. undan nimtabassum bilan so'radi.

– Boshqa bir ilojini hech topolmayapman, – dedi xizmatchi, – eng dahshatlisi, kun o'tgan sari ahvol battar bo'lyapti; shu paytgacha u faqat o'zi uchun ayolimni u yoq-bu yoqqa sudrab yurardi, endi bo'lsa tergovchining o'ziga to'g'rilab yuribdi; baxtga qarshi shunday bo'lib chiqishini allaqachon ko'nglim sezgandi.

– Bu uchun xotiningizning o'zi aybdor emasmikin? – K. shunday deb so'rarkan, o'zini bazo'r ushlab turar, chunki u hamon ayolni boshqalardan astoydil qizg'anar, rashk qilardi.

– Bo'imasam-chi, – dedi xizmatchi, – g'unajin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi. Xotinimni o'zi bunda hammadan ko'proq aybdor. Ha, ha, uning o'zi bu takasaltang-larning bo'yniga osilib yuribdi. Anavi nusxaga-ku, yo'r-gakdan tekkan kasal, qayda ayol ko'rsa, orqasiga tushadi. Qayga borsa bitbildiq, deganday, bitta bizning uyning o'zida beshinchchi xonadonga ko'chib o'tdi. Mening xotinim bo'lsa

uyimiz ayollari ichida eng sohibjamoli, shu bois uni yomon ko'zlardan asrolmay dog'daman.

– Ha, agar masalani bunaqa qilib qo'yadigan bo'lsa, unga yordam qilishning hech iloji yo'q ekan-da, – g'uldrub qo'ydi K.

– Yo'q, nega bo'lmasin? – jonlanib dedi xizmatchi. – Avvalo mana bu g'alati qiliqli, o'pkasi yo'q talabani xuddi tergov qilinayotgandagidek girdig' umidan olib, urib-so'kib bo'lsa-da ayolimni o'lja qilish payidan qaytarish kerak. Biroq bu men uchun ta'qiqlangan. Boshqalar ham bu borada menga yordam qo'lini cho'za olmaydilar. Ko'pchilik uning hokimiyatidan astoydil qo'rqishadi. Faqat sizday bir kishi unga qarshi bora olishi, bu ishni uddalashi mumkin.

– Nega aynan men bu ishni qila olishim mumkin? – K. hayratlandi.

– Siz axir ayblanuvchisiz-da, – javob qildi xizmatchi.

– Ha, – dedi K., – biroq xuddi shu asosingiz meni qo'r-qitadi, ehtimol, sud jarayonining hal qiluvchi nuqtasida uning qo'lidan hech narsa kelmas, ammo shunga qaramay, tergovning boshlanma jarayoniga biron-bir qo'lansa is qoldirishi, salbiy ta'sir etishi mumkin-da.

– Ha, albatta, – dedi xizmatchi go'yo o'z fikriga K.ning mulohazalari xilof emasday. – Biroq bizda, xuddi risolada yozilgandek, biron-bir chorasi topilmagan sud jarayoni uchramagan.

– Ochig'i, men bir qancha tomondan biroz boshqacha fikrdaman, – dedi K. – Shu talabangiz qay bir jihatdan bo'lsa ham ishning o'nglanishiga xalaqit bermasmikin deb o'layman.

– Men sizning fikringizga jon deb qo'shilgan bo'ladim, – deb qo'ydi xizmatchi rasmiy alfovda bir necha og'iz, aftidan, u o'zining maxfiy istagini aytishga yuragi dov bermasdan unga ishonolmay turardi.

– Ha, bu juda mumkin, – o‘z so‘zida davom etdi K., – sizning bir talay amaldorlariningiz, ehtimol, ularning hammasi ana shunaqa ish ko‘rsatadi deb bilaman men.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, – xizmatchi ma‘qullagan ohangda gapirar ekan, go‘yo so‘z nima haqida borayotgani o‘z-o‘zidan tushunarli edi. Shunda birinchi bor u K.ga ishonch bilan, mehri tovlanib qaradi, holbuki u shu paytgacha o‘zini xushmuomala tutishga harakat qilgani bilan, bu darajada emasdi. U so‘ziga qo‘shimcha qildi: – E, bularning hammasi quturib ketgan, hech biri arzingizni tinglamaydi.

Aftidan, bu suhbat uning majburiyatlarini esidan chiqarib, aql-u hushini olib qo‘ygandi, keyin u o‘ziga kelib, bir zumda o‘zgardi-da, dedi:

– Endi devonxonaga bormasam bo‘lmaydi. Men bilan borishni istaysizmi?

– Unda mening qiladigan ishim yo‘q, – dedi K.

– Devonxonani obdan ko‘zdan kechirishingiz mumkin. Unda sizga hech kim e’tibor bermaydi.

– O‘zi u yer ko‘z tashlashga arziydimi? – K. mujmal tarzda bir qarorga kelolmasdan so‘radi, o‘zi bo‘lsa borishni juda istab turardi.

– Nima desamikin? – hozirjavoblik bilan dedi xizmatchi, – o‘ylashimcha, siz uchun bu juda maroqli bo‘ladi.

– Yaxshi, – dedi bir qarorga kelgan ohangda oxiri K. – Siz bilan borganim bo‘lsin, – u zinapoyadan shosha-pisha xizmatchining oldiga tushib bordi.

Devonxona eshigi oldida yiqilib tushishiga sal qoldi, ostonaning shundoq og‘zida yana bir zina bor edi.

– Bu yerga kelganlar bilan hech ham hisoblashishmaydi, – dedi u.

– Bu yerda it egasini tanimaydi, hech kim birov bilan hisoblashib o‘tirmaydi, – dedi xizmatchi. – Siz faqat qabulxonaga razm soling.

Ularning oldida ashqol-dashqollar tiqib tashlangan chordeqqa olib boradigan uzun yo'lak turardi. Har qalay kirish joyida hech qanaqa yoritkich yo'qligi ko'rinish tursa-da, bu yer butunlay zim-ziyoga o'xshamas, shuning uchun ham yo'lak bo'ylab cho'zilgan uychalar to'siqlar bilan ajratib olingan, yog'och panjaralar esa, ochig'i, shiftgacha tirkab tashlangandi, chordoqda xiragina bo'lsa-da chiroq yonib turar, hatto bu yorug'da talay amaldorlarni ko'rish mumkin, ularning ayrimlari stol oldida o'tirib olib nimalarnidir yozi-shar, ba'zi birlari panjaralar oldida turib olib, kirib chiqayotgan kishilarni kuzatib o'tirishardi. Ehtimol, yakshanba bo'lgani bois ham, bu yerga kelganlar ko'p emas, ularning aksariyati o'zini kansuqim tutib turishardi. Uzun yo'lakning ikki tomonida keta-ketguncha uzun yog'och o'rindiqlar bo'lib, ularda qariyb bir xil oraliq masofa saqlagancha kishilar o'tirishardi. Ularning bari nochor kiyingan edilar, holbuki, ko'pchiliklarining sud hakamiga o'z qadrini bilib gapiriishi va bejirimgina soqol qo'yishlari-yu yana boshqa bir talay belgi-alomatlariga qarab, arang bo'lsa-da, jamiyatning oliy bir tabaqasidan, tagli-tugli aslzodalardan ekanligini ilg'ash mumkin edi. Bu yerda hech qanaqa ilgaklar ko'zga tashlanmas, aftidan, kimdir bu masalada ibrat ko'rsatgan chog'i, kelganlarning barchasi shlyapasini o'rindiq tagiga qo'yib olgandi. Kirish eshigiga yaqin joyda o'tirgan birinchi kishi K. va xizmatchini ko'rар ekan, darrov ular bilan salom-alik qildi, buni kuzatib turgan navbatdagi kishi ham zumda salomlashish qaroriga keldi va xuddi shunday ular kimningki yaqinidan o'tayotgan bo'lsa, oldinroq salom berish payida bo'lishardi. Hech kim butun qaddi-qomatini ko'tarib, ularga tikilib qaramadi, bellarini bukib, tiz cho'kkudek bo'lib, xudi och-yalang'och g'ariblardek bo'yinlarini qisib turishardi.

K. orqada qolib ketgan xizmatchini kutib turdi-da, yetib olganida unga dedi:

- Ular bu yerda qanchalik xo‘rlanayotganini qarang!
- Ha, – dedi xizmatchi, – bularning bari ayblanuvchilar.
- Nahotki! – dedi K. – U holda bularning bari mening qismatdoshlarim ekan-da. – Va u baland bo‘yli, xush-qad, sochlari qariyb oqargan kishiga yuzlandi-da, undan xushmuomalalik bilan so‘radi: – Siz bu yerda nimani kutyapsiz?

Kutilmagan bu murojaatdan bu kishi o‘zini yo‘qotib, shunday sarosimaga tushib qoldiki, unga qarab bo‘lmasdi, holbuki, tagli-tugli oqsuyaklardan ekanligi ko‘rinib turar, ehtimol, boshqa har qanaqa vaziyatlarda o‘zini idora qilishni, nima deyishni obdan do‘ndirar, uning ustidan hukm-farmolik qilishlariga hech ham imkon qoldirmasdi. Bu yerda esa u oddiy, jo‘n bir savolga nima deb javob qilishni bilmay, qo‘snilariga mo‘ltirab qaradi, go‘yo yonidagilar unga yordam berishga burchdor, ularning tirgagisiz u hech narsaning uddasidan chiqa olmaydigandek. Biroq kelib qolgan xizmatchi bu odamni tinchlantirmoq va dalda bermoq maqsadida dedi:

- Janob sizdan shunchaki so‘rayaptilar, bu yerda nimani kutib o‘tiribsiz? Unga javob qilsangiz-chi!

Aftidan, xizmatchining tanish ovozidan u ancha o‘zini tutib oldi.

- Men shuni kutyapmanki... – u shunday gap boshla-di-yu, qolganiga tili kalimaga kelmadи.

Aftidan, u o‘z so‘zini boshlaganida so‘ralgan savolga gumonga o‘rin qoldirmaydigan darajada aniq javob qilmoxchi edi, ammo davomida bunga qurbi yetmadi. Kutib o‘tirganlarning bir qanchasi unga yaqinroq surilishdi va qator bo‘lib tegrasini o‘rab olishdi. Lekin shu yerda turgan xizmatchi ularni o‘z joyiga haydadi:

- Tarqaling, tarqalinglar, yo‘lak to‘silib qoldi, bu yerni bo‘shatinglar.

Ular sal nariga ketdilar, ammo oldingi joylariga borib o'tirmadilar. Haligi kishi bo'lsa fikrlarini to'plab, hatto sal jilmayib, dedi:

– Bir oylar oldin o'z foydamni ko'zlab, ishqilib, qanday bo'lmasin bir qancha guvohlar yig'gandim, endi shunga ko'ra chiqariladigan ajrim qarorini kutib o'tiribman.

– Demak, bu ish tinka-madoringizni quritishiga qaramay, joningizga tegmabdi-da, tirishib-tirmashib yotibsiz, – dedi K.

– E, bo'lmasa-chi, – dedi haligi kishi, – bu axir mening dasturilamalim.

– Hamma ham sizdaqa o'ylayvermaydi, – gapini davom ettirdi K., – masalan, mening o'zim ham ayblanuvchiman, biroq, jonioqni asraguvchi haqqi qasam ichamanki, hech qanaqa guvohliklar yig'moqchi emasman va, umuman, bunaqa tarzda hech bir ishga kirishmoqchi emasman. Nahotki siz bu yugur-yugurlar shunchalik zarur deb hisoblasangiz?

– Men biron-bir narsani aniq bilmayman, – butunlay o'zini yo'qotgan ahvolda javob berishga tutindi, u K. o'zining ustidan kulyapti, degan aniq bir fikrga kelgan va shuning uchun ham nima degan bo'lsa, hammasini so'zma-so'z takrorlamoqchi edi, biroq K.ning sabrsizlanib turgan nigo'higa ko'zi tushdi-yu, bor-yo'g'i bir og'iz g'uldirab qo'ydi: – Mening ishimga nima daxldor bo'lsa, men bor-yo'g'i shu haqida aytdim-qo'ydim-da.

– Aftidan, siz hali ham mening ayblanuvchi ekanligimga ishonmay o'tirganga o'xshaysiz? – so'radi K.

– E, bu nima deganingiz, shak-shubhasiz, ishonib turibman, – shunday deb u o'zini sal orqaga oldi, lekin uning gaplari ishonchsiz chiqqan, ovozida faqat qo'rquv bor edi.

– Ha, ko'rinish turibdi, siz menga ishonmaysiz? – K. shunday deb gapini yana takrorlarkan, g'ayrishuuriy tarzda bu kishining izzat-nafsiга tegadigan bir ko'rinishda uning qo'llarini olib, baayni zo'rlab bo'lsa-da ishontirishni istardi.

U, albatta, bu kishiga azob berishni xayoliga ham kel-tirgani yo‘q, unga shunchaki tegishib qo‘ymoqchi edi, xolos, biroq kimsa to‘satdan baqirib yubordi, go‘yo K. uning qo‘lini ikki panjasiga orasiga olmagan, balki naq qizdirilgan omburni unga tekkizib olgandek edi. Bu beo‘xshov, g‘ayriinsoniy hay-qiriq K.ning butunlay hushini uchirib yubordi, demak, uning ayblanuvchi ekanligiga ishoniшmayapti, bu juda ham yax-shi, biroq uni shu paytda sud hakami qabul qilarmikan? K. yanada tetiklashdi, u kishini esa kuch bilan yelkasidan bosib o‘rindiqqa o‘tirgizdi-da, yo‘lda davom etdi.

– Bu ayblanuvchilarning hammasi shunaqa namkash devor, hamma narsani ko‘ngillariga yaqin olaveradilar, – deb qo‘ydi xizmatchi.

Ularning orqasidan qariyb hamma kutib o‘tirganlar haligi kishining tegrasiga yog‘ilib borishdi. U baqirishni bas qilgan, aftidan, hamma undan nima bo‘lgani haqida mu-fassal gapirib berishni so‘rab-surishtirishardi. K. soqchiga uchrashmoqchi bo‘lib yurdi. Soqchini bir ko‘rganda qurol-aslahasidan ajratib olsa bo‘lar, uning xanjari chiroq-dan tushgan yorug‘da, alyumindan tayyorlangani bilinardi. K. hatto u matohini qo‘lda qimirlatib-o‘ynatib o‘tirganiga juda hayron ham qoldi. Soqchi shovqin-suronni eshitib, nima g‘alva deya so‘rab-surishtira ketdi. Xizmatchi uni darrov tinchlantirish payida bo‘ldi, biroq u hammasini o‘zi tekshirib ko‘rishi lozimligini uqtirdi-da, rasmi-rusmini qilmoxchi bo‘lib, qo‘lini chekkasiga olib borgancha, shoshqin bir alfozda o‘sha tomonga yo‘rg‘alab ketdi, aftidan, u nima uchundir kuyib-pishardi.

K. unga ham, yo‘lakda o‘tirgan mijozlarga ham ortiq e’tibor qilmadi. Xuddi shunday to‘g‘ri yurib, dahlizning yarmini bosib o‘tdi va shundoq o‘ngga burilib, eshik tirqi-shiga ko‘zi tushdi. U xizmatchidan o‘zi to‘g‘ri ketyaptimi yoki yo‘q, deb surishtirdi, bu yoqqa yuring, degan ishorani

ko'rib, K. o'sha tomonga o'tdi. Unga hamisha xizmatchidan uch-to'rt qadam oldinda yurishi qandaydir yoqimsiz edi, ayniqsa, shu binoda buning yuz berayotganligi go'yo uning haqiqatdan ham mahbusligini bildirib turayotganday edi. Ubu manzarani o'zgartirmoqchi bo'lib, xizmatchini kutmoqchi bo'ldi, ammo to'xtashi bilan u kishi ham shu zahoti to'xtar, orqada kutib turardi. Oxiri K. bu yoqimsiz ahvolni bas qilish niyatida dedi:

– Mana, nihoyat men bu yerda hammasi qanday tartibda bo'lsa, barini tomosha qilib bo'ldim, endi ketsam ham bo'lar.

– Yo'q, siz hali hammasini ko'rganingizcha yo'q, – shunchaki beiltifotlarcha dedi xizmatchi.

– E, ordona qolsin, qolganini ko'rishga hushim yo'q, – K. shunday derkan, chinakamiga tinka-madori quriganini his qildi. – Ketmasam bo'lmaydi. Qayerdan chiqib ketish mumkin?

– Nahotki siz o'zingiz kelgan yo'lni unutib qo'ygan bo'lsangiz? – jonlanib so'radi xizmatchi. – Burchakkacha to'g'ri yurib borish kerak, keyin o'ngga burilsangiz yana bir yo'lak chiqadi, yo'lak bo'ylab oxirigacha ketilsa, adog'ida eshik bor.

– O'zingiz birga yura qoling, – dedi K. – Menga yo'lni ko'rsatib yuborasiz, bo'lmasa men chalkashib, adashib ketishim hech gap emas, axir bu yerda qancha-qancha kirish-chiqish joylari bor.

– Yo'q, bu yagona chiqish joyi, – bir qadar kinoya bilan dedi xizmatchi. – Lekin siz bilan ortga qayta olmayman, men hali bir qancha topshiriqlarni bajarishim kerak, shundoq ham siz bilan bo'lib, allaqancha vaqtimni yo'qotdim.

– Yo'q, qani ketdik! – K. keskin gapirib yubordi, go'yo oxiri xizmatchining yolg'onini fosh qilganday.

– Baqirmang! – yarim shivirlab shipshidi xizmatchi. – Bu yer boshidan oxirigacha devonxona axir. Agar siz mensiz

ketishni istamas ekansiz, yana biroz oldinga qarab yuraylik, yo‘q, yaxshisi, bir zum shu yerda kutib turing, men apil-tapil topshiriqlarni bajarib qaytaman-u, so‘ng sizni mammuniyat bilan kuzatib qo‘yaman.

— Yo‘q, yo‘q, — dedi K., — men hech ham kutolmayman, siz hoziroq men bilan borishingiz kerak.

K. hali o‘zlarini binoning qayerida, qanday turganlarini xayoliga keltirmasdan, bu yerdagi sonsiz yog‘och eshiklaridan biri ochilishi bilan o‘scha yoqqa ko‘z tashladi. Hangomat lab qandaydir qiz, aftidan, K.ning ovozini eshitib keldi-da, undan so‘radi:

— Sizga nima kerak o‘zi, janob?

Uning ortidagi g‘ira-shirada kelbatidan erkakka o‘xhash bir qora ham ko‘rinardi, K. xizmatchiga qaradi. Axir u ayt-movdimi, K.ga bu yerdagi hech kim e’tibor qilmaydi, deb; bu yerdagi esa hozirdanoq iskovuch itdek ikkitasi aylanib qoldi, hali sal o‘tmay — hamma amaldorlar uni tanib qolib, e’tibor berishar, nega u bu yerdagi yurganini tushuntirib berishni tablab qilib, boshini qotirishlari mumkin. Tushunsa va qabul qilsa bo‘ladigan bahona, u ayblanuvchi, bu yerga navbat-dagi tergov qaysi kun belgilanganini bilish uchun kelgan, ammo u bunday izoh berishni istamas, buning ustiga, bu vaj-karson o‘zi tutayotgan xatti-harakati, maqsadiga ham to‘g‘ri kelmas, axir uni bu yerga faqat va faqat aynan qizi-qishi boshlab keldi-ku, shuningdek, u sud ishlarining tashqi tomondan qanchalik jirkanch bo‘lsa, botinan ham shunday qurilganligini o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rmoq niyatida edi, af-suski kelish sababini bunday izohlاب berish aslo mumkin emas. U nimani o‘ylagan bo‘lsa, bu yerdagi hammasining tasdig‘ini ko‘rdi, qolganini ham shunday idrok etishga uning hech xohishi qolmadi, guvoh bo‘lganlardan u shunchalik xafa bo‘lib ketdiki, ayni paytda biron-bir eshikdan chiqib kelib, shap etib paydo bo‘ladigan kattakon bir amaldor bilan

yuzlashishga uning holi qolmadi, u faqat xizmatchi bilan bu yerdan tezroq ketishni istar, agar buning iloji bo‘lmasa, yakka o‘zi ketishga ham rozi edi.

Aftidan, uning og‘ziga qulf solinganday o‘jarlarcha, miq etmas g‘alati turishi darrov ko‘zga tashlanib qoldi, shuning uchun ham qiz bilan xizmatchi unga shunday bir angrayib, vahima bilan qaradilarki, go‘yo yaqin lahzalarda unda qandaydir bir boshqacha evrilish, portlash yuz berar, ular shu sodir bo‘lmasa edi deb xavfsirab turishardi. Eshikda bo‘lsa anchadan buyon bir kishi turar, K. unga ancha oldin, uzoqdanoq ko‘zi tushgandi, u eshikning pastki kesakisidan tutgancha, xuddi sabrsiz tomoshabindek bilinar-bilinmas ro‘molchasini silkitib qo‘yardi. K.ning g‘alati xatti-harakatiga qarab, mazasi qochayotganligini birinchi bo‘lib qiz tu-shundi va yugurib borib oromkursi olib keldi va taklif qildi.

– Ehtimol, o‘tirarsiz?

K. shu zahoti o‘tirdi va baayni suyanchiq topganday bo‘lib, o‘rindiq dastagiga mahkam yopishdi.

– Birozgina boshingiz aylandi chamasi, shundaymi? – so‘rab-surishtirdi qizgina. U ko‘rinishidan o‘ziga yarasha kekkaygan bo‘lsa-da, mehribonlik bilan boshini engashtirib, unga yuzini juda yaqin olib keldi, ha, ayollarda qanaqa bir o‘ziga xos qalbnisorlik bo‘lsa, bu aynan yoshlik tongotarida bo‘y ko‘rsatadi.

– Hechqisi yo‘q, hayajonlanmang, – bidirlay ketdi qiz, – bunda tobingiz qochishi odatiy hol, kimki bu yerga birinchi marta qadam ranjida qilgan bo‘lsa, qariyb hamma, shunaqa tutqanoqni boshidan o‘tkazadi. Sizning ham bu yerda birinchi marta bo‘lishingizmi deyman? Ha, unda bu butunlay tabiiy hol. Quyosh tom to‘sınlarini ayovsiz tarzda qizitadi, qizigan yog‘ochdan esa havo og‘irlashadi, diqqinafas bo‘ladi. Mana shuning uchun ham, hamma jihozlari yetarli bo‘lishiga qaramay, devonxonaning bu yer-

da joylashtirilganligi unchalik to‘g‘ri emas. Toza havoning tashvishini kim ham qilardi bu yerda, har kuni lak-lak mijozlar, kunda-shunda tanda qo‘yanlar, eh-he... – bu yerda nafas olib bo‘lmay qoladi. Agar yana esga oladigan bo‘lsak, bu yerga ko‘pincha kiyim-kechak, choyshablarni quritish uchun ham osishadi – axir bu yerda umrguzaronlik qilayotganlarga chordoqdan foydalanishni taqiqlab qo‘yolmaysiz-ku, shunday bo‘lgach, ana endi o‘zingiz, bu yerda mazangiz qochib qolganligi sababini tushunib olavering-da. Biroq, oxir-oqibat shunaqa iflos havoga ham o‘rganar ekansan. Ha, yana ikki-uch marta bu yerga kelganingizdan keyin havoning ayniganligini, diqqinafaslikni sezmay qolasiz. Sal yaxshi bo‘lib qoldingizmi?

K. hech narsa deb javob qilmadi, – birdan darmoni qurib, bu kishilarga tirik tovon bo‘lib qolganligidan ezilib o‘tirar, ustiga-ustak, buning sababidan voqif bo‘lgach, u o‘zini yaxshi his qilmadi, balki ahvoli battar og‘irlashdi. Qiz buni darhol payqadi, devorda turgan uzun dastali il-gakni tortib, ishqilib, ozgina bo‘lsa-da toza havo kirsin, deb K.ning boshi ustidan ozgina tuynuk ochdi. Biroq ozgina havo kirishi bilan qiz shu zahoti tuynukni yopdi va o‘zining qo‘lro‘molchasi bilan K.ni yelpib turdi, chunki yigitning holi xarob – o‘zini juda oldirib qo‘yan edi. U kuch-quvvat yig‘ib olib, so‘ng ketmoq umidida astoydil bu yerga o‘tirgan va unga shuncha kam e’tibor berib, xirapasha bo‘lishmasa, u shuncha tez o‘ziga kelgan bo‘lardi. Biroq shu payt qiz ogohlantirdi:

– Bu yerda o‘tirish mumkin emas, biz o‘tib-ketuvchilar harakatiga xalaqit berib qo‘yamiz.

Qanaqa harakat qatnovi haqida gap boryapti, deb K. qizga anqovsiragancha savolomuz qaradi.

– Agar istasangiz men sizni tibbiyot xonasiga kuza-tib qo‘yishim mumkin. Qani, menga yordamlashib yubo-

ring, – u eshik yonida turgan erkakka murojaat qildi va u kishi ham darrov yordamlashgani keldi.

Biroq K. tibbiyat xonasiga borishni umuman istamasdi, hammadan ham o'sha yerda uni ko'rishlaridan qo'rqrar, ehtimol, u yoqqa borgani sari ahvoli battar yomonlashishi mumkin.

– Bu yog'iga endi o'zim ham keta olaman, – xuddi oromkursida o'tirib qolishi unga juda noqulayday, xijolatga tushib dedi u va butun tanasi titrab-qaqshab, bazo'r o'rnidan turdi. Ammo o'zini tik tutib turolmadi.

– Qo'limdan kelmas ekan, – u boshini sarak-sarak qilib, chuqur xo'rsindi-da, yana o'zini o'rindiqqa tashladi. Uning esiga sud xizmatchisi tushdi, axir u nima bo'lganda ham bu yerdan chiqib olishiga yordam berishi mumkin, biroq ma'lum hol, u allaqachon bu yerdan gumdon bo'lgandi. U qiz va kishi orasidan tushib turgan yorug'likda tevarakka qaradi, ammo xizmatchiga ko'zi tushmadi.

– Menimcha, – kishi so'zga lab ochdi, uning kiyim-kechagi bashang, ayniqsa etagi hoshiyali kulrang nimchasi ko'zni o'ynatardi, – menimcha, bu yerdagi diqqinamas havo bu janobning mazasini qochirdi, shu bois eng aqli tadbir, bu uning o'ziga ham manzur bo'ladi deb o'ylayman, biz uni tibbiyat xonasiga olib boramiz, deb sudraguncha, devonxonadan chiqarib qo'ysak, shuning o'zi yetarli bo'ladi.

– E, bor ekansiz-ku! – K. quvonchdan hayqirib yubordi-da, hech qanaqa muzokaraga hojat qoldirmasdan davom etdi. – Albatta, shunday qilinsa, darrov men yaxshi bo'lib qolaman, ha, ha, men unchalik nimjon emasman, meni faqat qo'ltig'imdan ushlab, eshikkacha ozgina suyab borilsa yetadi, ha, mening sizlarga hech qanaqa og'irligim tushmaydi, o'zi ham bu yerdan uncha uzoq bo'lmasa kerak, qani meni eshikkacha eltib qo'yinglar, men u yerdagi zinalarda biroz o'tirib, nafasimni rostlab olaman-u,

tamoman o‘zimga kelaman, hayronman, bu qayerdan yuz berdi, menda bunaqa maza qochishlar hech qachon so-dir bo‘lmagan edi. Axir o‘zim ham xizmatdagi kishiman, devonxona havosiga o‘rganib qolganman, biroq bu yerning iflos havosiga bir qarang, bo‘g‘ib o‘ldirgudek diqqinafas. Baraka topgurlar, boshim aylanib boryapti, bir dam men bilan hamrohlik qilmasangizlar bo‘lmaydi chog‘i, agar men birovning suyanchig‘isiz qolsam, o‘zimni ushlolmayman, holim xarob bo‘ladi, – u yelkalarini andak ko‘tarib, qad-dini rostladi, ishqilib, bularning qo‘ltig‘i ostidan ushslash-lari mumkin bo‘lsin.

Biroq erkak kishi uning iltimosiga iltifot ko‘rsatmadi va qo‘lini cho‘ntagidan chiqarmasdan qahqaha otdi.

– Mana, ko‘rdingizmi, – dedi u qizga qarab, – bu janobga, umuman olganda, jin ham urmagan, faqat hamma balo mana shu yerda.

Qiz ham jilmaydi, biroq barmoqlarini ot boshidek qirrador qilib, erkakning yelkasiga yengilgina urib qo‘ydi, go‘yo K.ning ustidan kulganda asosiy ayb shu kishining zimmasiga tushadigandek qilib.

– E, siz bunaqa o‘ylamang-da, – masxara qilishini yashirishga urinib dedi u kishi, – axir men ham uni bu yerdan chiqib olishida yordam berishni istayman-ku.

– Bu boshqa gap, – qiz shunday deb, bejirim boshchasi qimirlatib qo‘ydi, – siz, marhamat qilib, bizning bu kulganimizga ko‘p ham ahamiyat beravermang, – qiz K.ga qarab murojaat qilar ekan, u yana tund bo‘lib olib, horg‘in, o‘zi bilan o‘zi qolgancha turar, gap-so‘zlar uning qulog‘iga kirmasdi.

– Bu janobni sizga tanishtirishga ruxsat bering, – (u kishi ham imo-ishora bilan bunga rozilik alomatini bilda-ridi), – bu janob ma’lumotlar shaxobchasini boshqaradi. Baxtga qarshi, bizning sud ishlarimiz tartibini xalq

yaxshi bilmaydi va shu bois ham har narsani ming bora so‘rab-surishtirgani-surishtirgan. U kutib o‘tirgan mijozlarimizga hamma kerakli ma’lumotlarni beradi. U istagan savolga javob berishi mumkin. Agar kerak bo‘lsa, siz o‘z ko‘zingiz bilan buning guvohi bo‘lasiz. Biroq uning yagona boyligi shugina emas. Uning yana bir yitmas davlati – bashang kamzuli. Ma’lumotlar byurosi mudiri o‘ziga qarab, bashang kiyinib yurgani bois u bilan mijozlar birinchi bor uchrashgandayoq, shu zahoti apoq-chapoq bo‘lib ketadi, odamlarda u iliq taassurot qoldiradi. Biz, – bu yerdagi barcha xizmatchilar shunday qarorga allaqachon kelib olganmiz. Qolganlari esa menga qarab ham hukm chiqarishi mumkin, afsuski, juda yomon kiyinamiz, daqqiyunusdan qolgan latta-puttani egnimizga ilib yuramiz, ochig‘i, bizning tashvishlarimiz boshimizdan oshib yotganidan, kiyim haqida o‘ylashga fursatimiz ham bo‘lmaydi, holbuki, biz butun vaqtimizni shu yerda o‘tkazamiz, hatto devonxonaning o‘zida tunab ham qolamiz. Biroq, hali aytib o‘tganimdek, ishqilib, ma’lumotlar byurosi mudiri yaxshi kiyingan bo‘lishi kerak, bu zarur deb hisoblaymiz. Xuddi shunday bo‘lishi kerakday, bu masalada rahbariyatning munosabati juda ham g‘alati, ular bilan hech narsani hal qilib bo‘lmaydi, shunda bizning o‘zimiz alohida bir anjuman tashkil qildik, unda mijozlarimiz ham ishtirok etishdi, anjumanda faqatgina shu kamzul bilan birga yana bir necha antiqa, po‘rim kamzullar unga olib berildi. Bularning bari, ishqilib, u mijozlarda yaxshi taassurot qoldirsin, deb qilinganga o‘xshaydi, ammo u o‘zining ishshayaverishi bilan hammasini bir pul qiladi, odamlarni bizdan qochiradi.

– To‘g‘ri, – tirjayib dedi ma’lumotlar byurosining mudiri. – Froylyayn, men faqat bir narsaga tushunmayapman, nega siz vaqtengizni ketkazib, bizning ichki tartiblarimiz haqida bu janobga gapirib o‘tiribsiz, bu mayda-chuydalar

bilan uning nima ishi bor. Nahotki siz hozir boshdan oyoq u butunlay o‘z dardi, o‘y-xayoli bilan andarmon bo‘lganligini ko‘rmayotgan bo‘lsangiz?

K. qizga qarshi biron-bir mulohaza yuritish, buni sinovdan o‘tkazish uchun ham o‘zida hech bir xohish sez-madi, qizning niyati kundek ayon, juda ham samimiy, yurak-dan ekanligi bilinib turibdi, albatta, u K.ni nima bilandir chalg‘itish uchun bu gaplarni topgan yoki kuchini yig‘ib, o‘ziga kelib olishga imkoniyat bermoqni ko‘zlagan, biroq buni uddalolmagandi.

– Sizning kulgingiz sababini unga tushuntirishim kerak edi-da, – baribir kuyunchaklik bilan dedi qiz. – Axir u bundan xafa bo‘lishi mumkin.

– Ehtimol, men agar uni shu yerdan chiqarib qo‘ysam, balki, u bunga o‘xshamaydigan xafagarchiliklarni ham ke-chirishga tayyor bo‘lsa kerak.

K. bu safar ham hech nima demadi, hatto nigohini ko‘tarib qaramadi ham, bu ikkalasi jonsiz bir matoh kabi u haqida gapirganda ham bunga qarshilik bildirmas, balki bu unga yanada xush yoqardi. Biroq to‘satdan ma’lumotlar byurosi mudirining qo‘li uning o‘ngidan, qizniki esa chap tomonidan tutdi.

– Qani, tura qoling, bunchalik nimjon bo‘lmasangiz, – dedi mudir.

– Men sizdan juda ham minnatdorman, – deb qo‘ydi K. kutilmagan madaddan quvonib, u sekin o‘rnidan turdi, bu uzatilgan qo‘llar keyin ham uni tutib boradigandek ularga o‘zini topshirdi.

– Balki, bu sizga shunday ko‘ringan bo‘lishi ham mumkin, – yo‘lakka yetay deganlarida K.ning qulog‘iga shivirlab dedi qiz, – go‘yo men hech narsani ko‘rib bo‘lmas g‘irashira chiroq nurida ma’lumotlar byurosi mudirini ko‘z-ko‘z qilmoqchi bo‘lgandirman, biroq ishoning, mening hamma

aytganlarim chippa-chin. U tabiatan qalbi mehrga to‘la, mana o‘zingiz ko‘rdingiz, u sizga qanchalik yordam qo‘lini cho‘zdi, lekin kasalmand mijozlarni suyab yurish uning xizmat vazifasiga kirmaydi. Ehtimol, barchamiz ham xuddi shunday, u darajada zolim kishilar emasdirmiz va har bir kishiga astoydil yordam bermoqni istaymiz, biroq sudda ishlaganimiz boismi, yengil-yelpilik bilan bular zolim, battol kishilar deb o‘ylaydilar. Men bundan chunonam iztirob chekaman.

– Shu yerda o‘tirishni istaysizmi? – deb so‘radi ma’lumotlar byurosi mudiri.

Ular nihoyat yo‘lakka yetib oldilar va K.ning shundoq ro‘parasida aynan u gaplashgan ayblanuvchi kishi paydo bo‘ldi. Endi biroz xijolat bo‘lish gali K.da edi, hali u bu odam oldida o‘ziga ishongan holda turardi, endi bo‘lsa ikki kishi ikki yog‘idan suyab kelgan, mudir uning shlyapasini olib yuzini yelpir, to‘zg‘ib ketgan sochlari, terlab ketgan peshonasiga osilib tushgandi. Biroq ayblanuvchi go‘yo hech nimani sezmagandek, ma’lumotlar byurosi mudiri oldida o‘zini faqirona tutib turardi, mudir esa haligi kishining bu yerga kelishini izohlamoqchi bo‘lganiga ham e’tibor qilmadi.

– Bilaman, – dedi ayblanuvchi, – bugun mening arizam bo‘yicha biror-bir qarorga kelish mumkin emas. Shunday bo‘lsa ham kelaverdim. Bugun axir yakshanba bo‘lsa, vaqtim ham istagancha bor, bu yerda ham hech kimga xalaqit bermayman, shunday ekan, kutib o‘tirgancha o‘ylab tursam nima bo‘libdi.

– Ha, sizning kechirim so‘rashingizga hojat yo‘q, – dedi müdir. – Sizning nozik tabiatingiz hammaga ibrat bo‘lgulik. To‘g‘ri, siz behudadan behudaga joyni band qilib o‘tiribsiz, biroq menga xalaqit bermayotgan ekansiz, o‘tirishingizga qarshi bo‘lolmayman, maylingiz, ishingiz qanday borayotganini shaxsan o‘zingiz kuzatishingiz mum-

kin. Qachonki o‘z burchiga, ishiga vijdonsizlarcha xiyonat qilayotgan kishilarga qarab, xuddi siz kabi sabr qilishdan boshqa chora topa olmaysan. O‘tiring!

– U mijozlar bilan muomala qilishda judayam ustasi farang bo‘lib ketgan, – shipshib qo‘ydi qiz.

K. shunchaki boshini qimirlatib qo‘ydi, biroq to‘satdan ma’lumotlar byurosi mudirining ovozi yangraganida cho‘chib tushdi, qayta so‘radi:

– O‘tirishni istaysizmi?

– Yo‘q, – dedi K. – Hozir nafas rostlashimning hojati yo‘q.

U imkon qadar bu gapni uzil-kesil aytishga urindi, ammo rostini aytganda rang ko‘r, hol so‘r, degandek, o‘tirib nafas rostlash u uchun faqat foydali bo‘lardi. Nima uchundir u boshi aylanib ketayotganini his qildi. Go‘yo u o‘zini dolg‘ali mavjlar orasida qolib, chayqalib borayotgan kemaga mengzardi. Uning nazarida, to‘lqinlar yog‘och qoplamaga ayovsiz urar, yo‘lakning eng to‘ridan eshitilgan guvullah po‘rtana bo‘lib chayqalar, yo‘lakning poli ikki tomon yonlarigacha borib-kelar, ikki tomonda o‘tirgan mijozlar bu guvullahda bir ko‘tarilib bir tushardi. Shunday alg‘ov-dalg‘ovda uning ikki yog‘idan tutgan erkak va qizning xotirjamligini tushunib bo‘lmashdi. Agar ular uni o‘z holiga qo‘ysalar, shu zumda bir bog‘ poxol kabi qulab tushishini K. aniq-tiniq tasavvur etardi. Ko‘zlarini qisib qo‘ygancha, tez-tez nigohlari to‘qnashib turgan bu ikki kishining odim otish maromini K. his qilib borar, lekin bu maromga o‘zi tusha olmas, chunki ular uni qariyb ko‘tarib borishardi. Oxiri u sheriklarning o‘ziga murojaat qilayotganini eshitdi, ammo hech vaqoni tushunmadni. Uning qulog‘iga chor-atrofini egallagan, boshi-keti yo‘q g‘ala-g‘ovur oqib kirdi, undan esa baland, sirenaning tovushiga o‘xhash bir ohang taralardi.

– Qattiqroq gapiring, – boshini solintirgancha shivirladi u, unga qichqirib murojaat qilayotgan bo‘lsalar-da, u hech nima

tushunmas, buni chuqur anglab turgani o'zi uchun juda ham xijolatli edi. Nihoyat shu yerga kelganda, go'yo uning oldida g'ovdek bo'lib turgan devor quladi, dimog'iga toza havo urildi va shundoq yonginasidagi gap-so'zlar qulog'iga kirdi:

— Bir qarasang, uyiga ketmoq istaydi, bir qarasang esa unga yuz marta mana bu chiqish joyi, deb ko'rsatsang ham, qoqqan qoziqdek joyidan qimirlamaydi. K. shu chog' o'zini eshik oldida ko'rdi, qiz uni lang ochib yuborgandi. U kuch-quvvati o'ziga qaytib kelganini his qilarkan, ozodlik shamolidan to'yib-to'yib nafas olish uchun shu zahoti zinalar sari otildi va unga yetgandagina o'zini suyab kelganlar bilan xayrashmoqchi bo'lib, ularga ta'zim qildi.

— Katta rahmat, — deb qayta-qayta takrorlar ekan, u uza-tilgan qo'llarni bearmon siqdi va bir narsani sezib qoldi, ularning ikkisi ham devonxonaning diqqinafa sligiga o'r-ganib qolishgani bois, zinapoyaning ochiq joyidagi toza havoda o'zlarini yomon his qildilar. Ular arang javob qilişdi, ehtimol, K. beixtiyor eshikni tezlikda yopmaganida, qiz bechora yiqlib tushgan bo'larmidi? K. bir daqiqqa jum qoldi, so'ngra cho'ntak oynachasini olib, uning yordamida to'zg'ib ketgan sochlarini tuzatdi, navbatdagi o'rindiqda turgan shlyapasini olib boshiga qo'ndirdi, bu mudirning ishi ekanligi ravshan, u shunchalik dadillik bilan, zinalarda chop-qillab, irg'ishlab borarkan, bu tez tiklanishidan o'zida yo'q xursand edi. Har doim chayir va umuman olganda sog'lom bo'lgan tanasi bunaqa karomat ko'rsatmagandi. Nahotki jismi-joni o'zgargan hayot tarziga isyon ko'targan bo'lsa, chunki bunaqa tobi qochganligini u hech ham eslolmaydi, u xayolida kechgan o'z iqrорini rad qilolmasa-da, bu masalada biron-bir shifokorga murojaat qilishi kerak, degan qat'iy bir qarorga keldi, boshqa birovga maslahat solishi shart emas – bugun endi kech bo'ldi, yaxshisi, keyingi yak-shanba ertalabdan bunga bir jiddi-jahd qilib ko'radi.

IV bob

Froylyayn Byurstnerning dugonasi

K. o‘tgan bir necha kun orasida froylyayn Byurstner bilan hech bo‘lmasa uch-to‘rt og‘iz gaplashib olishning iloji ni qilolmadi. U nima qilib bo‘lsa-da qizga yaqinlashishga intilar, biroq froylyayn Byurstner hamisha qandaydir mu g‘ombirlik bilan undan qochib qolardi. Ishdan keyin u tezda uyga keldi va o‘rindiqqa o‘zini tashladi, chiroqni ham yoq-madi, boshqa bir ish bilan ham mashg‘ul bo‘lmadi – faqat keluvchilardan birontasi yo‘lakka kirarmikin, deb nazardan qochirmay o‘tirdi. Mabodo bu yoqqa oqsoch o‘tib qolsa, uning qiya yopiq eshigini ko‘rib, unga K.ning xonasi kim-sasiz tuyulishi mumkin, bir qancha vaqt keyin u shuni ham o‘ylab, o‘rnidan turdi va qaytadan eshigini ochib qo‘ydi. Froylyayn Byurstner o‘z ishxonasiga ketib qolmasdan oldin, ishqilib, qiz bilan uchrashib qolay deb ertalab ham odatiy vaqtidan bir soat oldin o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Biroq uning bar-chacha urinishlari behuda ketdi. Shundan keyin u qizga idorasi va uy manzilini ko‘rsatib xat yozdi, o‘zining xatti-harakatini oqlashga urinar ekan, qizga o‘z aybini nimaki yumshatishi mumkin bo‘lsa, shunga roziligin, hech qachon chegaradan chiqmasligini va’da berdi va faqat suhbatlashishga imkon berishini o‘tinib so‘radi, ayniqsa u froylyayn Byurstner bilan kengashib olmasdan oldin frau Grubax bilan ham hech qanday bitimga kelolmasligini aytdi. U xat oxirida shuni ham ma’lum qildiki, keladigan yakshanba u kun bo‘yi o‘z xonasidan hech qayoqqa chiqmay qizni kutadi – o‘zining iltimosiga roziligi haqida qiz biron-bir belgi yuborsa ham mayli yoki hech bo‘limganda nima uchun uning iltimosi yerda qolayotganligining izohini yetkazishi kerak, qiz ni-mani talab qilsa, nimani istasa, u hammasiga so‘zsiz bo‘ysu-

nishga va'da beradi. Xat qaytmadi, ammo javobi ham kelmadı. Faqat kelgusi yakshanbada hech qanaqa shubhaga o'rin qoldirmaydigan alomatli bir voqeа sodir bo'ldi. Saharmardonda paydo bo'lgan bir kimsa qo'shni eshik qulfini ochish uchun behuda urinar, bu uquvsizlik sababi ham tez orada ma'lum bo'lib qoldi. Shu paytgacha bir o'zi egallab kelgan froylyayn Byurstnerning xonasiga ozg'in, rangpar, oqsoq bo'lgan fransuz tili muallimasi, nisbasiga qaraganda nemis bo'lishi kerak, Montag xonim ko'chib keldi. Qiz bir necha soat davomida yo'lakda ship-ship etib u yoqdan bu yoqqa zing'illab o'tib turdi. Goh u ko'rpa-to'shagidan nimanidir olishni unutganidan zing'illab chopar, goh gilam va kitoblari uchun alohida borib-kelar, ishqilib, hamma ko'ch-ko'ronini yangi ko'chib o'tgan joyiga kiritib olsam derdi.

Frau Grubax bu orada unga nonushtasini olib kirdi – ammo u shu paytgacha ayol arzimas bir yumushni ham K. uchun xizmatchilarga buyurmagan, buning uchun esa K. ham shu darajada darg'azab edi, oxiri u o'zini ushlab turrolmadi, besh kunlik gunqlikdan keyin birinchi bor tilga kirib dedi:

– Bugun tong-sahardan namuncha g'avg'o? – deb so'radi u o'ziga qahva quyar ekan. – Buni bartaraf qilishning hech iloji yo'qmi? Saranjom-sarishtalashni aynan yakshanba kuni qilish shartmi?

K. frau Grubax zehn solib qaramagan bo'lsa-da, xonim baayni yengil tortgandek tin olganini sezib qoldi. Hatto mana shu ayovsiz so'roqni ham u xuddi ijobiy o'zgarish deb qabul qildi yoki hech bo'lmasa xayrli tomon sari tashlangan birinchi qadam deb o'yADI.

– Hech qanaqa uyni yig'ishtirish bo'layotgani yo'q, janob K., – dedi xonim. – Taqir-tuqur qilayotgan froylyayn Montag, u froylyayn Byurstnerning xonasiga joylashyapti. Shu bois narsalarini tashib o'tyapti.

Xonim boshqa hech narsa demadi, uning so‘zlarini K. qanday qabul qilar ekan, gapida davom etishga yana rag‘bati bo‘larmikan deganday kutib turdi. Biroq K. uning irodasini sinamoqchi bo‘ldi, indamaygina, xayolga botib, choyqoshiq bilan qahvani aralashtiraverdi. So‘ngra esa nigohini yerdan ko‘tarib, so‘radi:

– Endi o‘zingiz froylyayn Byurstner haqidagi oldingi shubha-gumonlaringizni rad etarsiz?

– Sizni qarang-u janob K.! – xuddi shu savolni kugandek hovliqib chiyilladi frau Grubax va yalingansimon alfozda qo‘llarini K. tomonga cho‘zdi.

– Siz shunchaki ogohlantirishni yuragingizga juda ham yaqin olibsiz. Mening xayolimda hech qachon dilingizni og‘ritish niyati bo‘limgan. Axir siz meni otam zamonidan buyon bilasiz, shu bois ham janob K., siz menga ishonishingiz kerak. Ha, siz hatto tasavvur qilolmasangiz ham kerak, mana bu o‘tgan kunlarda qanchalik iztirob chekkanimni! Nahotki men o‘z ijarachilarim ustidan mag‘zava to‘kishga qodir bo‘lsam! Ammo siz men haqimda shunday o‘ylashningiz mumkin ekan! Ha, yana menga sizni bu xonadondan chiqarib yuborishni ham taklif qilib ko‘rdilar. Sizni chiqarib yuborsam, – oxirgi so‘zlarga qo‘shilib, chashmidan ko‘zyoshlar ham quyilib chiqdi, xonim uning oldida turgancha yuzlarini qo‘llari bilan bekitib, bor ovozda obidiyda qilardi.

– Yig‘lamang, frau Grubax, – K. tinchlantirmoqchi bo‘lib shunday dedi-yu, o‘zi esa derazaga qarab oldi. U faqat begona bir qizni o‘z xonasiga qo‘ygani uchun ham froylyayn Byurstner haqida o‘ylagani-o‘ylagan edi. – E, bo‘ldi, yig‘lamasangiz-chi! – u xonaga qayrilib, hamon frau Grubax yig‘idan to‘xtamaganini ko‘rdi va unga dedi: – Sizga bir-on-bir yomon narsa aytish xayolimga ham kelgani yo‘q. Biz bor-yo‘g‘i bir-birimizni tushunmadik. Bu eski do‘stlar o‘rtasida yuz berib turadi.

Frau Grubax, haqiqatan ham K. undan xafa bo‘lma-
ligiga ishonch hosil qilmoqchi bo‘lib, oldida turgan kishiga
ko‘zlarini qadadi.

— Ha, ha, bu chin, ishoning, — dedi K. U frau Grubax-
ning butun xatti-harakatiga qarab, barini tushunib, o‘zicha
tasavvur qilib oldi, xonimga uning jiyani, kapitan hech narsa
demagan, shu bois ham gapiga qo‘srimcha qilmoqchi bo‘ldi:

— Nahotki allaqanday bir, o‘zimiz kam biladigan oyim-
tillani deb siz bilan san-manga borib o‘tirsam, nahotki
shunga ishonsangiz?

— E, balli, janob K., — deb yubordi frau Grubax. Xonim
o‘zini shu onda biroz bardam his qildi, o‘ziga ishonib ket-
di, baxtga qarshi shu zahoti andishasiz, betakalluf bir holga
kirdi. — Men ham hayron qolib, o‘z-o‘zimdan so‘rayman:
Namuncha janob K. froylyayn Byurstner uchun yonib-kuy-
masa? Bu oyimtillani deb men bilan u nimaga janjallahshadi?
Nimaga tortishadi? Axir kechalari mijja qoqmayman, tiq et-
gan narsani sezib yotaman, buni bila turib, janob K. nega
menden xafa bo‘ladi? Bu qiz haqida esa faqat o‘z ko‘zlarim
bilan ko‘rgandan keyingina shu gaplarni aytganman.

K. xonimga hech nima deb e’tiroz bildirmadi, shu payt
yana uning xayoliga pansion sohibasi shu zahoti xonani
bo‘shatib qo‘y deb qolsa-ya, degan fikr ham kelib qoldi,
buni esa u istamasdi. U jimgina o‘tirib qahvasini icharkan,
bu bilan endi xonasida frau Grubaxning o‘zi ortiqcha ekan-
ligini ta’kidlayotgandek edi. Eshik ortidan yana sharaqlash
eshitildi: froylyayn Montag yana dahliz orqali o‘tib borardi.

— Eshityapsizmi? — K. qo‘lini eshikka ishora qilib so‘radi.

— Ha, albatta, — chuqur uf tortib dedi frau Grubax, —
hatto men o‘zim unga yordam qilmoqchi bo‘ldim, ko‘mak
berish uchun oqsochni yubordim, u bo‘lsa tushunarsiz bir
o‘jarlik bilan hammasini o‘zim tashib olaman, deydi. Froy-
lyayn Byurstnerning xatti-harakati ham meni hayratga soldi.

Froylyayn Montagning menikida – shu xonada yashashiga ko‘zim uchib turgani yo‘q edi, biroq froylyayn Byurstner esa unga xonasini qo‘shqo‘llab tutdi.

– Bu sizga daxl qilmasa kerak, – u shunday deb so‘rarkan, K. finjon tagida qolgan qand bo‘lagini qoshiqcha bilan maydaladi, – yoki siz bu bilan ko‘pga tushasizmi?

– Yo‘q, – dedi frau Grubax, – nafsilamrini aytganda, buning bari o‘zimning qo‘limda, bir xonam bo‘shar ekan, u yerga jiyanim, kapitanni ham joylashtirsam bo‘lardi. Chunki keyingi kunlarda u mehmonxonada tunayapti, bu sizga xalaqit beradi deb anchadan buyon xijolatdaman. Uning sal-pal beandishaligi bor-da.

– O‘ylab topgan gapingizni qarang! – K. shunday deb kursidan turdi. – Siz meni juda injiq odam deb o‘ylaysiz, aftidan, shu bois ham bu Montagning tapir-tupuri jig‘ibiyronimni chiqaryapti, degan xayolga boardingiz. Bu haqda gap bo‘lishi mumkin emas. Eshityapsizmi, u yana kelyapti.

Frau Grubax K.ga mo‘ltirab qaradi.

– Janob K., uni balki boshqa xonaga ko‘chirish kerakdir? Agar sizga shu ma’qul bo‘lsa, men buni unga hoziroq aytaman.

– Biroq, aftidan, u aynan froylyayn Byurstnerning xonasigagina ko‘chib kelishi kerakka o‘xshaydi, – dedi K.

– To‘g‘ri aytasiz, – deb tasdiqladi frau Grubax K. gapni qayoqqa burayotganiga tushunmay.

– Shunday ekan, – davom etdi K., – demak, u narsalarini tashib olishi kerak-da.

Frau Grubax boshini bilinar-bilinmas qimirlatib qo‘ydi, xolos. Bu qaysarlik bilan o‘tib turishdan va unga qarshi hech bir chora ko‘rib bo‘lmasligidan K.ning yanada ach-chig‘i chiqardi. K. xonaning u boshidan bu boshiga, eshik bilan deraza orasida borib-kelar, frau Grubax esa hozirgina ketmoq istagida yonganiga qaramay, hech ham chiqib ketish mumkin emasday imillardi.

K. yana eshikka yetay deb qolganda uning qo‘ng‘irog‘ini bosib qolishdi. Ichkariga kirgan oqsoch janob K.ga froylyayn Montagning unga bir necha og‘iz gapi borligi bois, oshxonada kutayotganligini, K. o‘sha yerga borishi kerakligini iltimos qilganini ma’lum qildi. K. oqsochni parishonxotirlik bilan tingladi, keyin esa qariyb tirjaygancha juda qo‘rqib ketgan frau Grubaxga razm soldi. Bu nigoh K. allaqachon froylyayn Montagdan shunday taklif bo‘lishini kutganligini aytib turar, bu ham yakshanba tongida frau Grubax ijarachilaridan yetib turadigan, lekin u sabr qilish qaroriga kelgan aziyatlardan edi. U oqsochga hozir borishini yetkazib qo‘yishni iltimos qildi, o‘zi esa kamzulini almashtirish uchun shkafga qarab yurdi va frau Grubaxning miyani chaqadigan shikoyatlariga javob o‘larоq, shunchaki nonushta uchun keltirilgan idish-tovoqlarni yig‘ishtirib olishni so‘radi.

– Siz axir ularga qayrilib ham qaraganingiz yo‘q-ku! – e’tiroz bildirganday dedi frau Grubax.

– Uf, bularni tez ko‘zimdan yo‘qoting-e! – baqirib berdi K. Unga bu taomlar ham qandaydir, ayniqsa, o‘ziga qarama-qarshi tomondan froylyayn Montagga aloqasi bordek edi.

Dahliz orqali o‘tgan K. froylyayn Byurstnerning yopiq eshigiga ko‘z tashladi. Biroq uni bu xonaga emas, oshxonaga taklif qilishganlari bois, oshxona eshigini hatto taqil-latmasdan, siltab ochdi.

Bu juda uzun va tor, bir derazali xona edi. Unda faqat ikkita shkaf sig‘ar-sig‘mas turar, ular ham eshikka yaqin bir burchakka taqab qo‘yilgan, qolgan asosiy maydonni cho‘zinchoq tushlik stoli egallab olgandi, bu stol eshik og‘zidan boshlanib, qariyb derazagacha yetgan, shuning uchun xonada bemalol yurish juda ham qiyin edi. Stolda har xil idish-tovoqlar tirband, qariyb bo‘sh joy yo‘q, hamishagidek har yakshanba bunda yashovchilarning qariyb hammasi shu yerda tushlik qilishardi.

K. xonaga kirib kelganda, stolning u tomonidagi oyna qoshida turgan froylyayn Montag uning istiqboli sari yurdi. Ular imi-jimida so'rashishdi. Keyin froylyayn Montag hamishagi odaticha atayin yasamalik bilan boshini likkillatib gap boshladи:

– Bilmadim, mening kimligim sizga ma'lummi yoki yo'q?
K. unga ko'zlarini qisib qarab qo'ydi.

– Bilaman desam bo'lar, – dedi K., – frau Grubaxnikida siz anchadan buyon yashaysiz-ku.

– Biroq menga siz pansion hayotiga ko'p ham e'tibor beravermaydiganday tuyulasiz, shundaymasmi?

– E'tiborim kam, – iqror bo'ldi K.

– Ehtimol, o'tirarsiz? – taklif qildi froylyayn Montag.

Ikkisi ham ikki kursini sudrab kelishib, stolning bir burchagiga, bir-birlariga yuzma-yuz o'tirdilar. Biroq zum o'tmay froylyayn Montag o'midan dik etib turdi, u deraza rafida sumkachasini unutib qoldirgandi, shu bois oyoqlarini arang sudrab, butun xonani bosib o'tdi. U deraza oldidan qaytib kelar ekan, barmoqlarida sumkachasini ohistagina o'ynatib, gapga tushdi:

– Men dugonamning topshirig'iga ko'ra, sizga bir-ikki og'iz omonat gapni aytib qo'yishni istardim. Uning o'zi siz bilan yuzma-yuz gaplashmoqchi edi, ammo bugun uning tobi qochib qoldi. Men orqali yetkazayotgani uchun uni ke-chirishingizni iltimos qildi. Biroq shunga qaramay, uning sizga aytadigani men yetkazayotganidan ortiq emas. Holbuki, aksincha bo'lishi kerak degan fikrdaman, lekin men bularga aralasha olmayman, o'rtadagi vaziyatga ko'ra xolis bo'lishim kerak. Siz menga qo'shilasizmi?

– Bunga nimayam deyish mumkin? – deb javob qildi K. Uning lab-lunjiga qarab froylyayn Montag horg'in tortdi. Go'yo bu qiz K. nima demoqchiliginı oldindan pay-qagandek edi. – Aftidan, men undan buni astoydil iltimos

qilganimga qaramay, froylyayn Byurstner bilan yuzma-yuz turib gaplashib olish baxtidan meni benasib qilganga o‘x-shaydi.

— Ha, xuddi shunday bo‘lib turibdi, — deb luqma tashladi froylyayn Montag. — Yoki yanada to‘g‘rirog‘i, hech ham siz aytganingizdek emas. Siz savolni juda ham qaltilis qo‘yyapsiz. Umuman olganda bunaqa suhbatlarga rozilik berilmaydi, rad etish ham bo‘lmaydi. Biroq vaziyat taqozosidan suhbat umuman behuda hisoblanishi mumkin, mana hozir ham ahvol qariyb shunday. Sizning bu pisandangizdan keyin mana endi men hamma-hammasini ochiq-oydin aytishim mumkin. Siz so‘ragan narsa, mening dugonam tomonidan beriladigan izoh yozma bo‘lishi kerakmi yoki og‘zaki, qaysini ma’qul ko‘rasiz. Biroq bundan qat‘i nazar, bu suhbat sababi menga noayon bo‘lsa-da, uning hech kimga foydasi tegmasligini dugonajonim juda yaxshi biladi. Umuman olganda ham bu haqida u menga aytarkan, bu suhbat siz uchun unchalik muhim emasligini, xayolingizga to‘satdan kelib qolganligini, o‘zingiz buni tushunib olsangiz yaxshi bo‘lishini, ehtimol, hozirdanoq hech bir izohlarsiz bu niyatingiz bema’ni bir ish ekanligini fahmlab yetgan bo‘lishingiz mumkinligini juda yaqindan turib, yurakdan izohladi. Shunda ham men unga, ehtimol, bularning bari to‘g‘ridir, biroq hammasi aniq-tiniq bo‘lishi uchun, sizga uzil-kesil bir javob bermog‘i foydadan xoli bo‘lmaydi, deb aytdim. Mening da‘vatkor javobimdan keyingina yana allaqancha ikkilanishlarni xayolidan kechirib, oxiri dugonajonim bunga rozi bo‘ldi. Men haqiqatan ham sizning foydangizni ko‘zlab, bu ish borib turgan bema’nilik bo‘lsa-da, uning oxiri nima bilan tugashi nomalum esa-da, har qanaqa jon azobning bo‘lishiga qaramay, unga ozgina bo‘lsa-da yengil bo‘lsin desangiz, orqaga tashlamay uni bir yoqqa surasiz degan umiddaman.

– Sizga tashakkur-e, – dedi shu joyda K. bir og‘iz va bazo‘r o‘rnidan qo‘zg‘alib, froylyayn Montagga nigoh tashladi, keyin stolga, so‘ng derazaga qaradi-da, eshikkacha yurib bordi – uylari qarshi tomondan chiqib kelgan quyosh yog‘dusiga cho‘lg‘angandi. Go‘yo K.ga ishonmagandek, froylyayn Montag uning izidan ta’qib qilib kelardi. Biroq chiqish joyida ularning ikkisi ham yo‘l bo‘shatishiga to‘g‘ri keldi: eshik ochilib, kapitan Lans ichkariga kirdi. K. uni birinchi bor yaqindan ko‘rishi edi. Bu qirq yoshlardagi bo‘ychan erkakning go‘shtdor yuzlari rosa oftobda toblanganidan bo‘lsa kerak, qorayib ketgandi. U K.ga nisbatan so‘rashish ma’nosida bilinar-bilinmas yengilgina ta’zim qilib qo‘ydi, keyin froylyayn Montag sari yurib, ehtirom bilan uning qo‘lini olib o‘pdi. U juda yengil va abjir harakat qilar edi. Uning froylyayn Montagga nisbatan xush muomalasi K.nikiga solishtirganda boshqachaligi darrov sezilardi. Biroq froylyayn Montagning muomala-madorasiga qaraganda, K.dan dili og‘riganga o‘xshamasdi, hatto K. shuni bilib qoldiki, xonim uni kapitanga tanishtirishga taraddudlanardi. Biroq K. kimadir o‘zini tanishtirishlarini umuman istamas, unga baribir, froylyayn Montag bo‘ladimi yoki kapitanmi, u o‘zini zo‘rlab xushmuomala bo‘la olmas, kapitan froylyayn Montagning qo‘lini o‘pgandayoq, uning ko‘z oldidan bularning hamfikr ekanliklari o‘tdi – bularning bari oliy bir ko‘rinishda, hech bir xafagarchiliksiz va e’tiborni tortmaslik qabilida uning froylyayn Byurstner bilan uchrashishiga xalaqit berishdan boshqa narsa emasdi. Biroq K. faqat buni tushunib yetmadi, balki uning hisoblashicha, froylyayn Montag tanlagan yo‘l chakki emas, u sixni ham, kabobni ham kuydirmoqchi emas edi. U K. bilan froylyayn Byurstner o‘rtasida yaralgan munosabatning ahamiyatini endi yanada bo‘rttirib ko‘rsatdi, asosiy e’tiborni esa bunda K. muvaffaq bo‘lishi kerak bo‘lgan suhbatga qaratib, qimmatini chandon oshirdi, go‘yo

ish bu tomonga burilishga o'lib-tirilib intilar ekan, vaqt yetib, bunga hammadan ko'proq K. ahamiyat berishi, tinchini yo'qotishi kerak edi. Shu yerda xonim xatoga yo'l qo'ydi. K. hech narsani ortiqcha bo'rttirishni aslo istamas, froylyayn Byurstner shunchaki bir jo'n firibgar ekanligini, K.ga ham uzoq payt qarshilik qila olmasligini u juda yaxshi bilar edi. K. froylyayn Byurstner haqida uy sohibasidan u-bu gapni bilib olgandan keyin, bunga atayin e'tiborsiz qaradi. U oshxonadan ta'zimlarga bee'tibor chiqar ekan, boshida ming turli shunga o'xshash xayol g'ujg'on o'ynardi. U shu zahoti o'zining xonasiga bormoqchi edi, biroq shu payt ortida qolgan oshxonada yoqdan froylyayn Montagning kulgisi eshitilib qoldi, shunda uning kallasiga froylyayn Montag bilan kapitanni o'zining bu tarzdagi harakati ajablantirdi, degan fikr keldi. U atrofga alangladi, qo'shni xonalardan kimdir bunga aralashmayaptimi deb quloq tutib ko'rdi, biroq atrof suv quygandek tinch, faqat oshxonadan gangir-gungur ovozlar kelib turar, yana yo'lakdan ro'zg'or boshqaruviga oid frau Grubaxning yo'l-yo'rig'i eshitilardi. K. ga vaziyat yaxshi tomonga o'zgarganday ko'rindi va u froylyayn Byurstner eshigiga yaqinlashib, uni ohistagina taqillatdi. Biroq javob bo'lmadi. U yana bir bor taqillatib ko'rdi, lekin yana unga javob qilishmadi. Nahotki u uqlab yotibdi? Balki, haqiqatan ham sog'ligining mazasi yo'qdir. Yoki faqat K. shunday kishibilmas – sekingina taqillatishini bilganidan, atayin ochmayaptimi? K. qiz atayin yashirinib olgan degan qarorga keldi va qattiq-qattiq urib taqillatdi, ammo bunga ham hech kim sas-sado bermagach, bu qilgan xatti-harakati yaxshi emasligini his qilib qolmasdan, butunlay bema'ni-behuda ekanligini ham tushunib yetdi, ehtiyyot bilan eshikni itardi. Xonada hech kimsa yo'q edi. Unda qadrdon xonani eslataldigan biron-bir narsa qolmagandi. Devorga yaqin joyda ikkita karavot turar, eshik oldidagi uch oromkursi ustida ki-

yim-kechak va ko‘rpa-to‘shaklar uyib tashlangan, shkaf esa lang ochiq yotar edi. Aftidan, froylyayn Montag K.ni avrab turgan bir paytda, froylyayn Byurstner qochib qolgan edi. Biroq bu uni juda ham xunob qilgani yo‘q, faqat froylyayn Byurstner hech bir ish chiqmaydigan joyda froylyayn Montagni vosita qilib, oppa-oson chiqib ketishini hech kutmagan edi. Xuddi shuning uchun ham u eshikni yopar ekan, oshxona eshigi oldida suhbatlashib turgan kapitan bilan froylyayn Montagga ko‘zi tushib, noqulay bo‘lib ketdi. Ehtimol, ular K. eshikni qiya ochgan lahzalardayoq, go‘yo hech narsani bilmagandek o‘zlariga ko‘rinish berishgancha turib olishgan, aslida, ko‘z yetadigan joydan turib, K.ni kuzatgancha o‘zaro gurunglashib o‘tiraverishgan. Nima bo‘lganda ham ularning nigohi ostida bo‘lish K.ni ancha dovdiratdi, xijolatga soldi, u devorlar orasida qolgandek, dahri dun ko‘ziga qorong‘i bo‘lib, xonasiga berkinib olish uchun shoshildi.

V bob

Mirg‘azab

Yaqin oqshomlarning birida asosiy zinadan ish bo‘lmasi chekkada bo‘lgani uchun K. yo‘lidan yurib kelar ekan, – bu safar u xizmatdan qariyb eng oxirgi bo‘lib chiqqandi, – faqat jo‘natish xonasining g‘ira-shira chiroqlari ostida ikki chopar ishlashar, eshik ortidan ularning ovozlarini eshitib turardi, shu paytgacha biron-bir marta o‘zi ko‘rmagan katalkdek tashlandiq omborchaga kirib yashirinsam degan o‘y birdan kallasiga kelib qoldi, ammo u yerdan harsillab nafas olinayotgani qulog‘iga chalindi. U ajablanib to‘xtab, tin oldi-da, ishqilib, xato qilmayapmanmi, deb astoydil qulqo tutdi. U yerdan bir daqiqa sas-sado chiqmadi, keyin yana nafas olinganlik eshitildi. K. choparlardan birini chaqirmaqni

istadi – guvoh sifatida kerak bo‘lib qolishlari mumkin edi – lekin uni shunday bir sabrsiz qiziquvchanlik egallab oldiki, u shunga mos keladigan zarbli bir siltov bilan eshikni lang ochdi. Haqiqatan ham o‘zi taxmin qilgandek, u tashlandiq bir omborchcha edi. Ostonadanoq eski-tuski, keraksiz narsalar, nimalardir uchun ko‘zlab qalashtirib tashlangan, tagida si-yoh quyqasi qotgan sopol shishachalar ag‘dar-to‘ntar bo‘lib yotardi. Biroq mana shu joyda shiftning pastqamligidan uch erkak enkayib olgancha turishardi. Pol taxtasiga mahkamlangan sham ular osha yuqorini yoritardi.

– Sizlar bu yerda nima qilib o‘tiribsizlar? – K. shunday deb so‘rar ekan, hayajondan bazo‘r, tutilib-tutilib tili kali-maga keldi, biroq ovozida buni sezdirmaslikka tirishardi.

Erkaklardan biri – ko‘rinishidan qolganlarining sardori bo‘lsa kerak, allaqanday antiqa, quroqlari bor yengsiz teri mato kiygan, qo‘l va ko‘kragi shundoq yalang‘och holda edi. U hech nima deb javob qilmadi. Biroq qolgan ikkisi birvarakayiga qichqirishdi:

– Ah, taqsirjon-ey. Bu o‘zingmisan? Hozir seni rosa savalasak bo‘ladi, chunki ustimizdan tergovchiga shikoyat qilibsan!

Shundagina K. bu ikkisi soqchilar – Frans va Villem ekanligini tanidi, uchinchisi esa qo‘lida tayyor gavron ushlab olgancha baayni sheriklarini savalashga taraddud ko‘rayot-gandek edi.

– E, qo‘ysalaring-chi, unday deganim yo‘q, – K. g‘udranibgina shunday derkan, ularga yeb qo‘ygudek bo‘lib tikildi, – men sizlardan umuman yozg‘irganim yo‘q, balki xonadonimda bo‘lib o‘tgan voqeani shunchaki hikoya qilib berdim, xolos. Baxtga qarshi, sizlarning xatti-harakatlaringizda ham nojoyiz biron-bir qusur sodir bo‘lgani yo‘q.

– Taqsir, – deb Vellem gap boshlar ekan, u xuddi Frans-dek uchinchi kishining ortiga o‘tib pana bo‘lib olish payi-

da bo‘layotganligi aniq ko‘zga tashlandi, – agar siz bizga qanchalik kam to‘lashlarini bilganingizda, bizni bunchalik qattiq qistovga olib, so‘rab-surishtirmagan, izza qilmagan bo‘lar edingiz. Men ro‘zg‘orimni tebratishim, Frans bo‘lsa uylanishi kerak, shuning uchun tirishib-tirmashib, sariq chaqa olishimizga qaramay jonimizni jabborga berib yotibmiz, bir teri ichida ozib-to‘zib tirikchilik o‘tib turganiga qaramay, bir ish bilan kishining kosasi oqarmaydi. Sizning bo‘lsa kiyim-kechagingiz po‘rim, o‘zingizga biram yarashganki, mening bunga havasim kelib, og‘zimning suvi qochyapti, holbuki biz soqchilarga bunday kiyinish ta’qiqlangan. Al-batta, bundan biron-bir yaxshilik chiqmaydi, lekin ishoning menga, soqchilarning kiyim-kechagi allaqaysi zamonlardan shunday qilib belgilangan, holbuki buning biron-bir yaxshilik chiqadigan tomoni yo‘q, nahotki shuning uchun kimdir baxtsiz mahbus bo‘lishi kerak bo‘lsa, buning biron-bir ahamiyati, ma’no-mazmuni bormi? Hammasini tushungan-dirsiz! Ammo shikoyat qilinadigan bo‘lsa, bizni jazolashadi.

– Bularning hech biridan xabarim yo‘q, bundan tash-qari, qanaqa vaziyat bo‘lishidan qat‘i nazar, hech kimdan sizlarni jazolashlarini talab qilganim yo‘q, bu yerda gap fa-qat e’tiqod, sobitlik haqida ketyapti.

– Frans, ko‘rdingmi, – Villem ikkinchi soqchiga yuzlanib, murojaat qildi, – men senga nima degandim? Janob hech ham bizni jazolashlarini talab qilmagan. U hatto bizni jazo-lash kutayotganini bilmas ham ekan, o‘zing eshitding buni.

– E, bularga qarab o‘zingni xarob qilib yurma, ularni bari shunaqa og‘zi tinmay safsata sotadi, – uchinchi kishi K.ga yuzlanib shunday dedi: – ularni kutayotgan jazo muqarrar vaadolatli.

– Sen unga qulq solma, – Villem shunday derkan, ishi o‘ngidan kelmagan kishidek shoshilib, qo‘llari bilan og‘zini yopmoqchi bo‘ldi, gavrondan yeb olgach. – Bizni

faqat sening chaquvingga qarabgina jazolashadi. Boshqa paytda qilgan kirdikorlarimizni bilgan taqdirlarida ham bizga hech qanaqa daxl qilolmaydilar. Nahotki shuadolatdan bo‘lsa? Ikkimiz ham, ayniqsa men bu yerda anchadan buyon faoliyat ko‘rsataman, shu bois ham o‘z ishimning hadisini olganman, bemalol o‘zim uchun javob bera olaman, rahbariyatning bahosiga ko‘ra ham biz seni a’lo darajada qo‘riqlayapmiz, bunga sening o‘zing ham tan bersang kerak. Bu xizmatning orqasidan sudralib yurish bizning ham jonimizga tegib ketdi va o‘ylab qoldik: o‘zimiz jazolovchi bo‘lib olsak nima qiladi, six ham kuymasdi, kabob ham, hammamizga bu koni foyda, unga hech kim arz-shikoyat qilmaydi, umuman olganda ham bizda shikoyatbozlik qilish kamdan kam uchraydigan hodisa. Kelib-kelib endi shunday bo‘lib o‘tiribdi, bizning amalimizdan ham nishon qolmadi, soqchi bo‘lib xizmat qilgan odamga bu juda alam qilar ekan, ha, bizni eng qora, yelka yag‘ir bo‘lib ketadigan ishlarga haydashadi, go‘yo evaziga bu yoqda ayamasdan savalashadi.

— Nahotki mana shu gavron shunchalik qattiq og‘ritsa? — K. so‘rarkan, uni ushlab ko‘rdi, mirg‘azab jazolovchi oldida uni silkitib qo‘ydi.

— Aftidan, bizning qip-yalang‘och bo‘lib yechinishimizga ham fursat yetganga o‘xshaydi, — dedi Villem.

— Hali bunaqasi ham bor deng, — K. shunday deb jazolovchiga ko‘zini olaytirib qaradi, mirg‘azabning dengizchi kabi oftobda qoraygan, qon tomay deb turgan sog‘lom yuzi surbetlarcha boqardi. — Nahotki ularni kaltaklashdan asrab qolishning biron-bir iloji bo‘lmasa? — surishtirdi K.

— Buning iloji yo‘q-da! — bu gapni mirg‘azab kulib ay-tarkan, boshini inkor ma’nosida likillatib qo‘ydi. — Yechininglar! — soqchilarga amr etdi u va shu joyda K.ga ham murojaat qildi. — Ularga sen ko‘p ham ishonaverma. Bu xivchinlashdan ular ko‘pam dahshatga tushishmaydi. Unga

bu nima bo'libdi, – shu yerda u Villemga boshini silkib qo'ydi. – Hali u bu yerda o'zining mansabi haqida laqil-laganday bo'ldimi? Buning hammasi masxarabozlik ekani kundek ayon-ku. Uning yog' bog'lab ketganiga bir qara, bu semizlikda unga gavron o'tarmidi. Darvoqe, u nega bunchalik semirib ketgan, bilasanmi? Ha, u barcha mahbuslarning nonushtasini paqqos tushirishni o'ziga odat qilib olgan. Ehtimol, u sening ertalabki nasibangni ham yegandir. Ha, ayt-madimmi, men bilmasam, gapirmayman! Nahotki shunaqa shim kiyib yurib mirg'azab jazolovchi bo'lishi mumkin? Hayotda bunaqasi hech qachon uchramaydi.

– Bu bo'hton, shunaqa jazolovchilar ham uchrab turadi, – gapga Villem aralashdi, u imillab-simillab shimi bog'ichlarini qariyb yechib bo'layozgan edi.

– Yo'q, bo'lishi mumkin emas, – mirg'azab uning gapini kesib, bo'yni aralash gavron bilan shunaqa soldiki, bundan kishining yuragi orqaga tortib ketar edi. – E, aralashmang sira, qani, sizlar tezroq yechininglar-chi.

– Men senga yaxshigina to'layman, faqat ularni bu jazo-dan ozod et, – K. shuni astoydil so'rarkan, mirg'azabga qaramay dedi, – bunaqa ishlarda ko'zni yumib, marhamatli bo'lgan ma'qul, – u cho'ntagidan hamyonini oldi.

– E, yo'q, keyin sen meni ham darraning tagida qoldirasan, yo'q, yo'q, bunaqasi ketmaydi!

– Ahmoq bo'lma! – dedi K. – Agar men bu ikkisiga jazo berilishini istaganimda, ularni sotib olib ozod qilishga intilmagan bo'lardim. Men, aslida, eshikni zarb bilan yopib, bu yerdan tezgina uyga ketsam deyman. Baxtga qarshi buning aksi bo'ladiganga, men ularni ozod qilmasdan bu yerdan ketolmaydiganga o'xshayman. Agar men ularning ayni o'zлari jazolovchi degan gumonga borganimda ham, muqarrar jazo berishni dag'dag'a qilib turganlarida ham, hech qachon bularni mirg'azab deya tilga olmagan bo'lardim.

Ha, men ularni bunda aybdor deb hisoblamayman, buning uchun butun bir mahkama, butun bir tizim, mansabdar shaxslar aybdor.

— Juda ham to‘g‘ri! — bir yo‘la soqchilarning ikkisi ham hayqirdi, biroq shu lahzadayoq ularning yalang‘och bella-
riga shart-shurt gavron ham kelib tushdi.

— Agar sening bu gavroning ostiga sud hakami tushga-
nida, — K. uning qo‘lidan ushlab to‘xtatishga urindi, — men
hech qachon bu darralashga xalaqit bermagan bo‘lardim, ak-
sincha, senga pul berib bu savobli ish davom etishiga hissa
qo‘shgan bo‘lardim.

— Sening so‘zlarining to‘g‘riga o‘xshab ketadi, — dedi
mirg‘azab, — biroq men har qanaqasiga qaramasdan o‘zim-
ni sotib olishlariga ruxsat bermayman. Demak, men sava-
lash uchun vakil qilib yuborilganmanmi, do‘pposlashmi-
do‘pposlash, o‘z ishimni qilishim kerak.

Shunda soqchi Frans K.ning kaltaklashga xalaqit beri-
shidan o‘ziga kelib olib, bir lahza tin oldi-da, xodimlardan
birini eshik yaqinidan olish uchun yo‘nalarkan, emaklab kel-
ganicha K.ning oyog‘idan mahkam ushladi va eshitilar-eshi-
tilmas ovozda unga iltijo qildi:

— Agar sen biz ikkimiz uchun uning dilida mehr-shafqat
uyg‘otishni uddalolmayotgan bo‘lsang, hech bo‘lmasa birgi-
na meni bu zulmdan xalos qilishga urinib ko‘r. Villem pishib
ketgan, boshidan ming bir balo o‘tsa-da, parvosiga keltirmay-
di, axir uning bu kaltaklar tagida qolganiga ham ikki yildan
oshib ketdi, to‘g‘ri, buning juda ham kuchli emas, lekin men
biron-bir martaadolatsizlikka borib, birovning yuziga qora
chaplaganim yo‘q, bularning bariga Villem aybdor, u meni
urib-so‘kib, yaxshiga ham, yomonga ham o‘rgatdi. Pastda,
bank eshigi oldida meni qaylig‘im kutib turibdi, uning oldida
bu qanchalik uyay, oh, qanchalik dahshatli nomussizlik-a! —
u yuzidagi shashqator yoshlarini K.ning kamzuliga artardi.

– Qani bo‘linglar, men bundan ortiq kutib o‘tirolmayman, – jazolovchi shunday deb ikki qo‘liga ham gavronlarni olib, Fransni savalay ketdi, Villem bo‘lsa bir chekkada unutilgancha, kulib yubormaslik uchun o‘zini bazo‘r tutib, zimdan kuzatardi.

Birdan Frans dod-voy ko‘tardi, paydar-pay va to‘xtovsiz taralgan bu chinqirish hech ham insonnikiga o‘xshamas, go‘yo qandaydir dabdalasi chiqqan cholg‘u asbobinikiday edi. Butun yo‘lak ana shu tovushlarga to‘ldi, ehtimol, bu vovaylo butun binoga eshitilgandir.

– Dodlama! – o‘zini tutolmasdan hayqirdi K. va vajohat bilan eshikka qaradi, qayerdandir hozir xizmatchilar yugurib kelishini xayol qilib, shuning oldini olmoqchi bo‘libmi, Fransni kuchsizgina turtdi, biroq hammasi xuddi shunday bo‘lishi kerakday, Frans tagidan o‘rilgan bir bog‘ bedaday polga quladi, yerda yotgancha, tutqanoq tutgandek qo‘llida shar bor odam kabi tipirchilardi, biroq jazolovchi bundan o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi, gavron yerda ham Fransni topib, badaniga bir tekisda kelib tushaverdi. Nihoyat yo‘lak adog‘ida gumashta ko‘rindi, uning ortidan yana qadamlar, ikkinchisi ham kelardi. K. tezlikda eshikni yopib, yo‘lakdagideraza oldiga yaqinlashdi, hovliga chiqish joyiga qarata uni lang oolib yubordi. Dod-voylar butunlay tinchib qoldi. Ishqilib, xizmatchilar bu yoqqa juda yaqin kelishlariga imkon bermaslik maqsadida tovushini ko‘tarib dedi:

– Bu men bo‘laman!

– Xayrli kun, janob prokurist! – javob qilishdi u yoqdan, – ishqilib, biron-bir ko‘ngilsizlik bo‘lgani yo‘qmi?

– Yo‘q, yo‘q, – baqirib dedi K. – Hovlida shunchaki it vovulladi. – Biroq choparlar joyidan jilishmagach, u gapiga qo‘srimcha qildi. – Ishingizga boraversangiz ham bo‘ladi.

Ishqilib, choparlar suhbatiga suqilmasinlar deb derazadan boshini chiqarib turdi.

U bir necha daqiqa o'tkazib, qayrilib qaradi, choparlar allaqachon ketib bo'libdi. Biroq K. deraza oldida anchagina turib qoldi, uning omborchaga kirishga yuragi dov bermas, uyga ketishni ham istamasdi. Ixchamgina, to'rtburchak solingan hovliga K. tepadan qararkan, tevarakdag'i xizmat idoralarining zulmat bosgan derazalariga ko'zi tushdi, faqat eng yuqoridagi oynalarda oy nuri shu'lalanardi. K. ko'zini yirib, hovlining olis bir chekkasiga nazar tashladi – unda allaqanday aravachalar uymalashib yotardi. K.ni kaltaklanishning oldini ololmagani qiynar, biroq bu muvaffaqiyatsizlikda u aybdor emas: agarda Frans bunaqa dod-voy solmaganda, – albatta, uning ham jonidan o'tib ketgandan keyin nima qilsin – biroq hal qiluvchi lahzalarda o'zini qo'lga ola bilganida, K. butun choralarни ishga solar, ishqilib, mirg'azab jazolovchining, biron yo'lini topib, ko'nglini eritgan, insofga keltirgan bo'lardi. Demak, barcha quyi tabaqadagi xizmatchilar shunaqa yaramas, buzuq bo'lishar, borib turgan hayvoniy vazifalarni o'z zimmalariga olishar ekan-da, bo'lmasa bu mirg'azab nega bunday zolimona topshiriqni zimmasidan soqit qilmaydi? Axir qopchig'ining og'zini ochib, pullarni ko'rsatganda uning ko'zları qanchalik o'ynab ketdi, bunga K.ning o'zi guvoh-ku; ehtimol, u kaltaklashga zo'r berayotgan ekan, bundan ham ko'zlagan maqsadi narxini oshirish bo'lsa kerak. Turgan gap, bu yerda K. hech qanaqa chayqovchilik qilmadi, u haqiqatan ham soqchilarni bu jazodan astoydil ozod qilmoqchi bo'ldi: agar u bu bilan sud muassasasining ma'naviy buzuqligiga qarshi kurashni boshlab bergen bo'lsa, bu ham tabiiy, bu yerda aralashmaslikning hech iloji yo'q edi. Biroq Frans dod-voy ko'tarishi bilan bularning bari yerparchin bo'ldi. K. axir haligi gumashtalar yoki boshqalar yugurib kelishiga yo'l ochib bersa, keyin omborchaga tiqilib olib, ular bilan murosa-madora qilib o'tirolmaydi-ku. K.dan bu naqa qurbanlikni aqli bor hech kimsa talab etolmaydi. Agar

u shunga qaror qilganida, jo‘ngina qilib aytganda, uning o‘zi bu soqchilar o‘rniga yechinib, mirg‘azabning qamchisiga o‘z yelkasini tutib bergen bo‘lardi. Qolaversa bu o‘rin alma-shishni haligi kishi qabul qilishi dargumon, chunki u bu bilan hech narsada yutib chiqmas, o‘z burchini keskin buzgan hisoblanar, demakki, o‘z burchiga ikki karra xilof ish qilgan bo‘lar, chunki K.ning ishi tergovda bo‘lgani bois, sud xiz-matchilarining barchasi uchun u daxlsiz hisoblanardi. Albat-ta, bu yerda har qanaqa boshqa ishlarni ham amalga oshirish mumkin. Xullas, K. boshqa biron narsa qila olmas, u eshikni zarb bilan yopgan ekan, buni hech ham momaqaldiroqday bosib kelayotgan xavfni oldini olish uchun qilgani yo‘q. Af-suski, u oxir-oqibatda Fransni turtib qo‘ydi, biroq buni ham uning nihoyatda ta’sirlanib ketgani bilan izohlash mumkin.

Uzoqdan choparlarning qadam tovushlari eshitildi, ular e’tiboriga tushmaslik uchun K. derazani yopdi va hashamatli zinapoya sari yurdi. Omborchaning yonidan o‘tar ekan, to‘xtab qulqoq soldi. Suv quyganday tinch. Ehtimol, bu jimlik soqchilarni o‘lasi qilib do‘pposlagandan bo‘lishi mumkin – axir bu bechoralar haligi mirg‘azabning butunlay zulmi-zo‘ravonligi ostida qolishgandi-da. K. eshik tutqichiga qo‘l yubordi, ammo shu zahoti qo‘lini tortib oldi. Baribir bu bilan hech kimga yordami tegmaydi, hozir bo‘lsa chopar-lar kelib qolishi mumkin. Biroq shu yerda bu ishdan xulosa chiqarib olib, uniadolat manziliga olib chiqishni, bor kuchini haqiqiy aybdorlarni adl qilichiga topshirishga sarflashni di-liga tugdi. Ammo hozirgacha o‘sha odil sudlovga duch kel-ganicha yo‘q. Bankning tashqaridagi begonalar kiradigan zi-nasi bo‘ylab tushib borar ekan, u barcha yo‘lovchilarga zehn solib qaradi, hatto kimnidir kutayotgan qiz ko‘rinmaydimi, deb chekka-chekkalargacha qaradi. Demak, Fransning qay-lig‘i haqidagi gapi – undan kutish mumkin, ochig‘i, kechirsa ham bo‘ladigan safsata – butunlay yolg‘on ekan-da, biroq

bundan bittagina maqsadni, yanada ortiqroq rahm-shafqat uyg‘otmoqni ko‘zlagan.

Ertasi kuni parishonxotir K. kecha soqchilar bilan bo‘lib o‘tgan voqeani unutolmay, yig‘ilib qolgan ishlarini to‘g‘rilash uchun o‘z xonasidan chiqmasdan kechgacha ishlashga to‘g‘ri keldi. Uyiga o‘tadigan yo‘l ustida bo‘lgani uchun omborcha oldidan o‘tayotganda, xuddi odat bo‘lib qolgandek, uning eshigini yarim ochdi. Biroq kutgani qorong‘ilik o‘rniga yana guvoh bo‘lgan holatdan juda ajablandi. U yerda hech narsa o‘zgarmagan, kecha qanday ko‘rgan bo‘lsa shunday holda edi. Ostonadayoq ashqol-dashqollar uymalashib yotar, tagida siyohi qotgan shishalar, uning oldida mirg‘azab qamchisi bilan turar, sal narida haliyam butunlay yechingan soqchilar, tokchada sham yonardi, yana uni ko‘riboq „Baraka topkur“, degancha soqchilar ayyuhannos ko‘tarishdi. Biroq K. shu zahotiyoy qotgan shishalar, uning oldida mirg‘azab qamchisi bilan turar, sal narida haliyam butunlay yechingan soqchilar, tokchada sham yonardi, yana uni ko‘riboq „Baraka topkur“, degancha soqchilar ayyuhannos ko‘tarishdi. Biroq K. shu zahotiyoy eshikni zarb bilan yopdi, yana uni mushti bilan urib ham qo‘ydi, go‘yo bu bilan eshik yanada qattiq bekladigandek. U yig‘lashdan beriroq bo‘lib, nusxa ko‘chiruvchi mashinada bamaylixotir ishlayotgan choparlar sari otildi, ulardan biri ishini to‘xtatib, K.ga hayron bo‘lib qaradi.

– Ha, hammasini oxiri ana shu omborchaga uyib-g‘amlab tashlabsizlar-da, – baqirdi u, – biz bu kir-chirdan bo‘g‘ilib o‘lamiz-ku!

Choparlar u yerni ertaga tozalab, saranjom-sarishtalashga va‘da berishgach, K. rozilik alomati uchun boshini qimirlatib qo‘ydi, hozir juda kech bo‘lib qolgan, boshda o‘zi jo‘shib taklif qilgandek, ularni ishlashga majburlashning hech ham mavridi emasdi. U ozgina bo‘lsa-da kishilar yonda bo‘lish uchun o‘tirdi, bir necha nusxalarni shunchaki varaqlarkan, ularni go‘yo tekshirib, ko‘zdan o‘tkazayotgandek o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘ldi, choparlar u bilan birga ketishda bir qarorga kelganlaricha yo‘qligini tushungach, parishon va horg‘in bir ahvolda sudralib uyiga jo‘nadi.

VI bob

Amaki, Leni

Ish vaqtı tugay deb qolgan kunlarning birida K. pochtani jo‘natish bilan juda band edi, uning xonasiga ikki chopar bosh suqishib, o‘rtahol yer egasi Albert amakisi ichkariga kirish uchun ruxsat so‘ralgan qog‘ozni tutqazishdi. K. amakisiga ko‘zi tushar ekan, bir kuni u balo-qazoday yetib kelishi haqida o‘ylaganda dahshatga tushganchalik qo‘rqib ketmadi. Amakining tashrifi muqarrar, u bu haqida bir oy oldin bilardi. Shunda u xayolan chap qo‘lida ezg‘ilanib-abjag‘i chiqib ketgan soyabonli poxol shlyapa ushlagancha, shoshilib kirib kelgan amaki kir-chir o‘ng qo‘lini unga uzatar ekan, behuda urinishni istamay, stol orqali dastini cho‘zishi va yo‘lida neki uchrasa hech bir ko‘ngliga kel-tirmay, hammasini ag‘dar-to‘ntar qilishini tasavvur etdi. Amakisi hamisha shoshilib yuradi: u o‘zining poytaxtga bir kunlik tashrifi davomida mo‘ljallagan ishlarining hammasini xayolida hisob-kitob qilib chiqadi, shunga ko‘ra, hamma-hamma-siga ulguribgina qolmasdan, ishiga aloqador yoki shunchaki qiziqish yuzasidan bo‘ladigan biron-bir diltortar suhabatni boy berishni istamaydi, har yerda hozir-u nozir bo‘lish payida bo‘ladi. K. o‘zining sobiq vasiyi oldidagi ko‘pdan ko‘p burchdorligi yuzasidan yelib-yugurib amakisiga ko‘maklashadi va nihoyat hamma ishlar pishib, eng cho‘qqi nuqtaga yetganida, uni o‘zinikida tunab qolishga taklif qiladi. K. unga o‘zicha „Qishloqi avliyo“ deb nom bergen.

Hamisha bo‘ladigan hol-ahvol so‘rash, salom-alikdan keyin K.ning mulozamati ila amaki kursiga cho‘kar ekan, o‘zida hech qachon ko‘rinmagan bir favquloddalik bilan u K.dan o‘zлari yolg‘iz yakkama-yakka qolishlarini so‘radi.

— Bu juda ham zarur, — amakisi o‘z ruhiyatini qynalib tarjima qilayotganday, shunday dedi. — Mening xotirjam yurishim uchun bu juda muhim.

K. esa boshini qotirib, uni hech xoli qo‘ymayotgan choharlarga allaqanday amr-farmonlar berib, shu onda ularni xonadan uzoqlashtirdi.

— Bilasanmi, Yozef, men nimani eshitdim? — Yolg‘iz qolganlaridayoq amakisi hovliqqancha shunday dedi, u stolga ko‘ksini bergancha hech narsaga qaramasdan, allaqanday qog‘ozni ezg‘ilar, ishqilib, buni muloqtlari biroz bo‘lsa-da yengilroq bo‘lishi uchun qilayotganday edi.

Davomi nima bilan tugashini yaxshi bilgani bois, K. indamadi. Biroq bu qilmasa bo‘lmaydigan ishlarning to‘xtab qolishi degani edi, shunda u qo‘qqisdan o‘zida yoqimli bir horg‘inlik his qildi va shu charchoq bilan deraza orqali ko‘chaning qarama-qarshi tarafiga qaradi, u o‘zi o‘tirgan joydan faqat kichkinagina uchburchak shu'lada – ikki vitrina orasidagi gung-garang devorlarni ko‘ra oldi, xolos.

— Shu holingda yana oynadan ko‘chani tomosha qilib o‘tirganingga qara-ya! — amakisi qo‘llarini paxsa qilib baqirdi. — Xudo haqqi, Yozef, javob qil menga. Nahotki bularning bari to‘g‘ri, nahotki bularning bari shunday bo‘lgan bo‘lsa?

— Aziz amakijon, — dong qotib qolgan holatdan qiyinchilik bilan o‘ziga kelish asnosida dedi K. — Hech narsani tushunmay qoldim, siz o‘zi mendan nima so‘rayapsiz?

— Yozef, — amakisi arazlaganday, gina-kudurat qilib dedi, — bilishimcha, sen shu paytgacha faqat to‘g‘ri gapni so‘zlab kelgansan. Nahotki sening oxirgi gaping vaziyat yomonligining alomati bo‘lsa?

— Ha, nima haqida bilmoqchi bo‘layotganingizni endi tushunib yetdim, — itoatkorlarcha ming‘irladi K. — Aftidan, siz mening ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni haqida eshitgan ko‘rinasiz.

– Xuddi shunday, – boshini sekin qimirlatib, javob qila qoldi amakisi, – men ustingdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish haqida eshitib keldim.

– Kimdan? – surishtirdi K.

– Menga bu haqida Erna yozib yuboribdi, – dedi amakisi, – u seni anchadan buyon ko‘rishga muvaffaq bo‘lomabdi, afsuski, sen u haqida kam qayg‘urasan. Holbuki u senga befarq emas, hammasini so‘rab bilib olgan. Bugun men undan xat oldim-u, ahvolning jiddiyligini fahmlab, bu yoqqa uchib kelaverdim. Bu kelishimning birdan bir sababi, biroq bitta bo‘lsa ham yuztaga tatiydiganga o‘xshaydi. Xatning senga daxldor joylarini o‘qib berishim ham mumkin. U hamyonidan xatni yulqib oldi. Mana, qara:

„Yozefni men ko‘pdan buyon ko‘ra olmadim, o‘tgan hafta diydorlashmoq niyatida bankka bordim, biroq Yozef shunchalik darajada ish bilan band ekanki, meni uning oldiga kiritishmadi. Qariyb bir soatlar kutib o‘tirib, keyin uyga qaytishga to‘g‘ri keldi – mening musiqadan mashg‘ulotim bor edi. U bilan miriqib suhbatlashmoqchi edim, ehtimol, bu boshqa safar amalga oshib qolar. Uning mehribon va e‘tiborliligini aytmaysizmi, tug‘ilgan kunimda u menga kattakon bir qutida shokoladli qand-qurs yuboribdi. O‘sanda sizga bu haqida yozib yuborishni unutgan ekanman, mana endi u haqida o‘ylab turib, bu esimga tushib qoldi. Afsuski, bizning pansionda uni bir zumda gumdon qilishadi, hatto senga antiqa, bir jahon shokolad sovg‘a qilishlariga qarab, sevinishga ham ulgurolmaysan, bir qaraganingcha yo‘q, paqqos tushirishgan bo‘lishadi. Afsuski, men sizga hech kechiktirmasdan Yozef boshiga tushib turgan yana bir tashvish haqida ham aytib berishim kerak. Sizga yozganim-dek, bankka borganimda uning oldida qandaydir janob o‘tirgani uchun meni kiritishmadi. Avvaliga men sabr-toqat bilan kutdim, so‘ngra chopardan anavi kishi Yozefning ol-

dida uzoq o 'tiradimi, deb surishtirdim. Chopar menga uzoq o 'tirishsa kerak, chunki suhbat, aftidan, katta prokurist us-tidan qo 'zg 'atilgan jinoiy ish jarayoni haqida borayotgan bo 'lishi kerak, deb javob qildi. Men hovliqib, bu jinoiy ish deganiningiz yana nimasi, siz xato qilmayapsizmi, deb holli-joniga qo 'ymay so 'rab-surishtirdim, biroq u hech qanaqa xato qilmayotganini, jinoiy ish qo 'zg 'atilganini, u jiddiy-gina ekanligini aytdi va bundan boshqa hech narsa unga ma 'lum emasligi bilan gapini yakunladi. Uning o 'zi Yozesga jon-dili bilan yordam qo 'lini cho 'zishni istar, ammo qanday amalga oshirsa bo 'ladi – buni bilmas ekan, chunki janob prokurist hamiyatli,adolatli odam, shu bois ham nufuzli kishilarning aralashuvi sabab ish yaxshilik bilan tugasa ajab emas, unga faqat shuni tilardim, dedi u. Ehtimol, ham-masi xuddi shunday yaxshilik bilan tugar, biroq hozircha sud hakamining janob prokurusga nisbatan munosabati sal-biy, shunga ko 'ra ish yomon tomonga burilib ketmasa, deb xavotirini ham izhor qildi chopar. Albatta, men bu suhbatga ahamiyat bermadim, bu laqma choparni tinchlantirish, hov-liqishini pasaytirishga urindim, boshqalarga og 'zidan gul-lab yurishini bas qilishni tayinladim va, umuman, o 'zim ham uning gaplari qup-quruq safsata, laqillashdan boshqa narsa emas, deb hisoblamayman. Shunga qaramay, otajon, sen bu yoqqa keyingi safar kelishingda, bu ishning miridan sirigacha, mufassal tarzda bir bilib olsang zarar qilmas, mening ham ko 'nglim tinchigan bo 'lar, mabodo ish jiddiy-roq bo 'lsa, senga har qanaqa ish cho 't emas-ku, uni nu-fuzi baland, toshi og 'ir oshna-og 'aynilaringni ishga solib, to 'g 'irlashing mumkin bo 'lardi. Bunga hojat bo 'lmaganda ham, yana bir quvonchli tomoni, hech bo 'lmaganda seni jonidan ortiq ko 'ruvchi qizing kutilgandan oldinroq diy-doringga yetib, baxtdan masrur bo 'lishga imkon yaratgan bo 'lasan. U bundan o 'zida yo 'q xursand bo 'ladi ".

– Ajoyib qiz-da! – Xatni o‘qib bo‘lib shunday derkan, amakisi namlangan ko‘zlarini ham artib oldi.

K. boshini qimirlatib, hammasiga iqror bo‘ldi: keyingi vaqtida boshiga tushgan mana bu savdolar bois, u Erna haqida butunlay unutibdi, hatto uning tug‘ilgan kuni ham tamoman xotirasidan ko‘tarilib ketibdi: shokolad borasidagi gap K.ni amakisi va xolasi oldida yaxshilash uchun qiz tomonidan o‘ylab topilgan edi.

Bu juda ham noxush holat edi. Holbuki o‘zicha u qiz teatrqa tushib turishi uchun patta yuborib turishni niyat qilgan, biroq, hatto shunga ham juda kam muvaffaq bo‘lgan, o‘z ahdiga vafo qila bilmagan K. hech bo‘limganda pansionatga borib, 18 yoshli jimitdaygina bu toliba qiz bilan diydorlashib turishni ham muntazam sur’atda yo‘lga qo‘yolmagan edi.

– Qani, qani, endi sen menga nimani aytib bermoqchisan? – so‘rashga tutindi amakisi. Xatni o‘qigandan keyin u hayajonlanish va hovliqishni bas qilib, go‘yo nomani yana bir bor o‘qishga taraddud ko‘rayotganday edi.

– Ha, amaki, bular bor gap, – dedi K., – eshitganingiz to‘g‘ri.

– Hammasi haqiqatmi? – baqirib yubordi amaki. – Qanaqasiga haqiqat bo‘ladi? – Qanaqa ish bu o‘zi? Yana jinoiy ish bo‘lmasin tag‘in?

– Ha, jinoiy ish, – tasdiqladi K.

– U yoqda sening ustingdan jinoiy ish qo‘zg‘atilib, xavf-xatar ustingga balo-qazoday bostirib kelayotgan bo‘lsa-yu, sen bu yerda bamaylixotir qo‘l qovushtirib o‘tiraversang! – yanada battarraq chinqirib, ayyuhannos soldi amakisi.

– Men qanchalik hovliqmasam, buning xotimasi ham shunchalik yaxshilik bilan tugaydi, – K. horg‘in alfozda dedi. – Ha, siz bundan ko‘pam qo‘rqavermang!

– Yo‘q, yo‘q, sen aslo meni tinchlantirishga urinma! – baqira ketdi amakisi. – O! Yozef, ko‘zingni och, jigarim, yax-

shisi, o'zing haqingda jiddiyroq o'yla, yaqinlaring, qavmi-qarindoshlar, bizning gard yuqmagan pok nomimizning qayg'usini qil. Sen har qachon bizning faxr-u iftixorimiz bo'lib kelgansan va hech qachon bizni sharmanda-yu sharmisor qilmasliging kerak. Sening bu bo'shang xatti-harakating, so'ljayma qovoq-tumshug'ing menga yoqmayapti, bunaqasi ketmaydi, – u boshini bir yonga burib, ko'zlarini chaqchaytirib K.ga qaradi. – Aybi yo'qning o'ziga munosabatda bunaqa bo'lishi aql-hushli odamning ishi emas, bundan hech narsa chiqmaydi. Qani, tez bo'l, nima gap, nima voqeа sodir bo'ldi o'zi, boshidan oxirigacha aytib ber-chi, shundagina senga yordam berishim mumkin. Biron chorasinи toparmiz axir. Nima balo, nafsing hakalak otib, bankda bo'ladigan g'alamislik xurujlariga qo'shilib qoldingmi?

– E, yo'q, qo'ysangiz-chi, – K. shunday deb o'rni-dan turdi. – Ochig'ini aytay, qadrli amakijon, namuncha baqirib-chaqirmsangiz, eshik ortidan buni chopar ham eshitayotgan bo'lishi kerak. Bu men uchun juda ham ko'ngilsiz. Yaxshisi bu yerdan chiqib ketamiz. Albatta, qo'limdan kelgancha, barcha savollaringizga javob berishga harakat qilaman. Men ham xonadonimiz sha'ni nima ekanligini yaxshi bilaman axir.

– E, balli, bor ekansan-ku! – shodlanib hayqirdi amaki. – Gaplaring juda ham to'gri. Qani, tez bo'l, Yozef, otni qamchilaylik!

– Biroq men oldin ancha-muncha qiladigan ishlarni tegishli odamlarga buyurib ketishim kerak, – dedi-da, shu joyda K. telefon orqali o'zining o'rnbosarlarini chaqirdi va bir necha daqiqa o'tar-o'tmas chorlangan kishi xonaga kirib keldi.

Amaki unga xo'mrayib, o'z noroziligini bildirdi, holbuki bu o'z-o'zidan tushunarli, u K.ni emas, uni chaqirgandi. Yozuv stoli oldida turib, K. yosh yigitchaga har xil qog'ozlarni ko'rsatar va past ovozda, bugun u yo'qligida bajarishi lozim

ishlarni uqtirardi, yigitcha K.ni sovuqqonlik bilan, ammo diqqat qilib eshitardi. Amaki esa ko‘zlarini chaqchaytirib, lablarini tishlab o‘tirsa-da, bularni tinglamayotgani aniq, lekin har bir xatti-harakati ishning beliga tepgani-tepgan edi. Keyin u butun xona bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladi, goh deraza oldida, goh suratlar oldida to‘xtardi-da, „Yo‘q, bu menga butunlay tushunarsiz!“ Yoki „E, baraka topkur, menga ayting-chi, bu yog‘i endi nima bo‘ladi?“, kabi ishga daxli noma'lum har qanaqa xitoblar qilib tursada, yigitcha hech narsaga e'tibor bermagandek, K.ning hamma farmoyishlarini oxirigacha xotirjam tingladi, qaysi birlarini yozib ham oldi, so‘ng K. va amakiga ta’zim qilib xonadan chiqarkan, ularning orqasida turib olgan amakisi, deraza osha qaylargadir qaragancha, pardani jazava bilan beixtiyor g‘ijimlardi.

Eshik yopilishiga ulgurmay, amakisi baqirib qoldi:

– Xayriyat-e, bu masxarabozning ham qorasi o‘chdi. Endi biz ham ketsak bo‘ladi. Xayriyat-e!

Afsuski, bu kamlik qilganday, hali ular binodan chiqib ketmasdanoq, amakisi diydiyosini boshladi, u bankning amaldor-u xizmatchilari atroflaridan o‘tib turganiga qaramay, hatto direktor muoviniga duch kelib qolganlariga umuman parvosiz o‘z savollarini yog‘dirib borar, K.ning ustidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni xususida bo‘lmag‘ur savollar bergani-bergan edi.

– Menga qara, Yozef, – dedi amakisi tegralaridagilarning salom-aligiga yengilgina bir ta’zim bilan javob qila turib. – Menga ochig‘ini ayt, nega ustingdan jinoiy ish qo‘zg‘atiladi, bunga nima sabab bo‘ldi?

K. hech narsani anglatmaydigan iboralar bilan uning og‘zini yopmoqchi bo‘ldi, hatto quruqqina qilib kulib ham qo‘ydi, faqat zinalardan tushayotgandagina, oxiri bo‘lmadi, bu kishilar oldida hech narsa aytmasligini ochiq ma’lum qildi.

– To‘g‘ri aytasan! – dedi amakisi. – Qani endi hammasini bir boshdan gapirib ber!

Tamakini chuqur-chuqur, yutoqib tortayotgan amaki bo-shini solintirib olgan, tinglashga shay quloqlari esa ding edi.

– Amakijon, hammasidan oldin shuni bilginki, – dedi K., – ustididan qo‘zg‘atilgan bu jinoiy ish, odatdagি sud jarayonlaridan farq qiladi, – uni shunchaki bir yoqqa surish amri mahol.

– Bu yaxshilik alomati emas, – deb qo‘ydi amaki.

– Nimaga unday deysiz? – K. amakisiga zingil solib so‘radi.

– Men senga aytyapman-ku bu yomonlik alomati deb, – amaki luqmasini yana qaytardi. Ular ko‘chaga chi-qadigan enli zinapoya oldida turishar, xuddi shu yerda har narsaga ko‘z-quloq darbonni ko‘rgan K. amakini pastga boshladi va ikkovlon ham g‘ujg‘on o‘ynayotgan olomon orasiga qo‘shilib ketishdi. Amaki ham K.ning qo‘lidan tutib, qo‘zg‘atilgan ish jarayoni haqidagi jonga tegar so‘rab-surihtirishlarni bas qildi, yo‘lak bo‘ylab jimgina yurib ketdilar.

– Ammo bu qanday sodir bo‘ldi? – amaki yana qo‘qisidan joyida to‘xtab, so‘rab qoldi, shunda ular orqasidan kelayotgan kishilar cho‘chib tushib, shivir-shivir qilishdi. – Bunaqa ishlar birdan bo‘lmaydi, zimdan, sekin-astalik bilan taraddud ko‘riladi. Buning qanaqadir avvaldan belgilari, ogohlantirishlari, qaltis teginib ko‘rishlari chiqadi, nimaga sen bular haqida menga biron og‘iz ham yozmagan san? Axir ustingda o‘lib qolishimni yaxshi bilasan-ku, men hozir ham o‘zimni sening valine’mating hisoblayman va bundan faxrlanib, iftixor qilib kelaman. Albatta, men hozir ham senga yordam qo‘lini cho‘zishim mumkin, faqat bu ishning allaqachon qo‘zg‘ab qo‘yilganligi chatoq bo‘libdi, buni bosti-bosti qilish qiyin bo‘larov. Har nima bo‘lganda ham, hozir, eng yaxshisi, qisqa bir muddatga ta’tilga

chiqsang-u birga qishloqqa qaytsak ayni muddao bo'lardi. E, qara-ya, qanchalik ozib-to'zib ketibsan, endigina bilindi menga. Qishloqda sal o'zingga kelib olarding, bu sen uchun juda foydali, qolaversa, shubhasiz, hali oldingdan birtalay allambalo muammolar chiqishi turgan gap. Bundan tashqari, eng asosiysi, sudning bosh og'ritar g'alvalaridan sal yiroq bo'larding. Bu yerda esa ular har qanaqa nojo'ya tadbir-padbirlarni joriy qilishib, boshingni rosa qotirishadi, holi joningga qo'yishmaydi, qishloqda bo'lsa, avval biron-bir vakil yuborishlari mumkin yoki senga xat bitib, telegramma, telefon orqali murojaat qilishlari turgan gap. Bu, albatta, tinkani quritadigan hujjatbozlikni sal bo'lsa-da kesadi, butunlay ulardan xalos bo'lolmasang-da, bir qadar nafas rostlashingga imkon bo'ladi-da.

– Biroq menga biror yoqqa ketishni taqiqlab qo'yishlari mumkin, – dedi K., amakisining fikr yo'sini ta'sirida.

– Ular shu darajaga yetmaslar deb o'ylayman, – parishon-xotirlik bilan dedi amaki, – bu yerdan ketgan taqdiringda, ular harna tirishib-tirmashmasinlar, ustingdan butunicha hukmronlik o'rnata olishmaydi.

– Nazarimda, – K. amakisi bir joyda to'xtab turavermasin, ishqilib, yursin, deb uning qo'lidan turtdi, – sal sovuqqonroq bo'lsangiz durust edi, nima qilasiz vahima qilib, podadan oldin chang chiqarib, kimga keragi bor; men endi parvoymiga keltirmay desam ham, o'ylamasam bo'lmas, siz shu uchun, umuman, bu ishning tashvishini qilmasangiz ham bo'ladi; menga qaraganda ham bu jinoiy ishga kamroq ahamiyat berishingiz kerak, holbuki siz o'zingizga bir qarang, bularning barini yuragingizga juda yaqin olib domdirayapsiz.

– Yozef! – amakisi baqirib, uning qo'lidan yulqinib chiqishga va shu yerda qoqqan qoziqdek turmoqqa urindi, biroq K. uning qo'lini bo'shatmadi. – Sen umuman boshqa odam bo'lib qolibsan, senda hamisha talay-talay bama'ni fikrlar,

vaziyatdan chiqadigan jo'yali mulohazalar bo'lardi. Nahotki seni bu sud jarayoni shunchalik o'zgartirib yuborgan bo'lsa? Sudda boy berishni istaysanmi? Buning nima ekanligini tu-shunyapsanmi? Yumshoq qilib aytganda, bu o'z hayoting ustidan o'zing qora chiziq tortganing bo'ladi. Bu bilan butun qavm-u qarindoshing yuziga oyoq qo'ygan bo'lasan, ular sening kasringga qoladi, nomusdan o'ladi, hech bo'lмаганда о'зингни go'ngga qorib tashlaysan, ado qilasan. Yozef, o'zingni qo'lga ol, irodangni ishga sol. Sening bu loqaydliging, parvoyi falakliging meni aqldan ozdiray deyapti. Sen-ga qarayman-u, mana bu maqol bekorga aytilmaganiga yana bir bor amin bo'laman: „Vaqting ketdi – baxting ketdi!“

– Qadrli amakijon, – deb gap boshladi K., – bunaqa hovliqish siz uchun ham, qolaversa, men uchun ham bema'nilikdan boshqa narsa emas. Hovliqish bilan ustimdan qo'zg'atilgan ishda yutib chiqib bo'lmaydi, ozgina bo'lsa-da, mening ko'zim pishdi, shu bois birpas gapimga quloq soling, xuddi men hamisha sizning yo'rig'ingizga yurib, maslahatlaringizga quloq tutib kelgandek, hozir ham bo'lsa sizga quloq solib turibman-u, lekin gaplaringizni eshitib hayron qolyapman, xolos. Sizning gaplaringizga qaraganda, bizning butun oilamiz bu qo'zg'atilgan jinoiy ish jarayoniga tortiladi, dedingiz – ochig'i, shaxsan men bundan hech nimani tushunmadim, bu umuman bo'lishi mumkin bo'lмаган narsa, mabodo shunday bo'lib chiqsa, hammasi uchun faqat sizni astoydil aybdor deb hisoblagan bo'lardim. Qolaversa, qishloqqa ketib yashirinish hech ham siz o'ylagandek bo'lib chiqmaydi, qaytaga juda bo'lмаг'ur bir chora deb bilaman, bu o'zining aybdorligiga iqror bo'lib, qochib qolishga o'xshab ketmaydimi? Bundan tashqari, meni bu yerda holi-jonimga qo'ymay tergovga tortib turishlariga qaramay, faqat shu yerda ustimdan qo'zg'atilgan ishning borishini obdan kuzatib, ko'proq unga bosh-qosh bo'lib borishim mumkin.

– To‘g‘ri, – bu so‘zni amakisi shunday bir ohangda aytdiki, go‘yo ular oxir-oqibat bir-birini tushungandek edi. – Taklifim chora sifatida asqatarmi degandim. Chunki bu loqaydliging kapalagimni uchirib yubordi, agar qoladigan bo‘lsang, o‘zing ishning pachavasini chiqarib yuboradigandek ko‘rinding. Har qalay, sen-u men birgalikda ish olib borsak, bu sen uchun foydaliroq bo‘ladi, deb hisoblayman. Biroq bu ishning butun og‘irligini o‘z zimmangga olib harakat qilishga qasd qilgan ko‘rinasan, bilmadim, bu bilan nimaga erishib bo‘ladi.

– Demak, kelishdik, – deb qo‘ydi K. – Agar sizda taklif bo‘lsa, ayting-chi, bundan keyin ishning ijobati uchun qanday tadbir ko‘rish mumkin?

– Avval hammasini yaxshilab o‘ylab olish kerak, – dedi amaki. – Sen bir narsani unutma, men qariyb yigirma yildan buyon hech qayoqqa chiqmasdan qishloqda yashab kelaman, bu esa albatta bizga pand berishi, ayni pallada boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yishi mumkin. Shuning uchun ham eng yaxshisi, bu ishning hadisini olgan, fahmiga boradigan kishilarning qo‘yniga qo‘l solib ko‘rish kerak, ular bilan aloqa o‘rnatilsa, ehtimol, hammasini oydinlashtirib beradilar. Qishloqda esa bunaqlar anqoning urug‘i, buni o‘zing ham yaxshi bilasan. Umuman olganda, gapning po‘sakkali, bunaqa savdolar boshingga tushgandagina, hozirgiday bilinib qoladi, xolos. Ishqilib, bularning bari men uchun hech kutilmagan voqeа, holbuki Ernadan xat olganimdayoq, qanchalik g‘alati bo‘lmasin, ancha-muncha narsalarni o‘zimcha gumon qilgandim, bugun seni ko‘rdim-u, menga hammasi ayon bo‘ldi. Biroq hozir bu muhim emas, asosiysi vaqt ni boy bermaslik kerak.

Shularni aytar ekan, u zanjirchasini biroz ko‘tarib qo‘ydi-da, qo‘llarini silkitib-silkitib taksi chaqirdi, do‘rillab manzilni haydovchiga tushuntirdi-da, o‘zi bilan birga K.ni ham mashinaga tortdi.

— Oqlovchi Guldning oldiga boramiz, — dedi amakisi. — Yo‘qmi? U axir mening mактабdosh do‘stim bo‘ladi. Albatta, bu nom senga tanish bo‘lishi kerak. U axir g‘ariblar-ning panohboni, himoyachisi sifatida dovruq taratgan-ku. Men bir xolis inson sifatida unga alohida ixlos qilaman, to‘la ishonaman.

— Siz nimaiki tadbirni lozim ko‘rsangiz, hammasiga roziman, — K. shunday desa-da, amakisi o‘jar va hovliqmaligi bilan hozirning o‘zidayoq o‘sha bir talay ko‘ngilsizliklar olib kelgani, dilini g‘ashlaganini his qildi. Faqirlar oqlovchisi oldiga aybdorlardek yelka qisib borayotgani uning oriyatini keltirardi. — Bu ishga oqlovchilarni ham jalb qilsa bo‘larkan-da, — g‘udranib dedi u. — Men esa bilmasdim.

— Bo‘lmasa-chi! — jo‘shib ketdi amakisi, — bu o‘z-o‘zidan tushunarli-ku. Nega ularni jalb qilmaslik kerak ekan? Endi qani, menga shu paytgacha boshingga tushgan savdolarning hammasini hikoya qilib ber, ustingdan qo‘zg‘atilgan bu jinoiy ish jarayoni haqida ipidan ignasigacha bilishim kerak.

K. shu joyda hammasini, hech bir narsani qoldirmas-дан hikoya qilib bermoqchi bo‘ldi, bu oshkoraliк uning ustidan olib borilayotgan sud katta sharmandagarchilik, deb ishonib kelgan amakining o‘y-fikrlariga yagona norozilik, haqli e’tiroz bo‘ladi deb o‘ylardi. Boshiga tushgan ko‘rgilik haqida gapirar ekan, froylyayn Byurstner nomini faqatgina bir bor tilga oldi, shunda ham yuzakigina eslab o‘tdi, shunga qaramay, bu hikoya haqiqatiga xilof bo‘lmadi, axir haqiqatan ham froylyayn Byurstnerning uning ustidan qo‘zg‘atilgan ishda hech qanaqa ahamiyatga mollik biron-bir tomoni yo‘q-da. Hikoya qila turib, K. taksi oynasidan tashqariga ko‘z solib borar ekan, ayni pallada sud devonxonasi oldidan o‘tib borayotganlariga ko‘zi tushi-di. U amakisining ham bu binoga e’tiborini qaratmoqchi bo‘ldi, biroq vaziyatni baholashda buning kerakligiga alo-

hida bir asos topolmadi. Taksi g'aribgina, ko'rimsiz bir uy oldida to'xtadi. Amaki shu zahoti pastki qavatdag'i birinchi eshikning qo'ng'iroq'ini bosdi va javob kutib turishar ekan, tishlarini ko'rsatib tirjayib dedi:

– Kechki soat sakkizda oqlovchi qabuliga kelishning mavridi emas, albatta. Ammo Guld bizdan xafa bo'lmaydi.

Eshik ko'zchasiidan ikkita tim qora, katta-katta ko'z kelganlarga qaradi-yu, yana g'oyib bo'ldi, biroq eshik ochilmasdan qolaverdi. K. va amaki bir-birlari ila nigohlarini urish-tirib, bu shahlo ko'zlarni ko'rganliklarini bildirishdi.

– Aftidan, yangi oqsoch begonalardan qo'rqa'di chog'i, – deb amaki yana bir bor eshik qo'ng'iroq'ini bosdi.

Yana o'sha shahlo ko'zlar paydo bo'ldi, hozir ular mahzun ko'rinyotgan edilar, biroq gazchiroq qo'ng'iroq'i kabi bu qaroqlar ko'rgan kishilarning nigohini aldash uchun shunday qilgan bo'lishi ham mumkin, – darvoqe, ularning boshi ustida gaz muguzcha yongan, uning ovozi qattiq, vishillab chiqqani bilan, yorug'i g'ira-shira edi.

– Ochsangiz-chi, – amaki baqirib, eshikni taqillatib urdi. – Biz janob oqlovchining do'stlari bo'lamic!

– Janob oqlovchining mazalari yo'q, – dedi kimdir orqa-dan ming'irlab.

Eshik orasidagi torgina yo'lak boshida turgan, uy xalatida bo'lgan allaqanday janob bu gapni haddan tashqari beg'am bir ohangda aytgandi.

Amaki bu uzoq kutishlardan sabri tugagan, darg'azab bo'lib ketgani bois, shu zahoti shaxdam qadamlar bilan o'sha janobga yuzlandi-da, o'shqirdi:

– Kasalmi? Siz uni kasal dedingizmi? – deb kimsaga tahdid bilan yaqinlasharkan, go'yo o'zining bundan mazasi qochadiganday edi.

– Sizga eshik ochildi-ku, – kishi shunday deb, oqlovchining eshigiga imo qildi-da, polga sudralib yurgan xalatini

yig‘ishtirib olib, qaygadir g‘oyib bo‘ldi. Eshik haqiqatan ham ochiq, dahlizda qo‘lida sham ushlagancha oq peshband taqib olgan, yoshgina durkun qiz turardi – K. uning naq olov, tim qora ko‘zlaridan darrov tanidi.

– Keyingi safar hayiqmasdan ochavering! – amaki salomlashish o‘rniga shunday dedi, yengilgina dakki bergandy qilib, – ketdik, Yozef, – u endi K.ga murojaat qildi, qizning oldidan qisilibgina oldinga o‘tar ekan.

– Janob oqlovchi xasta yotibdilar, – dedi qiz, biroq amaki to‘xtamadi, u ikkinchi eshikka qarab shoshilardi. Qiz kirish eshigini mahkamlash uchun burilganda K. unga suqlanib qaradi. Bu do‘ndiqcha go‘yo qo‘g‘irchoqning o‘zi edi, uning faqat oppoq yuzlari do‘mboq bo‘lib qolmasdan, dudoqlari-yu labining chekkalarigacha bejirim edi.

– Yozef, – baland ovozda chaqirdi amaki va qizga mu-rojaat qilib so‘radi: – Yana yuragi chatoq bo‘lyaptimi?

– Ha, eski kasallari, – derkan, qiz ularga yetib olib, qo‘lida sham bilan boshlab ketdi, mana nihoyat eshikni ham ochib berdi.

Xonaning to‘rida, hali sham yorug‘i yetmagan bir joyda yostiqdan uzun soqolli bir bosh ko‘tarildi.

– Leni, kim bu kelgan? – deb surishtirdi oqlovchi. Bu ko‘r-oydinda tashrif buyurgan mehmonlarni ajratib olish qiyin edi.

– Bu sening eski qadrdoning Albert bo‘ladi.

– E, Albert, o‘zingmisan? – oqlovchi qayta-qayta so‘rarkan, bu mehmonlar oldida mug‘ombirlik qilib o‘zini biron-bir ko‘yga solishga hojat yo‘qday, yostiqchalarni bir chekkaga surdi.

– Nahotki ahvoling shunchalik yomon bo‘lsa? – amaki hol-ahvol so‘rab turib, oqlovchi to‘shagini bir chekkasiga o‘tirdi. – Hech ham ishongim kelmaydi. Ehtimol, bu senda oldin ham sodir bo‘lib turgan yurak xurujining qaytalashidir, odatdagidek, tezda o‘tib ketar.

– Balki, shundaydir, – oqlovchi past ovozda javob qildi. – Biroq hech qachon bunaqa darajada ahvolim yomon-lashmagan edi. Nafasim qisadi, kecha-kunduz uyqu yo‘q, kun o‘tgan sari tinka-madorim qurib, holdan ketib boryapman.

– Buni qara, – amakisi shunday deb paxsa qo‘llari bilan tizzasidagi shlyapasini qattiq g‘ijimladi, – bexosiyat yangilik-ku bu! O‘zi parvarishing yaxshimi? Bu yer namuncha g‘arib, namuncha zimiston bo‘lmasa, jahannamning o‘zi-ku. To‘g‘ri, senikida bo‘lmannimga ancha zamonlar bo‘ldi, lekin avvallari menga hammasi joyida, kuning shod-u xurramlik bilan o‘tayotganday tuyulardi. Bu oyimtillangning ham tili-yu qo‘lidan bol tomadiganga o‘xshamaydi. Yoki u mug‘ambirroqmi deyman!

Bu gap-so‘zlar sababkori bo‘lgan qiz qo‘lida sham bilan hamon eshik yonida turar, uning o‘ynoqlagan nigohlari hozir amakisidan ham ko‘ra K.ni nishonga olgan, hatto gap o‘zi haqida borayotganda ham bir tuki o‘zgarmasdan, yigitni yeb qo‘yadiganday qarab turardi. K. kursining orqasidan tirsagi bilan itarib, qizning yaqiniga surib qo‘ydi.

– Men kabi xasta bir odam uchun hammasidan ko‘ra muhimi tinchlik, – dedi oqlovchi. – Bu yer menga hech ham g‘arib ko‘rinmaydi. – U biroz sukut saqlab turib, keyin gapiga qo‘shimcha qildi. – Lenining ham mening uchun joni halak, ishqilib, baraka topsin, u menga yaxshi qaraydi.

Biroq amaki bu gaplarga ishonmadi, shu bois ham bemorning mulohazalariga biron-bir e’tiroz bildirmagan bo‘lsada, uning xodimlariga nisbatan kayfiyati o‘zgarmadi, qiz karavotning yaqiniga kelib, tungi stolchaga shamni qo‘yib, bemorning ustiga engashgancha yostiqchalarini to‘g‘rilayotib, qulog‘iga nimadir deb shivirlaganda ham jahldan tushmay, qahrli bir nigoh ila qizni ta’qib etdi. Xasta odamni ehtiylotlash kerakligi ham unutildi, amaki kursidan qo‘zg‘alib, hamshiraning orqasida bo‘zraygan aft-angorda xonaning u

boshidan bu boshiga borib kelishga tushdi, u hozir Lenining etagiga chang solib, qizni karavotdan otib yuborganida ham K. bunga hech ajablanmagan bo'lardi. K. hammasiga be-parvo, hatto oqlovchining kasal bo'lib chiqishi ham unga jo'yali ko'rinar, boshqacha bo'lganda, uning ishini bu odam qanday qo'lga olishi ajablantirgan bo'lar, amakisining bu rashk qilishiga uning o'zi ham jimgina o'tira olmasdi, – hozir bo'lsa ishi yo'q, chunki u K.ga juda qo'l kelib turardi.

Biroq shu yerda amaki hamshiraga shuni ham ko'p ko'rib dedi:

– O‘ oyimqiz, sizdan bir zumga bo'lsa-da bizni xoli qoldirishingizni o‘tinib so‘rayman, do‘stim bilan bir-ikkita shaxsiy ishlarmizni gaplashib olishimiz kerak. Men uchun bu juda muhim.

Hamshira xuddi devor yoqdagi choyshablarni to‘g‘ri-alamoqchi bo'lgandek bo'lib bemorning ustiga egildi, keyin baayni amakini yeb qo‘yar darajada vajohat bilan tiklanib, avvaliga jahlining zo‘ridan bo'lsa kerak, nima deyishini bilmay qolgandek churq etmay turdi, keyin birdan vazmin ohangda, ammo luqmalarini qatorlatib tashladi:

– Ko‘rmayapsizmi, janob oqlovchining toblari yo‘qligini, hozir u kishining shaxsiy ishlarni ko‘rishga majollari kelarmikan?!

Bu gaplarni qiz amakiga vaziyatga qarab aytdi, ularni har qanaqa kishi xolis, juda borsa kulibgina qabul qilishi mumkin edi, amaki esa hammasidan quruq qolganday tutaqib ketdi.

– Ah sen, baloginaga yo‘liqqur! – achchig‘ining zo‘ridan o‘zini bosolmay qolgan amakining qolgan so‘zлari yarim-yorti, g‘uldirab chiqqanidan, hatto ularni tushunib bo‘lmay qoldi. K. qo‘rqib ketdi, holbuki u amakining quyushqondan chiqib ketishini kutgan, shu bois ham amakining og‘zini ikki qo‘llab yopmasa bo‘lmaydigandek otildi.

Baxtlariga, bemor o'midan yarim qo'zg'alib, yonlama qilib qizga qaradi, amaki yuzi bujmaygancha, go'yo qalampir chaynab qo'ygandek o'tirarkan, oxiri o'zini bosib olib, tili kalimaga keldi:

– Hm, bilasizmi, biz hali butunlay aqli-hushimizni yeb-qo'yganimiz yo'q, men sizdan buni iddao bilan talab qilayotganim yo'q, tushuning, imkon bo'lgandami, eh, men nimalarni talab qilgan bo'lmasdim. Iltimos, bizni xoli qoldiring!

Hamshira to'shak oldida turgancha, sarkashlik bilan boshini amakiga burdi, o'zi bo'lsa oqlovchining qo'llarini silayotganday tuyuldi.

– Sen Lenining oldida hammasini to'kib-solishing mumkin, – oqlovchining gapida qat'iy bir iltimos zohir edi.

– Gap menga daxldor emas-da, – deb gap boshladi amaksi, – sir ham meniki emas. – Va u birdan yuzini burdi, hech qanaqa tortishuvga o'rinn qoldirishni istamaganday, faqat bu bilan mulohaza qilib olishga imkon berayotganday bo'ldi.

– Unda kimniki? – oqlovchi yostiqdan qo'zg'alib, ojiz bir ovozda so'radi.

– Jiyanimniki, – dedi amakisi. – Men uni bu yerga boshlab keldim. – Va u K.ni tanishtirdi: – Mana o'zi, Yozef K. bankda prokurist bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

– E, shunaqami? – bemor ancha jonlanib olib, K.ga qo'lini uzatdi. – Kechirasiz, men sizga e'tibor qilmabman. Leni, chiqib tur, – u hamshiraga buyurdi. Qiz ham ortiq qarshilik ko'rsatmadni, go'yo uzoqqa xayrlashmayotganday oqlovchi qizning qo'lini siqib qo'ydi. – Demak shunday de, – u amakiga qarab ming'irlarkan, xotirjam bo'lib qoldi va yaqinroq surildi. – Bundan chiqdi, sen bemor kishining holidan xabar olish uchun emas, ish bo'yicha kelibsanda!

Shu paytgacha u bular bemor kishini ko'rgani kelgan deb azoblanib o'tirganga o'xshardi, gap nimadaligini bil-

gach, birdan jonlanib qoldi, o‘rnidan turdi, tirsagiga suyanib o‘tirdi, o‘zi bilan o‘zi bo‘lgan pallalar esa zerikib ketar, barmoqlarini chuqur botirib, soqolini tutamlaganini tutamlagan edi.

– Bu manjalaqining qorasi o‘chishi bilan sen ham darrrov o‘zingga kelib qolding, – dedi amaki. Shu yerda u biroz to‘xtab turdi-da, keyin shivirladi. – Garov o‘ynashim mumkin, hozir u o‘g‘ri mushukka o‘xshab, eshik ortida turib gap poylab o‘tiribdi. – Amaki yugurib eshik oldiga bordi. Biroq eshik ortida hech kim ko‘rinmadi, u qaytib kelar ekan, behuda darg‘azab bo‘lganidan xijolat bo‘lish o‘rniga, nazarida, qizning eshik ortida yo‘qligi yanada battar yaramaslik edi, shu bois qahri-g‘azab alangasi o‘rlagandan o‘rlab borardi.

– Sen u haqida yanglishayotirsan, – deb qo‘ydi oqlovchi, biroq himoya qilishga urinmadni, ehtimol, bu bilan u hamshira yordamga muhtoj emasligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi bo‘lgandir, so‘ng yanada marhamatli bo‘lib, so‘zida davom etdi. – Qadrli jiyaningning ishiga biron-bir foydam tega olsa, o‘zimni juda baxtiyor his qilgan bo‘lardim, ammo bunday favqulodda jiddiy ishni uddalashga kuch-quvvatim yetarmikin? Bu ishga holim kelmasa-chi, deb juda qo‘rquamanda, har qalay, qo‘limdan nima kelsa, hammasini ishga solib ko‘raman, shunda ham biron-bir ish chiqara olmasam, boshqa birovni jalb qilib ko‘rarmiz. To‘g‘risini aytganda, bunaqa ish mening joni-dilim, aqli-hushimni olib qo‘yadi, shu bois ham uning uchun har qanaqa narsani bir chekkaga uloqtirishdan toymayman. Agar bu ishni mening yuragim ko‘tarolmagan taqdirda ham, uni bas qilishga asos bo‘ladi-gan ma’nili bir sababni ko‘rsatish juda qiyin bo‘ladi.

K.ga bu nutqning biron-bir so‘zini ham tushunmaganday tuyuldi, u izoh izlab amakiga qaradi, amaki bo‘lsa qo‘lida sham bilan tungi stol oldiga kelib o‘tirgan, dorili kichkina shishachani dumalatib yuborgancha, oqlovchining har bir

so‘zini ma’qullayotganday boshini likillatar, yo‘q, yo‘q, aksincha, K.ga qarab, o‘z rozililingni bildir deyayotganday edi. Amaki avvalroq kelib, uning ustidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi haqida oqlovchiga aytib bergenmikin? Biroq bunday bo‘lishi mumkin emas, yuz berayotgan hodisalar jarayoni o‘ylaganining aksi edi.

– Hech narsaga tushunmayapman, – oxiri kalovlanib gap boshladi K.

– Yo‘q, aftidan, men sizga tushunmagan bo‘lsam kerak, – hayrat va esankirash bilan uning gapini bo‘ldi oqlovchi. – Ehtimol, men shoshqaloqlik qilgandirman? Siz o‘zi men bilan nima haqida kengashib olmoqchi edingiz? Men ustingizdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni haqida so‘z boradi, deb o‘ylagandim?

– E, albatta-da! – ma’qulladi amaki va K.ga yuzlanib dedi: – Sen nimaga tushunmaysan o‘zi?

– Sizlar qayerdan ham men va ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish haqida bilar edingiz? – so‘radi K.

– Buning gapini qaranglar! – kulibgina dedi oqlovchi. – Axir men oqlovchiman-ku, sud hakamlari davrasida bo‘lib turaman, u yerda esa hamisha son-mingta sud jarayonlari, tergov-so‘roq, qama-qama mashmashalari haqida gapishtadi; shov-shuvlarga qiziqmay ilojing yo‘q, ayniqsa, ulardan biri qadrdon do‘stingning jiyani ustidan qo‘zg‘atilgan ish bo‘lsa beixtiyor eslab qolasan. Buning hech qanaqa hayron qoladigan joyi yo‘q.

– Senga yana nima kerak? – amaki K.ni qistovga oldi. – Nimaga buncha tinchingni yo‘qotib qo‘yding.

– Siz sud amaldorlari davrasida tez-tez bo‘lib turasizmi? – qiziqsindi K.

– Ha, – deb javob qildi oqlovchi.

– Ona suti og‘zidan ketmagan go‘dakka o‘xshab savol bergenningni qara, – luqma tashladi amaki.

– Xuddi mening kasbim kishilarga daxli yo‘qday deb biliшадими, bo‘лмаса ким мена бунақа қилиб муомала қиласи? – деп со‘з қо‘шди оғловчи. Бу гап шунчалик иддаоли, устувор янградики, К. ҳеч нима деп жавоб қилмади.

„Афтидан, сиз, Адолат саройида фаолият ко‘рсатасиз чог‘и, уларнинг chordoqqa joylashgan devonxonasini qayerdan ham bilardингиз?“ – демоғчи бо‘лди К., бироқ бу мулҳазалар оғ‘зидан чиқиб кетмаслиги учун аранг о‘зини босиб турди.

– О‘зларинг тушунасизлар, – оғловчи гапини шундай бир оҳандага давом ettirdики, баёни о‘зича anglab yetган бир haqiqatni ma’лум qilishning xонаси kelgандай edi, – о‘zingиздан qolar gap yo‘q, mening bunaqa sud xодимлари даврасида bo‘lism behudaga emas, balki har doim mijozlarимning foydasiga nimadir undirmoq, nimadir bilmoq payida bo‘ламан, holbuki, бу жуда nozik masala, hammasini gapirib o‘tirish o‘rinsiz ham. Albatta, hozir бу jinurgur xastalik oyog‘imga bolta urib turibdi, shukrki, meni ziyyorat қилиб tурган qadrdonlarning sharofatидан yer tagida ilon qimirlasa xabardon bo‘lib turibman. Ha, men kimdir sud eshidига kuni bilan sarg‘ayib o‘tirgandan ko‘ra ko‘проq narsadan xabar topaman. Mana, hozir ham sizlarga aytsam, qadrli bir mehmonim bor, – dedi va u xонанин sim-siyoh bir burchagini ko‘rsatди.

– Qани, qayerda u? – K.ни savoli қо‘пол чиққанига yaraشا hayron qoldirganini ham bildiradi.

U ishonmagan bir alfozda o‘sha yoqqa qaradi, shamning оjiz nurlari qаршидаги devorlarga yetib borolmasdi. Biroq u yoqda haqiqatan ham nimadir g‘imirlab qolgandi. Amaki shamni ko‘targan edi, ular kichkinagina stolcha, uning yonda cho‘ккан keksa bir kishini ko‘rdilar. Albatta, nafasini chiqarmay joyida o‘tirganidan uni shu paytgacha payqashmagandi. U istar-istamay o‘rnidan қо‘зг‘али, ammo unga e’tibor qaratganlardan noroziligi rang-raftorидан shundoq

bilinib turardi. Kalta-kalta qanotchalarga o‘xshash qo‘llarini silkitib qo‘yarkan, go‘yo shu bilan tanish-bilishchilikni yoqtirmasligini bildirmoqchi bo‘lganday, kelganlar suhabatiga aralashishni istamagan holda astoydil uni shu qorong‘i burchakda xoli qoldirishni va uning bu yerda borligini butunlay unutishlarini astoydil o‘tinayotganday edi. Biroq hech kim uni bu uchrashuvdan haydamadi.

– Siz bizni g‘aflatda qoldirdingiz, – oqlovchi mehmonlarga bu narsani izohlamoqchi bo‘lib, kishining ruhini ko‘taruvchi muqomda keksa janobga qoshini uchirib qo‘ydi va unga yaqinroq kelishni taklif etdi, u qo‘rqa-pisa, ishonmaganday atrofga alanglatdi, imillab sekin qadam tashlar ekan, bularning bari xatti-harakatiga muvofiq edi.

– Janob devonxona direktori... Ah, jin ursin, kechirasiz, men sizga bularni tanishtirmabman-ku, – bu mening qadrdon jo‘ram Albert K. bo‘ladi, bunisi uning jiyani. K., bankda prokurist, bu kishi esa devonxona direktori bo‘ladilar...

...hali sizlarga aytganimdek, janob direktor menikiga tashrif buyurganlarida odamning joni bo‘lib ketardilar. Darvoqe, janob devonxona direktori qanchalik bandliklarini bilgan kishigina bu tashrifning qanchalik qimmatli ahamiyatga ega ekanligini baholay olishi mumkin. Mening behol va injiqligimga injimay tez-tez tashrif buyurib, xandon-xushxon latifalar aytib, xasta ko‘nglimni tog‘day ko‘taradilarki, asti qo‘yavering!

Albatta, biz Leniga keluvchilarni bu yoqqa kiritma, deb ta‘qilqaganimiz yo‘q, chunki hech kim kutilmagandi, biroq o‘zimiz xoli qolib o‘tirmoqchi edik, buni qaraki, birdan sen kelib eshikni taqillatib qolding, shunda janob direktor oromkursisini surib, huv o‘sha burchakdagi stol oldiga borib cho‘kdi; mana, bo‘lgan voqeani kutilmagan bir tarzda izohlab ham berdim, endi esa har na bo‘lganda ham bir talyay ishlarni hamjihat bo‘lib, muhokama qilib olishga ehtiyoj

tug‘ilib turibdi, buning uchun esa bir-birimizga yaqinroq o‘tirsak zarar qilmaydi. Marhamat qiling, janob devonxona direktori! – u sermulozamat tabassum bilan boshini burib, karavot oldidagi keng oromkursiga taklif qildi.

– Afsuski, men sizlar bilan bir necha daqiqagina bo‘lishim mumkin, – devonxona direktori xushmuomalalik bilan shunday derkan, oromkursiga qulay bir vaziyatda o‘tirib olib, soatiga qaradi. – Bormasam bo‘lmaydi, ishim tig‘iz. Lekin men do‘stimning do‘sti bilan tanishib olish imkonini qo‘ldan chiqarmoqchi emasman.

U amakiga yengilgina ta’zim qilib qo‘yar ekan, bu tanishuvdan juda ham mammunligini yuz-ko‘zidagi ifoda orqali bildirmoqchi bo‘ldi. Biroq amakisida bunaqa yaldoqilik yo‘q edi, shu bois, devonxona direktori ila uchrashuvdan xijolat tortgan bo‘lsa-da, ammo buni zo‘r xursandchilik bilan qahqaha otib qarshiladi. Bu taassurotni ja yoqimli deb bo‘lmasdi! K. bu voqealarni xotirjam kuzatib o‘tirar, chunki unga hech kim e’tibor qilmay qo‘ygandi; devonxona direktorining odati shunaqa chog‘i, uni lutfan taklif etishdimi, suhbat yo‘sini o‘z qo‘liga olib, davraning guliga aylanardi, yangi mehmonlarni rad etish maqsadida o‘zini yolg‘ondakam kasalga solgan oqlovchi esa endi kaf-tini qulochakkasiga olib kelib, uni diqqat bilan tinglar, bir charog‘onlikda qolgan amaki bo‘lsa, – sham uning tizzalari yonida lipillardi, – devonxona direktorining nutqini jon qulog‘i bilan eshitib, olqishlab qolmasdan, balki qo‘llarini havoda nimadir chizayotganday shaklda yuritib, bu nutqqa jo‘r bo‘lishga tushgan, bundan oqlovchi notinchlanib, u tomonga qarab-qarab qo‘yardi. Karavotga suyanib olgan devonxona direktori shundoq oldida turganiga qaramay, K.ga biron marta ham qayrilib qarashni xayoliga keltirmadi, kattalar uni bor-yo‘g‘i tinglovchi sifatida ko‘rardilar, aftidan. Shunga qaramay, K. gap nima haqida ketayotganiga

umuman tushunmas, u hamshirani xayol qilar, unga amakisi qanchalik qo‘pol muomalada bo‘lganligi haqida o‘ylar, yoki devonxona direktorini avvalroq, masalan, birinchi tergov bo‘lgan kuni ko‘rganmidim, deya xotira sandig‘ini titardi. Ehtimol, u adashayotgan bo‘lishi ham mumkin, biroq devonxona direktori birinchi qatorlarda o‘tirib yig‘ilishda qatnashgan siyrak soqolli chollardan biriga juda ham o‘xshab ketardi.

Birdan hamma cho‘chib tushdi, yo‘lakdan yerga tushib singan idish-tovoqning jarangi eshitilgan edi.

– Qaray-chi, u yoqda nima voqeа sodir bo‘ldi? – K. shunday deb shoshilmay eshik sari yurdi, go‘yo boshqalar uni ushlab qolishiga imkon qoldirganday bo‘lib.

Biroq u shundoq dahlizga chiqib, qorong‘ilikda yo‘lni to‘g‘ri olish uchun paypaslanarkan, eshik dastagini ushlagan uning barmoqlariga, o‘zining qo‘liga solishtirganda mittigina qo‘lcha kelib tegdi va sekingina eshikni qiya yopdi. Bu shu yerda kutib turgan hamshira edi.

– Hech nima bo‘lgani yo‘q, – shivirladi qiz, – nima qilib bo‘lsa ham sizni bu yoqqa chaqirish uchun atayin taqsimchalarni devorga qarab otdim.

K. nima deyshini bilmay dovdirab qoldi va beixtiyor dedi:

– Men ham siz haqingizda o‘ylab turgandim.

– Nur ustiga nur, – dedi qiz. – Ketdik!

Ular bir necha shoshqin qadam tashlab va ko‘rimsiz oynavand eshik oldiga kelib qoldilar. Qiz uni K.ning istiqboliga lang ochib yubordi.

– Qani, marhamat qiling! – amr etdi qiz.

Bu oqlovchining ishxonasi ekanligi shundoq ko‘rinib turardi. Oy yorug‘ida nimalardir ko‘zga tashlanar, uch derazadan tushgan shu’ladan kichkina, to‘rtburchak naqshli pollar yorishib, butun xona daqqiyunusdan qolgan eski paytdagi og‘irkarvon uy jihozlariga to‘ldirib tashlangani ma’lum bo‘ldi.

– Bu yoqqa, – hamshira shunday deb qorong‘idagi naqshinkor yog‘och o‘rindiqni ko‘rsatdi.

Unga cho‘kkachgina K. u yoq-bu yoqqa alangladi: xona keng, hashamatli edi, aftidan, bu hashamatdan oqlovchining mijozlari bo‘lgan beva-bechoralar o‘zlarini yo‘qotib qo‘ysa kerak. K. o‘zicha ularning ulkan yozuv stoli oldiga qanday qilib pildirab borishlarini tasavvur etdi. Biroq bir lahma o‘tmay, hamshiradan boshqa hamma narsani – butun borliqni unutdi – qiz unga shunchalik yaqin ediki, o‘rindiq yoniga tashlangan qo‘lchalarini siqib turardi.

– Sizni chaqirishga hojat bo‘lmasa kerak, o‘zingiz chiqib kelasiz, deb o‘ylagandim, – bidirlardi qiz. – Bu juda ham ajablanarli hol. Avvaliga siz ichkariga kirish payida bo‘ldingiz, menga bir qur nazar ham tashlamadingiz, keyin bo‘lsa kutishga majbur qilyapsiz. Meni oddiygina qilib Leni deb chaqiravering, – qiz buni shoshib-pishib, yo‘l-yo‘lakay qo‘srimcha qildi, oltinga teng daqiqalari arzimas narsalarni izohlashga ketib qolishini istamaganday bo‘lib.

– Bajon-u dil, – javob qildi K. – Biroq, bilasizmi, bularning bari sizni hayron qoldirmasin, to‘la izohlab berishim mumkin. Birinchidan, qariyalarning valaqlab o‘tirishlariga quloq solishim kerak bo‘lib qoldi, hech nimadan hech nima yo‘q, ular oldidan ketib qolishim ham aqlga to‘g‘ri kelmasdi; ikkinchidan, men tortinchoq odamman, tez-tez odamoviligidim tutib qoladi, sizning esa bir qarashdayoq unaqalardan emasligingiz ko‘rinib turibdi, bir harakat bilan zabit etasiz-qo‘yasiz.

– Gap unda emas, – dedi Leni, – bor-yo‘g‘i men sizga yoqmadim, ha, ehtimol, hozir ham yoqmasman.

– Yoqasiz, – qanaqadir ma’nosiz holda, mujmal qilib dedi K.

– O-o! – Lenining og‘zining tanobi qochdi.

K.ning so‘ziga javob bo‘lgan bu olqishlashda qiz qanaqadir mammuniyatni ilg‘agandi. Shu bois ham yigit jimib qoldi.

Qorong‘ilikka ko‘zлari o‘rganayotgan K. qanday vaziyatda o‘tirganlarining ayrim jihatlarini endi-endi farqlay boshladi. Ayniqsa, devorning o‘ng tomoniga osilgan katta surat uning e’tiboriga tushdi. U rasmga yaxshiroq razm solish uchun oldinga yurdi. Suratda sud amaldorlari kiyim-boshidagi bir kishi tasvirlangan edi, u oromkursiga go‘yo taxtda o‘tirgan shohdek yuksak maqomda qo‘r to‘kkandi. O‘rinning u yerbu yeri oltin bilan naqshlangan edi. Biroq sud hakamining o‘tirishi favqulodda g‘alati, uning qiyofasi na xotirjam, na ulug‘vor edi, aksincha, chap qo‘li oromkursining orqa suyanchig‘ini qattiq tutgancha turar, o‘ngi bo‘lsa oldinga uza tilgan, barmoqlari nimagadir chang solgudek, go‘yo navbatdagi lahzada had bilmas bir tug‘yon bilan, ehtimol, to‘xtovsiz qahr-u g‘azab, nafrat bilan hal qiluvchi so‘zni aytmoq va, balki, hukmn ni e‘lon qilish uchun o‘rnidan otilib turadigandek edi. Aftidan, ayblanuvchi zinalarning pastki qismida qolgan, suratda bo‘lsa, sariq gilamlar bilan qoplangan zinalarning yuqori qismigina ko‘rinardi.

— Ehtimol, u mening hakamim bo‘lib chiqar, — K. shunday deb barmog‘i bilan suratni niqtadi.

— Men uni yaxshi bilaman, — dedi Leni, — u bu yerga teztez pashshaxo‘rda bo‘lib turadi. Bu surat yoshligida chizdirilgan, endi u bunga hech ham o‘xshamaydi, kaltagina, bir burda bo‘lib qolgan. Suratda bo‘lsa o‘zini shunaqa olimaqom, purviqor qilib tasvirlashni buyurganki, bularning hammasi o‘ziga bino qo‘yganlikdan boshqa narsa emas. Qolaversa, ularning bari shunaqa, burniga xoda yetmaydi. Qarang, mening o‘zim ham shunaqa oliftayi Xudo urgamman, shu bois ham sizga yoqmaganim juda alam qiladi-da.

Bu so‘zlarning javobiga K. Lenini quchib, uni o‘ziga qaratdi, qiz indamaygina boshini yigitning yelkasiga qo‘ydi. K. suratdagi kishini surishtirdi:

— U nima ish qiladi?

– Tergovchilik qiladi, – dedi Leni va yigitning quchib turgan qo'llarini olib, barmoqlariga razm soldi.

– Bor-yo'g'i tergovchi ekan-da! – ajablandi K. – Martabali amaldorlarning hammasi shunaqa, turish-turmushlarini xaspo'shamoqchi bo'ladilar. U naq taxtdagi shoh kabi o'tiribdi-ya!

– Bularning bari xayolparastlikning mevasi, – dedi qiz va K.ning bo'yniga qo'lini tashlab. – Aslida, u tit-piti chiqqan eski yopinchiqqli yag'ir oshxonada kursisida o'tiradi. Ustingizdan qo'zg'atilgan sud jarayoni haqida namuncha bosh qotirmsangiz? – sekingina qo'shib qo'ydi qiz.

– Yo'q, buning uchun boshim og'riyotgani yo'q, – dedi K. – aksincha, men, buning qayg'usini haddan tashqari kam qilyapman chog'i.

– Sizning xatoyingiz bu emas, – dedi Leni. – Eshiti shimga qaraganda, siz haddan tashqari o'jarmishsiz.

– Buni kim aytdi sizga? – qiziqsindi K., u qiz pinjiga tigilib olganini his qilib turar, hurpaygan, qop-qora qayrilma, gireh-gireh sochlardan ko'zini uzolmasdi.

– Buni kim aytganligini ham ma'lum qilsam, men haddan tashqari ko'p narsani gullab qo'ygan bo'laman, – so'zlay ketdi Leni, – iltimos, buni mendan so'rab o'tirmang, yaxshisi o'z xatoyingizni tuzating, bunaqa o'jar bo'lman, baribir sud ishlarida qarshilik ko'rsatish befoyda, kallangizga quyib oling buni. Sizning qo'lingizdagagi birinchi imkoniyat – anglab yetish, faqat shundagina, ha, faqat shundagina umid qilish mumkin bo'ladi. Shunda ham begonalarning aralashuvi, yordamisiz hech narsaga erishib bo'lmaydi, biroq hech nimadan tashvishlanmasangiz ham bo'ladi, mening o'zim sizga yordam beraman.

– Ha, albatta, sizning bu sud ishlaridan xabaringiz bor, unda ishga solish kerak bo'ladigan ming bir hiyla-nayranglardan ham voqifsiz, – dedi K., biroq shu payt qiz unga shu darajada suykaldiki, tizzasiga olmasa bo'lmay qoldi.

– Mana bu ajoyib bo‘ldi, – derkan, qiz etagini tortib, harir nimchasini to‘g‘rilab, yaxshilab o‘rnashib oldi. Keyin yigitning bo‘ynidan qattiq quchoqladi, ammo bir zum o‘tib, o‘zidan itarib, unga uzoq termildi.

– Mabodo men buni tushunib yetmasam-chi, unda siz menga yordam berolmaysizmi? – K. undan sinovchan nighonda so‘radi.

Nima qilay, o‘zimga yordami tegadigan birontasini topmasam bo‘lmaydi, avvaliga froylyayn Byurstner, keyin sud xizmatchisining xotini, endi bo‘lsa mana bu jimitday hamshira – hech tushunmayman, bular nega muncha menga tird‘alishadi? Buni qarang, go‘yo faqat ana shu yer uning o‘tiradigan joyidek tizzamga yalpayib olganini.

– Yo‘q, – sekingina boshini qimirlatib dedi Leni, – unda men sizga yordam qila olmayman. Aftidan, siz mening hech qanaqa yordamimni istamaysiz, bu yordamlar sizga kerak emas, siz borib turgan o‘jarsiz, sizning fikringizni o‘zgartirib bo‘lmaydi!.. Sizning mahbubangiz bormi? – qiz birdan shuni so‘radi-yu, jimib qoldi.

– Yo‘q, – dedi K.

– Yolg‘on, – dedi qiz.

– Baxtga qarshi bor, – chaynaldi. K. – faqat uni yo‘q deb tasavvur etsangiz bo‘ladi, men uning bahridan qariyb o‘tib yuborganman, shunday bo‘lsa ham fotosuratini doim o‘zim bilan birga olib yuraman.

Leni undan suratni so‘radi, yigit cho‘ntagidan Elzaning suratini chiqarib berar ekan, qiz uning tizzalariga o‘zini butunlay tashlab olib, Elzaning suratiga teshib yuborgudek qilib tikildi. Bu havaskorlarning o‘rgamchikka yo‘l-yo‘-lakay olgan rasmi bo‘lib, surat Elza raqsga tushayotganda tushirilgan, – qiz o‘zining mo‘jaz restoranchasida raqs tushishning xo‘b ishqibozi edi, – davomli charx urishlarda ko‘ylagining etaklari qanoat bog‘lagan, o‘zi bo‘lsa boshini

orqaga tashlab, qo'llarini beliga tiragancha o'ktamona ni-gohda tabassum bilan qayoqqadir boqib turardi: u kimga tabassum hadya qilib turibdi, sarg'ayib unniqib ketgan suratdan buni ko'rib bo'lmasdi.

— Juda ham qattiq bog'lab olgan ekan-da, — Leni shunday deb suratga qo'lini niqtab bir joyni ko'rsatdiki, uning fikricha, bu juda ham haddidan oshish edi. — Menga u hech ham yoqmadi, juda ham xunuk va beso'naqay ekan, to'g'ri, sizningcha, oydaygina va nozikkina bo'lishi ham mumkin, shu bir parcha qizni bag'ringizga bosib yurgанингиз ham buni ko'rsatib turibdi. Bunaqa naynovlar ba'zida juda go'zal va odamning joniday ko'rinish ketadi. Biroq u sizning saodatingiz uchun o'zini qurban qila oladimi?

— Yo'q, — dedi K. — Mening xursand bo'lishim uchun o'zini qurban ham qilmaydi. Qolaversa, u sohibjamol ham, shirin tilli ham emas. To'g'risi, men shu paytgacha undan mana shu suratdan boshqa hech nima talab qilganim ham yo'q. Vijdonan aytadigan bo'lsam, men hech qachon bu suratga ham xuddi sizday e'tibor bilan qaramaganman.

— Bundan chiqdi, undan ko'nglingiz ham qolib ketgan chiqar, — dedi Leni. — Endi uni mahbubangiz demasa ham bo'ladi.

— Afsuski, buning aksi, — deb kalovlandi K. — Lekin men o'z gapimdan tonmayman.

— Mayli, hozircha u sizning mahbubangiz bo'lsa bo'la qolsin, — dedi Leni. — Biroq siz uni yo'qotganingizda yoki hatto boshqasini uning o'rniga almashtirganingizda ham parvoyingizga kelmaydi.

— Bo'lmasa-chi, — kulimsiradi K. — Biroq uning sizga qaraganda afzallik tomonlari yo'q emas, u mening us-timdan qo'zg'atilgan jinoyat ishi haqida hech narsa bil-maydi, agar bilgan taqdirda ham, bosh qotirib yotmasdi. Va u hech qachon meni murosa-madora yo'liga o'tishga

undamas, meni biron narsaga ko‘ndirishga hech ham kuyib-pishmaydi.

– Bu degani uning qo‘li balandligini ko‘rsatmaydi, – dedi Leni, – agar uning boshqa afzallik tomoni bo‘lmasa, men ham umidimni uzmayman. Uning jismoniy tomondan biron-bir nuqsoni bormi?

– Jismoniy qusur deysizmi? – qayta so‘radi K.

– Ha, shuni aytyapman, – dedi Leni, – misol uchun mening kichkinagina bo‘lsa-da nuqsonim bor. Mana, qarang.

U o‘ng qo‘lidagi nomsiz barmog‘ini kerdi, barmoqlar orasida qariyb uchigacha cho‘zilgan ixchamgina barmoqcha o‘sgandi. G‘ira-shirada qiz unga nimani ko‘rsatmoqchi ekanligini birdan bilmasa-da, K. nozik qo‘lini qo‘liga olar ekan, Leni o‘sha barmog‘ini ushlab ko‘rish uchun unga tutdi.

– Tabiatning ajib o‘yiniga qarang! – dedi K. va qizning butun qo‘liga razm solib chiqdi-da, gapiga qo‘sishimcha qildi, – namuncha kichkina bo‘lmasa bu jimjiloqcha.

Leni bir qadar faxr bilan K. ga qaradi. K. esa yana va yana hayrat bilan uning barmoqlari orasini ochib-yopib ko‘rar, keyin ularni jo‘shqinlik bilan o‘pib qo‘yardi.

– O-o! – qiyqirardi qiz. – Siz meni o‘pichga ko‘mib tashladingiz! Og‘zini yarim ochgancha, u shoshinqirab yigitning tizzalari ustida tizzachalari bilan turdi. K. butunlay dovdirab qoldi, qiz unga shunchalik yopishib olgan, uning qalampir kabi achchiq va noxush bo‘yi dimog‘ini yorayozgandi. Qiz o‘zini uning boshi ustiga tashlab, egilgancha bo‘ynidan o‘par va tishlar, bunga yigitning ensasidagi sochlari ham qo‘shilib ketardi.

– Siz meni uning o‘rniga oling! – deb o‘pichlar orasida hansirab hayqirardi qiz. – Mana, ko‘rdingizmi, siz meni uning o‘rniga olishingiz kerak!

Shu payt qizning tizzalari toyib, dodlab yubordi va gilamning ustiga ag‘anab tushishiga bir bahya qolganda K. uni

qattiqroq quchoqlab, tutib qolishga urindi, biroq qizning o‘zi uni bag‘riga mahkamroq bosib pastga tortdi.

- Sen endi menikisan, – derdi qiz.
- Mana senga uyning kaliti, qachon istasang kelaver, – K. uydan chiqarkan, uning ortidan havodan o‘pich yo‘llab qolgan qizning oxirgi gapi shu bo‘ldi.

Uyning darvozasidan tashqari chiqiboq, u mayda yomg‘irga tutildi, ammo yana bir bor Lenini deraza orqali bo‘lsada ko‘rmoq umidida, tosh yo‘l bilan yurmoqchi bo‘ldi, darvozaning oldida avtomobil turar, K. parishonxotirligi tutib, unga e’tibor qilmagandi, shu payt amaki yugurib kelib, yelkasidan bosib, darvozaga shunday qisib olib bordiki, baayni uni shu joyda mixlab tashlamoqchidek edi.

– Ah, bolakay, bolakay-a! – baqirdi amaki. – Nima ish qilib qo‘yding?! Ish qariyb bosti-bosti bo‘layozgandi, sen nima yomonlik bo‘lsa o‘zingga qilding. Bu churvaqa naxs bosganni olib qayoqqa yo‘qolding, aftidan, u oqlovchining ilakishtirib olgan o‘ynashiga o‘xshaydi! – Xudo biladi uyda qancha vaqt qolib ketding, bunga biron-bir arzirli vaj-karson ham topib bo‘lmaydi, – hammasi kundek ravshan, hech narsani yashirib bo‘lmaydi, hamma undan qochib, o‘zini chekkaga olsa, bu uning changaliga tushib o‘tiribdi. Bu yoqda esa biz uchovimiz sen uchun joni halak: kuydi-pishdi bo‘lib kelgan amakijoning, ishni seni foydangga ag‘darmoqni ko‘zlagan oqlovchi, hammasidan ham o‘tadigani, hurmatli bir zot, katta boshini kichik qilib kelgan devonxona direktorining o‘zi seni kutib, sarg‘ayib o‘tirdik. Mayli, men bilan oqlovchi, ehtimol, hech narsa qilolmasmiz, lekin har tomonlama qonun-qoidasiga ko‘ra ham sening taqdiring ana shu devonxona direktori qo‘lida emasmi? Senga qanday qilib yordam bersa bo‘ladi, muhokama qilmoqchi bo‘lamiz, men ehtiyyotkorlik bilan oqlovchini bu ishga unatib yuborsam deyman, u bo‘lsa – devonxona direktorini; biron-bir yordam

yo‘lini topishga senda barcha asoslar bor edi, nahotki sen shuni tushunmagan bo‘lsang? Buning o‘rniga sen juftakni rostlab qolding. Bu yerda hech narsani sir tutib bo‘lmaydi, shukrki, ular xushmuomala, madaniyatli kishilar, bir og‘iz bir nima demadilar, biroq oxir-oqibat sabr kosalari to‘lishi turgan gap edi. Lekin ular tinchgina, malomat qilishni xayollariga keltirmasdan, sabr bilan kutdilar. Biroq hammasi behuda bo‘lib chiqdi. Oxiri devonxona direktori o‘rnidan qo‘zg‘aldi, u shusiz ham ko‘p o‘tirib, suvi chiqib ketgandi, u ketishga tayyorlanarkan, men bilan xayrlasha turib, men ga ochiq-oydin afsuslar bildirdi, hech qanaqa yordam qilishning imkonini qolmagan bo‘lmasa-da, hech kutilmaganda biron-bir xushxabar bo‘lishini kutgandek yana eshik oldida ancha vaqt turdi. Bundan men saodatmand edim, u ketishi bilan bo‘g‘ilib qolayozdim. Bularning bari kasalmand oqlovchiga ham ortiq bir darajada kor qildi, u shunchalik beg‘araz, xokisor kishi bo‘lganidan, hatto men bilan xayrlashayotganda, biron og‘iz bir narsa deyishning epini qilolmadi. U butunlay tamom bo‘ldi, buning uchun, ehtimol, sen hammadan ko‘proq aybdorsan, bir odam o‘lim oldida ekan, xuddi shu ishni zimmangga olgandek, sen uning qazosini tezlashtirib yubording. Yig‘lagin, tug‘ishgan amakingning ahvoliga, sen meni yomg‘ir tagiga otding, men butunlay shalabbo bo‘lib, necha soatdan buyon ko‘zim yo‘lingda teshilgudek bo‘lib to‘lg‘onib o‘tiribman!

VII bob

Oqlovchi. Fabrikachi. Rassom

Qish tonglaridan birida, g‘ira-shira yorug‘ oynaga qor tushgani bilinarkan, hali juda ham erta bo‘lishiga qaramay, o‘z ishxonasida o‘tirgan K. juda ham holdan toygan alfovza edi. U o‘zini hech bo‘lmasa, mana bu past tabaqadagi xiz-

matchilar nigohidan muhofaza qilmoq uchun, xuddi juda ham jiddiy ish bilan band bo'lmoqchidek gumashtasi oldiga hech kimni qo'ymaslikni buyurdi. Biroq biron-bir ish bilan mashg'ul bo'lmoq istab, nimagaki urinsa notinchligi battar ortdi, oromkursisi ustidagi ashqol-dashqollarni surar, u yoqdan bu yoqqa aylantirib, jihozlarni bir yerdan ikkinchi yerga olib qo'yari, keyin stol ustidan qo'lini yig'ishtirib olib, boshini xam qilgancha muzlagandek qotib qolardi.

Qo'zg'atilgan jinoiy ish jarayoni haqidagi fikr uni tark etay demasdi. O'zini oqlaydigan xat tashkil qilib, uni sudga yuborsa, bir foydasi tegarmidi, deb ko'p o'yladi u. Buning uchun u muxtasar tarjimayi holini keltirishi, uning esa har bir qatori hayot yo'lining eng ko'zga ko'ringan voqeа-hodisalari bilan to'ldirilgan bo'lishi zarur; umuman, shunday qilishi to'g'rimi, u qaysi asosga ko'ra o'zini oqlaydi yoki boshqacha yo'l tutgani ma'qulmi, buni ular qo'llab-quvvatlasharmikan yo o'zlarining tushunchalari bo'yicha muhokama qilishga tushib ketisharmikan, bunday taqdirda u buni ularga nima deb tushuntiradi, qanday izohlab beradi? Uning haqligini oqlash imkoniyatini beradigan bu xatni, qanday qilib himoya oldidan qo'l keladigan tarzda oqlovchiga yetkazish mumkin. Oqlovchi qanday qaror qabul qilishi kerak, bu tomonlarini K. umuman bilmas, ammo uning oqlovchisi bo'lgan kimsa ham biron-bir arzirli chora-tadbir ko'rgani bilinmas, mana bir oy o'tishiga qaramay, hatto biron marta uni o'z oldiga chaqirmadi ham, oldingi barcha muzokalarlardagi gapi ham K.da hech qanaqa yaxshi bir taassurot qoldirmadi, axir u odam K. uchun nimaningdir uddasidan chiqishga qobil-day edi-ku. Hammasidan g'alatisi, ustidan qo'zg'atilgan ish haqida K. dan qariyb hech narsani so'rab-surishtirmaydi. Holbuki tug'ilgan savollar bir talay bo'lishi kerak edi. Asosiysi – muammolarning dangal qo'yilishi. K. ning o'zi shunday bir hissiyotda yurib, bir talay savollarni o'ziga

berib ko'rardi. Bu oqlovchi bo'lsa nimadir so'rab-surishtirish o'miga goh allaqanday narsalarni laqillar, goh K. ga ters o'tirib olib, sukul saqlagancha stol orqali egilib olib, har xil shov-shuvlar, oldi-qochdi gaplarning yo'qligidan bo'lsa kerak, soqolini silar, qizning qo'lini uzoq vaqt bo'shatmay, gilamlarga qarar, agar ehtiyoj tug'ilib qolsa, bir safar K. Leni bilan qo'shilgandek xuddi shu joyda, shu onda istagini qondirish payida bo'lardi. Vaqt o'tib borgan sari u K.ni yosh boladek ko'rib, hech bir keraksiz nasihatlar qiladigan bo'ldi. Shu bois ham K. bu bosh og'ritar behuda-yu befoyda, maza-matrasiz va'z-nasihatlar uchun sariq chaqa ham bermaslikka qat'iy qaror qildi. Bu orada, yurish-turishidan haddan tashqari mo'min-qobil bo'lib qolganini ko'rib, oqlovchi K.ni suvga tushgan lattaday bo'shashib qoldi, deb o'yladi chog'i, qaytadan uni ozgina bo'lsa-da ruhlantirishga harakat qilib ko'rди. Oqlovchining hikoyalariga ko'ra, uning o'zi bunaqa sud jarayonlarining bir talayida yutib chiqqan ekan, ammolarning ko'pchiligi ma'no-mohiyatiga ko'ra bir qarashdayoq hech narsaga arzimas, xuddi shuning uchun ham ularning hech biridan umid yo'qdek tuyulardi. Bu sa'y-harakatlarning natijasi huv anavi yerdagi qutida yotar, goh ularni stoli g'aladonidan olib, titkilab qo'yar, biroq bu yozishmalarni ko'rsatishga kelganda, hech ham bu mumkin emasday, xizmat siri sifatida ko'rsatmasdi. Yillar davomida to'plangan tajriba, bu sud jarayonlarida qilingan kashfiyotlar hech bir shubhasiz, K.ning foydasi uchun ish berib qolsa ajab emas. Alalxusus, u nihoyat ishga kirishib, birinchi arznomani qariyb tayyor holga keltirdi. Himoya vositasi sifatida, u sud jarayonining borishiga kuchli ijobiy ta'sir qiladigandek ta-assurot uyg'ondi, bu favqulodda muhim edi. Afsuski, u bir narsadan K.ni ogoh etishi kerak edi, – sud jarayoni umuman bo'lakcha tartibda rivoj olar, – birinchi arznomalar sudda umuman qarab chiqilmas, inobatga olinmasdi. Ularni shun-

chaki ayblanuvchining ko‘rilayotgan ish qog‘ozlari majmua-siga tikib qo‘yishar va oldindan qilingan tergovlarda qayd etib qo‘yilar, shunga ko‘ra ham ayblanuvchining sodir etgan jinoyatini bo‘yniga qo‘yish ishlari avvalgidan muhimroq, e’tiborliroq pallaga kirardi. Agar arzgo‘y biron narsani uqtirmoqchi bo‘lib turib olsa, hamma materiallar yig‘ilib, hamma hujjatlar ko‘tarilganida unga nimadir deyishlari uchun sudning oxirgi, hal qiluvchi qaroridan oldin birinchi himoya o‘tinchnomasiga ham bir qur nazar tashlanadi. Afsuski, aksariyat hollarda umuman boshqacha bo‘lib chiqadi: birinchi arznomani Xudo biladi, qayergadir tiqib tashlashadi, hatto gumdon qilib yuborishlari ham mumkin. Mabodo saqlanganida ham oqlovchilarning har turli shovqin-suroni oralab unga e’tibor berishlari – astoydil o‘qib chiqishlari dargumon. Bularning bari nadomat qilishga loyiq, biroq bir qismi o‘zini oqlab ham oladi. K. u barcha taftishlar maxfiy suratda ko‘rili shiga diqqat qilishi kerak, albatta, sud kerak deb hisoblasa, ularni oshkora ham olib borish mumkin: biroq qonunda oshkora olib borish qayd etilmagan. Jinoyat ishidagi barcha sud hujjatlari, ayniqsa, ayblov nomasiga na ayblanuvchi, na uning himoyachisi yaqinlasha olmaydi, shuning oqibatida goh ular bu haqida umuman bilishmaydi, goh juda ham noaniq, sal-pal bilganlaridan, birinchi arznomada nimaga e’tibor qaratishni bilmaydilar, shu bois ishda uning biron-bir ahamiyat kasb etishi kamdan kam bo‘ladi. Haqiqiy, aniq dalil-isbotga ega arznomani esa keyinroq, ayblanuvchi ustidan qo‘zg‘atilgan ish ayblovning alohida bandi bo‘yicha ko‘rilayotganda, hech bo‘lmasa uning qandaydir daraklari, mish-mishlari qulqlariga chalingandagina tayyorlash mumkin. Shungacha himoya ishini olib borish juda ham qiyin va u butunicha yaroqsizdir. Lekin bu atayin, shuni bila turib qilinadi. Gapning ochig‘ini aygtanda, sud hech qanaqa himoyaga imkon bermaydi, faqat bu yo‘l-

dagi urinishlarga sabr qilib keladi, hatto bu sabr qilib keliш ruhini unga mos keladigan qonun bandi bilan izohlash mumkinmi, shu savolga javob berish ham muammo, buni tushuntirishning o‘zi bahsli. Shu bois ham keskin qilib aytganda, sud tan olgan oqlovchilarning o‘zi yo‘q, himoyachi maqomida sud oldida chiqadiganlarning aksariyati yashirin sur’atda ish olib boradigan xufya oqlovchilardir. Anglab yetilgandek, bu shu yo‘l bilan tirikchilik o‘tkazadiganlarni haddan ortiq tahqirlaydi. K. keyingi safar sud devonxonasida bo‘lganida, oqlovchilarga ajratilgan xonani ko‘zdan kechirib, masalaning bu tomoni bilan tanishmoqchi bo‘ldi. U yerda to‘planadiganlar, oliy darajada jamiyatdan yurak oldirib qo‘yanlar deyish mumkin. Katalakdek tor, to‘kilay deb turgan pastqamgina xonaning o‘zi ham, ular ortidan visir-visir qilib jirkanish bilan gapirish ham bu kishilarga sudning salbiy munosabatini bildiradi. Xona kichkinagini tuynukdan tushib turgan bir tutamgina nur bilan g‘ira-shira bo‘lib turadi, u ham shunchalik balanddaki, agarki boshingni ko‘tarib qaramoqchi bo‘lsang, faqat dimog‘ingga kir-chir anqigan havogina urilmaydi, balki xuddi shu yerning tepasida qurilgan o‘choqdan chiqqan qurumlar bir zumda yuz-ko‘zingni bejab tashlaydi, yo‘q, bu yetmaydigandek, u yer shunchalik tiqilinchki, kasbdoshlardan biri boshqasini topmoq kerak bo‘lsa, yonidagini urib-surib o‘ziga yo‘l ochishdan boshqa iloji yo‘q. Bu xonaning polini ko‘ring, g‘aroyib manzaraning ajib namunasi, qanday niyatda qilinganini Xudo biliadi – mana shu polda bir yildan oshdiki, yoriq paydo bo‘ldi, o‘zi juda kattakon emasday ko‘rinadi-yu, har qanaqa odam yo‘g‘on-so‘g‘onligiga qaramay, ikki oyog‘i bilan tushib ketishi hech gap emas. Bu oqlovchilar xonasi chordoq ustidagi ikkinchi chordoqda joylashgan, shu bois mabodo kimningdir oyog‘i shu o‘yiqqa kirib ketsa, u mijozlar kutib turadigan yo‘lakning ayni ustida osilib qolib, likillab turaveradi.

Yumshoq qilib aytganda, oqlovchilar guruhining ishlash shart-sharoiti ana shunaqa sharmandali, ammo bu hech kimni ajablantirmaydi. Kattalarga shikoyat qilishlardan hech bir natija chiqmaydi, bu ham yetmaganday, oqlovchilar o‘z hisoblaridan qay bir darajada xonalarini ta’mirlab olishlari ham qat’iyan taqiqlanadi. Shunga qaramay, oqlovchilarga bu ham kam degingiz keladi. Ular qay bir darajada himoya qilishni istashadi, biroq amalda barcha umidni ayblanuvchidan kutib, hamma og‘irlikni uning zimmasiga yuklashadi, ishni imkon boricha o‘zlaridan chetlashtiradilar. Mohiyatan, bu naqa mo‘ljal olishlar ham chakki emas, qo‘lni sovuq suvga urmay, sohibkaromatlikning lazzatini aytin, biroq bu xatti-harakatning oqibati favqulodda yakun topib, ayblanuvchilar uchun oqlovchilar umuman keraksiz bo‘lib chiqadi. Holbuki, sudda ayblanuvchilar uchun oqlovchidan-da kerakli boshqa bir kasb egasi yo‘q. Ahvol shundayki, butun sud jarayoni ommadangina sir saqlanib qolinmaydi, hatto ayblanuvchining o‘zidan ham sir tutiladi. Aftidan, qancha imkoniyat tug‘ilsa, bu tartiblarning umri shuncha cho‘ziladi, holbuki, bunda imkoniyatlar, pismiqliklarning adog‘i ko‘rinmaydi. Ayblanuvchi jinoiy ish qog‘ozlarini ko‘rish huquqiga ega emasligi ayon, tergovlarda yig‘ilgan ma’lumotlar bilan biron-bir xulosaga kelish hammasidan ham qiyin, ayniqsa bu ayblanuvchining o‘zi uchun ko‘tara azob, bunga yo‘l-yo‘lakay boshqa bosh og‘ritar noxushliklar qo‘shiladi-da, tinchlik battar yo‘qolib, ichidan g‘ulg‘ula kuchayadi, xolos. Xuddi shu joyda himoya qilaman deb uning dardiga tumshuq suqiladi. Sirasini aytganda, himoyachilar tergovlarga qo‘yilmaydi, shuning uchun ham ular himoyada asqatadi, deya imkon bo‘lishi bilan shundoq tergovchining xonasi eshigi orqasiga o‘tib olib gap poylaydilar, ayblanuvchining holi-joniga qo‘ymay, tergovda so‘ralganini qayta-qayta surishtirishadi, bulardan ko‘pincha himoya uchun biron-bir

foyda tegish o‘rniga barcha ishi ag‘dar-to‘ntar bo‘lib, chalkashib ketadi. Biroq bu ma’lumot to‘plashning eng asosiy yo‘li emas, bu yo‘l bilan juda ham kam narsani bilib olish mumkin, holbuki, hamma joyda bo‘lganidek, bu yerda ham ishga qorishib yurgan ustasi farang kishi oqlovchiga qaraganda ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishi turgan gap. Ha, bu yerda asosiy ish beradigani oqlovchilarning tanish-bilishlari bo‘lsa ajab emas, ammo ular ham himoyaning qimmatli, muhim jihatlarini o‘zlaricha to‘qib-bichishadi. Ma’lum bo‘lganidek, sud idorasining quyi tabaqasidagi faoliyat tartibi butunlay nomukammal, temsa-tebranmas va nafsining quliga aylanib sotilganlar bunda tiqilib yotibdi. K. o‘zining boshidan kechirgan achchiq saboqlaridan keyingina bunchalik keskinlik bilan teshik-tuynugi berkitib, yopib olingan sud idorasida bu rahnalar qayerdan solinganiga tushunganday bo‘ldi. Oqlovchilarning katta qismi har qanaqa yo‘llar bilan sud idorasiga suqilib kirgan bo‘lib, ular ayg‘oqchilik va pora olish ilinjida bunda izg‘ib yurishadi, hatto faoliyatlarining ilk davralarida ayblov qog‘ozlarini o‘g‘irlab olib chiqib ketish ham shularning ishi bo‘ladi. Albatta shunday qing‘irliklar bilan qo‘lga kiritilgan natijalar sudlanuvchi uchun aql bovar qilmas muvaffaqiyat sifatida ko‘rinishini inkor etib bo‘lmaydi va shuning uchun ham ko‘pchilik mayda-chuyda oqlovchilarning kuni tug‘ib, atroflariga odam yig‘ish, yangi-yangi mijozlar ko‘paytirish uchun huda-behudaga og‘izlarining suvi qochib, bu qahramonliklaridan maqtanib yurishadi, ammo jinoiy ish jarayonini ko‘rishning navbatdagi bosqichida uning hech qanaqa ijobiy ta’siri bo‘lmaydi, hatto ziyon-zahmat yetkazib qo‘yishi mumkin. Haqiqiy ma’nodagi hal qiluvchi rol o‘ynashlar yuqori martabali amaldorlar bilan rostakamiga yaqindan tanish bo‘lishda yuz beradi, biroq bu kamdan kam hollarda sodir bo‘lishini ham unutmang. Faqat shugina jinoiy ish jarayonining ko‘rilishiga, avvaliga

bilinar-bilinmas, keyin esa borgan sari ortiqroq, sezilarli ta'sir qilishi mumkin. Ammo bunaqa imkoniyatga noil bo'l-gan oqlovchilar kamdan kam topiladi, shu joyda K.ning omadi kelgan, u odam tanlashda adashmagandi. Doktor Guld kabi sohibi ikrom, nufuzli tanish-bilishlarga ega oqlovchilar uning qismatdoshlari orasida ikki-uchtadan ortmaydi. Shuning uchun ham oqlovchilarga ajratilgan g'arib xonadagi mishiqlar davrasi bilan uning salom-aligi yo'q, bundaylar bilan aloqa qilib o'tirmas, daxldorligi yo'q desa bo'lardi. Uning, asosan, sud amaldorlarining o'zлari bilan quyuq jo'rachiligi bor edi. Huda-behudaga sudga qatnab, uning eshigi tagini chuqur qilish doktor Guld uchun yot narsa, soatlab sud idorasi oldida kun o'tkazib, bu to'ralarning nogoh chiqib qolishini kunlab kutib, sarg'ayib o'tiradiganlar kutganlari mabodo yuz berganida ham shu kimsalarning kayfiyatiga qul bo'lgan holda, biron-bir muvaffaqiyatga erishmoq uchun o'lib-tiriladilar, taassufki, hech ish chiqarolmasdan, aksariyat hollarda quruq qo'l bilan, yana bor umidlarini ham yo'qotib qaytadilar. E, yo'q, Guldnikida esa ahvol butunlay boshqacha, bunga shaxsan K.ning o'zi guvoh bo'lgandi. Sud amaldorlarining o'zi, hatto eng yuqori martabalilari ham hech biri orlanmay bu yerga tashrif buyurishar va goh ko'ngillarini bo'shatish uchun bo'lsa kerak, bor-yo'q gap-so'zлarni ochiq-sochiq to'kib-solsalar, goh esa jinoyat ishining navbatdagi bosqichini qanday davom ettirishda maslahat solib, sal pardalab, lekin hammasini bilib olsa bo'ladigan bir maromda mutlaq maxfiy ma'lumotlarni bozorga soladilar, har tomonlama muhokama etadilar, hammasidan ham ko'p uchraydigani, ular alohida ishlarda o'zлari kelgan qarorga ishonchlari komil bo'lishi uchun ham sizning nuqtai nazaringiz qanday deb astoyidil so'rab-surishtirishadi. To'g'risi, shuning uchun ham ularning bu aytganlariga ishonib bo'lmaydi; hatto ular buni butunlay yaxshi niyatda, ayb-

dorni himoya qilishning jo‘yali vositasi sifatida aytgan taqdirda ham ertangi ish boshqacha tus olishi ham hech gap emas, ha, ha, sud amaldorlari bu yerdan to‘g‘ri chiqib navbatdagi yig‘ilish qarorini aytib yozdirishga tushib ketishlari ham mumkin, bu qaror esa ayblanuvchi uchun dastlabki tergov yig‘ilishlaridan keyin chiqarilgan yig‘ilish xulosalariga qaraganda yanada keskin, ma’lum ayblov ruhi bir maqomda ustun bo‘lib chiqishi, birinchilarining tamoman aksi, ularni rad etishi hech gap emas. Albatta bunga qarshi himoyalanish juda ham qiyin, aftidan, Guldnikida yuzma-yuz turib, ko‘zga ko‘z tashlab aytilgan bu gap-so‘zlar shundoqligicha qolib ketadi va ular taqdiri haqida oshkora muhokama qilib bo‘lmaydi, hatto himoyaga o‘sha martabali kishi bilan oradagi ko‘ngliyaqinlik qolsin deb ham intilib ko‘rilmaydi. Boshqa tarafdan esa bu martabali shaxslar butunlay qonun-qoidaga xi洛 bo‘lmagan tarzda himoyaga aloqador bo‘lib chiqadilar – himoya tomonida bo‘lishning o‘zi omilkorlik, buni shunday tushunmoq lozim: bu ishni insonga muhabbatlari bois yoki do‘stona hissiyotlari kuchliligidan qilmaydilar, balki har na bo‘lsa-da o‘zlarining foydalarini ko‘zlab shunday yo‘l tutadilar. Xuddi shu yerda sud tuzilishida nomukammallik ko‘zga tashlanadi, masalan, ishlar boshidanoq maxfiy sur’atda olib borilishiga amr qilinadi. Amaldorlarga aholi bilan bog‘lanib turishgani yetishmaydi, to‘gri, odatiy, o‘rtamiyona sud jarayonlaridan ular yaxshigina xabardor bo‘ladilar, bunday sud jarayonlari baayni temir izga solib qo‘yligandek, o‘z-o‘zicha, juda silliqqina boradi va kamdan kam holatlardagina ularni silkinib, ag‘dar-to‘ntar qilish kerak bo‘lishi mumkin. Ammo mana bunaqa jiddiylarining oddiygina yo‘siniqa ham har qanaqa yordam qilish umuman qo‘llaridan kelmay qoladi: bularning hammasi hech shubhabsiz, qonunlarning cheklanganligidan, ularda insoniy munosabatlarni tushunishda hech vaqo yo‘qligidan dalolat, bu esa

qo‘zgatilgan ishning ichiga kirishga, – mohiyatiga borib yetishga dahshatli bir tarzda monelik qiladi. Bu to‘ralar oqlovchilar oldiga maslahat olish uchun kelgani bilan ortlaridan bo‘yinlarini qisib shu ishga oid odatdagidan maxfiy hujjatlarni ko‘targancha choparlar yuradi. Huv anavi deraza oldida madad so‘rab kelgan bir janob adoqsiz g‘am-g‘ussalarga botib, Allohdan, ishqilib, bu yerdan hammadan kam kutishni so‘ragancha ko‘chaga termilib ezilib o‘tirganda, o‘z stoli ustidagi hujjatlarni titkilagan oqlovchi, ishqilib, unga jo‘yali biron-bir maslahat topmoq azobida yonadi. Ayni shunday daqiqalarda elak suvdan ko‘tariladi, hammasi ko‘rinadi-qoladi. Bu janoblar o‘z kasblariga qanchalik e’timod qo‘ygan bo‘lmasinlar, oh, qanchalik ko‘ngilsizlik, fe'l-atvollaridagi yengib bo‘lmaydigan qusurlar ishning olg‘a ketishiga g‘ov bo‘ladi. Ulargaadolatli bir tarzda munosabatda bo‘lish kerak, g‘avg‘olari shusiz ham jiddiy, tashvishlari boshlaridan oshib yotibdi, bu xizmatni hech ham yengil deb bo‘lmaydi. Suddagi martaba va mavqe pog‘onalarining boshi-adog‘i yo‘q, hatto qaysi xizmati uchun unvon olishlari ham noma’lum. Umuman, sud ishlarining tug‘di-bitdisi maxfiy bir tartibga asoslanadi, ayniqsa, bu yerda tirikchilik qilayotgan quyi tabaqa xizmatchilari faoliyatları kulgili va achinarli, shuning uchun ham ular hozir o‘zları ko‘rayotgan jinoyat ishi jarayonining keyini qanday borishini kuzatib borish imkoniga qariyb ega bo‘lmaydilar, natijada, bu ish ularning ko‘z oldida shunday bir darajada turadiki, qo‘llariga qayoqdan, qanday savdolarni bosib kelgani noma’lum bo‘lganidek, keyingi taqdiri nima bo‘lishi, qayoqqa borishidan ham ko‘pincha ular g‘ofil qoladilar. Shunday qilib, sud jarayonining har qanaqa bosqichdagi xabardorlik, shuningdek, oxirgi xulosasi va uning asoslari mana shu amaldorlarining yanglishuvlaridan suv ichadi. Qonun tomonidan taqsimlanganiga ko‘ra, ular ishning faqat ayni paytdagi qismi

bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladilar va bu jarayonning keyingi taqdiri, ayniqsa, o‘z ishlarining natijalari borasida, sud jarayonining oxirigacha ayblanuvchi bilan bog‘liq bo‘lgan himoya, uni qanday olib borish haqida ham qariyb hech narsa bilmaydilar. Demak, ana shunday bir sharoitda himoyachi unga ko‘p qimmatli ma’lumotlar bera olishi mumkin. Agar K. bularning barini hisobga olganda, sud amaldorlarining vajohat bilan asabiy yurishlaridan, ko‘pincha mijozlar bilan xusumatli bir ko‘rinishda muomala qilishidan ajablanmagan bo‘lardi, lekin buni hamma o‘zicha boshidan o‘tkazganda biladi. Xususan, juda yuzaki bilimga ega bo‘lib, biron-bir yordam qo‘llaridan kelmaydi. Shu bois, zohiran sipo, xotirjam ko‘rinishga uringanlarida ham bundagi bari amaldorlar asabiylikka mutbalo bo‘lganlar. Ularni hammadan ko‘ra kunda-shunda mayda-chuyda ipirisqi oqlovchilarning o‘ralashib yurishi qiynaydi. Misol uchun, rivoyat etilgan mana bu moziy voqeasi, hayron qolarli darajada ayni haqiqatning o‘zi. Bir nuroni, sofdil, kamsuqum amaldor qariyb bir kecha-kunduz o‘tirib bir ishning ustida bosh qotiribdi, ammo oqlovchilar aralashishi bilan ish favqulodda bir tarzda chuvalashtirilgan ekanki, – bu qog‘ozbozlikdan boshi qotib, vaziyatdan chiqishning biron-bir chorasi ni qilolmabdi. U qariyb yigirma to‘rt soat ishlab bir natijaga erisholmagach, ertalab idoraga yo‘l olibdi va kirish eshigida uni ko‘rgan oqlovchilar yashirinish payida zinapoyadan o‘zlarini otib qochibdilar. Keyin oqlovchilar zinapoya maydonchasida yig‘ilib olib, bu yog‘iga nima qilishlarini maslahatlashibdilar. Bir tomondan, bu oqlovchilar uni bo‘shatishni talab qilish huquqidан mahrum, rahbariyatga ustidan arz qilish haqida gap bo‘lishi mumkin emas, shunga ko‘ra ham undan uzoqroq yurishlari, behudaga jahlini chiqarmasliklari kerak. Boshqa tomondan, sudda, jarayonning ichida bo‘lishga nima yetsin, undan tashqridera o‘tkazilgan

har bir kun ular uchun yo‘qotish. Oxiri ular qariya sho‘rlikning ta’zirini berib qo‘ymoqchi bo‘lishdi. Yuqoriga bir oqlovchi o‘rniga ikkinchisi, uning o‘rniga boshqasi tushib chiqar, zinapoya bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa g‘izillab yugurishar, yuqoridan pastga tushishda o‘zlariga butunlay erk berishar, biroq buyam ularning nazarida juda ojiz qarshilikday tuyulib, pastda boshqa hamkasblar olqishlab, urxo-ur qilishga o‘tdilar. Bu masxarabozlik qariyb bir soat davom etdi va shunda bir joyga yetdiki, tuni bilan ishlab tinka-madori qurigan sho‘rlik qariyaning haddan tashqari jonidan o‘tib ketdi va u devonxonada hushidan ketdi. Boshda pastda turganlar bunga ishonishmadi, haqiqatan ham eshik ortida hech kim yo‘qmi, deb hamkasblaridan birini yuqoriga yo‘llashdi. So‘ng esa qahr-g‘azablari kamaymagan holda barchalari bir yo‘la yuqoriga ko‘tarilib bordilar, ammo biron narsa deyishga yuraklari dov bermadi chog‘i, hech narsa deyishmadi. Oqlovchilar, aftidan, shunday bir toifaki, hatto ulardan eng borib turgan o‘lamsasi ham, hamma shart-sharoitlarga o‘zlarini daxldor, qo‘llaridan bir ish keladigandek, boshlarini tiqib ko‘raveradilar, biroq sud tuzilishida, jinoyat ishi ko‘rilishida bilinmas darajada bo‘lsa-da isloh qilishga, yaxshilash uchun biron-bir narsa qilishga haqiqiy ma’noda urinib ko‘rishmaydi, holbuki bu vaqtida har bir ayblanuvchi, hatto borib turgan esipastlari bo‘lsa ham, jinoiy ishga bevosita daxldor bo‘lganliklaridan unga oid ilk taassurotdan boshlab, boshiga kelgan qayg‘uni bartaraf etishga harakat qiladilar va salgina bo‘lsa-da, bu ishning borish jarayonini yaxshilash, yengil qilish payida bo‘ladilar. Afsuski, imkoniyatdan tashqari biron-bir tadbirni qo‘llayman deb ko‘pincha vaqtlarini behudadan behudaga yo‘qotganlari qoladi. Eng to‘g‘ri yo‘l – ko‘rilayotgan ishning amaldagi tartib-qoidasiga murosayı madora qilmoq hatto kuch-quvvati o‘z ichiga sig‘magan biron-bir kishi mayda-chuydani ham shaxsan to‘g‘rilamoqchi

bo'lsa, bu ham o'y lamay, yengiltaklik bilan qilingan adashish bo'lib chiqadi, ha, bu jinoiy ishni kelgusi ko'rish jarayonlarida uddalashda yaxshi bir voqea esa-da, baribir o'z-o'zicha u faqat hech o'rnini to'ldirib bo'l maydigan yo'qotishga olib keladi, sud amaldorlarida bu ishga nisbatan alohida qasos olish, diqqat qilish hissini qo'zg'aydi va kuchaytiradi. Asosiysi – e'tibor uyg'otmaslik! Buning senga hech qanaqa aloqasi yo'qdek o'zingni beparvolarcha tuta bilish kerak. Sudni shunday bir bahaybat maxluq deb tasavvur qilishga urinish lozim: hamisha omonat bir muvozanatda – qaltis holatda turadi, agar sen o'zboshimchalik bilan davom etaveradi, xilof ravishda nimadir deb qo'ysang, bu bilan oyog'ing tagidagi yerni o'zing o'pirgan bo'lib chiqasan va jarga qulab tushasan, had bilmas hududga ega suding o'zi esa boshqa bir hisobdan bu kichkinagina o'yiqning o'rnini to'ldirib ketaveradi, aftidan, unda hammasi bir-biriga o'zaro adoqador va bilinmay boshqacha bo'lib chiqqanda ham bir zumda bu yanada sirli, yanada qat'iy, yanada hushyor, yanada dahshatli tus oladi. Yaxshisi, oqlovchilar ishini o'ziga qo'yib berish va ularga xalaqit bermaslik kerak. Albatta, gina-kuduratlarning hech kimga foydasi yo'q, agarki bu yerdagi jarayonni biron-bir kishi tushuntirib berolmas ekan, uning nimasidan ham o'pkalaydi, biroq nima bo'lганда ham bu devonxona direktori oldida o'zini bunaqa tutgani K.ni rosa iztirobga soldi. Aftidan, ko'rيلайотган ishga ta'sir etib, K. uchun kim ham u-bu narsa qilib bera olishi mumkin, mana bu nufuzli zotni ham ro'yxatdan o'chirishga vaqt yetganga o'xshaydi. Endi u atayin sud jarayoniga doir yaqindagina bo'lib o'tgan xotiralarni ham o'zidan uzoqlatmoqchi bo'ldi. Ko'rib-bilgan bir talay voqea-hodisalarga qarab ham bu barcha amaldorlarni ona suti og'zidan ketmagan go'daklar desa arziydi. Ba'zan arzimas-netmas xatti-harakatlardan quturib ketishlari, pashshadan fil yasashlarini ko'ring, ma-

salan, K.ning muomalasiga qarab – afsuski, bu jihatlardan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi – undan shunaqa jig‘ibiyronlari chiqib dilozorlik yo‘lini tutadilar, hatto ularniki tutib qolsa o‘zlarining eng yaqin do‘stilarini ko‘kraklaridan itarib, gaplashmay qo‘yishar, faqat o‘chakishib biron-bir ishga qo‘l urishadi. Kutilmaganda esa, hech bir asossiz, kurakda turmaydigan qiliqlar qilib hazillashib qolishlari mumkin, ko‘zlaganlarining hammasi behuda bo‘lishiga qaramay, ish-qilib, hech narsa bo‘lmaqanday yana murosaga kelib, yarashib olish payiga tushadilar. Ular bilan osh-qatiq bo‘lish juda mushkul va oppa-oson, hech bir risolaga to‘g‘ri kelmaydi. Ba’zan xuddi bir inson hayotiga shu narsa zarurday, hayratlantirish uchungina bu mavzudagi hamma bilimlar egallab chiqiladi, natijada, vaqtinchalik bir qancha muvafaqiyatlar ko‘zga tashlanib qoladi. Ochig‘i, hammaning boshidan o‘tgandek, shunaqasi tez-tez bo‘lib turadi: kichkina bir yutuqqa erisha olmasang, fursatlar evaziga kelgan noxush, ko‘ngilsiz kunlarda nima qilishingni bilmay o‘ylanib qolasan. Axir bu sud jarayoni eng boshidanoq hammasi yaxshi natija bilan xotima topishi aniqday tuyulgan, begonalarning yordamisiz, qancha-qancha har qanaqa yugur-yugurlar, yo‘qotilgan ortga qaytmas, bu ishga esa maydagina muvaffaqiyatdan o‘zingda yo‘q shod yurgan eding-ku, endi esa har qanaqa ishonchlaringga darz ketdi, hatto qarshilik bildirishga ham jur’at qilolmay qolding, mabodo sendan ko‘rilayotgan sud jarayonlari maromi va mohiyatiga ko‘ra yaxshilik bilan yakunlanadiganga o‘xshaydi, shu to‘g‘rimi deb so‘rab qolishsa, sen aynan o‘zingning aralashishing bilan bu umidlarning hammasini yo‘qqa chiqarib berasan. Senda birgina qandaydir ichki o‘z-o‘zini himoya qiladigan allambalo qoladi, xolos. Shubha-gumonlarning bunaqa xuruji xurujning o‘zingga xolos – oqlovchilar ham bu dardga tez chalinadigan bo‘ladilar, qaydaki ko‘rinib turgan qoniqarli ish

tezda ularning qo‘li bilan qaytadan kovlashtirilib, yo‘qqa chiqariladi. Oqlovchilar tomonidan hech qanaqa yomonlik sodir etilishi mumkin emas. O‘zingiz bir o‘ylang, ko‘rilayotgan ishni ayblanuvchining o‘zi o‘z qo‘liga ololmaydi, bunaqasi hech qachon bo‘limgan: demak, u alohida bir oqlovchini bu ishga tanlashga majbur, oqlovchi esa buni hech nimadan hech nima bo‘lsa-da, qo‘lida ushlab turadi, xolos. Ha, u qayerdan ham buning biron-bir yo‘l-yo‘rig‘ini topib, kayvonilik qila olsin, axir o‘zi boshqa birovning yordamiga ko‘z tikib, zor bo‘lib turgan bo‘lsa? Bundan biron-bir ijobiy natija chiqmaydi-yu, boshqa bir oqibat yuz ko‘rsatadi, jinoiy ish ko‘rilish jarayoni navbatdagi bosqichga o‘tadi, deyish mumkin bo‘lsa, unda burilish yuz beradi, yani ish ham, ayblanuvchi ham, hamma-hammasi xamirdan qil sug‘urgandek jo‘ngina qilib oqlovchidan olib qo‘yiladi, bu yerda endi to‘ralar bilan eng yaxshi tanish-bilishchilik ham ish bermaydi, ularning bari nima yuz bergeniga aqli yetmay qoladi. Chunki butun jinoiy ish jarayoni shunday bir bosqichga kelib yetadiki, endi hech qanaqa yordam berish mumkin emasday ko‘rinadi va ish yoniga yo‘lab bo‘lmaydigan sud idoralariga oshiriladi, oqlovchi uchun ayblanuvchining o‘zi ham qo‘l yetmas bo‘lib qoladi. Nihoyat, ajoyib kunlarning birida o‘z uyiga qaytgan oqlovchi stoli ustida bir uyum arznomalarga ko‘zi tushadi, e, ularni u qanchalik puxtalik bilan tayyorlagan, ishning natijasi uchun nihoyatda foydasi tegadi deb ko‘z tutgan edi; mana, ularning barini o‘ziga jo‘natishibdi va jarayonning yangi bosqichida bu arznomalardan foydalanish taqiqlangani bois, ular bir uyum qog‘oz parchalaridan iborat bo‘lib qolgan, xolos. Ammo bu ishni ko‘rish jarayonida butunicha yutqazildi, degan ma’noni bildirmaydi, har qanaqa voqealar sodir bo‘lishiga qaramasdan, bunday mulohaza yuritishga hech qanaqa asoslar yo‘q, faqatgina sen jinoiy ish jarayonining bundan keyin

nima bo‘lishi haqida hech nima bila olmaysan va bilib olish ham umuman mumkin emas. Bu istisno, albatta, hatto K. ning ustidan qo‘zg‘atilgan ish jarayoni va shunaqa musi-batga duchor bo‘lishi mumkin esa-da, lekin baxtiga hozircha ish bungacha yetib bormagan edi. Hozircha oqlovchilar foy-dalanishi mumkin bo‘lgan katta imkoniyatlarni tasavvur etsa bo‘lar, shuning uchun K. ular ko‘magidan istifoda etmoqdan hech bir shubhaga bormasdi. Haligina aytilgandek, iltimos-nomalar hech qayoqqa jo‘natilmagan, buning uchun shoshil-gani ham yo‘q, balki bundan-da yaxshi tadbir amaldorlar-ning tilini topish payida bo‘lingan, ularga ilk bora iltimos bilan murojaat qilingan edi. Biroq bu qo‘l solishlar – haqi-qatdan anglab olish kerak bo‘lsa – o‘zgarib turadigan muza-fariyatlardir.

Yaxshisi, bulardan ko‘pam umidlanavermaslik kerak, bo‘lmasa bu K.ga yomon ta’sir etishi, uning haddan tashqari quvonchli umidlarini qo‘zg‘atib yuborishi yoki uni juda ham qo‘rqitib qo‘yishi mumkin, faqat bir narsani baralla aytса bo‘ladi: bir qancha amaldorlar favqulodda oliyjanoblik bilan bu xususda gapirishdi va amalda biron-bir harakat qilishga bugunoq tayyor ekanliklarini izhor etdilar, xuddi shu pal-lada boshqa birlari esa sovuqqonlarcha, hatto xusumat bilan ming‘ir-ming‘ir qildilar, sal bo‘lmasa rad javob qilishdan tiyilib, o‘z munosabatlarini bildirdilar. Umuman olganda, bu natijalar bir so‘z bilan aytganda, ko‘ngilga umid berardi, ruhni ko‘tarardi, ammo bundan biron-bir hal qiluvchi xulosa chiqarish mumkin emas, bular shunchaki yo‘liga dastlabki muzokaralar bo‘lib, bu dastlabki muzokaralar qay darajada qimmatga ega ekanligini faqat ish jarayonining keyingi rivoji ko‘rsatib qolsa ajab emas. Shunga qaramay ishda hali hech narsa yo‘qotilmagan deb hisoblash mumkin, u-bu nar-sa bo‘lib o‘tsa-da, devonxona direktori e’tiborini yana bu ishga qaratilishga erishilganda bormi, bu bir talay tadbirlar

qabul qilinishiga yo'l ochgan bo'ldi, hech bo'limganda har qalay, xuddi jarrohlar aytganidek, yaraga hech qanaqa gard yuqmagan, bu yog'iga ish qanday tus olishini nazardan ochirmay, sabr-bardosh bilan kutish kerak, degani bo'ladi.

Shunga o'xshash o'y-fikrlar bilan yurgan oqlovchi suhbatlarda rosa to'lib-toshadi. Bu har bir uchrashuv oldidan qaytariladi. Hamisha qandaydir muvaffaqiyat qozonishlarga imkoniyat mavjudligi gapirilsa-da, ular nimalardan iborat ekanligi hech qachon aytilmaydi. Birinchi arznama ustidagi ishlar to'xtovsiz davom etar, bu sa'y-harakatlarga qaramay, u hali yaxlit bir tarzda tayyor bo'lmadi, faqatgina keyingi uchrashuv oldidan aynan u eng katta imtiyoz bo'ladiganga o'xshardi, xuddi shunday – sen qilasan o'ttiz, Xudo qiladi to'qqiz, deganlaridek, bu arizani tahrir qilish yo'sini – muvaffaqiyatliroq chiqarish imkoniyati uchun keyingi ikki-uch kun istisno tariqasida juda ham noqulay bo'lib chiqdi, holbuki oldindan kutilganida ham buni avvaldan hech kim bir yo'la qilishi mumkin emas. Agarki, K. bu bosh-adog'i yo'q, safsata sotishlarga e'tibor berib, hatto ish juda sudralib, sekin jilayotganini bilib, bu barcha qiyinchiliklarni sarhisob qilsa va aytsa, unga shu yerdoyoq qarshi chiqib, hech ham ish paysalga solinmayapti deb og'ziga urishlari turgan gap, holbuki K. o'z vaqtida oqlovchilarga murojaat qilganida jarayon bundan battar, achchiq ichakdek cho'zilib ketgan bo'lardi. Biroq, ming afsuski, shu yerda u xatoga yo'l qo'ydi, bu xatolik esa faqatgina hozir emas, kelgusida ham bir qancha mushkulliklarni tug'dirishi tayin.

Uning bu qatnovlariga yagona rohat-farog'at bag'ishlaydigani Lenining kirib-chiqib turishi desa bo'ladi: u hamisha K. bu yerda bo'lganida choy olib kirib, ajabtovur bir holat uyuşdırirdi. U K.ning orqasida turib olib, xuddi oqlovchiga qarayotgan bo'lib, antiqa hiyla-nayranglar o'ylab topar, qanaqadir harislik bilan finjonga qiyshanglab juda ham past

egilar, choy quyar va ichar, K.ning qo'lini qattiq siqib, unga da'vatkor imo-ishoralar qilardi. Shunda butunlay jimlik cho'kadi. Oqlovchi choy ichar, K. esa Lenining qo'llarini siqib o'tirar, Leni ham goho botinib K.ning boshi osha unga latif bir nigoh tashlab qo'yardi.

– Sen hali ham shu yerdamisan? – choy ichib bo'lган oqlovchi undan so'rab qoldi.

– Men idish-tovoqlarni yig'ishtirib olmoqchi edim – Leni, so'nggi bor qo'l qisish asnosida javob qilarkan, shu zahoti lablarini artgan oqlovchi yana yangi kuch, zo'r ishtiyoq bilan K.ga qarab gap uqtirishga tushadi.

U K.ni tinchlantirmoqchimi yoki ruhini cho'ktirmoqchi? K. hech nimani tushunmadi, bu kishim yana nimani do'ndirib bermoqchi, holbuki uning o'zi K.ning himoyasi umid qilib bo'lmaydigan qo'llarda ekanligini baloday yaxshi biladi. Ehtimol, oqlovchining gapida jon bordir, u haqiqatan ham K.ning jinoiy ishiga o'xhash ishni hech qachon o'z qo'liga olmagandir. Holbuki, shunday ham bu oqlovchining xatti-harakati ayon, u bu yorug' olamda o'zi uchun eng qulay, qo'l keladigan yo'lni tanlab olishni istaydi. Uning gap-so'zlaridagi eng shubha uyg'otadigan amaldorlar bilan shaxsan tanishligi, katta kishilar orasida oshna-og'aynilari ko'pligini bot-bot ta'kidlayverishi, oqlovchi, aslida, nuql past tabaqa xizmatchilar, tobe kishilar haqida gapirgani-gapirgan, albatta, ular xizmat vazifalaridagi tezkor faoliyat yuritishlariga ko'ra, ko'rileyotgan jinoiy ishning ilang-bilang burilishlarida nimadir qilishlari mumkin. Aksiga olib ular ayblanuvchi uchun ana shu burilishlar nobop bo'lib chiqishi uchun jon kuydirib, ehtimol, buning uchun oqlovchidan ustalik bilan foydalangan bo'lishsa-chi? Ular har bir jinoiy ishni ko'rishda ham bunaqa maqsadni o'z oldilariga qo'yavermasalar kerak, bu haqiqatdan juda uzoq, balki oqlovchining o'ziga qilgan astoydil xizmatlariga yarasha unga yordam

qilib yuborishlari ham mumkin, chunki bundan sud amal-dorlarining o‘zлari ko‘pincha manfaatdor bo‘ladilar, shunga ko‘ra, ularning dong‘i chiqadi. Ular K.ning ishiga qanday qilib aralashishlari mumkin. Agar haqiqatan ham ish shunaqa darajaga kelib qolgan bo‘lsa, ahvolni o‘nglash favqulodda qiyin, oqlovchining ishonishicha, juda ham jiddiy bo‘lgan bu ishga boshdanoq sud idoralari qora ko‘zoynak bilan qarayot-gan bo‘lib chiqmaydilarni? Yo‘q, hali oldinda ko‘zlangan maqsadlarga ko‘ra hech qanaqa shubhaga borib bo‘lmaydi. Biroq, boshqa bir xavfning alomatlarini chamalasa bo‘ladi: zero, bir necha oydan buyon ko‘rilayotgan ish bir joyda turib qoldi, birinchi iltimos arizasi hali yuborilgani yo‘q, oqlov-chining fikriga ko‘ra, hali uni ishga qo‘sishga vaqt kelma-ganmish, sud jarayoni xavfsirashga arzimaydigan, ko‘ngilni xotirjam tutaversa bo‘ladigan quyi bir bosqichda bo‘lib, bosh og‘ritib, arznomani unnga tijishtirish shart emas emish; ammo bu ayblanuvchining diqqatini chalg‘itib, mudhish re-jani amalga oshirishga juda qo‘l kelib qolishi va birdan uning oyoq-qo‘lini bog‘lab berib, ustidan hukmni o‘qib qo‘yishga yo‘l ochilishi hech gap emas yoki kam deganda ayblanuvchi uchun tergov olib borilishi muvaffaqiyatsiz tarzda yakunla-nib, yuqoriroq bir bosqichda ko‘rlishga uzatishi mumkin.

Yo‘q, K.ning o‘zi bu ishga aralashmasa bo‘lmaydi. Sil-lasi tamoman qurigan, ayni shu qish tongida uning butun fikri xayoli shunday qilish kerak deb turar, hech bir torti-shuvsiz bunga ishonchi komil edi. Sud jarayoniga nisbatan boshda his qilgan ijirg‘anishga o‘xshash tuyg‘u hozir qay-gadir yo‘qoldi. Go‘yo u bu yorug‘ olamda yolg‘iz o‘zi qol-ganday, hali ham ustidan qo‘zg‘atilgan bu ishga mensimas-dan, bee’tibor qaramoqchi bo‘ladi, holbuki hech qanaqa shubhaga o‘rin qolmagan, shunchaki hech narsadan hech narsa yo‘q jinoiy ish qo‘zgatilishi mumkin emas. Bu yet-maganday, amakisi uni oqlovchining oldiga sudrab borgan-

dan keyin oilaviy o‘zaro bog‘liqliklar, or-nomus masalasi bilan ham endilikda hisoblashmasa bo‘lmasligini tushunib qoldi; ha, yana ish faoliyatining ketishi ham qisman bu sud maromining borishiga bog‘liq bo‘lib qolganligini his qilib turar, shuning uchun ham uning o‘zi ehtiyotsizlik ila hatto qanaqadir tushuntirib bo‘lmas qoniqish bilan qo‘zg‘atilgan ishni eshitgan tanish-bilishlari munosabati esiga tushib ketar, boshqa birovlarning bu haqda qaydan xabar topganlariga ham hayron qolar, hatto froylyayn Byurstnerning munosabati ham ishning borish jarayoniga bog‘liq tarzda o‘zgarib, qiyshanglab turar, – lekin uning o‘zi bu qo‘zg‘atilgan sud jarayonini qabul qilsinmi, yoki yo‘q, uning uchun qariyb tanlash imkonи qolmagan, u shunday bir girdobga tushib qolgandiki, omon qolish uchun faqatgina kurashish kerak edi. Mabodo hozirdanoq tinka-madori qurib qolgan bo‘lsa, bu uning uchun yomon, holingga voy degani edi.

Shunga qaramay, vahima qilib ayyuhannos soladigan hech bir voqeа sodir bo‘lganicha yo‘q. U o‘z bankida faoliyat yuritgan qisqa bir fursatda juda qiyin va mas’uliyatli yo‘lni bosib o‘tib, yuqori bir mansabgacha ko‘tarilib borishning uddasidan chiqdi va layoqati hamma tomonidan e’tirof etilib, anchadan buyon shu lavozimda hovliqmay-netmay kasbi-korini davom ettirib kelyapti; shunday ekan, demak, endi u mana shu barcha iqtidorini ustidan qo‘zg‘atilgan ishni bartaraf etishga qaratishi kerak, shunda hammasi yaxshilik bilan uning foydasiga hal bo‘lishi begumon. Lekin hammasidan oldin, bu ishda jindakkina bo‘lsa-da muvaffaqiyatga erishmoqchi ekan, biron-bir aybi borligi haqidagi har qanaqa shubha-gumonni fikri-xayolidan uloqtirib tashlashi kerak. Hech qanaqa aybi yo‘q. Ko‘rilayotgan butun sud jarayoni – bankda zalvorli bir ishni uddalashi uchun ter to‘kadigan-dek zahmatli, aziyati o‘ziga yarasha zalvorli yumush, xolos. Unda ham hayot qonuniyatiga ko‘ra har qanaqa xavf-u

xatarlar bo‘lishi tabiiy. Shuning uchun oldindan uning ehtiyyot chorasi ko‘rib qo‘yish kerak. Qanaqadir darajada biron-bir ayb sodir etilgan bo‘lsa bordir degan xayolga borish xilof, bunaqa fikr bilan o‘ynashib bo‘lmaydi, aksincha, barcha fikr-o‘ylarni o‘zining mutlaq haqligi tevaragida jipslashtirishga erishishi kerak. Bunda esa muqarrar ravishda oqlovchini bu kishini qancha bo‘lsa shuncha tez, bugun kechqurunoq chetlashtirish qaroriga kelish nur ustiga nur bo‘ladi. Ochig‘i, bu aynan shu oqlovchining ta‘biri bilan aytganda, ko‘z ko‘rib qulq eshitmagan namunaviy tadbir bo‘lar va shuning uchun ham oqlovchining jonini chiqarib yuborsa kerak; biroq K. endi bunga ortiqcha chidab o‘tirolmaydi. Chunki uning o‘zi oqlash yo‘lidagi bor kuch-quvvatini berib, qilgan harakatiga ayni shu oqlovchi to‘qib-bichgan, uyushtirgan allambalolar to‘sinqilik qilib, yerparchin etib turgani sir bo‘lmay qoldi. U qanday qilib bo‘lsa-da o‘zining tobeligini uloqtirib tashlaganda edi, pay-salga solmay shu zahoti arznomani kerakli joyga yo‘llar va ehtimol bunga ko‘z tashlangani, inobatga olingani uchun kun o‘tgan sari paydar-pay qo‘srimcha arznomalar yo‘llab turishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Biroq u ko‘rib yurganidek, buni amalga oshirish uchun boshqalarga o‘xshab yo‘lakda ko‘zlar to‘rt bo‘lib shlyapasini esa o‘rindiq tagiga qo‘ygancha o‘tirmoqchi emas. Buning o‘rniga uning o‘zi, balki, biron-bir tanish ayoldan topilar, ishqilib, kim bo‘lmasin, biron-tasi har kuni to‘g‘ridan to‘g‘ri borib, sud amaldorlarini giribonidan oladi, tergovchi stoli yonida yuzma-yuz o‘tirib K.ning arznomalarini astoydil ko‘rib chiqilishiga muvaffaq bo‘ladi. Bu yerda shalviramoq yaramaydi, bor imkoniyatlarni ishga solib tashkillashtirish, hammasini tekshirib chiqish hech birining izidan qolmaslik kerak; mayli, oxir-oqibat sud aybdor deb topganda ham ayblov hodisasiga duch kelganda, o‘z haq-huquqini talab qila olsin, bu chohdan chiqib keta bilsin.

Biroq bularning barini o‘z qo‘li bilan qilishiga ishon-a qolsa boshqa gap edi, holbuki bu arznomalarni qanday tayyorlashni tasavvur qilishning o‘zi uning uchun yengib bo‘lmaydigan mashaqqat edi. Bir haftagina oldin bu arznomani tayyorlashda nima kerak bo‘lishi haqida o‘ylar ekan, ilk bor bir qancha noqulayliklarga duch kelishini his qildi. Hatto shuginaning shunchalik qiyin bo‘lishi yetti uxlab tushiga kirmagandi. Uning esiga bir voqeа tushdi: bir kuni ertalab ishxonasida yumushlarga ko‘milib o‘tirarkan, birdan u bularning barini bir chekkaga uloqtirdi-da, balki keyin-roq biror-bir tepsa-tebranmas oqlovchi bu qoralamalardan foydalanishi uchun berarman, deb arznama qoralash uchun yondaftarchasini oldi; shu pallada esa direktor xonasining eshigi ochilib, jarangdor qahqaha otib, uning xonasiga direktor muovini kirib keldi. Bundan K. juda ham noqulay ahvolga tushib qoldi. Holbuki, direktor muovini hech ham uning o‘tinchnomasi ustidan kulmagan, bu haqida u qayerdan ham bilsin, balki, uning kulgisiga sabab hozirgina eshitgan birja hangomalaridan biri edi, bu hangoma unga ham tu-shunarli bo‘lsin degan niyatda, K.ning stoli ustiga engashib, qoralamalar uchun ochilgan yondaftarchasi varag‘iga razm solishga tushib ketdi.

Biroq bugun K. bu kabi noqulayliklar haqida o‘ylashni bir chekkaga yig‘ishtirib, noxushliklar haqidagi barcha xotiralarni unutgan holda arznama yozishi shart bo‘lib turardi. Agar u xizmat paytida bu ishga vaqt ajrata olmasa, boshqa payt, demak kechasi, uyga kelgandan keyin yozishga to‘g‘ri keladi. Mabodo kechalari ishlash ham yetmay, kamlik qiladigan bo‘lsa, ta’til olishi lozim bo‘ladi. Faqatgina yarim yo‘lda to‘xtamaslik kerak, to‘xtamoqning oqibati yomon bo‘lishidan tashqari, hamma joyda va har ishda unga pand berishi aniq. To‘g‘ri, arznama yozish uzoq, qariyb adoqsiz ter to‘kishni talab qiladi – uning hech boshi-keti yo‘q. Hatto

irodasi temir kishiga ham bunday qog‘ozlarni mukammal bir tarzda tayyorlash mumkin emas, aql bovar qilmaydi degan fikrga kelishi mumkin. Faqatgina har qanaqa pora-xo‘rlik yoki oqlovchining nima balolarni bichib-to‘qishi yo‘lga to‘g‘anoq bo‘lib chiqmaydi, balki ayblovning o‘zi nimadan iboratlilagini bilmaslik katta g‘ov bo‘lib turadi, shuning uchun ham unga har qanaqa mumkin bo‘ladigan, foydasi tegishi ehtimoli bor qo‘sishchalarni qo‘sish, butun hayot yo‘lini mufassal yozib chiqish, xotirada har bir mayda-chuyda voqeа-hodisalargacha tiklab va ularni har tomonlama tekshirib ko‘rish kerak bo‘ladi. Bu esa qanchalik musibatli yumush. Balki, bu ish nafaqaga chiqib ketgan biron-bir qariyaga qo‘l kelishi, u nima bilandir miyasini band qilib, o‘zini ovuntirish uchun bolalik kunlarini xotirga olishi, shu bilan imildoq yaldo kunlarining tanobini tortib qo‘yishi mumkin. Ammo K. kabi bir kishi ermak uchun emas, balki kuch-quvvatini ishi uchun asrab-avaylashga majbur, qolaversa, lavozimi ham shunga yarasha ko‘tarilib borayotganidan vaqtning ham yeldirimday uchib ketayotganini aytmaysizmi?

Bir yoqdan direktor muovini kabi uning layoqatidan tinchini yo‘qotganlar ta‘qib-u taz‘yiqlarni kuchaytirgandan kuchaytirib yotibdilar; bu kishimiz navqiron bir yoshda, go‘zal bir kechalar bilan o‘z tunlarini bezamoqni istaydi, aksiga olib, u esa xuddi shu holida hammasidan voz kechib bu hujjatlarni tayyorlash uchun boshi bilan sho‘ng‘ishi kerak! Va K. yana xayolan o‘ziga achiniblar ketdi. Ishqilib, u bu xususidagi paydar-pay kelayotgan o‘y-tashvishlar oqimini bas qilish uchun beixtiyor, rasmiyatçilik uchun qilinadigan qabulxona qo‘ng‘irog‘ini bosib yubordi. Murvatni bosdi-yu, soatga ko‘z tashladi. Qariyb o‘n birga yetayozibdi, demak, u qimmatli ikki soatini havoga sovurib, bu yerda bo‘lmaq‘ur xayollar surib o‘tiribdi, ammo avvalgidan-da horib, tinka-madori quriganini his qildi. Har qalay, vaqtini

behuda o'tdi deb bo'lmaydi, qanday bo'lmasin foydaliroq, samaraliroq nimadir qilishni ko'ngliga tugdi.

Bundan tashqari chopar allaqachon ikki janobning tashrif qog'ozini kiritib bergen, ular ko'zlarini nigoron bo'lib K.ning taklifini kutib o'tirishardi. Aksiga olib, ular bankning juda kerakli mijozlari bo'lib, har qanday vaziyatda ham kutib qolishlari mumkin emasdi. Nega ular ana shunday egasini it tanimaydigan noqulay vaqtida tashrif buyurishdi va K.day o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydigan tirishqoq bir xodim qaynoq faoliyat ko'rsatish kerak bo'lgan qimmatli bir lahzalarda ularni eshik ortida mahtal qilib, shaxsiy ishlari bilan mashg'ul bo'lib o'tiribdi, deya bu janoblar uning o'zidan so'rab qolsalar-chi? Hammasi uchun jonidan to'ygan K. bu ezg'in kayfiyatning natijasi nima bilan tugashini tasavvur qilsa-da, noiloj o'rnidan turib, birinchi mijozning istiqboliga chiqdi.

Bu kishi K. yaxshi bilgan kichkinagini, pachoq gavdali fabrikachi edi. U K.ni muhim yumushlardan chalg'itgani uchun uzr so'ragan bo'ldi va K. ham o'z navbatida uni uzoq kuttirib qo'yganligidan xijolatda ekanligini izhor etdi. Biroq uning gaplari shunchalik notabiyy chiqdiki, agar fabrikachi o'z tashvishlari bilan haddan tashqari band bo'lmanida, u K.ning ovozidagi soxtalikni albatta sezib qolgan bo'lardi. Buning o'rniga u shoshilish bilan barcha cho'ntaklaridagi hisobotlar va jadvallarni sug'urib olib, ularni K.ning oldiga yoyib tashladi va alohida bandlar bilan ularni sharhlashga tushib ketdi, hamda shu tezkor ko'z tashlab olishdayoq, hisob-kitoblardagi ko'zdan qochgan u-bu kamchiliklarni tuzatdi, shu asnoda K. bilan bir yil oldin shunday bir bitimga kelganini eslatdi, yo'l-yo'lakay esa bu safar boshqa bir bank arzirli bir yon berish bilan shunday bitimga kelishga tayyor ekanligini qistirib o'tdi va oxiri buning uchun u K.ning fikrini, kengashini eshitish uchun kelganligini izhor etib, chakagi tindi. K. haqiqatan ham boshda katta qiziqish bilan

fabrikachining har bir gapini tinglab, taroziga solib o'tirdi. Uning fikri xayolini ham mo'may daromad qilsa bo'ladi-gan foydali bir bitimga kelish niyati egallab oldi, afususki, bu uzoq davom etmadi, ko'p o'tmay u bu gaplarga qulq solib o'tirishni bas qildi, shunda ham biroz vaqt fabrika-chining ishtiyoq bilan aytayotgan so'zlariga qo'shiluvchi kishiday javob o'rnida boshini qimirlatib o'tirdi, so'ng esa buni ham yig'ishtirdi, goh uning tap-taqir kal boshiga razm solib qo'yib, qog'ozlar ustiga engashar ekan, bu vaysashlari behuda ekanligini fabrikachi qachon tushunib yetadi, deb o'z-o'zidan so'rardi. Nihoyat fabrikachi jimb qolgach, K. ham boshda jiddiy qiyofada o'ylanib turdi, go'yo bu bilan u birovning gapini tinglab, qabul qilish vaziyatida emasligini sukut alomati bilan bildirmoqchi, buni tushunib olish uchun imkoniyat yaratayotganday bo'ldi. Ammo fabrikachining och arvoofday butunlay o'z dardiga botib qolgan nigohlariga ko'zi tushdi-yu, har qanaqa e'tirozga o'rin yo'qligiga amin bo'ldi va chor-nochor ish borasidagi suhbatni davom ettirmasa bo'lmasligini tushunib yetdi. K. baayni buyruqqa bo'ysun-gandek, boshini quyi egib, qalamini sudragandek qilib qog'oz ustida yuritgancha ayrim joylariga e'tiborni oshirish kerak-day qandaydir son-sanoqlarga ko'z solib o'tirardi. Aftidan, fabrikachi bu holni K. nimagadir rozi emas, deb chamaladi, ehtimol, hisob-kitoblar u darajada aniq emasdir, balki ular bilan ishni bir yoqqa surib berolmas, nima bo'lganda ham, fabrikachi qo'lidagi qog'ozlarni yopib, ularni K.ning oldiga yanada yaqin surib qo'ydi-da, yana qaytadan o'z ishining umumiy qirralari xususida tushuntirishga kirishdi.

– Bularning bari juda mushkul, – fabrikachi qog'ozlarni yopganda, K. shunday deb, labini jiyirdi, – eng to'g'risi, butun xayolni bir joyga qo'yib, hammasini yana bir bor erinmasdan ko'rib chiqish kerak, – u beixtiyor o'zini orqa-ga tashlab, o'rindiqqa suyandi.

U endigina nigohini ko'targandi ham, direktor xonasining eshigi ochilib, uzoqdan, go'yo tugun ichida qolgandek g'ira-shirada imillabgina kelayotgan direktor o'rinbosarining sharpasi ko'zga tashlandi.

K. bunga parvo ham qilmadi, lekin fabrikachining fav-qulodda o'zgarib, terisiga sig'may ketgani uni-da quvon-tirdi, axir bu fabrikachidan qutulishning ayni mavridi kel-ganligini ko'rsatardi. Fabrikachi shu choq kursidan sakrab turib, direktor muovininining istiqboliga shoshdi. K. uning bundan-da o'n barobar ildamroq tezlikda harakat qilishini istardi, chunki direktor muovininining birdan aynib ortiga qaytib qolishidan qo'rqardi. Xavfsirash behudaga o'xshardi, chunki ikki janob bir-birlarining qo'llarini do'stona qisishgancha chehralari ochilib ko'rishdilar va birga-birga K.ning stoliga yaqinlashishdi. Fabrikachi janob prokurist bu ishni jo'natib yuborishga hech bo'yni yor bermayapti, deb K.dan nolib qoldi va unga qarab boshini silkib qo'ydi va direktor muovininining ko'z qarashi ostida qog'ozlar ustiga yanada boshini pastroq egdi. Ikkisi ham K.ning stoliga engashib, qog'ozlarga bor e'tiborni qaratishgach, fabrikachi nima bo'lsa ham direktor muovininining diqqatini tortish uchun joni halak bo'lib, uni avrashga o'tdi. K.ga bu ikki janob haddan tashqari g'ovlab ketib, hamma joyni egal-lab olgan-u, endi esa bosh uzra turib, o'zining taqdirini hal qilayotganday tuyuldi. U ohista va ehtiyyotkorlik bilan te-pada nima voqeа yuz berayotganiga ko'z tashlash umidida nigohini yuqori ko'tardi; stol ustida yotgan qog'ozlardan birini, hech bir tomonga qaramay, kaftiga oldi va oromkursidan sekin-astalik bilan bir miqdorda ko'tarilaverdi, shu bilan ikki suhbatdoshni o'zidan nari haydamoqchi bo'ldi. Bu paytda u hech nima haqida o'ylay olmas, topgan tad-birni davom ettirar ekan, o'zini bunday tutishi natijasi biron-bir imkoniyatga yo'l ochib, hamma tomondan o'zini

oqlaydigandek edi. Direktor muovini katta e'tibor bilan fabrikachini tinglar ekan, K. ko'targan qog'ozni ko'rib turgan bo'lsa-da, janob prokurist uchun juda ham muhimdir, degan andishaga ham bormasdan, hatto o'qib ko'rish u yoqda tursin, qiyo ham boqmadi, faqatgina uni K.ning qo'lidan olar ekan, „Rahmat, men o'zi hammasini allaqa-chon bilaman“, deb qog'ozni xotirjam stol ustiga qo'ydi. K. unga xushlamaygina ko'z qirini tashladi. Biroq direktor muovini uning bu qarashini payqamadiyam, bordi-yu pay-qaganda ham bundan yanada ko'proq sevingan bo'lardi. U bu paytda birdan qattiq qahqaha otib, hamma yoqni buz-di, hatto qo'polroq javobi uchun fabrikachi oldida xijolatli ko'rsatdi o'zini, so'ng esa bir narsaga uzil-kesil bitim tu-zish niyatida uni o'z ish bo'lmasiga taklif etdi.

– Bu ish har tomonlama jiddiy, – dedi u fabrikachiga qarab, – menga buning sababi besh panjadek ayon. Janob prokuristga kelsak, – u bu so'zini faqat fabrikachiga daxldorday qilib dedi, – biz uni holi qoldirsak, menimcha, vij-donan eng to'g'ri yo'l tutgan bo'lar edik. Sizning ishingiz xotirjam muhokamani talab etadi. Uning bugun juda ham ishi boshidan oshib ketgan ko'rinadi, shuning uchun ham qabulxonada kishilar uni soatlab kutib o'tirishibdi.

K. direktor muovinidan yuzini ters o'girishga bir bahya qoldi va o'zini ancha-muncha zo'r lab jilmaydi. Shunda ham bazo'r, faqat fabrikachiga bilinar-bilinmas tabassum qilib qo'ydi. U yengilgina ta'zim qilgandek oldinga engashib qo'ydi-da, stolga ikki tirsagini tirab olib, qaytib ular bilan ishi bo'lmasdi, huddi ikki janobga savdo peshtaxtasi orqali qaragan do'kondor kabi o'zini tutdi, ular esa o'zaro nimanidir kelishib olgancha, stol ustidagi qog'ozlarni yig'ishtirishib, direktor xonasi ortiga g'oyib bo'lishdi. Eshikka yetar-yetmas fabrikachi yana bir bor ortiga o'girilib, janob prokuristga xayrlashmaymiz, men natijalardan

sizni xabardor etmay ajralmaymiz, dedi, bundan tashqari yana bir sizga aytadigan kichkinagina yangiligidan bor deb qistirib qo‘ydi.

Nihoyat K.ning bir o‘zi qoldi. U navbatdagi mijozning hojatg‘shi chg‘tqarg‘tsh uchun bu yoqqa chaqirishni xayoliga ham keltirmadi, ang‘g‘q-tg‘shiq bo‘lmasa-da, har qalay qabulxonada o‘tirgan kishilar go‘yo u fabrikachi bilan band deb o‘ylashiga ishonchi komil, shuning uchun hech kim, hatto choparning o‘ziyam uning oldiga kirishga jur’at etolmay o‘tirganini tasavvur qildi, bu hazilakam omad emas. U deraza oldiga keldi, uning rafiga o‘tirgancha bir qo‘li bilan lo‘kidonni ushlab, xiyobonga razm soldi. Qor hamon urib yotar, ob-havo hali-beri ochiladigan emasdi.

U uzoq payt qimirlamasdan o‘tirdi, aynan uni nima tashvishga solayotganiga tushunmay, faqat ahyon-ahyonda, qanaqadir shovqin-suron eshitilayotgan qabulxona tarafga yelkasi osha qo‘rqa-pisa qarab qo‘yar edi. O‘ylaganidek, uning xonasiga hech kim kirmadi, u xotirjam tortib, jo‘mrak oldiga keldi va sovuq suvga yuvindi-da, boshini artib olgach, yana deraza oldiga qaytib bordi. O‘z himoyasini o‘z qo‘liga olish qaroriga kelgan damdan ko‘ra endi bu ish unga ortiqroq mas’uliyatli, jiddiy va zalvorli ko‘rindi. U barcha himoyani oqlovchining zimmasiga yuklagan damlarda sud jarayoniga mohiyatan aytganda, juda ham kam aloqasi bor bo‘lib, uning maromini faqat oqlovchining ortida turib, o‘sha tomondan kuzatib o‘tirishigina mumkin edi, ammo ustidan qo‘zg‘atilgan ish jarayoni qanday ketayotganini bevosita bilmoqchi bo‘lsa, – o‘z istagiga ko‘ra bunga qiziqishi mumkin-ku, – bu dargumon, xohlagani sayin u battar jarayondan uzoqlashtirilardi. Endi agar u himoyani o‘z qo‘liga oladigan bo‘lsa, hech bo‘lma ganda buni surishtira olishi, o‘zi ham bu jinoiy ishini ko‘rish jarayoniga to‘g‘ridan to‘g‘ri aralasha olishi, unga mukkasidan ketcog‘i mumkin bo‘ladi. Agar ham-

masi muvaffaqiyatli yakunlansa, nihoyat birato‘la va mutlaq ozodlikni qo‘lga kiritar edi, ishqilib, bunga erishsin-da, bundan tashqari, unga shu paytgacha yo‘liqmagan g‘alvalar oyoq ostidan chiqib, yopishishi mumkin. Bunaqa g‘alvalar chiqib turishiga shubhalanmasa ham bo‘ladi, mana bugun direktor muovini ishtirokidagi fabrikachi bilan uchrashuvi ham buni yetarli darajada ko‘rsatib berdi. Bor-yo‘g‘i shuginaning o‘ziga – himoyasini o‘z qo‘liga olishni niyat qilib turgan bir paytda mana bu kishilar kirib keldi-yu, dovdirab, nima qilishini bilmay qoldi. Endi bu yog‘i nima bo‘ladi! Uni oldinda ne kunlar kutib turibdi? Ishqilib u hammasi xayrli tugaydigan biron-bir yo‘l topa olarmikan? Boshqacha bo‘lsa, bularning bari quruq xomxayol bo‘lib qolaveradi. Himoyani o‘z qo‘liga olishning puxta o‘ylangan biror-bir yo‘lini topa olmas ekan, bu haqidagi barcha o‘y-xayollarga barham berishi, boshqa keraksiz yumushlar kabi uning bahridan shuncha tez o‘tishi koni foyda emasmi? Shu orqali u hammasini baxyr yakunlay olarmikan? Bu rejasini u o‘z hayotida, bank sharoitida qanday tadbiq etsa bo‘ladi? Aftidan, unga vaqt faqat arznomalarini tayyorlash uchungina kerak bo‘lmaydi, buning uchun natija chiqsa yetarli – holbuki, ta’tilga chiqishni so‘rash uchun ham unga hali katta jasorat, o‘ktamlik kerak bo‘ladi – biroq uning uchun vaqt butun bir sud jaryonini boshidan kechirish uchun kerak bo‘ladi, Xudo biladi, u qancha davom etarkin? Mana qancha to‘sqliar K.ning hayot yo‘lida birdan ko‘ndalang bo‘lib turibdi.

Nahotki, u shunday bir vaziyatda ham bank uchun ishlashga mahkum bo‘lsa? U stolga ko‘z qirini tashladi. Nahotki hayot-mamoting hal bo‘layotgan shunday qaltis pallada ham mijozlarni qabul qilib, ular bilan ish yuzasidan kengashib o‘tiolsang? U yoqda tepasidagi chordoqda yig‘ilib olgan sud amaldorlari o‘ljaga tashlanmoqchi bo‘lgan qashqirlardek ustidan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini bir yoqlik qilmoqchi

bo‘lsalar-u, nohaq ayblanayotgan kimsaning o‘zi bu yerda bankning odatiy yumushlariga bo‘g‘zigacha ko‘milib o‘tirsa? Bu uni ruhiy qipoqqa, iskanjaga solishga o‘xshamaydimi, yoxud u suddagilarning ijozati bilan shu qynoqlarga atayin solinayotganmikin? Uning favqulodda holatini hisobga olishib, shunga yarasha ishlarini baholashsa bo‘lmaydimi? Hech kim hech qachon bunday qilmaydi. Kimlardir uning ustidan ketayotgan jarayon haqida u-bu narsa bilishar, ammo bu ham yarim-yorti. Har qanaqa mish-mishlar hozircha direktor muovininining qulog‘iga yetmaganligiga ishonsa bo‘ladi, chunki munosabatlarida o‘zgarish sezilmaydi, avvalgidek, bu gaplardan xabar toshanida bormi, ularni u shu zahoti K.ning zarariga ishlatish uchun astoydil intilgan bo‘lardi. Direktorning o‘zi-chi? Albatta uning K.ga ixlosi baland, mabodo uning ustidan olib borilayotgan ish jarayoni haqida xabar topganida, K. uchun biron-bir yengillik bo‘lishini ko‘zlab, darrov o‘z nufuzi doirasidagi imkoniyatlarni ishga solib, nimadir qilmoqqa urinardi; biroq buni endi amalga oshirish dargumon, direktoring yarimjonligidan o‘zi xon, ko‘lankasi maydon bo‘lib qolgan muovin K.ning boshiga tushgan tashvishdan o‘z hokimiyatini mustahkamlab olishi uchun nega foydalanmasligi kerak? Qolaversa, K. muovinning ta’siriga qarshi to‘siqlar qo‘yishni ham allaqachon tashlab qo‘ygandi.

Shunday holda K.nima qilsin? Nimaga umid bog‘lasin? Ehtimol, mana shu o‘y-xayollarning o‘ziga bardosh berishdan ham uning kuchi qirqilayotgandir, biroq, boshqa tomondan, o‘zini aldab yurishi ham mumkin emas, xuddi shu lahzalardan qanchalik darajada, nimani qilishi mumkin, hammasini oldindan ko‘ra-bilishi kerak.

Har qanaqa dardisar bahonalarsiz ham yozuv stoliga qaytib o‘tirmaslik uchun K. derazani lang ochib yubordi. Uni ochishning o‘zi bo‘lmadi, dastakdan ikki qo‘l bilan tutib, zo‘r kuch bilan itarishga to‘gri keldi. Butun xona bo‘yi-yu

eniga tuman va tutunga, yana kuyindi isiga to'ldi. Yelvizak bir talay qor zarrachalarini ham ichkariga olib kirdi.

– Kuz havosi-da, – K.ning orqa tomonida fabrikachining ovozi yangradi. U kishi direktor muovini xonasidan chiqib, bildirmaygina oynaga yaqinlashgandi.

K. uning gapini tasdiqlaganday boshini silkitdi-da, fabrikachining portfeliga xavfsirash bilan qarab qo'ydi. Ehtimol, u hozir portfeldan qog'ozlarni olib, direktor muovini bilan muzokaralari qanday o'tganligi haqida hikoyasini boshlab qolsa ham ajab emas. Biroq fabrikachi K.ning nigohi bilan to'qnashib o'z portfeliga urib qo'ydi-da, uni ochmay gap boshladi.

– Albatta, siz uchun, men nimaga erishganimni eshitish qiziqarli bo'lsa kerak. Shuni aytishim mumkinki, shartnoma qariyb cho'ntagimda desa ham bo'ladi. Ajoyib kishi-da muovinlaringiz. Bahosi yo'q.

U tabassum qilib, K.ning qo'llarini bir necha bor silkitib qo'ydi, u ochiq-oydin K.ni kuldirmoqchi – kayfiyatini ko'tarmoqchi bo'lardi. Biroq buning yasama ekanligi ko'rinish turar, fabrikachi unga hujjatlarini ko'rsatishni ham istamagan, yana so'zлари ham hech kulgili chiqmadi.

– Janob prokurist, – deb qoldi birdan fabrikachi, – ehtimol, sizga ob-havo yomon ta'sir etayotgandir? Chehrangiz qandaydir so'lg'in.

– Ha, – dedi K. viskini qo'lga olib, – oilaviy ixtiloflar chiqib turibdi, bongim pishgan.

– To'gri, bilinadi, – hamdardlik bildirganday dedi fabrikachi, u juda ham sabrsiz – shoshqaloq kishi bo'lib, unga qarata gapirayotganlarida hech qachon oxirigacha xotirjam tinglashga sabri yetmasdi. – Har kim o'z xochini tijishtiradi deyishadi-ku.

K. beixtiyor eshikka qarab yurdi, go'yo mijozini kuzatib qo'ymoqchi bo'layotganday bo'lib, biroq shu on yana fabrikachining jag'i ochildi:

— Janob prokurist, menda sizga atalgan yana kichkina-gina bir yangilik bor edi. Buni eshitib juda qo‘rqib ketgandim, lekin hozir ahvolingizni ko‘rib bundan u darajada ham xavfsiramasa bo‘larkan, demoqchiman. Mening faromush-ligimni qarang, buni sizga aytib qo‘yish ikki bor xotiram-dan ko‘tarilib ketibdi. Balki, mening bu ma’lumotimni bir chekkaga uloqtiriladigan bo‘lsa, bu xususdagi har qanaqa o‘y-mulohazalar, vahima qilishlar ham yo‘qqa chiqsa ajab emas. Shunaqa bo‘lsa bir qoshiq qonimdan o‘tasiz, ehtimol, ular siz uchun qay darajadadir ahamiyatga ega bo‘lib, yor-dami tegib qolar. — Hammasidan oldin K. unga nimadir deb javob qilishga ulgurib qolishi kerak edi, ammo fabrikachi uning oldiga kelib, yaxshigina o‘rnashib oldi-da, ko‘kragiga bukilgan barmog‘ini do‘q-do‘q urib, sekingina dedi:

— Sizning ustingizdan jinoyat ishi qo‘zg‘atilibdi, shu rostmi?

K. uni bir chekkaga tortib, hovliqib dedi:

— Buni sizga direktor muovini aytdimi?

— E, yo‘g‘-e, — e’tiroz bildirdi fabrikachi, — bu haqda muovin qayerdan ham bilsin?

— Siz-chi? — K. endi hovuridan tushib, xotirjam surishtirdi.

— Men suddagilar davrasida bo‘lganimda, bu sohaga oid u-bu narsa eshitib turaman, — dedi fabrikachi. — Shu bois xuddi shu haqda siz bilan gaplashmoqni istagan edim.

— Bu davraga aloqador kishilar nechta o‘zi? — so‘radi-da, K. boshini quyi solib, fabrikachini ham stol sari boshladи.

Ular avval qanday o‘tirishgan bo‘lsa, shunday cho‘kishdi va fabrikachi gap boshladи:

— Afsuski, men sizga bu haqida mufassal ma’lumot berishim qiyin, bilganimni aytdim. Biroq bunaqa ishlarda juda mayda-chuyda gaplarga ham e’tiborsiz qarash mumkin emas. Ha, mening aytganlarim juda arzimas bo‘lishi mumkin, lekin u sizning biron-bir kori-holingizga yarasa degan

his-tuyg‘u meni bu yerga yetaklab keldi. Axir biz shu payt-gacha hamkor sifatida bir-birimiz bilan munosabatlarimiz juda qalin, samimi qadrdonlarmiz-ku, shundaymasmi? Bo‘l-masam-chi!

K. bugungi suhbat chog‘ida qilgan muomalasi uchun undan kechirim so‘ramoqchi bo‘ldi, biroq fabrikachi sabrsizlanar, bir joyda parchinlab qo‘yganda ham tek o‘tirmasdi. U port-felining naq ostiga qo‘lini tiqib, o‘zining qanday shoshilayot-ganligini ko‘rsatmoqchi bo‘ldi va gapida davom etdi:

– Ustingizdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni xususida men Titorellidan eshitdim. U rassom, Titorelli uning taxal-lusi, haqiqiy nomi nimaligini men hatto bilmayman ham. Ko‘p yillardan buyon u mening idoramga tez-tez bosh suqib, kichkina-kichkina, bir enlik suratlarini ko‘tarib keladi, rang ko‘r, hol so‘r deganlaridek, u shunchalik qashshoqki, men unga achinganim haqqi, sadaqa qilgandek, bir nima berib, ularni olib qolaman. Bu bitimga ikkimiz ham odatlanib qol-ganmiz, hamisha beg‘alva savdomiz silliqqina bitardi. Biroq, borgan sari u serqatnov bo‘lib qolgach, bu mening jonimga tegdi, oxiri suhbatlarimizdan birida men bu surat chizish bilan qanday tirikchilik qilasan, deb oshkora qiziqdim, javobi eshitib, hayratlanganimni ko‘rsangiz edi. Uning asosiy daromadi portretlar chizib berishdan kelarkan. „Sud uchun ishlab beraman“, dedi u. „Qanaqa sudni aftyapsan?“ – Hay-ron qolib surishtirdim. Shunda u sud haqida boshdan oxir hammasini hikoya qilib berdi. Ehtimol, siz uning hikoyasi-dan qanchalik esankirab qolganimni mendan yaxshiroq ta-savvur qilgan bo‘lsangiz kerak. Shundan boshlab hozirgacha har bir kelishida sud ishlari haqida qanaqadir yangilik eshitishga muvaffaq bo‘laman va bu ma’lumotlarga ko‘ra o‘zimcha bir nimalarni ko‘z oldimga keltirib o‘tiraman. To‘g‘ri, Titorelli juda ham vaysaqi, shu bois ham uni ko‘pin-cha to‘xtatishga to‘g‘ri keladi, buni faqat u o‘z hikoyasiga

istagan yolg‘on-yashiqni shunchaki tiqishtirib ketayotgani boisgina qilmayman, bu hech gap emas, balki buning asosiy sababi menday bir ishli, tirikchilik payidagi tadbirkor kishi uchun hech qachon boshqalarning ishiga haddan tashqari mashg‘ul bo‘lish yaramaydi, uning tong otar vaysashlariga qulqoq berib o‘tirishga vaqt qayda, yo‘l-yo‘lakay eshitishning hech zarari yo‘q. Ana shunaqa gurunglardan birida sizning ishingizdan voqif bo‘lib, o‘ylanib qoldim: ehtimol, tasodi-fan Titorellining sizga biron-bir foydasi tegib qolar, axir u ko‘pgina sud hakamlarini taniydi-ku, mayli, uning o‘zi bir tayinli ta’sirga ega bo‘lmasa ham, balki shunga so‘zi o‘ta-digan biron-bir amaldorning qanday qo‘lidan tutsa bo‘ladi, qanday qilib e’tiborini tortish mumkin, shu xususda jo‘yali bir maslahat berar, fikri ojizimcha, ehtimol, uning yo‘l-yo‘riqlari, tanish-bilishlari hech bir ahamiyatga ega bo‘ladigan ish qilib berolmaganday ko‘rinar, ammo sizga juda-juda as-qatib qolishi haqiqatdan uzoq emas. O‘zingizga bir nazar tashlang, sizning o‘zingiz kiroyi oqlovchisiz-ku. Men doimo o‘z-o‘zimga: „Prokurist janob K.ning o‘zi borib turgan oqlovchi“ – deb yuraman. Yo‘q, yo‘q, ustingizdan qo‘zg‘atilgan sud jarayonining ijobiy xotima topishidan mening hamisha ko‘nglim to‘q. Shunda ham Titorellining oldiga bir borib ko‘rmaysizmi? Mening tavsiyamga ko‘ra Titorelli siz uchun nimaga kuchi yetsa, hammasini qiladi. O‘ylashimcha, siz uning oldiga borsangiz arziydi, to‘g‘rimasmi? Albatta, bugun borish shart emas, kuni tug‘ganda, yo‘l-yo‘lakay uni-kiga kirib o‘tsa bo‘ladi. Tushunishimcha, buni sizga aytib qo‘yish burchim – ammo Titorellinika borish-bormaslikni o‘zingiz hal qiling, maslahatimga kirasisizmi-yo‘q, bu sizning ixtiyorингиз. Siz, balki, buni Titorellisiz ham uddalasa bo‘ladi, deyishingiz mumkin, men esa, yaxshisi, buni ham bir ko‘rish kerak, deb hisoblayman. Ehtimol, sizning aniq-tiniq belgilab olgan rejalaringiz bordir, Titorelli uni faqat buzib

qo‘yishi mumkindir? Yo‘q, yo‘q, agar shunaqa bo‘ladigan bo‘lsa, Xudo saqlasin, har qanaqa voqeа yuz bermasin, sizning Titorellining oldiga borishingiz hech ham kerak emas. Albatta, bunaqa nusxalarning maslahatini ham bir qur o‘ylab ko‘rmasdan yengil-yelpi qabul qilib bo‘lmaydi. Shunga qaramay, nimani xohlaysiz, o‘zingiz bilasiz. Mana yo‘llanma qog‘ozi, mana uning yashash manzili.

K. xatni olib, cho‘ntagiga solib qo‘ydi – uning juda ham hafsalasi pir bo‘lgandi. Hatto bu tanishlikdan bir foyda chiqib, ko‘nglini chog‘ qilgan taqdirda ham bilinmasday, ta’siri bir zarardan kam emas, sud jarayoni haqidagi shov-shuvlar oqib borib fabrikachining qulog‘iga yetgani-yu, endi buni K.ning o‘ziga yetkazayotgani, bu ertaga uni rassomning oldiga yetaklab olib borishi, tegradagi gap-so‘zlarining yana-da bolalashi, keng tomir yoyish degani edi.

K.fabrikachi qariybostonaga yetayozganida, uning izidan juda ham mashaqqat bilan o‘zini zo‘rlab, minnatdorchilik bildirmoqqa urinib, g‘udranib qo‘ydi.

– Men unikiga kirib o‘tarman, – eshik oldida fabrikachi bilan xayrlasharkan, K. shunday deb qo‘ydi, – yoki mana, ko‘rib turganiningizdek, men juda ham bandman, unga yozma tarzda bildirsam, balki, uning o‘zi bu yerga kelar.

– O, siz vaziyatdan chiqishning yanada yaxshiroq yo‘lini topishingizni bilardim, – dedi fabrikachi. – Ochig‘i, yaxshisi, siz Titorelli toifasidagi kishilarni chaqirmaganingiz va sud jarayoni haqida u bilan bu yerda gaplashmaganingiz ma’qul deb o‘ylayman. Yana bunaqa kishilarning qo‘liga biron-bir kerakli qog‘ozni tutqazish ham yaramaydi. E, albatta, sizga buni gapirguligi yo‘q, nima qilsa bo‘ladi, nimani esa yo‘q, o‘zingiz ko‘rib-bilib, fikr qilib yuribsiz.

K. boshini quyi solintirgancha qabulxona orqali fabrikachini kuzatib qo‘ydi. U zohiran xotirjam ko‘rinsa-da, ichichidan juda qo‘rqib ketdi: gapning po‘skallasini aytganda, u

Titorelliga xat yozib yuborarman deganda, fabrikachiga faqat uning yo‘l-yo‘rig‘ini qanday qadrlashini ko‘rsatmoqchi, Titorelli bilan qanday uchrashsa bo‘ladi, shuni o‘ylayotganini bildirib qo‘ymoqchi edi, holbuki u Titorellining yordami o‘zi uchun foydali bo‘ladi deb hisoblagan taqdirda ham baribir unga biron-bir narsa yozib yubormagan bo‘lardi. Biroq fabrikachining gapi unga bunday qaltis qadam bosishlar keyingi barcha ishlarning oyog‘ini osmondan qilib yuborishi mumkinligini yana bir bor ayon etib berganday bo‘ldi. Nahotki u o‘zining sog‘lom aqli, o‘y-fikrlariga tayana olmasa? Buni qarang, u direktor muovinidan ikki qadam berida bo‘lgan yolg‘iz eshikkina ularni ajratib turgan xonaga allaqanday nasli-nasabini bilmagan bir shaxsni yozma ravishda taklif qilib, chaqirib kelsa-da, o‘zining ustidan qo‘zg‘atilgan sud jarayoni xususida bu kimsaga yorilib, kengash so‘rab o‘tirsa, bunaqa nodonlik bilan har qanaqa noxush voqealar yuz berishi mumkin-ku, ehtimol, shunga o‘xshash bir talay boshqa xavf-xatarlar yuz berishini ham ko‘rmay, boshiga ortiqcha g‘avg‘olar orttirayotgan bo‘lmasin? Axir yonida bu kabi xavflardan uni ogohlantirib turadigan kishi hamisha ham bo‘lmaydi-ku. Aynan hozir, unga shubha-gumonlar tahdid qilayotganda, shaxsiy hushyorligini oshirish uchun hamma kuchlarini bir yerga jamlab harakat qilmog‘i kerak. Nahotki unga xuddi bank yumushlarini olib borish mushkul bo‘lib qolgandek, o‘z ustidan qo‘zg‘atilgan sud jarayoni bilan jiddiy shug‘ullanish ham shunchalik qiyin bo‘lsa? Qanday qilib uning kallasiga Titorelliga xat yozib yuborish-u, uni bankka taklif qilish fikri kelib qoldi, hozir uning o‘zi ham buni qariyb tushuntirib berolmasdi.

Hali fikrini bir joyga yig‘olmasdan boshini chayqab o‘tirganda, uning xonasiga chopar kirib keldi va qabulxonada uni uch kishi kutib o‘tirganiga e’tiborini qaratdi. Ular allaqachondan buyon sarg‘ayib, kutib qolishgan, mana nihoyat

endi ularni K.ning xonasiga taklif qilib qolishsa ajab emas, deb turishardi. Chopar K.ga murojaat qilganini ko'rgan kishilar o'rirlaridan hovliqib turishdi va imkoniyatdan foy-dalanib qolish umidida bir-birlariga gal bermay, K.ga o'z dardlarini to'kib-solishga intilishdi. Bu yerda ular bilan iltifotsiz bir munosabatda bo'lib, qancha-qancha vaqtlarini so-vurib qabulxonada tosh qotib o'tirishga majbur etishdimi; demak ular ham takalluf kutib o'tirmasdan, bekorchilikdan kelmaganliklarini ko'rsatib qo'yadilar.

– Janob prokurist, – gap boshlamoqchi bo'ldi biri.

Biroq K. allaqachon qishlik paltosini qo'lga olib, uni choparning yordami bilan ustiga kiyib olgancha, uchchoviga bir yo'la murojaat qildi:

– Kechirasiz, janoblar, afususki, men hozir sizlarni qabul qila olmayman. Meni afv etishlaringizni o'tinib so'rayman, baxtga qarshi, mening juda ham zarur bir tashvishim chiqib qoldi, hozir ketmasam bo'lmaydi. Guvoh bo'lganlar-ringizdek, mening vaqtimni rosa olishyapti. Baraka topkurlar, ertaga yoki qachon qulay bo'lsa o'shanda kelsalaringiz bo'lmaydimi? Balki, sizning yumushlaringizni telefon orqali kengashib olsak ham bo'lar? Yoki hozirning o'zida sizga nima kerakligini o'zlarining muxtasargina izohlab berishlaringiz ham mumkin, unda men sizlarga yozma tarzda javob yo'llagan bo'lardim. Yo'q, hammasidan yaxshisi, yana bir bor o'zingiz bu yoqqa keling. Shunisi tuzuk.

Bu taklifdan mijozlarning butunlay tillari kalimaga kelmay qoldi, nahotki shuncha payt behudadan behuda kutib o'tirishgan bo'lsak? – degandek bir-birlariga qarab olishdi.

– Demak, kelishdikmi? – K. shunday dedi-yu, shlyapsini tutib turgan choparga yuzlandi.

Xonaning ochiq eshididan derazalarga qalin qor tush-ganini bemalol ko'rsa bo'lardi. K. paltosi yoqalarini ko'tarib, bo'yinlarini u bilan tamom berkitdi. Shu lahma qo'shni

xonadan chiqqan direktor muovini K. paltoda turganicha, nimanidir mijozlari bilan kelishib olayotganligini ko'rib goldi va jilmayib so'radi:

— Janob prokurist, nahotki siz ketish uchun otlanayotgan bo'lsangiz?

— Ha, — dedi K. qaddini rostlab, — bir ish bo'yicha tezda ketmasam bo'lmaydi.

Biroq direktor muovini shu zahoti mijozlar tomonga yuzlandi.

— Bu janoblar endi nima qiladi? — so'roqqa tutdi u. — Adashmasam, ular allaqachondan buyon kutib o'tiribdilar.

— Biz kelishib oldik, — dedi K.

Shu yerda yetganda mijozlar ham endi qariyb o'zlarini tutib turolmadilar: ular K.ni o'rabi olishib, agar ishlari bu da-rajada muhim bo'lmanida shuncha payt kutib o'tirmagan bo'lishlarini arz-dod qilib ketishdi. Direktor muovini ularni tinglab bo'lib, K.ga zingil solib qaradi-da, shlyapasini qo'-liga olgancha undagi qanaqadir bir dog'ni tozalashga tutindi va keyin dedi:

— Janoblar, bu mushkulotdan chiqishning oddiy bir yo'li bor. Agar men sizlarning mushkuliningizni oson qila olsam, janob prokurist o'rniga sizlar bilan maslahatlashib, bি-rror-bir qarorga kelishni mammuniyat bilan o'z zimmamga olgan bo'lardim. Tushunishimcha, hech kechiktirmasdan ishlaringiz ko'rib chiqilishiga imkon yaratilishi kerak. Biz ham o'zingizga o'xshaydigan ishbilarmon kishilar bo'lganimizdan, sizlarning vaqtlarining qanchalik qimmatli ekanligini tushunamiz. Bu yoqqa yursangizlar? — u eshikni ochib, ulardan qabulxonaga o'tishni so'radi.

K. zarurat yuzasidangina buni rad qilishga majbur bo'-lib qolganda, qanday qilib direktor muovini bularning barini o'z zimmasiga olmoqchi! Ehtimol, haqiqatan ham K. ishining vahimasini juda ham oshirib-bo'rttirib yuborgan-

dir. U agar shunday betayin bir rassomning oldiga yugurib, unga oqizmay-tomizmay barcha sirlarini aytib berar va o‘z umidlaridan butunlay mosuvo bo‘lishi bilan andarmon bo‘lib yurar ekan, me’yoriy bir tarzda ish ko‘rsatolmay bu yerda, ya’ni xizmat joyida hech to‘g‘irlab bo‘lmas darajada obro‘-e’tibori tushib ketadi-ku. Undan ko‘ra, paltosini qayta yechib qoziqqa ilsa-yu, jilla qursa qabulxonada kutib o‘tirgan ikki mijozning ishini hal qilib berishni o‘z bo‘yniga olsa bo‘lardi. Ehtimol, direktor muovini uning xonasiga qaytib kirib, xuddi o‘z uyida yurgandek surbetlarcha K.ning kitob javonini titkilashga tushib ketganini ko‘rmaganda, xuddi shunday qilishga urinib ko‘rmoqchi edi. Ammo endi chiqib ketmoqchi bo‘lib eshikka yaqinlashganda yana muovinning ovozi yangrab qoldi:

– E, hali ham ketmadingizmi? – K. unga qarar ekan, yuzidagi qator-qator ajinlar qariligining emas, chaka-chandirligining dalolatiday tuyulardi. – Shartnomani izlayapman. Firma vakilining aytishicha, u sizda ekan. Topishga qarashib yuborolmaysizmi?

K. unga yaqinlashuvdi hamki, direktor muovini dedi:

– Rahmat, o‘zim topdim; u bиргина shartnomagini emas, talay muhim hujjatlar tikilgan semiz xatjildni qo‘ltiqlab, o‘z xonasi sari yo‘rg‘alab ketdi.

Hozir mening u bilan jiqillashib o‘tirishga holim yo‘q, derdi o‘z-o‘ziga K. Shaxsiy hayotimdagи ko‘ngilsizliklarimdan foydalanib vallomatligini ko‘rsatib qolsin, mening ham kunim kelar, birinchi imkoniyat tug‘ilgандayoq u bilan hammasi uchun hisob-kitob qilib qo‘yaman! Bu fikr bilan u biroz ovundi va qariyb dahlizning ochiq eshigi oldiga yetayozganida choparga ish bilan ketayotganligini bank direktoriga aytib qo‘yishni buyurdi, so‘ng esa har qalay alla-qancha vaqt butunlay o‘z ishi bilan bemalol band bo‘lishiga imkoniyat tug‘ilganidan quvonib ketib, bankdan chiqdi.

Paysalga solmasdan shaharning bir chekkasidagi mavzega – shundoq sud devonxononasining qarama-qarshisidagi uylarda yashaydigan rassomnikiga yo'l oldi. Bu chekka mavze haddan tashqari g'arib joy bo'lib, ko'rimsiz uylari, oralab o'tgan jinko'chalarida bilch-bilch eriyotgan qorda har turli axlat uymalashib yotardi. Rassom yashaydigan uy darvozasining keng tabaqalaridan faqat bittasi ochiq, ikkinchi-sining pastidan sindirib ochilgan tuynukchadan allaqanday badbo'y suyuqlik oqib chiqayotgani bilan K. ariqchada bir necha kalamushlar suzib yurganini ham ko'rdi va ulardan o'zini chekkaga oldi. Zinapoyaning pastida allaqanday bolakay yotib olgancha chinqirar, biroq darvozaning narigi tarafi ostida joylashgan chilangularik ustaxonasidan chiqayotgan shovqin-suronda bu qariyb eshitilmasdi. Ustaxona eshiklari ochiq bo'lib, uch shogird qandaydir temir-tersakni o'rtaga olib to'qmoqlashardi. Devorga osilgan oq tunukalarning katta-katta bo'laklariga oftob nuri tushib, shu'lalanar, shulardan bir bo'lagini yerga olib ishlayotgan ikki shogird bolalarga bu shu'la tushib, yuz va peshbandlarini yoritardi. Ammo K. ularga bir qurgina nigoh tashladi, uning fikri xayoli tezroq rassomni topib, u bilan gap-so'zni lo'nda qilishda, bu yerdan tezroq juftakni rostlab, yana bankka qaytib borishda edi. Agar u bu yerda jilla qursa arzimas bo'lsa-da nimagadir erishsa, bankdagi bugungi ishiga bu ijobiy ta'sir etgan bo'lardi.

Uchinchi qavatga chiqqancha uning o'pkasi og'ziga ti-qilib, juda ham hansirab qoldi, bu uyning qavatlari baland-baland, aftidan, rassom, naq boloxonada umrguzaronlik qilardi. Uyining havosi dim, aynigan, tor-tor zinapoya tikka yuqoriga o'r lab borar, maydonchasiz, ustiga ag'anaydigan-dek devorlar ikki tomonidan siqib kelar, uning qay joylarida bir enlik oynachalar bo'lib, allaqachon urib sindirilgandi. K. biroz bu yerda nafasini rostlab o'tirar ekan, qo'shni xo-

nadondan bir etak qizaloqlar yugurib chiqishdi va shodon qiyqiriqlar bilan zinapoyadan yuqoriga g‘izillab ko‘tarilib ketishdi. K. ular ortidan imillab yuqoriga ko‘tarilaverdi va qizaloqlardan biri qoqilib ketib boshqalardan ajralib qolganda, unga tenglashib so‘radi:

– Rassom Titorelli shu yerda yashaydimi?

Qizaloq biroz bukri, uni o‘n uchlarda desa bo‘lardi; javobiga u K.ni tirsagi bilan turtib, unga zimdan tikildi. Qiz hali yosh, yana jismoni y qusurli bo‘lishiga qaramasdan, K. uning allaqachon buzulib bo‘lganligini his qildi. U hatto yeb qo‘yarday qarab, ochiqdan ochiq behayo shama qilardi.

K. mug‘ombirlik bilan qizchaning qiyshanglashini sezmaganday so‘radi:

– Sen rassom Titorellini bilasanmi?

Qiz boshini qimirlatib, K.ni o‘z navbatida savolga tutdi.

– Undan nima kerak sizga?

K. Titorelli haqida u-bu narsani so‘rab-surishtirib bilib olsam zarar qilmaydi, deb ko‘ngliga tugdi.

– U mening portretimni ishlashini xohlardim.

– Portret ishlatishni? – og‘zini lang ochib qayta so‘rarkan, bu hech kutilmagan favqulodda ish yoki aql bovar qilmas hodisadek kaftlari bilan K.ni shapatiladi-da, keyin o‘zi shundoq ham kalta bo‘lgan etagini ikki qo‘li bilan yanada ko‘tarib, qiyqiriqlari yuqori qavatning allaqayeridan kelayotgan qizaloqlar tomon oyog‘ini qo‘liga olib yugurib ketdi.

K. zinapoyaning navbatdagi burilishida ularning barchasini yana ko‘rdi. Bukri qiz, aftidan, K.ning niyatini sheriqlariga yetkazgan chog‘i, pisibgina uni kutib o‘tirishardi. Ular K. emin-erkin o‘tib olishi uchun yo‘l ochish maqsadida zinapoyaning ikki tomon devorlariga qapishgancha o‘tirishar, peshbandlarini barmoqlari bilan u yoqdan bu yoqqa surib o‘ynashardi. Devorga suyanib turgan bu o‘spirinlarning yuzida qandaydir buzuqlik ila bolalikning alo-

matlari aralashib ketgandi. Bukri qiz yo'lboshlovchi bo'ldi, qolganlari esa K.ning ortidan piqir-piqir qilib kulishdi. Faqat shu qiz sabab K. darrov yo'lini topdi. U shu zahoti tepaga ko'tarilib bormoqchi bo'lgandi, qiz Titorellining oldiga faqat yonlama zinapoya orqali borish mumkinligidan voqif etdi.

Qizning yo'lboshlovchiligidagi ancha-muncha uzun, yana tikkasiga ketgan zinapoya bo'ylab yurishga to'g'ri keldi, naq Titorellining eshigi oldida bu zinapoya nihoyasiga yetdi. Butun zinapoyaga solishtirganda, bu yer ancha yorug', shipdan ochilgan kichik tuynukdan tushib turgan oydinda rassomning eshigi yaxshigina ko'rinish turar, uning taxtasi bo'yalmagan bo'lib, mo'yqalamda jimjimador va katta-katta qilib Titorelli nomi yozib qo'yilgan edi. K. o'zining hangomatablari bilan zinapoyaning o'rtasiga yetgandiyam, birdan yuqoridan, naq shu zinapoyaning o'zida shovqin-suron eshitildi va eshik yarim ochilib, tungi libosidan boshqa egnida hech vaqo yo'qday bir erkak kishi chiqib keldi.

— Voy-bo'y! — uymalashib turgan to'daga ko'zi tushgan bu kishi shunday deb nido qildi va o'sha zahoti ortiga qaytib g'oyib bo'ldi. Bukri quvonchdan kaftlarini bir-biriga urdi, qolgan qizaloqlar esa K.ni orqasidan itarishib, tepaga chiqishga qistashardi.

Biroq ular tepagacha ko'tarilib borishga ulgurishmadi, ko'p o'tmay eshik lang ochilib, xokisorlarcha tavozeda turgan rassom K.ni ichkariga kirishga taklif qildi. Ammo u qizchalarga yo'l bo'shatishni xayoliga keltirmadi va ularni tashqarida qoldirdi, qanchalik elanishmasin yo zo'rlik bilan ichkariga kirib olishga urinishmasin, baribir foydasi bo'l-madi, ruxsat tegmadi. Faqatgina bukri qiz uning qo'l ostidan sirg'alib, ichkariga o'tishga muvaffaq bo'ldi, biroq rassom uni-da haydash uchun etagidan tortib ushladi-da, ko'tarib, o'z atrofidan chir aylantirib, qaysiki qizaloqlar kirishga jur'at

qilolmay turgan eshikning narigi tomoniga qo'ydi. Hatto o'zi ham ular bu yoqqa o'tishga urinmasinlar deb eshikdan tashqariga chiqdi. K. bu yerda bo'layotgan ishlarga qarab, biron-bir harakat qilishga o'zida kuch topmadi, nima deyishni bilmadi, chunki bu yerda go'yo do'stona, qadrdonlarcha munosabatlar hamma narsadan ustivordek edi. Qizaloqlar to'dasi haydalganiga qaramay, rassomga hazil-huzul qilishib, allaqanday qitmirlaplar otishdi, ammo bularning ma'nosi ni K. hech tushuna olmadi, rassom iljayar, uning qo'llarida bukri qiz go'yo havoda uchgudek bo'lardi. Keyin u eshikni yopib, K.ga yana bir bor tavoze qildi, mehmonning qo'lalarini siqib, unga o'zini tanishtirdi.

– San'atkor-musavvir Titorelli.

K. qizaloqlar shivir-shivir qilayotgan eshikka qarab dedi:

– Guvohi bo'lingandek, bu uyda sizni haddan ortiq sevishar ekanlar.

– Oh, bu maymunchalarimning xatti-harakatlarini ayt-maysizmi? – U shunday der ekan, jon-jahdi bilan yoqa tugmalarini qardashga urinardi. U, sarpoychang uning ustidan ko'ylagidan tashqari zo'rg'a tasmaning kuchi bilan ushlab turilgan sariq yo'l-yo'l ishtonni ham bo'lib, pastki poychasi halpillab turardi.

– Menga bu maymunchalarning dastidan halovat yo'q, – deya turib ko'ylagi tugmalarini o'tkazishga urinar ekan, xuddi shunday bo'lishi kerakday, oxirgi tugma uzilib ketdi, u oromkursi keltirib, K.ni o'tirishga taklif etdi.

– Qachonlardir men ularning ichidan bittasining suratini chizgan edim – u hozir bularning ichida yo'q – shundan boshlab hozirgacha bular meni hol-jonimga qo'yishmaydi. Uyda bo'lган paytlarim faqat mening izni ixtiyorim bilan bu yerga kirishadi, biroq xonamni tark etishim bilan doimo, hech bo'lmasa ulardan bittasi ichkarini paypaslab chiqadi. Ular eshik qulfiga tushadigan kalitcha yasab olishgan va uni

do'stlarcha hamiyat yuzasidan bir-birlariga oshirib turishadi. E, ular mening joniimga qanchalik tegib ketishganini siz hatto zasavvur ham qila olmaysiz. Misol uchun, men aylanib uyimga qaytar ekanman, biron narsa chizish umidida ruhan to'liqib eshikni o'z kalitim bilan ochib, nimani ko'raman deng: stolimda o'tirib olgan bukri qiz mo'yqalamim bilan lablarini bo'yayotgan, uning amri farmonidagi shumtaka uka-singilchalari esa to'rt tomonni kovlashtirib, teshik-tuy-nukkacha abjag'ini chiqarishib, qoralamamni bejayotgan bo'ladi. Yoki masalan, kecha oqshom yuz bergen voqeani olaylik, allamahalda uyga qaytdim, shuning uchun ham siz xonamdag'i tartibsizlik va kamzulimning bunday ahvolda ekanligi uchun kechiring, – uyqum kelib, apil-tapil yechinib, o'zimni to'shagimga tashladim va birdan kimdir oyoq tarafda pichirlaganday bo'ldi. Karavotimning tagiga engashib bu yaramaslardan birini tortib chiqdim. Ular menga namuncha tird'lishadi – hech tushunib bo'lmaydi. O'zingiz ko'rdingiz, men ularning ra'yiga qarayotganim yo'q. Ular mening ishlashimga xalaqit berishadi. Agar bu ustaxona menga tekinga berib qo'yilmaganda, bu yerdan allaqachon jo'navorgan bo'lardim.

Shu payt eshik ortidan ingichkagina ovoz keldi:

- Titorelli, ichkariga kirsak bo'ladi?
- Yo'q! – shartta rad qildi rassom.
- Hatto menga ham ruxsat yo'qmi? – yana o'sha bolap-qir – ingichka ovoz egasi so'radi.
- Senga ham mumkin emas! – rassom shunday deb eshik oldiga keldi va uni qulfladi.

Shu orada K. xonaning u yoq-bu yog'iga qarashga ulgurdi. Kimdir shu tor-tang kulbachani, „ustaxona“ deb atashini shu yoshga kirib hech tasavvuriga sig'dira olmasdi. Uning eni-yu bo'yini birpasda qarichlab chiqsa bo'lardi. Pol, devor va shiftlari – hamma-hammasi yog'ochdan, taxtalar orasi-

dagi teshik-tuynuklar ham ko‘zga tashlanib turardi. Xonaning bir chekkasida ustiga olachipor parcha quroqlardan tikilgan choyshab va yostiqchali karavot turardi. Xonaning o‘rtasida o‘rnatilgan molbretda allaqanday suratning eskizi yenglari yergacha tushgan halpildoq ko‘ylak bilan o‘rab qo‘yilgandi. K.ning orqa tomonida oynavand daricha bo‘lib, undan g‘ira-shira tumandagidek qor bilan qoplangan qo‘shni tomlarini arang ko‘rsa bo‘lardi.

Kalitning shaqir-shuqur buralgandagi ovozidan K. o‘sha yoqqa burilib, bu yerdan tezroq ketmoqchi ekanligini xotir-ladi. Shuning uchun ham u cho‘ntagidan fabrikachining xatini chiqarib rassomga berarkan, dedi:

– Men siz haqingizda tanishingiz bo‘lgan mana bu janobdan xabar topdim va uning maslahati bilan bu yerga keldim.

Rassom xatga shoshib-pishib qaradi-da, uni karavot ustiga uloqtirdi. Agar fabrikachi aniq-tiniq qilib oshnasi bo‘lgan rassomning qattiqligi-yu shunga bog‘liq antiqa hayot tarzi haqida gapirib bermaganida, Titorelli umuman uni tанимади, yoki hech bo‘lmaganda, allaqachon fabrikachini unutib yuborgan degan xayolga borish mumkin edi. Shunda rassom undan so‘rab qoldi:

– Siz suratlar xarid qilishni istaysizmi yoki portretingizni chizdirmoqchimisiz?

K. rassomga hayrat bilan qaradi. Gapning po‘skallasi, xatda fabrikachi nimalarni yozib yuborgan bo‘lsa, K. fabrikachi unga nima kerakligini yaxshi tushungandan, rassomga yo‘llangan xatida K. faqat o‘z ustidan qo‘zg‘atilgan ish haqida ma’lumotlar olishni istaydi deb yozgan bo‘lsa kerak, deb chamalagandi. Eh, u nimaga chuqrush mushohada qilmasdan bu yerga yugurib kelaverdi? Biroq endi u vaziyatdan chiqish uchun jillaqursa nimadir deb rassomga javob qaytarishi kerak edi, shu majburiyat yuzasidan molbertga ko‘z tashlab dedi:

- Siz hozir mana shu surat ustida ishlayotgan edingizmi?
- Ha, – dedi rassom va ko‘ylakni uning ustidan tushirib, uni ham xatni otgan joyga irg‘itdi. – Portret ishlayapman. Bu mening joni dilim, ammo ish endigina boshlandi.

Bu yerda qalashib yotgan hamma narsa K. uchun omadli bo‘lmasa ham, unga sud haqida gapishtirish uchun imkon tug‘dirdi – chunki portretda aynan bir sud hakamining siy-mosi tasvir etilgan edi. Hammasidan, u oqlovchining xonasida osilgan hakamga juda ham o‘xshab ketardi. To‘g‘ri, bu yerda chizilgan hakam butunlay boshqa kishi bo‘lib, butun yuzini mo‘y qoplagan, qorasoqol, xo‘ppasemiz, bashang bir kishi edi; qolaversa, oqlovchining xonasida osilgan surat moybo‘yoqda chizilgan, yumshoqroq qilib aytganda, to‘shakda o‘tirganday qilib tasvirlangandi. Biroq qolgan hamma-hammasi juda o‘xshab ketar, bu yerda ham hakam bir tahdid bilan hozir o‘z taxtidan tushib keladigandek yon dastaklarni qattiq qisib olgancha turardi.

„Ha, bu o‘sha hakam-ku“, – deb aytmoqchi bo‘ldi K., biroq o‘zini bosib, suratga yaqinroq kelib, uni to‘laliga tomosha qilmoqni istadi. Unga oromkursining taxtga o‘xshab ketadigan orqa suyanchiq qismi tushunib bo‘lmas darajada cho‘zib yuborilganday tuyuldi va rassomdan bu nimasi deb so‘radi.

– Unga hali yana biroz ishlov berish kerak, – deb tu-shuntirdi rassom va qo‘liga stolda turgan rangli qalamlardan birini olib o‘sha cho‘ziqlikka sirtdan bir necha qo‘srimcha chizgilar qildi, biroq bular bilan hech narsa o‘zgarmasdan, K. uchun tushunarsiz qolaverdi.

- Bu Adolatpesha, – izoh berdi rassom.
- Ha, endi taniganday bo‘lyapman, – gap qo‘shdi K. – Mana ko‘zlaridagi bog‘ich, mana bular esa tarozi pallalari. Biroq, menimcha, uning tovonlari yerga tegmay qolibdi, go‘yo u bu yerdan juftakni rostlamoqchidaymiyey?

– Ha, – dedi rassom, – men uni aynan shunday buyurtma asosida chizdim. Ochig‘ini aytganda, bu bir shaxs timsolidagiadolat va muzaffariyat ma’budi.

– Bu juda ham to‘g‘ri tafsif emas, – tabassum qilib dedi K. – Adolat ma’budi o‘z joyida qat’iy turgan bo‘lishi kerak, ikkilanib turgan odam hech qachonadolatli hukm chiqarishi mumkin emas.

– Lekin men o‘z buyurtmachimning talabiga bo‘ysunishga majburman, – e’tiroz bildirdi rassom.

– Ha, albatta, – dedi K. o‘z ogohlantirishi bilan uni xafa qilib qo‘yishni istamasdan. – Aftidan, siz bu to‘nkani xuddi shunday oromkursida tasvirlamoqchi bo‘lgansiz.

– Yo‘q, – dedi rassom, – men hech qanaqa oromkursini ham, haykalday o‘tirganini ham ko‘rmaganman, bularning bari tasavvur qilingan, xolos. Ammo menga aniq ko‘rsatma berishdimi, shu talab asosida ishlab berishim kerak-da.

– Qanday qilib? – chehrasiga rassomni tushunmaganday tus berib qayta so‘radi K. – Axir oromkursida o‘tirgan sud hakami emasmi?

– To‘g‘ri, – deb tan oldi rassom, – ammo bu oliy sud hakami emas, u hech qachon bunaqa hashamatli lavozim kurasida o‘tirmagan.

– Biroq, o‘zlarini shunday bir shohona tarzda tasvirlashlariga majbur etadi? U bu yerda ayni sud raisiga o‘xshamoqchi!

– Ha, bu janobga o‘zini yaxshi ko‘rish kasali tekkan! – deb qo‘ydi rassom. – Ammo ularga o‘zlarini xuddi shunday tarzda tasvir etilsin, degan yuqoridan berilgan buyruq ham bor. Ha, har biri qanday ko‘rinishda namoyon bo‘lishi belgilab berilgan. Afsuski, oromkursidagi joylashuv tarzi va ustiga ilgan kiyimlari bir-biriga mos kelishi haqida ham ko‘ngil to‘lib gapirish qiyin. Bunaqa portretlarni to‘sak us-tida tasvirlash umuman to‘g‘ri kelmaydi.

– Ha, – dedi K. – bu suratni to'shak ustida ishlaganda g'alati chiqardi.

– Sud hakami uni shunday chiqishini istagandi, – aniqlik kiritdi rassom. – U portretni bir xonimga sovg'a qilishni ko'zlagan.

Suratga qarash asnosida rassomda portret ustida ishlashga rag'bat uyg'onib qoldi; ko'ylaklari yengini shimarib, qo'liga to'shak chetidagi qalamini oldi va unga mayda-chuya chizgilar tortar ekan, hakamning boshi tegrasida qizg'ish burgut paydo bo'lganiga, u surat chetlari esa ortiqcha ranglar bilan chaplanganiga ko'zi tushdi. Sud hakamining boshida soyalar o'ynagani bois, bu chaplashtirish uni bezadi, hatto uning boshidagi tojdek ko'rinish ketdi. Biroq Adolatpesha ning tepasidagi burgut nurga g'arqligicha qolgani holda bu nurlar o'yinida hakamning kelbati yanada aniq chiqqan, endi u naadolat ma'budini, na zafar ma'budini eslatardi; tez orada esa u bor-yo'g'i ov ma'budining o'zi bo'ldi-qoldi.

K. bor aqli shuuri bilan rassomning ishiga butunlay qiziqib ketdi; lekin oxir-oqibat bunchalik uzoq ushlanib qolgani uchun o'zidan o'pkalandi; qancha vaqtin behuda ketdi, ammo o'zining ishiga bo'lsa, hali kirishmadiyam.

– Hakamning ismi nima? – to'satdan so'radi u.

– Buni men sizga ma'lum qilish huquqiga ega emasman, – javob berdi rassom.

U mukka tushgancha ishlar, mehmonini esa o'z holiga tashlab, umuman e'tibor qilmay qo'ydi, holbuki u boshda K.ni juda ham ochiq chehra bilan qarshilagandi. K. buni unga andarmon bo'lib, vaqtini yo'qotgani uchun shunchaki noz-istig'no va ranjiganlikka yo'ydi.

– Bundan chiqdi, siz sudning ishongan kishilaridan ekan-siz-da, shundaymi? – so'radi u.

Shunda rassom qalamini tashlab, qaddini rostladi, qo'llarini artar ekan, K.ga tabassum bilan boqdi.

— Qani, bo‘lmasa ochiqchasiga o‘taylik! — dedi rassom. — Siz sud haqida nimanidir bilmоqchisiz chog‘i? Baxtga qarshi, yo‘llanmangizda ham shu qayd etilibdi, siz esa meni o‘zingizga moyil qilmoq umidida, suratlarim haqida kurakda turmaydigan maqtovlarni gapirganingiz-gapirgan. Mayli, men buning uchun sizdan xafa emasman. Ha, siz qayerdan ham bilar edingiz, bular menga hech narsa qilib bermasligini. Yo‘q, yo‘q, kerakmas! — K. nimadir deb e’tiroz bildirmоqchi ekanligini sezib, u yanada keskin holda qo‘srimcha qildi: — Shunga qaramay siz juda ham to‘g‘ri payqabsiz, men haqiqatan ham sudning ishongan kishilaridan bo‘laman.

So‘ng u biroz to‘xtab turdi, go‘yo K. bu tasdiqlovga o‘zini ko‘niktirib olishini istaganday bo‘lib. Eshik ortidan yana qizaloqlarning pichir-pichir qilgани keldi. Ular qulfning teshigi yoki taxta devorning tirqishlardan qarash uchun uy-malashayotgan bo‘lishsa kerak. K. ayricha bir tarzda o‘zini oqlab olishga ham intilmadi, yana u rassomning sud haqidagi hikoyasidan ovunmoqchi ham emasdi, shu bilan birga, rassom o‘zining ta’sir doirasiga juda katta baho berib yuborib, amalga oshirib bo‘lmas narsaga o‘zini urishini ham xohlamasdi, shu uchun ham so‘radi:

— Bu rasman e’tirof etilgan lavozimmi?

— Yo‘q, — qisqagina javob qildi rassom, baayni bu savol uni jim bo‘lishga majburlagandek. K. esa bu jimlikni boshqacha tushundi va dedi:

— Bilasizmi, shunaqa kishilar bo‘ladi, ularning lavozimi rasman tasdiqlangan bo‘lmasa-da, rasmiy xizmatchilarga qaraqanda ta’sir doirasi kengroq, nufuzi ortiq bo‘ladi.

— Mening yumushim ham aynan shunaqa, — rassom boshini qimirlatib, peshonasini tirishtirdi. — Kecha men fabrikachiga sizning ustingizdan qo‘zg‘atilgan sud jarayoni haqida gapirib berganimda, u sizga biron-bir yordam qilib yuborishimni so‘radi. Men unga, „Mayli, o‘sha

kishi mening oldimga kelib bir uchrashsin-chi“, deb javob qildim va siz shunchalik tez qadam ranjida qilganingizdan boshim ko‘kka yetdi. Ko‘rinib turganidek, bu ish jiddiygina, sizni ancha-muncha ovora qiladi, ammo bu meni ko‘p ham tang qoldirmaydi. Ehtimol, oldin paltongizni yechsangiz bo‘larmidi?

K. bu yerdan qancha tez ketsa, shuncha yaxshi deya taraddud ko‘rib kelgan bo‘lsa-da, rassomning bu taklifidan juda xursand bo‘lib ketdi. U borgan sari bo‘g‘ilib, yonib borar, shu bois ham xona chetidagi yoqilmagan pechkaga hayron bo‘lib qarab qo‘ygan, – xonaning bu darajada issiq ekanligi unga butunlay tushunarsiz edi. U paltosi bilan kamzulini ham yechayotganda rassom xijolatli ohangda dedi:

– Mening sovuqqa tobim yo‘q, xonani issiqliqina qilmassam o‘tirolmayman. Lekin bu yer juda ham qizib ketdi, shundaymasmi? Nafsila mriga xonaga gap yo‘q, bizga o‘xshaganlar uchun u jonning rohati.

K. hech narsa deb javob qilmadi; to‘g‘risini aytganda, unga bu jazirama, diqqinafa havo shunchalik yoqimsiz edi-ki, xona anchadan buyon shamollatilmagani ko‘rinib turardi. Rassom uni karavotga o‘tirishga taklif qilib, o‘zi molbert yonidagi kursiga cho‘kkanda, K. uchun bu yoqimsizlikni his qilish battar kuchaydi. Mehmon to‘shakning bir chekkasiga omonatgina o‘tirganini rassom hech ham tushuna olmadi, shu bois undan bemalol, qulay bir tarzda o‘tirishni astoydil so‘radi. Ammo K. biron qarorga kelolmaganiga guvoh bo‘lgach, yana o‘rnidan turib kelib, choyshab va yostiqchalarni to‘shak tomon surdi. Keyin esa yana o‘z kur sisiga cho‘kib, K.ni tevaragidagi hamma narsani unutishga majbur qiladigan, birinchi, aniq ishga oid savolni berdi.

– O‘zingizni mutlaq aybsiz hisoblaysizmi? – so‘radi u.

– Ha, bo‘lmasam-chi? – K. shu zahoti sevinib javob bera qoldi, chunki uning oldida sirdosh bir kishi o‘tiribdi, shu

bois bu yerda aytgan gaplari uchun birov oldida javob ham berib o'tirmaydi. Shu paytgacha hech kim undan buni bunalik ochiq-oydin so'ramagandi. Bu quvonch hislarini biroz cho'zmoq umidida K. qo'shimcha qildi:

– Men butunlay aybsizman.

– Buni qarang, – deb qo'ydi rassom va chuqur xayolga botganday boshini xam qilib oldi. Biroq to'satdan boshini ko'tarib dedi: – Mabodo siz aybsiz bo'lsangiz, ish xamirdan qil sug'urgandek osongina hal bo'ladi.

K. darrov tumtayib oldi: sud o'ziga ishonzhli vakil kafo-latini bergen anoyi bola kabi e'tiroz bildirdi.

– Aybsizligimning ishni osonlashtirishga biron-bir yordami tegishi qiyin. – U birdan irodasiga xilof ravishda kulib yubordi va boshini sarak-sarak qildi: – Bu yerda bir talay shunaqa nozik joylar borki, sudning o'zi ham hamma ishni chalkashtirib yuborishi mumkin. Bularning hammasi esa oxir-oqibat bir joyda yig'ilib, yo'q joydan sud hakami og'ir bir aybni topib, uni hammaning ko'z oldiga sudrab chiqishi ham hech gap emas.

– Ha, ha, albatta bo'lishi mumkin, – deb qo'ydi rassom go'yo K.ning fikrlar po'rtanasini o'zining gaplari to'xtatib qo'ymasligi uchun ehtiyyot bo'layotganday:

– Biroq siz shunda ham baribir aybsiz bo'lib qolaver-maysizmi?

– Bo'lmasam-chi, – dedi K.

– Bu eng asosiysi, – quvvatladi rassom.

Unga qarshi bir narsa deyish behuda edi. Uning bu-naqa keskin bahsga o'rinn qoldirmagan gap ohangiga qaramay bir narsa ochiq-oydin bo'limganga o'xshardi: u bularga astoydil ishonganidan gapiryaptimi yoki shunchaki vaqt o'tkazish uchun loqaydlik bilan laqillab o'tiribdimi? K. hoziroq buni oydinlashtirib olmoqchi bo'ldi va shuning uchun bu mavzuda gap ochdi:

— Albatta, siz sudni menga qaraganda o‘n chandon yaxshi bilasiz, sizga yetishga yo‘l bo‘lsin. Men u haqida bor-yo‘g‘i har turli odamlardan u-bu mish-mishlarni eshitganman, xolos. Biroq hammasining gapi ushbu nuqtaga kelganda bir xil: sudda hech qanaqa yengil-yelpi ayblov bo‘lmaydi, agar ki hakam aybi bor degan fikrga kelganmi, ayblanuvchining aybiga qattiq ishonishadi va bu masalada ularning fikrini o‘zgartirish juda qiyin.

— Qiyin deysizmi? — deb rassom qayta so‘rab olgach, qo‘lini yuqoriga siltadi. — Ha, gapning po‘stkallasini aytganda, ularning fikrini o‘zgartirish umuman mumkin emas! Agar men shu yerda mana bu bo‘zga ularning haqiqiy qiyofasini tushura ololganimdek siz ham jillaqrsa, mana bu bo‘zdagi lardan himoyalanish chora-tadbirlarini topganingizda hayotda ham sud hakamlaridan himoyalanish, o‘zingizni oqlab olish yo‘lidagi sa'y-harakatlaringiz bejiz ketmasdi.

— U to‘g‘ri aytyapti! — K. o‘zicha shunday deb pichirlab qo‘yar ekan, sal oldin rassomning haqiqiy fikrini o‘s-moqchilab bo‘lsa-da bilib olmoqchi bo‘lganligini butunlay unutgandi.

Eshik ortida yana qizaloqlar shovqin-suron ko‘tarishdi:

— E, Titorelli, u bu yerdan qachon qorasini o‘chiradi, jonga tegib ketdi-ku, qachon ketadi-a?

— Ovozlaringni o‘chiringlar? — o‘shqirdi rassom, — Mening bu janob bilan qilayotgan suhbatim qanchalik jiddiy ekanligini tushunasizlarmi o‘zi!

Biroq qizchalar tinchiy demasdi:

— Sen uning suratini chizmoqchimisan? — Rassom shunday bo‘lishi kerakday indamadi, qizcha esa chuldirashda davom etdi:

— Sendan uning rasmini chizmaslikni iltimos qilar edik, uning badbasharaligini ko‘rmayapsanmi? — Qolganlari birvarakayiga unga qo‘shilib, qandaydir tushunib bo‘lmas

so‘zlarni tilga olishar, baqir-chaqir qilishib, shovqin-suron ko‘tarishardi.

Rassom eshikni qattiq tepib, qiya ochar ekan, qizaloqlarning cho‘zilgan qo‘llariga ko‘zi tushdi va ularga qarata dedi:

– Agar jim bo‘lmasangizlar hammalaringizni hozir zina-poyadan pastga uloqtiraman. Qani o‘rindiqlarga o‘tirib olib, o‘zlariningizni yaxshilab tutib olinglar-chi.

Ular bunga darrov ko‘na qolmadilar, oxiri ularga o‘shqirib amr qilishga to‘g‘ri keldi:

– Qani, zinapoya tomonga jo‘nanglar, – faqat shundan keyingina jimlik tushdi.

– Kechirasiz-da endi, – rassom shunday deb K.ning oldiga qaytib keldi. Biroq K. eshik tomonga hatto qayrilib ham qaramagan, rassom uni himoya qilishni qanday istagan bo‘lsa, shuni ko‘z oldiga keltirguncha xayol surib qolgandi. U shundan keyin ham qilt etmadi, oxiri rassom unga tomon egilib, ishqilib, zinapoyalar ustida o‘tirgan qizaloqlar eshitib qolmasin degan andishada, naq qulog‘i ostida shivirladi: – Mana bu qizaloqlarning ham sudga daxldorligi bor.

– E, qanaqasiga? – hayron qolgan K. yuzini burib, rassomdan so‘radi.

Biroq rassom allaqachon o‘z joyiga o‘rnashib olgan, u hazillashibmi yoki jiddiy turib, K.ga qarab shunday dedi:

– Ha, aftidan, bu yorug‘ olamdagi g‘imirlagan jon borki, sudga daxldorga o‘xshaydi.

– Buni men hozircha sezganim yo‘q, – K. bir og‘iz shunday deb qo‘ydi, holbuki, rassomning bir qaynovi ichida gapidan keyin uning ko‘ngli tinchigan, qizaloqlarning sudga aloqadorligi uni umuman xavotirlantirmay qo‘ygandi. Shunday bo‘lsa-da, zinapoyalardagi qizaloqlar uymalashib yurgan eshik tomonga qarab qo‘ydi. Qizaloqlardan biri taxta tirqishlardan poxol poyasini tiqib, uni sekin-asta pastga-balandga ko‘tarib o‘ynardi.

— Ko‘rinib turganidek, siz sud haqida hech qanaqa tasavvurga ega emasga o‘xshaysiz, — dedi rassom; u oyoqlarini keng yoyib olgancha, barmoqlari bilan polni chertishga tushdi. — Ammo siz aybsiz ekansiz, buni sizdan talab ham qilib bo‘lmaydi. Mening bir o‘zim sizni bu mushkulotdan xalos eta olishim mumkin.

— Buni qanday tushunmoq kerak? — hayron qolib so‘radi K. — Har qanaqa dalil-isbot sudda ish bermaydi, deb hozirgina o‘zingiz aytdingiz-ku!

— Shunday dalil-isbot inobatga o‘tmaydiki, uni to‘g‘ridan to‘g‘ri sudning o‘ziga borib bayon etib berilsa, — rassom shunday deb K. go‘yo eng muhim, juda nozik bir narsani nazardan qochirganligiga ishora qilganday bo‘lib, ko‘rsat-kich barmog‘ini yuqoriga niqtadi. — Faqatgina rasmiy sud doirasidan chiqmasdan, aytaylik, maslahatxonalarda, yo‘lakkarda yoki misol uchun aytaylik, hatto mana bunaqa ustaxonaga o‘xshaydigan joyda puxta harakat qilinadigan bo‘lsa, butunlay boshqacha natijalarga erishish mumkin.

Endilikda rassomning so‘zлари K.ga ancha-muncha ishonarliroq ko‘rinar, hamda boshqalardan eshitgan gap-so‘zlarga ularning asosiy qismi mos kelardi. Hammasidan ham ko‘ra ularda shundoq umid balqib turardi.

Agar sud hakamini oqlovchi ta’kidlaganday, shaxsiy tanish-bilishchilik orqali, ishqilib, rassom kabilarning yordami bilan, har qalay osonlikcha o‘z tomoniga og‘dirib, kekkagan hakamlarning shoxini qayirib olganidami, juda ham alomat ish qilingan bo‘lardi-da. Har qanaqa vaziyatlarda ham bu aloqalarni nazar-pisand qilmaslik borib turgan nodonlik. Yanada muhimi, rassom bu jamiyat yordamchilarining orasiga qo‘shilib, yoqasidan kirib, yengidan chiqib yurgan bir odam, shu bois K.ning o‘zi ham ularni atrofiga yig‘sа zarar qilmaydi. Uning bankdagи tashkilotchilik qobiliyatiga necha marta tan berishgan, hozir u o‘zini har tomonlama chandalab

ko‘rar ekan, o‘z iqtidorini ishga solish uchun imkoniyati har qachongidan ham kengroq ko‘rinardi.

Rassom o‘z so‘zi K.da qanday o‘zgarish yasayotganligini ko‘rib turardi, shu bois ham gapini biroz vahimali qilib davom ettirdi:

– Mening gapim xuddi huquqshunosning iddaosidek sizni cho‘chitib yubormadimi ishqilib? Ochig‘i, menda ham suddagi to‘ralar bilan muttasil muloqot qilaverishga to‘g‘ri kelganidan shunaqa dimog‘dorlik bilan gapirishning nuqsi urgan. Albatta, buning o‘ziga yarasha nafi tegadi, aslida, fikrlarni yetkazib berish uchun bu ham artistlik qilishdan boshqa narsa emas.

– Birinchi bor siz bu sud hakamlariga qanday qilib to‘qnash kelgansiz? – qiziqsinib so‘radi K. U rassomning ishonchiga kirmoq istar, avvalo to‘g‘ridan to‘g‘ri uning xizmatidan foydalansam, derdi.

– Juda ham oddiy, – dedi rassom. – Bu aloqalar, yuzlashishlar menga otameros. Mening otam ham o‘z vaqtida sud rassomi bo‘lgan. Bu joy ham menga meros sifatida in’om etilgan. U yerga yangi kishilarni olishmaydi. Gap shundaki, har turli amaldorlarni chizish uchun bir talay muhim, hammadan ham ko‘ra maxfiy qonun-qoidalar ishlab chiqishgan, bularga esa sinalgan oilaviy sulolalardan boshqa hech kim jalb etilmaydi. Misol uchun, huv anavi stol g‘aladonida otamning yozishmalari saqlanadi, men uni hech kimga ko‘rsatmayman. Ularni sudda portret chizishga iqtidori bor kishigina bilishi, tushunishi mumkin. Bundan tashqari, hatto bu yozuvlar yo‘qolgan taqdirda ham, qonun-qoidalarning ak-sari xotiramdan ko‘tarilmasdan qoladi, ularni faqat bir o‘zim bilaman va hech kim o‘rnimni egallab olmasligi uchun boshiidan adog‘igachaga yodlab olganman. Ma’lumingizkim, har bir sud hakami o‘lib-tirilib bir narsani orzu qiladi: unga ham bir zamonlar o‘tgan buyuk qozilar kabi ulug‘vor qilib surat ipi solishsa, buni esa mening bir o‘zimgina do‘ndira olaman.

– Sizga faqat havas qilmoq mumkin, – K. o‘zining bank-dagi mavqeyini o‘ylab turib, rassomga shunday dedi. – Demak, sizning qo‘lga kiritgan mavqeyingiz, bundan chiqdi – ustuvor, temirdan mustahkam ekan-da.

– Aynan shunday barqaror, – rassom buni tasdiqlab, yel-kalarini mag‘urona kerib qo‘ydi. – Shuning uchun ham, har qalay kam bo‘lsa-da, xizmat vazifamga xilofligiga qaramay, baxtsiz bechoralarga yordam qo‘lini uzatib turaman.

– Buni qanday tushunsa bo‘ladi? – rassom uni „baxtsiz“lar safiga qo‘shmagandir deb aniqlashtirib olmoqchi bo‘lib so‘radi.

Biroq rassom bunga e’tibor ham qilmasdan, so‘zida davom etdi:

– Mana masalan, boshingizga tushgan falokatni olaylik: xuddi sizday aybsiz bo‘lganlarga o‘rni kelsa biron-bir yordam bermoqchi bo‘laman.

K. bot-bot begunohligi eslatilaver ganidan g‘azabi kela boshladи. Go‘yo bu haqida sudda o‘zining yordami yaxshi bir oqibatga sabab bo‘lishini minnat qilayotganday bo‘lar, aslida, hech narsani o‘zgartiroqlasligi aniq-ravshan. Biroq har qanaqa shubhalarga qaramasdan, K. o‘zini tutib oldi va rassomning gapini bo‘lmadi. Uning yordamini rad qilishni istamas va oqlovchining yordamidan ko‘ra, bundan kam-roq shubhaga bordi. K. rassomning taklifi xolis, ko‘rsatgan yo‘llari ko‘proq o‘ng‘ay deb bilgani uchun ularni hatto o‘zicha ma’qul ham topdi.

Rassom kursisini karavotga yaqinroq surib, ovozini pastlab gapida davom etdi.

– Bir narsa haqida so‘rashni butunlay unutibman: siz suddan ozod bo‘lishning qanday yo‘lini ma’qul ko‘rasiz? Uch xil imkoniyati bor: mutlaq oqlanish, qisman oqlanish va achchiq ichakdek cho‘zib jazodan qutulish. Albatta, mutlaq oqlanishga nima yetsin, biroq bunaqa hukm chiqarilishiga

ta'sir o'tkazishim amri mahol. Menimcha, bu yorug‘ olamda birorta ham odam o‘z ta'sir kuchi bilan mutlaq oqlanishga erisha olmasa kerak. Bu yerda, ehtimol, ayblanuvchining mutlaq begunohligi – zarracha aybi yo‘qligi hamma narsani hal qiladi. Mana siz ham xuddi shunday aybsiz, shu aybsizligingiz ustiga barcha umidlaringizni yuklab, yutib chiqishingiz mumkin. Biroq bunaqa bo'lsa sizga na mening, na boshqa birovning yordami kerak bo'ladi.

Bu aniq tavsiflab berish oldiniga K.ni butunlay dovdidatib qo‘ydi, faqat birozdan keyingina u ham xuddi rassom kabi ovozini pasaytirib, gap boshladi:

– Mening nazarimda, siz o‘z-o‘zingizga qarshi chiqayotganga o‘xshayapsiz.

– Bu nimada ekan? – rassom marhamat ko‘rsatayotganday tabassum qilib, oromkursiga suyanib olgancha, undan so‘radi. Bu tabassumdan K.ning shuurida shunday bir hissiyotlar paydo bo‘ldiki, u hozir birgina mana bu rassomning gap-so‘zlaridan o‘z-o‘zicha ziddiyat borligini izlab qolmasdan, balki butun sud-jinoyat qidiruv idorasi tartibining bor turish-turmushi shundan iboratligiga ishonishi kerakday edi. Baxtga qarshi u o‘zini to‘xtatib qololmadi va so‘zida davom etdi.

– Tushunishimcha, siz avvaliga bir narsaga e’tiborni qaratdingiz, sudda hech qanaqa dalil-isbot inobatga o‘tmaydi, so‘ng esa bu ochiq sudgagina tegishli ekanligini uqtirib qoldingiz, endi bo'lsa butunlay begunoh kishiga, umuman, sudda uni himoya qilmoqning hojati yo‘q deb chiqmoqdasiz. Shularning o‘zida ziddiyat borga o‘xshaydi. Bundan tashqari, avval siz shaxsan hakamga o‘tkazish kerak deganday bo‘lgandingiz, endi esa buni rad qilayotirsiz, xuddi o‘zingiz nomlaganday ataydigan bo‘lsak – mutlaq oqlanish uchun, qay bir darajada hakamga ham ta’sir etishga hojat yo‘q deb turibsiz. Bu bilan ikkinchi bor o‘z gapingizni o‘zingiz rad qilyapsiz.

– Bu barcha qarama-qarshi fikrlarni juda ham osonlik bilan izohlash mumkin, – dedi rassom. – Bu yerda gap butunlay bir-biridan boshqa-boshqa narsalar haqida ketyapti: birlamchi, bu haqda qonunda nima deyiladi, ammo men shaxsan o‘z tajribamda nimalarni ko‘rdim, bular alohida hodisalar va ularga qarab butunlay boshqa gapni aytish mumkin, siz bularni bir-biriga qo‘sib chalkashtirib yubor-mang-da. Qonunda nima deyiladi, ochig‘i, men uni aniq-tiniq o‘qimaganman, unda aybsiz kishi oqlanadi, deb yozib qo‘yilgani bilan, boshqa tomondan, bunda hakamning ta’sir qilishi – roli borligi haqida hech narsa deyilmagan. Biroq men o‘z tajribamdan shuni yaxshi bilamanki, hammasining teskarisini qilishadi. Men haligacha biron marta mutlaq oqlanib chiqqanlar haqida eshitmadim, biroq ko‘p marta hakamlarning ta’siri bilan ish u yoq-bu yoqqa burib yuborilgani, hakam hal qiluvchi rol o‘ynaganiga guvoh bo‘lganman. Ehtimol, menga ma’lum bo‘lgan, mashhuri jahon jinoiy ishlarda mutlaq aybsizlik haqida gap ketishi mumkin ham emasdир. Nahotki, bu haqiqatga mos kelsa? Talay-talay voqealar ko‘rilsa-yu, birontasida biron-bir begunohni topib bo‘lmasa? Men go‘daklik chog‘imdanoq otamning hikoyalari ning tinglab kelaman, u uyda ustaxonasida bo‘lgan hakamlardan eshitgan sud jarayonlari haqida hikoya qilib turardi; umuman, bizning davralarda bundan boshqa gapning o‘zi ham yo‘q. Endi o‘ziga ham sudda qatnashish imkoniyati bor ekan, men hamisha undan foydalanib qolish payida bo‘lamani, son-sanoqsiz qo‘zg‘atilgan jinoyat ishlarining eng muhim bosqichlarida bo‘lib, imkon qadar ularni to‘laqonli kuzatib borishga harakat qilaman; shu bois buni sizga hozir dangal aytishim mumkin: ha, men biror marta ham mutlaq oqlanganlik haqida shu paytgacha hech narsa eshitmadim.

– Demak, mutlaq oqlanib chiqish mumkin emas ekan-da, – K. buni takrorlar ekan, go‘yo bu bilan o‘sha, o‘z

umidlariga murojaat qilayotgandek edi. – Biroq buning o‘zi ham menda sud haqida to‘planib qolgan fikr-mulohazalarni tasdiqlaydi. Demak, bu tomondan sud degani xo‘jako‘rsinga, shunchaki bir foydasiz idora bo‘lib, bittagina jallodning o‘zi ham uning o‘rnini bemalol bosishi mumkin ekan-da.

– Bunday xulosaga kelish mumkin emas, – rassom norizo ohangda po‘ng‘illadi. – Men axir bor-yo‘g‘i o‘z tajribamdan kelib chiqibgina gapirdim.

– Shuning o‘zi ham yetarli, – dedi K. – Xo‘sh, unda aytin-chi, burungi zamonlarda kimningdir oqlanganini eshitganmisiz?

– Aytishlaricha, bunday oqlov voqealari bo‘lib turgan, – chaynalib dedi rassom – biroq, bunaqa hollarning qaytarilishi hozir juda ham qiyin. Axir sudning hal qiluvchi hukmi hech bir joyda e’lon qilinmasa, hatto hakamlarning o‘zi ham ularni maxfiy qoldirishadi, qadimgi sud jarayonlari esa bizgacha faqat rivoyatlardagina yetib kelgan. To‘g‘ri, ularning aksariyatida butunlay oqlanganlik haqida og‘iz ko‘pirtirib gapirishadi, balki, ularga ishonish mumkindir, biroq biron-bir narsani isbotlashning hech iloji yo‘q. Shunga qaramay, ularga past nazar bilan qarash yaramaydi, bir misqol bo‘lsa-da ularda haqiqat bor, keyin ular shu darajada ajoyibki, qoyil qolasiz. Men ana shu afsonalar asosida bir necha suratlar ham chizganman.

– Mening fikrimcha, afsonalar o‘zgarish bilmaydi, – dedi K. – Ha, shunaqa, ammo sud oldida hech bir rivoyatni dalil sifatida keltirib bo‘lmaydi-da.

Rassom tirjayib qo‘ydi.

– Ha, albatta, mumkin emas, – dedi u.

– Demak, bu haqida gapirib o‘tirish ham foydasiz, – derkan, K. rassomning mulohazalarini oxirigacha tinglashga qaror qildi, holbuki ularga ishonish qiyin, aksariyati boshqa

ma'lumotlarning aksi edi. Axir u rassomning hikoyalariagi haqiqatni tekshirib ko'rmoq uchun, ayniqsa, bu fikrlarga qarshi chiqmoqchi bo'lib bu yerga kelmagan-ku. Agar u rassomni zarracha, ahamiyati juda kam bo'lsa-da, o'zi uchun biron-bir yordam qilishga unday olsa, shuning o'zi buyuk bir muvaffaqiyat qozonish bo'lar edi. U faqat shuning umidida dedi: – Keling, shu mutlaq oqlov haqida gapirishni bas qila qolaylik. Siz qandaydir yana ikki imkoniyat borligi haqida ham eslatgandek bo'lgandingiz.

– Ha, qisman oqlanish va ishni paysalga solish haqida aytganim rost. Ha, faqat ular haqida suhbatni davom ettirish mumkin, – jonlanib dedi rassom. – Biroq bu xususda so'zlashishimizdan oldin, siz, ehtimol, kamzulingizni yechib qo'ysangiz yaxshi bo'larmidi? Sizga bu yer juda ham issiqlik qilyapti chog'i?

– Ha, – deb tasdiqladi K. U shu daqiqalargacha rassomning izohlaridan boshqa hech narsa haqida o'ylab ko'rma-gan edi, biroq rassomning birgina jazirama haqidagi eslatividanoq, uning peshonasida reza-reza ter tomchilari tepchib chiqdi. – Bu yerdagi haroratga chidab bo'lmaydi.

K. o'zini noxush his etayotganini bilgandek rassom bo'shini silkitib qo'ydi.

– Oynani ochsa bo'lmasmikin? – iltimos qildi K.

– Yo'q, – dedi rassom, – oyna bir umrga bekitilgan, uni ochib bo'lmaydi.

K. shundagina ulardan biri – rassom yoki o'zi oyna sari yo'naladi-yu, uning tavaqasini lang ochib yuboradi, deb o'ylab, shunga umid qilganligini birdan anglab yetdi. U hatto ko'kragini to'ldirib nafas olishga tayyorday edi. Bu yerda butunlay havoning yetishmasligini his qilganidan, uning boshi gir-gir aylanishga tushdi. U qo'llari bilan havoni yelpib, o'sal ovozda dedi:

– Biroq bu juda ham noqulay va zararli-ku.

— E, yo‘g‘-e! — rassom shunday deya oynaning shunday o‘rmatilganini baayni himoya qilmoqchiday bo‘ldi. — Ochilmaydigan bo‘lsa-da, baloginasini olay buginani. Axir u oynasi ikki qavat jo‘n romlarga qaraganda ham issiqlikni yaxshi saqlaydi. Mabodo, xonani shamollatib olmoqchi bo‘linsa, — to‘g‘risi, bunga ko‘p ham zarurat yo‘q, — buni istagan payt amallah mumkin, mana bu eshikning o‘zini ochsa ham yetadi, hatto ikki eshikni lang ochib qo‘ymoq ham mumkin.

Bu izoh K.ni birmuncha tinchitdi va u ikkinchi eshikni izlab, atrofga alangladi.

Rassom buni payqab, dedi:

— U sizning orqa tomoningizda, uni ochish uchun karavotni surish kerak bo‘ladi.

Faqat shundagina K. karavotning u yog‘idagi devorda kichkinagina eshikcha borligiga ko‘zi tushdi.

— Ha, ustaxona uchun bu yer tor, — dedi go‘yo K.ning gina-kuduratidan diqqat bo‘lganday bo‘lib rassom. — Amal-taql qilib siqishtirilgan-da.

Albatta, shundoq eshikning og‘zida karavot juda ham yaxshi turibdi. Shunga qaramay, men rasmini chizayotgan mana bu sud hakami hamisha karavotdan hatlanadigan shu eshikcha orqali xonaga kiradi. Men unga hatto bitta kalit ham berib qo‘yibman, mabodo men biron-bir ish bilan ketgan bo‘lsam, u ustaxonaga kirib, shu yerda meni kutib o‘tirishi mumkin. Biroq ko‘pincha u hali men shirin uyquda yotgan tong pallasida bu yerda paydo bo‘ladi. Va la’nati karavot yonidagi eshikni ochib, meni uyg‘otib yuboradi. Ana shunday saharmardonda u karavotimdan oshib o‘tayotganda, men qanchalik darg‘azab bo‘lib, qanaqa so‘kishlar bilan uni qarshilashimni bir ko‘rganiningizda edi, sud hakamlariga nisbatan har qancha hurmatingiz bo‘lsa-da, bir zumda ulardan asar ham qolmasligi hech gap emas. Albatta, men undan kalitni olib qo‘yishim mumkin, biroq keyin bundan

ham battaroq bo'ladi. Bu yerdagi har qanaqa eshikning ilmog'ini hech bir ortiqcha kuch ishlatmasdan qo'porib tashlash mumkin.

U shular haqida vaysab yotganda, K. kamzulni haqiqatan ham yechsammikin yoki yo'q, deya bir qarorga kelib olmoqchi bo'lardi va oxiri yechmoqchi bo'ldi, agar u shunday qilmasa, bundan keyin bir daqiqa ham bu yerda o'tirishga chidashi mumkin emas edi. Shuning uchun u kamzulini yechib, uni tizzalarining ustiga qo'ydi, ishqilib, muzokaralari tugashi bilan darrov uni kiyib olishi mumkin bo'lsin, deb. Biroq kamzulini yechishga ulgurmagan ediki, qizaloqlardan biri chinqirdi:

– U endi kamzulini ham yechyapti!

Ular bir-birini itarib, hamma yoriq-tirqishlarga o'zlarini urgani, ishqilib, bu tomoshadan quruq qolmaslikka urina-yotganlari shovqin-surondan bilinib turardi.

– Qizaloqlar bu yog'ini hal qilib ham qo'yishdi, hozirning o'zidayoq sizning rasmengizni chizib bermasam bo'lmas, – dedi rassom, – buning uchun siz yechingan bo'lishingiz kerak-da.

– Bunisi ham bormidi hali, – deb qo'ydi K. Bu unga hech ham taskin bag'ishlamadi, shuning uchun ham u bitta ko'ylakda o'tirganiga qaramay, sal bo'lsa-da ahvoli tuzuk bo'lganday his qilmadi. Shunga yarasha u ming'irlab so'radi:

– Siz yana, adashmasam, ikki imkoniyat bor degandek gap qilgandingiz, shundaymi? – u yana, bular qanday nomlanishini unutib qo'ydi.

– Qisman oqlanish va paysalga solish, – cho'rt kesdi rassom. – Ulardan qay birini tanlash esa sizning o'zingizga bog'liq. Shundan keyingina, qolganiga mening yordamim bilan erishish mumkin, holbuki, ularni qiynalmasdan farqlash mumkin, qisman oqlanish uchun qisqa bir fursatning o'zi yetadi, ammo jonni jabborga berib, juda katta kuch bi-

lan astoydil harakat qilish kerak, paysalga solishda bo'lsa, juda ham ko'p kuch sarflash kerak bo'lmasa-da, jarayon ancha uzoqqa cho'ziladi. Avval qisman oqlov borasida gaplashib olaylik. Agar siz shunda nimagadir erishmoqchi bo'lsangiz, men bir qog'ozga sizning aybsizligingiz xususida kafolatnama yozaman. Bunaqa kafolatnama matnini menga otam qoldirgan, uni o'zgartirishga ham hojat yo'q. Va bu hujjatlarni o'zimga tanish bo'lgan barcha hakamlarga ko'rsatib chiqaman. Aytaylik, buni men suratini chizayotgan mana bu hakamdan boshlasam ham bo'ladi: baribir, bugun kechqurun u quruq savlatini ko'tarib bu yerga keladi. Shunda men uning oldiga hujjatni qo'yib, sizning aybsizligingizni izohlab beraman va kafililingizni o'z zimmamga olaman. Bu har qanaqa safsatalardan iborat, rasmiy kafolatnama emas, yo'q-yo'q, bu har tomonlama talabga javob beradi-gan haqiqiy kafolatnama bo'ladi, – rassom K.ga shunday bir qarash qildiki, o'z zimmasiga juda ham og'ir mas'uliyatni olishga to'g'ri kelganidan go'yo iddao qilayotgandek edi.

– Bu sizning tomoningizdan ko'rsatilgan ajib bir marhamat bo'lardi, dedi K. – Biroq sud hakami sizga to'la ishonishiga qaramay, baribir u meni butunlay oqlab yuborarmikan?

– Men sizga haligina bu haqda aytdim-ku, – qizishdi rassom. – Hamma hakamlar menga ishonishlariga o'zim ham ishonolmayman: misol uchun, ulardan bir qanchalari sizni shaxsan olib borishimni talab qilishlari mumkin. Na chora, shunda men bilan borishingizga to'g'ri keladi. Bilishimcha, mabodo shunday bo'lib chiqsa, ishning qariyb yarmi bizning hisobimizga hal bo'lgan deb hisoblash mumkin, buning ustiga albatta men ishning boshida turgan hakam kabi o'zimni tutib, har tomonlama sizga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib turaman. Salbiy oqibatlar ham bo'lishi mumkin, ha, ba'zan-ba'zan shunaqasi ham bo'lib turadi – taklifimni oldindan rad qilishlari mumkin. Buni tushunmasdan o'libmizmi, natijada,

boshqacha yo'l tutishga to'g'ri keladi. Mabodo bulardan bir ish chiqmasa, nima ham qilardik, men turli xushomad-u nayranglarni ishga solib ko'raman, ishqilib, o'z yo'limizdan qolmaymiz, chunki hech bir hakam bir o'zi hech bir ishni hal eta olmaydi. Xullasi kalom, hujjatlarining borasida yetarlicha imzo yig'aman-da, ustingizdan qo'zg'atilgan jinoiy ish jarayonini ko'rayotgan hakamning oldiga olib boramani. Ehtimol, to'plangan imzolar orasida uning ham imzosi bo'lishi mumkin, bunda vaziyat odatdagiga qaraganda tez o'nglanadi. Mohiyatan olib qaragapda, bundan keyin umuman hech qanaqa g'ov bo'lmaydi va ayblanuvchi ham bunday lahzalarda o'zida to'la ishonch hosil qiladi. Bu xuddi mo'jizaning o'zginasi, ayni damdagi haqiqatdan ko'z yumib bo'larmidi, oqlov hukmi e'lon qilingandan keyingiga qaraganda kishilar ayni bu damlarda o'zlariga ko'proq ishonishadi. Shunda o'lib-tirilib urinib yotishlarga ham hojat qolmaydi. Hakam aybsizligingizni kafillikka olib, qog'ozga qo'l qo'ygan hamkasbleri marhamatini ko'rib, har qanaqa shubha-gumon, ikkilanishlarga borishi, qiyshanglashi mumkin, ammo bir qator rasmiyatchiliklardan keyin, menga-yu boshqa tanishlariga qilgandek hojatingizni chiqarish yo'lini tutadi – oqlov ajrimini chiqaradi. Siz bo'lsa ozodlikni qo'lga kiritib, sudni tark etasiz.

– Demak, men ozod bo'laman? – K. biroz ishonchsizlik bilan so'radi.

– Ha, – deb javob qildi rassom, – ammo bu faqat qisman ozodlikka chiqish bo'ladi, yana-da aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, vaqtinchalik ozodlik deganidir. Gap shundaki, mening tanishlarim hisoblangan kichik lavozimdagি hakamlarning hech biriga biron-bir kishini mutlaq oqlash vakolati berilmagan, bunday huquqqa faqatgina oliy sud kengashi ega bo'lib, na sizning o'zingiz, na men, na bizning oramizdan bironta kishi uning yaqiniga yo'lay olmaydi. Sud buni qan-

day ko‘radi – biz bilmaymiz, ha, aksiga olib buni bilishni ham istamaymiz. Shunday qilib, ayblovdan mutlaq ozod bo‘lishdek ulug‘ huquqni bizning hakamlar olib berolmaydi, faqat ular ayblovni rad etish huquqinigina bera oladi. Demak bu, agar sizni biron-bir sud bosqichida oqlashsa, xuddi shu pallada ayblov sizdan chetlatiladi, ammo, baribir u sizning tepangizda osilib turaveradi, agarki farmoyish kelib qolsa, u yana tezlik bilan beshbattarroq kuchga kirib ishga tushib ketaveradi. Men sud bilan har doim aloqada bo‘lib kelganim bois, mutlaq oqlov bilan qisman oqlov o‘rtasidagi sirtqi farq qay darajada ko‘zga tashlanishini sizga aytishim mumkin. Mutlaq oqlov sharoitida sud jarayonining barcha hujjatlari butunlay gumdon bo‘ladi, ular tamoman ishdan chiqarib tashlanadi, faqatgina ayblovning o‘zagina yo‘q qilinmaydi, balki sud jarayonining barcha yozuv-chizuv qog‘ozlari, tergov dalolatnomalarigacha, hatto oqlov hukmnomasasi ham yo‘q qilib tashlanadi. Qisman oqlovga keladigan bo‘lsak, bu boshqa gap. Unda aybsizlik haqidagi guvohliklar, oqlov hukmnomasiga olib keladigan dalillar miqdori oshib borganiga qaramay, hujjatlarda o‘z-o‘zicha hech nima o‘zgarmaydi. Biroq hujjatlar ortib, umumiy jarayon davom etaveradi, muntazam suratda yozuv-chizuv ishlarini talab qiladi, qog‘ozlar yuqori bosqichdagi mahkamaga jo‘natiladi, keyin ko‘p o‘tmay yana quyi bosqichga qaytib keladi, ishqilib, xuddi tebratkich kabi bir bosqichdan ikkinchisiga borib kelib, goh katta, goh kichkina bir masofada quloch yozib, goh bir fursat, goh ancha-muncha vaqt bir joyda turib qolib, so‘ng harakatga kelib turadi. Bu tavbasiga tayanmaslik yo‘llaridir. Bunda bir tomondan, hamma narsa allaqachon unutilib, aybnomadan asar ham qolmasligi, oqlov to‘la va haqiqiy bo‘lishi mumkin. Biroq hayotini shu ishga tikkan hech bir kishi bunday bo‘lishiga ishonmaydi. Sudda hech bir hujjat yo‘qolishi mumkin emas va hech narsa sudning xotirasidan faro-

mush bo'lmaydi. Hech kim xayoliga keltirmagan, kutilmagan kunlarning birida allaqanday hakam hujatlarni qo'lga olib, ularni odatdagidek, bir boshdan sinchiklab ko'zdan kechirib chiqadi-yu, bu ish bo'yicha hali yana ayblov izi bor deb hisoblaydi va tezlik bilan hibsga olish haqida farmoyish beradi. Bularning barini men sizga shuning uchun ham hikoya qilib beryapmanki, qisman oqlanib, ozodlikka chiqish bilan yangidan hibsga olish o'rtasida yetarli darajada vaqt o'tadi; ba'zida shunaqasi ham bo'lishi mumkin, – men bunga o'xshash voqealarni ham ko'rganman – oqlangan kishi suddan o'z uyiga qaytib keladi-yu, bunda uni hibsga olish haqida buyruq kutib turgani ustidan chiqadi. Shu yerning o'zidayoq uning ozodlikdagi hayoti yana nihoyasiga yetadi.

– Nima balo, sud jarayoni yana yangidan boshlanadimi? – K. ishonqiramay so'radi.

– Bo'lmasam-chi, – dedi rassom, – albatta, jinoiy ishni ko'rish jarayoni qaytadan boshlanadi, biroq bunda ham faqat avvalgisida bo'lgandek qisman oqlanishga erishish uchun imkoniyat bo'ladi. Ha, yana nima bo'lganda ham jонни jabborga berib butun kuchni safarbar etish lozim. Zinhor-bazinhor taslim bo'lish, taqdirga tan berish kerak emas. – Oxirgi so'zni rassom aynan ta'kidlab aytganining boisi K. bu suhbatdan juda ham noxush kayfiyatga tushgandek taassurot uyg'otgandi o'zida.

– Biroq nahotki keyingi safar, – hovliqib dedi K. baayni rassomning buni nima deb izohlashini oldindan payqab turganday, – nahotki ikkinchi bor oqlovga erishish birinchisiga qaraganda oson bo'lsa?

– Nima desam bo'ladi, – dedi rassom, – bunda biron-bir narsani aniq-tiniq aytish mumkin emas. Ehtimol siz ikkinchi hibsga olishni hakamning o'zi ayblanuvchiga qarshi uyushtiradimi, demoqchisiz chog'i? Biroq bu siz o'ylagan-chalik emas. Hakamlar buni qisman oqlov hukmini chiq-

rishdan oldinroq ham ko'rib turgan bo'ladilar. Ammo buning kelib chiqqan vaziyatga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan uzoq. Ammo bunda boshqa son-sanoqsiz sabablar bo'ladiki, bunga ko'ra hakamlarning kayfiyatları o'zgarishi va huquqshunoslik nuqtayi nazaridan ham bu qayta qo'zg'atilgan ishni yana hamma o'zgarishlarni hisob-kitob qilib, ikkinchi bor oqlanib chiqishga erishish uchun ham avvalgisidan oz bo'limgan kuch-quvvat sarflash kerak bo'ladi.

– Biroq bu ham, aftidan, yakuniy oqlov bo'lmasa kerak? – K. boshini sarak-sarak qilib, shubhalanish ila so'radi.

– Ha, albatta, – dedi rassom, – ikkinchi oqlovdan keyin ikkinchi hibsga, uchinchi oqlanib chiqqandan keyin uchinchi hibsga va hokazo shunday davom etadi. Buning o'zi qisman oqlov nima ekanligini bildiradi. – K. lom-mim demay qoldi. – Ha, ko'rinish turibdi, qisman oqlov sizning joningizga ora kiradiganga o'xshamaydi, – deb rassom fikrini davom ettirdi. – Balki, sizga ishni paysalga solish ko'proq foydali bo'lib chiqar. Paysalga solishning mazmun-mohiyati nimadan iboratligini lo'ndagina tushuntirib beraymi sizga?

K. faqat boshini qimirlatib qo'ydi. Rassom kursida yal-payib o'tirarkan, ko'yylaklarining tugmasi yechilib, butun ko'ksi ochilib qoldi, u butun ko'ksi va yon tomonlariga sekin razm soldi.

– Paysalga solish, – derkan, rassom bir daqiqa tin oldi, go'yo juda ham aniq ifodalab berish uchun so'zlar izlayotgandek, – paysalga solish shundan iboratki, qo'zg'atilgan jinoiy ish jarayonini uzoq payt boshlang'ich bosqichning o'zida ushlab turiladi. Bunga erishish uchun esa ayblanuvchi va uning yordamchisi, ayniqlsa, ana shu yordamchisi doimiy sur'atda sud bilan shaxsan aloqada bo'lib, yelib-yugurishi kerak. Yana qaytarib aytaman, qisman oqlovga erishish uchun qilingan sa'y-harakatlarga o'xshab ko'p kuch sarflash kerak emas, ammo bu yerda hammasini bir

yerda ushlab turish juda ham muhim. Sud jarayonini biron daqiqa ham ko‘zdan qochirmaslik kerak, bunda muntazamlikdan tashqari, hakamning vaqtiga to‘la muvofiq keladigan aniq bir vaqtida uchrashib turish, qolaversa, har qanday qulay vaziyatni qo‘ldan chiqarmasdan hakam bilan eng yaxshi do‘stona munosabat o‘rnatish uchun astoydil qunt qilishga to‘g‘ri keladi. Agar siz hakamni shaxsan tanimasangiz, o‘sha tanish hakamlar orqali ta’sir o‘tkazish kerak bo‘ladi, ammo bu har qanaqa vaziyatga qaramay, shaxsan muzokaralar olib borish uchun urinib ko‘rishlarga hojat qoldirmaydi degani emas. Agar siz shu yerda hech narsani o‘tkazib yubormasangiz, bundan keyin ham bu jarayon o‘zining dastlabki bosqichidan nariga o‘tolmaydi deb komil ishonch bilan aytish mumkin. To‘g‘ri, uni hamisha bir joyda to‘xtatib bo‘lmaydi, ammo ayblanuvchi jazodan xoli bo‘lib, xuddi ozod odamday tarallabedod qilib yuraveradi. Qisman oqlanishga solishtirganda paysalga solishning yana bir afzallik tomoni, har tugul, ayblanuvchi uchun hammasi bir qadar oydin, u titrab-qaqshab, qachon hibsga olishar ekan, deb kutib yotmaydi, holbuki qisman oqlovda ayni shu pallada qo‘qqisdan tug‘ilgan qaltis vaziyat qulayliklardan yiroq bo‘lib, bir talay tashvish, halovatsizliklar olib kelishi, dovuldek his-hayajonlar po‘rtanasi holi-joniga qo‘ymasligi mumkin. Ochig‘i, paysalga solish ham ayblanuvchiga bir qancha noqulayliklar keltirib chiqaradi, ular bilan hisoblashmaslik yaramaydi. Men bu yerda ayblanuvchi baribir erkin bo‘lolmasligini aytmoqchi emasman, axir u qisman oqlanishga erishganda ham o‘zini mutlaq ozodman deb hisoblashi mumkin emas. Bu yerdagi noqulayliklar boshqa. Ko‘rilayotgan jinoyat ishi jarayoni hech bir sababsiz, hatto zarradek bo‘lsa-da jo‘yali sababsiz o‘z-o‘zidan bir joyda turib qolishi mumkin emas. Shuning uchun bunda ham, ishqilib, zohiran bo‘lsa-da, ish davom etayotganday mavjlanib turishi kerak. Demak, vaqt

o'tgan sari qandaydir darajadagi farmoyishlar berib borilishi, ayblanuvchi kamdan kam bo'lsa-da, tergov berib turishi va hokazo, sud ilgarilayotgandek ko'rinxmog'i kerak. Aftidan, sud jarayoni ana shu zikh bir doira bo'ylab aylanib turishi kerakka o'xshaydi, uni faqat tabiatiga yot tarzda to'xtatmoq mumkin. Ma'lumki, ana shu jarayonda ayblanuvchi uchun bir talay ko'ngilsizliklar bo'lib turadi, ammo siz zinhor-bazinhor ularni bo'rttirib yubormasligingiz kerak. Bularning bari bus-butunicha faqat zohiran shunday; misol uchun tergovlar juda qisqa bo'ladi, mabodo tergovga borish uchun istak ham, vaqt ham yo'q bo'lsa, ruxsat so'ramoq mumkin, bir qancha tergovchilar oldindan birgalikda jadval ham tuzib olishadi va kelgusidagi kunlar haqida kelishib olish imkonib bo'lib, gapning sirasini aytganda, kun o'tgan sari hakam tergov berayotganning o'z kishisiga aylanib boradi.

Rassom hali so'nggi luqmasini aytib bo'lmagandi hamki, K. o'rnidan qo'zg'alib, qo'li bilan kamzulini yelkasiga tashlab oldi.

— Turdi! — eshik ortida chuvullashdi.

— Siz, nima, ketmoqchimisiz deyman? — ajablanib so'radi rassom. — Aftidan, sizni ketishga undayotgan bu yerdagi diqqinafas havo bo'lsa kerak. Men uchun bu juda ham ko'ngilsiz hodisa. Hali sizga ko'p narsani aytish kerak edi. Ularni muxtasargina qilib izohlashga to'g'ri keladi. Shunga qaramay, meni tushunasiz deb umid qilaman.

— O, albatta! — deb yubordi K., holbuki u hammasini eshitib olmoqchi bo'lib, o'zini majburlaganidan shunday bir holga tushgan ediki, boshi lo'q-lo'q og'rirdi.

Uning tasdig'iga qaramay, jim bo'lib qolganidan foydalaniib, xuddi dalda bermoqchi va gapiga xulosa qilmoqchi bo'lgandek, rassom yana bir-ikki og'iz dedi:

— Alalxusus, ikki usul ham ayblanuvchi ustidan hukm chiqarishga monelik qiladi.

– Biroq ular mutlaq ozod bo‘lishga ham shunday g‘ov bo‘lib turishadi, – K. ohista e’tirof etarkan, go‘yo buni anglab yetganidan uyalayotgandek edi.

– Siz ko‘rilayotgan ishning eng qaltis joyini ushladingizda o‘ziyam – tezgina e’tirof qildi rassom.

K. paltosini olmoqchi bo‘ldi, holbuki, kamzulini kiyishda u bir qarorga kelmagandi. Hammasidan ham unga toza havoga chopib chiqish va ko‘ksini to‘ldirib-to‘ldirib nafas olish istagi tinchlik bermayotgandi. Hatto uni kiyinishga qizaloqlarning shovqin-suronlari ham majbur etolmagan, ular esa unga razm solmasdan ham qichqirishga tushib ketishgan edi.

– U kiyinyapti!

Rassom bo‘lsa, aftidan, K.ga vaziyatni qanday qilib bo‘lsada tushuntirmoqni xohlardi, shuning ilinjida dedi:

– Aftidan, siz, takliflarimdan qaysi birini qabul qilishda bir qarorga kelolmayotganga o‘xshaysiz. Sizning ahvoliingizni tushunaman. Hatto men tezda biron-bir qaror qabul qilishingizni ham maslahat bermagan bo‘lardim. Ha, juda nozik fahm bilan afzal va qusurli tomonlarni farqlab olish kerak bo‘ladi. Yetti o‘lchab bir kesmoq lozim. Biroq, anglanib turilganidek, vaqt ni boy berish ham mumkin emas.

– Men tezda qaytaman, – derkan, K. birdan chapdastlik bilan kamzulini kiyib olib, paltosini yelkasiga tashladi-da, qizaloqlar chuvullashib yotgan eshik tomon shoshildi. U yopiq eshikning tirqishlaridan o‘zini ko‘rib turganlarini hisqilardi.

– Siz, albatta, o‘z so‘zingizda turishingiz kerak, – derkan, rassom uni kuzatib qo‘ymoq uchun harakat ham qilmadi, – mening o‘zim bankka borib, ishlaringiz qanday ketayotganini surishtirishim jo‘yali ko‘rinmaydi.

– Eshikni ochsalaring-chi! – dastakni siltab o‘shqirdi K. – qizaloqlar eshikni u tomonidan itarib, unga yopishib turganlari kundek ayon edi.

– Ular, aftidan, u yoqda ham sizni torta-tort qilishdan tap tortishmaydi, – dedi rassom. – Yaxshisi, mana bu chiqish joyidan foydalana qoling, – u karavot orqali o‘tadigan eshikni ko‘rsatdi. K. ham shu zahoti bunga rozi bo‘lib, karavot tomon otildi.

Biroq eshikni ochish o‘rniga rassom karavot tagiga boshini suqib, u yerdan turib so‘radi:

– Bir daqiqaga shoshilmasdan, mana bu suratlarga bir qaramaysizmi, men ulardan bitta-yarimtasini sizga sotsam degandim?

K. qo‘pollik qilishni istamadi, nima bo‘lganda ham uning ishiga rassom bosh qo‘shishni o‘z bo‘yniga oldi va bundan keyin unga yordam berishni va‘da qildi, buning ustiga, K.ning faromushxotirligi tutib, bu yordamni taqdirlash to‘g‘risida ham biron-bir gap qilmabdi, shu boisdan ham u rassomning taklifini rad qilolmadi va suratlarni olib chiqishga ruxsat berdi, holbuki u ustaxonadan shunchalik tez otilib chiqib ketish istagida yonardiki, azbaroyi sabrsizlanganidan titrab-qaqshar edi. Rassom karavot ostidan oq mato tutilmagan bo‘zlarni tashqariga chiqararkan, haddan tashqari chang bosib ketgani bois, rassom yuza qismidagi changlarni sidirishga kirishgach, ko‘tarilgan chang havoni tutdi, bundan bo‘g‘ilgan K.ning ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi.

– Mana bu dasht manzarasi, – deb rassom K.ga bir bo‘zni uzatdi. Unda ikkitagina o‘lamsa daraxtcha tasvirlangan bo‘lib, ular quyuq barra o‘tlar orasida bir-biridan ayri-ayri holda turishardi.

– Yaxshi, – dedi K. – Men uni sotib olaman, – K. hech narsani o‘ylamasdan beixtiyor gapning po‘stkallasini aytar ekan, yayrab ketdi, rassom esa bundan hech ham xafa bo‘lmasdan, yerdan ikkinchi suratini ko‘tardi.

– Bu surat bo‘lsa, haligining tamoman teskarisi, – deb qo‘ydi rassom.

Ehtimol, u bu suratda boshqa bir manzara tasvirini chi-qarmoqchi bo'lgandir, ammo ikki suratda ham kichkina bir farqni ko'rish amri mahol edi: bunda ham o'shanaqa daraxtchalar va barra o't-o'lan, yana chekkada o'sha sha-faqning o'zi. Biroq K. uchun bularning bari farqsiz edi.

— Ajoyib manzaralar ekan, — dedi u. — Men bularning ik-kisini ham olaman va ishxonamning tepasiga osib qo'yaman.

— Sizga bu mavzu yoqishi ko'rinib turibdi. — Rassom shunday deb, uchinchi bo'zga qo'l uzatdi. — Menda bu mavzuga oid yana bir surat bor, baayni mo'jazday, judayam muvaffaqiyatlchi qolish payida edi.

Biroq bunisi ham shunchaki ularga o'xshash, o'sha cho'l manzarasining ayni o'zi edi. Ha, aftidan, rassom o'zining o'tmas, almisoqdan qolgan eski suratlarini ustamonlik bilan tiqishtirib qolish payida edi.

— Men bunisini ham olaman, — dedi K. — Qancha turadi bu uch suratning hammasi?

— Boshqa safar bahosini kelisharmiz, — dedi rassom. — Siz hozir shoshilib turibsiz, aloqamiz ham qalin bo'ladi bundan keyin. Bilasizmi, bu suratlarning sizga ma'qul kel-gani meni juda ham xursand qilib yubordi, shu bois ham karavot ostida yotgan hamma bo'zlarimni sizga tuhfa qilmoqchiman. Bu cho'l manzarasi aks ettirilgan birgina surat, men esa bu mavzuga oid xo'b va ko'p suratlar ishlaganman. Ayrim kishilar bunaqa suratlarni tushunishmadı, ularning fikricha, bundagi manzara haddan tashqari g'amginmish, holbuki boshqa birovlar, masalan, olaylik, siz aynan shu g'amginlikni jon-dilingiz bilan yaxshi ko'rasiz.

Biroq, bu bechorahol rassomning ijodiy to'lg'oqlarini talqin qilib o'tirishga K.ning hech ham mayli yo'q edi.

— Hamma suratlaringizni o'rab-chirmab, tayyorlab qo'-ying! — baqirdi rassomni yakson qilib tashlagudek vajohatda K. — Ertaga mening choperim kelib, ularni olib ketadi.

– Bunga hojat ham yo‘q, – dedi rassom, – men shu yerning o‘zida ham sizga hammol topib berishim mumkin, u sizni kuzatib qo‘yadi. – U nihoyat to‘shakdan hatlab o‘tib eshikchani ocha qoldi.

– Xijolat bo‘lmasdan, karavot ustidan sakrab o‘tavering, o‘zi hammayam shunaqa qiladi, – dedi u.

Biroq K. uning ruxsatisiz ham malol kelishni o‘ylab o‘tirmasdan, allaqachon oyog‘ini to‘shakning ustiga qo‘ydi, biroq ochiq eshikka ko‘zi tushdi-yu, o‘zini orqaga oldi.

– U yoqda nima bor o‘zi? – u rassomdan o‘smoqchilab so‘radi.

– Nimaga bunchadik hayron qolasiz? – rassom ham xuddi shunday ajablanish bilan surishtirdi. – Ha, bu sud devonxonasi. Nahotki, siz bu yerda sud devonxonasi joylashganligini bilmagan bo‘lsangiz? Nega u aynan shu yerda bo‘lmasligi kerak ekan? Gapning aslini aytganda, mening mana bu ustaxonam ham sud devonxonasiga qaraydi, biroq sud undan o‘zim shaxsan foydalanishim uchun ruxsat bergen.

K. shundoq sud devonxonasining burniga kelib qolganidan xavfsiramadi, uni bu qo‘rqita olmasdi; balki uni asosiy hal qiluvchi mohiyatda sud ishlaridagi jaholat-nodonlik dahshatga solar edi: uningcha, ayblanuvchi uchun qo‘l keladigan eng asosiy qonun-qoida shunday bo‘lishi kerakki, hamma vaqt tayyor bo‘lib turishi va biron marta ham o‘zini qo‘qqisdan dog‘da qoldirishlariga zinhor-bazinhor yo‘l qo‘ymasligi lozim, agar uning chap tomonida hakam turgan ekan, hecham g‘ayrishuuriy bir tarzda o‘ng tomonga qaramasligi shart, xuddi shuning o‘zi qonun-qoidaga xilof bo‘lib, uni hamma vaqt aybdor qilib qo‘yadi. Uning oldidan rosa cho‘zilib ketgan yo‘lak chiqdi, undan shunday bir bijg‘ib ketgan qo‘lansa hid taralar ediki, agar uni rassomning ustaxonasidagiga solishtiradigan bo‘lsa, ustaxonani jonning huzuri deb atasa bo‘lardi.

Bu tor yo'lakning ikki tomonida ham keta-ketgancha o'rindiqlar qo'yilgan, K. sud devonxonasini baayni o'zida edi. Aftidan, hamma devonxonalar ham bir xil andozaga solinadi chog'i. Ayni pallada ham devonxonaga birmuncha mijozlar qadam ranjida qilishgan edi. Allaqanday erkak o'rindiqqa chalqancha tushib, qo'li bilan yuzini yopib olgancha yotar, aftidan, mizg'irdi; boshqa biri bo'lsa, yo'lakning to'ridagi g'ira-shira nimqorong'ilikda turardi. K. karavotdan oshib o'tdi, ortidan suratlarni ko'tarib rassom ham yo'lakka chiqdi. Ko'p o'tmay ular sud xizmatchisiga to'qnash kelişdi – K. endi qiynalmasdan tanigan bu xizmatchilar zarhal tugmali kamzulda savlat to'kib yurishardi. Rassom K.ni kuzatib qo'yishni buyura turib, suratlarni uning qo'liga berdi. K. dastro'molchasi bilan og'zini mahkam yopib, shoshilib yurardi. Ular qariyb chiqish joyiga yaqinlashganda, ularga tashlangan qizaloqlar galasiga to'qnash kelib qolishdi. K. bu yerda ulardan xalos bo'lishi dushvor edi. Albatta, ular us-taxonadagi ikkinchi eshik qanday ochilganini ko'rishgan, bu tomondan uni quvib yetish uchun oyoqlarini qo'llariga olib, aylanib o'tishga ulgurgan edilar.

– Bu yog'iga sizni kuzatib qo'ymasam ham bo'ladi! – qizaloqlar qurshovidagi rassom tirjayib turib dedi. – Ko'rishguncha xayr! Juda uzoq o'ylanib yurmang!

K. hatto ortiga o'girilib ham qaramadi. Ko'chada u to'g'ri kelgan birinchi foytunga tushdi-yu, juftakni rostladi. U sud xizmatchisidan butunlay xalos bo'lishni istar, ko'chada kimda-kim tilla tugmali kamzulda bo'lsa, uning ko'ziga balo-qazoday ko'rinar, holbuki, bunga boshqalar tuzuk-quruq e'tibor ham berishmasdi. Xizmatchi xizmatga shayligini ko'rsatmoqchi bo'lib, izvosh o'rindig'iga tirishbitirmashdi, biroq K. uni o'zidan nari quvdi. K. uzoq yurib, kun peshin bo'lgandagina bankka yetib keldi. U hamma suratlarni foytunning o'zida qoldirishni istardi, biroq rassom

ularni qayerda deb qiziqib, surishtirib qolsa nima deyman deb cho'chidi. Shuning uchungina ularni o'z ish kabinetiga olib chiqib, yaqin orada direktor muovinining ko'zi tushib qolmasin, deb stolning eng pastki g'aladoniga joylab tashladi.

VIII bob

Tijoratchi Blok. Oqlovchini rad qilish

Shunday bir kun keldiki, K. oxiri o'zi ustidan qo'zg'atilgan ish bo'yicha oqlovchining kafillikka olishini rad etishga qaror qildi. Bu ishni to'g'ri qilyaptimi yoki yo'q, ochig'i, uni shubha-gumonlar bir zum ham tark etmadni, lekin oxir-oqibat, baribir, shunday qilmasa bo'lmaydi, degan fikrga keldi. Oqlovchining oldiga borib, o'z qarorini aytib, uzilkesil u bilan orani ochdi qilib kelmoqchi bo'lgan o'sha kunda buning uchun ko'p kuch sarflashga to'g'ri keldi, u bo'shashib, imillab harakat qilar, shu bois ham ishxonasida uzoq ushlanib qolishga to'g'ri keldi va u oqlovchining eshi-giga yaqinlashganda soat ham allaqachon o'n bo'lgandi. Hammasidan oldin u oqlovchiga telefon qilib yoki unga xat bilan murojaat qilib, o'z qarorimni bildirib qo'ysam yaxshi bo'lmasmikin, degan xayolga bordi, chunki yuzma-yuz turib gaplashib olish juda ham ko'ngilsiz kechishi tayin. Balki, bunaqada qator hiylalarini ishga solib javob qilmasligi yoki har qanaqa vaj-korsonlar bilan qutulib chiqib ketishi mumkin. Shu bois K. yuzma-yuz turib hal qilishga qaror qildi, qolaversa, bu raddiyani oqlovchi qanday qabul qiladi va bu rad qilishning oqibati K.ning o'zi uchun qanday bo'ladi, bu xususda ham oqlovchi qanday fikrda, uning fikri bilan hisoblashmaslik mumkin emas, buning bir ilojini qilish kerak, hech bo'lmasa Lenidan o'smoqchilab bo'lsa-da so'rab, tasavvur qilmasa bo'lmaydi. Oqlovchi K. bilan yuzma-yuz turib, buni unga bildirganida, undan hatto qari tul-

lakda hech kutilmagan bir hol yasashi oqibatida birlgina so‘z olishning iloji bo‘lmagan taqdirda ham, baribir, oqlovching aft-angoridagi o‘zgarish va imi-jimidagi munosabatiga qarab o‘zi qiziqib kelgan u-bu narsadan K. ehtimol, voqif bo‘lishi mumkin bo‘lar. Hatto u yana bir narsaning yuz berishini ham mustasno qilmagandi – hammasidan ham yaxshisi shu: u K.ni himoya qilishni astoydil o‘z zimmasiga olishi ham mumkin, shunday bo‘lib chiqadigan taqdirda rad qilish o‘z-o‘zidan bekor bo‘lardi.

Hamishagidek oqlovchining eshigini birinchi bor taqillat-ganda hech kim javob qaytarmadi. Hech bo‘lmaganda Leni oshiqib kelardi-ku, deb o‘yladi u. Ana shunday qattiq-qat-tiq taqillatishdan keyin hamisha ko‘ppaklardan biron-bir erkak yoki yana allakim darg‘azab yugurib chiqar, ana unda dahanaki jang-u yoqa bo‘g‘ishlar qo‘pishi turgan gap edi. Bu safar Ollo yarlaqab, qo‘shnilardan birontasi tumshug‘ini suqmadi. Ikkinci bor eshik qo‘ng‘irog‘ini bosar ekan, K. qo‘shnining eshigiga xavfsirab qarab qo‘ydi, biroq bu safar ham eshik ochilmadi. Oxiri oqlovchi eshigining teshigida bir juft ko‘z ko‘rindi, ammo bu Lenining jonolar shahlo ko‘zları emasdi. Kimdir qulflangan eshikni ochishga astoydil uringaniga qaramay, ichkaridan yaxshigina mahkamlanganga o‘xshardi, „Bu o‘sha!“ xonadonning to‘ridan shunday bir qichqiriq kelgandan keyingina eshik lang ochildi.

U eshikka siqilib kirayotganda orqasidagi qo‘shni xona-don eshigining tutqichi ham shoshib-pishib buralayotganligini eshitdi. Dahlizga o‘tib olishgach, yo‘l bo‘shatishlari bilan u oldinga otildi va to‘satdan Lenining butun yo‘lak bo‘ylab bittagina ko‘ylakda yugurib borayotganini ko‘rib qoldi va kim eshikni ochgan bo‘lsa, uni ogohlantirib nido qilgan K. qizning ortidan bir zum kuzatib turdi-da, keyin haligi kishi tur-gan ostona tomonga burildi. Bu ushoqqina, soqol-mo‘ylovli, g‘aribgina bir kishi bo‘lib, qo‘lida sham ushlab olgandi.

- Siz shu yerda xizmat qilasizmi? – qiziqdi K.
- Yo‘q, – deb javob qildi kimsa, – begonaman, oqlovchida ishim bor, maslahatini olmoqchi edim.
- Kamzulsiz-a, – deb so‘rarkan, K. qo‘l harakatlari bilan hojat uchun kelgan mijozga nimadir yetishmasligini anglatmoqchiday bo‘ldi.
- Voy, kechirasiz! – kimsa xijolatomuz shunday deb, ilk bor qanday ko‘rinishda ekanligini bilmochi bo‘lib, shamni o‘ziga yaqin keltirdi-da, tegrasini yoritdi.
- Leni sizning o‘ynashingizmi? – dangal so‘radi K. U oyoqlarini biroz kerib, qo‘llarini beliga tirab olgancha, shlyapasini ushlab olgandi. K. shu holida po‘rim paltosi o‘ziga yarashib turganidan ham, bu pachoq jussali kishi o‘zining ustunligini his qilsin, degandek turardi.
- Yo Xudoym! Yo‘q-yo‘q, – u kishi qo‘rqinch bilan shunday dedi va go‘yo o‘zini himoya qilayotganday bo‘lib, qo‘llari bilan yuzini to‘sib oldi. – Nima deyapsiz o‘zi, nega bunday bo‘lmaq‘ur xayollarga borasiz?
- Siz mening ishonchimga qariyb kirib ulgurdingiz, – unga tabassum bilan ko‘z tashlab dedi K. – Lekin shunga qaramay... E, yaxshisi, yo‘l boshlang! – U shlyapasini silkitib, uni oldinga o‘tishi uchun yo‘l berdi.
- Ismi-sharifingizni bilsak bo‘ladimi? – surishtirdi u.
- Blok. Savdogar Blok, – u o‘zini bunday balandparvoz ohangda tanishtirib, mavqeyini oshirmoqchi bo‘ldi, lekin K. uni battar yerga urib, so‘roqqa tutdi:
- Bu sizning haqiqiy familiyangizmi?
- Bo‘lmasa-chi! – qat’iy ishonch bilan dedi Blok. – Nega siz shubhalanyapsiz?
- Ehtimol, o‘z ismi-familiyangiz – nasl-u nasabingizni sir tutishingizga biron-bir sabab bo‘lishi mumkin deb o‘ylagandirman, – dilidagini qaytarmadi K. U kamdan kam hollarda o‘zini ozod qushdek xotirjam his qilar, bu faqat

tamoman yetti yetti begona oddiy xalq bilan gurunglashganda ro'y berar, o'zing haqingda lom-mim demasdan, bularning barisi senga tegishliday, ularning ko'ngliga qaramay, so'rab-surishtiraverasan, go'yo ular bilan bir so'rida o'tirib qolgan-san-u, xayolingga biron-bir gap kelib qolsa, suhbatning avji qizig'ida bo'lib, o'z gapingni tigishtiraverasan.

Oqllovchining ish kabineti yaqinidan o'tayotganda K. taqqa to'xtadi, eshikni ochgancha, pildirab oldinga borayotgan savdogarga baqirdi:

– Shoshmang! Mana bu xonani yaxshilab yoriting-chi! – K. ehtimol, Leni xonaning bir chetiga yashirinib olgandir, deb o'yladi, shu bois ham savdogarni xonaning hamma te-shik-tuynugini qoldirmasdan, to'rttala kunjagigacha yoritishga majbur qildi, ammo xona bo'm-bo'sh edi. Hakamning surati tepasiga kelganda K. savdogarni yelkasidan o'tkazgan shim bog'ichidan ushlab to'xtatdi.

– Siz uni taniysizmi? – ko'rsatkich barmog'ini yuqoriga niqtab undan so'radi.

Savdogar shamni balandroq ko'tarib, mo'l tirab yuqoriga qaradi va dedi:

– Sud hakami-ku.

– Oliy martabadagi sud hakami emasmi? – K. savdogar bilan bir qatorda turib olib, suratdagi qiyofa unga qanday ta'sir o'tkazganini bilmoq ilinjida, o'smoqchilab so'radi. Savdogar esa favqulodda bir hurmat-ehtirom bilan yuqoriga qaradi.

– Ha, bu oliy maqomdagagi qozi-yu quzzotning o'zgini, – deb qo'ydi u.

– Siz, aftidan, unchalik ziyrakka o'xshamaysiz, – dedi K. – Barcha mayda-chuyda sud amaldorlarining ichida eng haqiri shu bo'ladi.

– Endi esladim, – savdogar shunday deb shamni tushirdi. – Men bu haqida sal-pal eshitganman.

— Albatta shunday bo‘lishi kerak! — hayqirab dedi K. — Siz albatta bular haqida aniq-tiniq eshitganingizga ishonchim komil, buni butunlay unutganimni qarang.

— Nega endi? Nima uchun? — K. uni turtgan joydan boshlab, eshikka tomon borisharkan, savdogar so‘roqqa tutgani-tutgan edi.

Yo‘lakka yetayozganlarida K. undan so‘radi:

— Har qalay siz Leni qayerga berkinib olganini bilarsiz?

— Yashirinib olgan deysizmi? — qayta so‘radi savdogar. — E, yo‘g‘-e, hozir u oshxonada oqlovchiga sho‘rva qaynatish bilan ovora bo‘lsa kerak.

— Nega siz buni menga darrov ayta qolmadingiz? — so‘-roqqa tutdi K.

— Men sizni u yerga boshlab bormoqchi edim, sizning o‘zingiz meni orqaga qaytishga majbur qildingiz, — savdogar qizni yo‘qotib qo‘yishiga sabab bo‘lgan teskari topshiriqdan gap ochdi.

— Aftidan, siz o‘zingizni juda pixini yorgan ayyor hisoblaysiz? — kesatdi K. — Qani bo‘lmasa, meni o‘sha tomonga boshlang.

K. hali biron marta oshxonada bo‘lmagandi, uning nazarida, oshxona haddan tashqari kattakon va jihozlarga serob tuyuldi. Hatto plita-o‘choqning o‘zi jaydarilariga qaraganda uch barobar katta edi. Qolgan shart-sharoit, ashqol-dash-qollarga zehn solishning qariyb imkoniy yo‘q, chunki kirish joyining tepasida osilgan kichkinagini chiroqcha oshxonani g‘ira-shira yoritib turardi, xolos. O‘choq oldida o‘zining doimgidek oq peshbandini ilib olgancha, Leni kuymalanar, qizigan tovaga tuxum chaqardi.

— Xayrli kech, Yozef, — derkan, qiz zimdan unga bir qur nazar tashlab oldi.

— Xayrli kech, — K. so‘rasha turib bir chekkada turgan kursini savdogarga ko‘rsatdi, u kursiga aybdorlardek cho‘kdi.

Shundan keyingina K. Lenining oldiga dadil borib, qizning yelkasi osha engashib, so‘radi:

– Kim o‘zi bu nusxa?

Leni bir qo‘li bilan uni quchoqlarkan, – ikkinchisida sho‘rva bor edi, – yigitni o‘ziga tortib shivirladi.

– Bu badbaxt kimsa juda ham ezilgan savdogar, aslida, Blok hech kimmas. Sen uning aft-u angoriga bir qara.

Ikkisi ham o‘sha yoqqa qarashdi. Savdogar unga qanday buyurilgan bo‘lsa shunday kursidan qo‘zg‘almay o‘tirar, keraksiz bo‘lib qolgan shamlarni o‘chirgan, tutab yurmasin, deb barmog‘i bilan pilikni bosib ezg‘ilab o‘tirardi.

– Sen birgina ko‘ylakda eding, – derkan, K. qo‘llari ni Lenining boshidan olib, qizni Blokka qayrilib qarashga majbur etmoqchi bo‘ldi. Leni indamay o‘tirardi.

– U sening o‘ynashingmi? – savolga tutdi K. Qiz qozonchani kovlamoqchi bo‘ldi, biroq K. uning ikki qo‘lidan shartta tutib, o‘ziga qaratdi: – Javob ber!

Qiz shivirladi:

– Yur ish bo‘lmasiga, men senga hammasini tushuntirib beraman.

– Yo‘q, – cho‘rt kesdi K. – Men hammasini shu yerning o‘zida qanday bo‘lsa shunday tushuntirib berishingni istayman. – Qiz uning bo‘yniga osilib, yigitni o‘pmoqqa urindi, ammo K. o‘zini chetga olib, dedi:

– Ayni paytda meni o‘pishingni istamayman.

– Yozef! – Leni zorlanib yigitning ko‘ziga qaradi.

– Nahotki, sen meni janob Blokdan rashk qilgan bo‘lsang? Rudi, – u savdogarga murojaat qildi, – ey, yonimni olmaysanmi, meni qanday battolliklarda gumon qilishyapti, eshitdingmi? Bir yoqqa otgin-e, qo‘lingdagi shamlarni!

Bu voqealarga Blok umuman e’tibor qilgani yo‘q, deb o‘ylasa bo‘lardi, biroq baxtga qarshi, hammasini a’lo da-rajada eshitib turardi.

– Nimaga asoslanib rashk qilishingiz mumkin. Men hech tushunolmadim, – dedi u kishining g‘ashini keltiradigan ohangda.

– Mening o‘zim ham bunga tushunolmayman! – dedi K. savdogarga tabassum bilan qarab.

Leni qahqaha otib kului, fursatdan foydalanib shu bilan K.ni chalg‘itmoqchi bo‘ldi va uning qo‘liga osilib, shivirladi:

– Uni o‘z holiga qo‘y, o‘zing ko‘rding, shuyam odammi? Men unga birozgina achinaman, xolos, chunki u oqlovchining eng kerakli mijozlaridan biri. O‘zingning ahvoling qanday? Shu pallada oqlovchi bilan gaplashgani keldingmi? Ammo bugun uning ahvoli juda ham og‘ir, ammo imkonib bo‘lishi bilan men unga sen haqingda xabar berishga harakat qilaman. Bugun sen menikida qolasan, hech bir vaj-karsoning o‘tmaydi, qolasan, vassalom. Sen allaqachonlardan beri bizga qorangi ko‘rsatmay ketding, hatto oqlovchining o‘zi seni bir necha bor so‘rab-surishtirdi. Ustingdan jinoiy ish olib borilayogtanda bunaqa beparvo bo‘lmaydilar-da, men o‘zimni o‘tta-cho‘qqa tashlab, bu jarayon haqida ancha-muncha narsani bilishga muvaffaq bo‘ldim, mana endi barini o‘zingga yetkazsam bo‘ladi. Biroq hammasidan oldin paltongni yechsang bo‘lardi.

Qiz unga paltosini yechishga qarashdi, shlyapasini oldi va dahlizga kiyimlarini ilish uchun zipillab ketdi, keyin chopqillab kelib, sho‘rva tayyor bo‘lmabdimi, deb qozonga qaradi.

– Avval sen haqingda xabar beraymi yoki oldin uning sho‘rvasini ichiraymi? – qiz K.dan so‘radi.

U juda ham asabiylashib, joni chiqib borardi, chunki Leni bilan o‘zining ishlari xususida gaplashib olishni ham mo‘ljallab kelgan, ayniqsa, bir qarorga kela olmagan muammosi – oqlovchining himoyasini rad etsinmi yoki

yo‘q, fikrini bilmoqchi edi; ammo allaqanday savdogarning bu yerga tiqilib o‘tirishi uning barcha xohish-istagini yo‘qqa chiqarib turardi. Shunda ham ishi juda muhim tuyldi va bu badbaxt nusxani deb hal bo‘lishi kerak ishlar rejasini o‘zgartirib tashlash mumkin emas, deb o‘yladi va shuning uchun ham yo‘lakda shoshib borib, Lenini o‘ziga qaratdi.

— Harna bo‘lsa ham uning sho‘rvasinichirib, nafsi qondir – buyurdi u, – mayli, men bilan munozara qilishdan oldin quvvatga kirib, dadillanib olsin. Buning uchun ham unga kuch-quvvat kerak bo‘ladi.

— Bundan chiqdi siz ham oqlovchining mijozlaridan ekansiz-da? — xotirjamgina dedi xonaning bir chekkasida o‘tirgan savdogar. Ammo uning bu gapi umumiylorozilikni boshlab keldi.

— Sizning nima ishingiz bor? — iddao bilan so‘radi K. Leni esa uni battar jerkib tashladi:

— Og‘zingni yumib o‘tir-e, — keyin qiz K.ga yuzlandi: — Demak, men avval uning sho‘rvasinichiraman, — deb u kosaga sho‘rva quydi.

— Hamisha ovqatni ichib bo‘lishi bilan u tarashadek qotadi-qoladi, yana shunday uxlاب qolmasa deb qo‘rquamanda.

— Hechqisi yo‘q, mening so‘zlarimni eshitib, uning uysusi qochib, ko‘zi moshdek ochilib ketadi, — dedi K.

U oqlovchi bilan haddan tashqari muhim bir mavzuda jiddiygina gaplashib olmoqchi, avval bunga Lenining diqqatini tortmoqni istar, uni qiziqtirib qo‘yib, nima haqida so‘z borishini aytib bermoqchi, shundan keyin unga maslahat solmoqchi edi. Biroq qiz faqat uning aytganinigina aniq qilib bajarsam derdi.

Qiz kosa ko‘targancha uning yaqinidan o‘tar ekan, erkalovchan nigohda dedi:

— U ovqatini yeb bo‘lishi bilan darrov sen haqingda xabar beraman, ishqilib, oldimga tezroq qaytsang bo‘ldi.

— E, to‘xta, to‘xta! — amr etdi K. — To‘xta deyapman!

— Sal xushmuomala bo‘lsang-chi! — Shundoq eshik og‘zida turib, kosa ko‘targancha dedi qiz, so‘ng esa u to-monga yana bir bor burilib, butun qaddi-qomatini namo-yish qildi.

K. uning izidan termilib qoldi. Endi u oqlovchining xizmatini butunlay rad etishga qaror qildi; ehtimol, buni Leni oldida dasturxon qilishga ulgurmagani yaxshi bo‘lgandir, chunki qizning dunyoqarashi cheklangan, bu borada hech qanaqa maslahat bergulik bilimi-yu aqli ham yo‘q, ehtimol, qaytaga qiz yana uni avrab tashlar, bu safar ham qilmoqchi bo‘lgan ishidan tutib qolar, yana muallaq ahvolda qolib o‘rtanar, allaqancha vaqtgacha shubhalar girdobida qovrilib, lekin baribir bir qancha vaqt o‘tgandan keyin o‘z niyatini amalga oshirar, chunki qanchadan buyon ortiqcha bir tug‘yon bilan bularni o‘ylab yuribdi, o‘zini bu xayollar dan xalos etmasa bo‘lmaydi. Aftidan, qancha tez biron-bir qarorga kelsa, shuncha kam ziyon ko‘rishi turgan gap. Kim bo‘lishidan qat‘i nazar, mana bu savdogarchadan ham, ehtimol, biron-bir jo‘yali gap chiqib qolishi mumkin.

K. u to-monga burildi, savdogar esa buni sezgan zahoti o‘rnidan sakrab turmoqchi bo‘ldi. Biroq uni K. ushlab qoldi.

— O‘tiring, o‘tiring, — tinchlantirdi K. va unga yaqinlashib, kursisini surdi.

— Him, siz oqlovchining eski mijozlaridanmisiz? — surishtirdi K.

— Ha, — dedi savdogar, — judayam eski mijozlaridanman.

— Necha yildan buyon u sizning hojatingizni chiqaradi? — so‘radi K.

— Siz qaysi ma’noda surishtiryapsiz, bilmayman-u, — dedi savdogar, — men g‘alla oldi-berdisi bilan shug‘ul-

lanaman, mening u bilan hamkorligim ham shu ishni boshlagan kezlarimdan davom etib keladi, demak, u qariyb yigirma yildan buyon mening qiziqishlarimga yo‘l yo‘riq berib keladi, agar siz ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ishga ishora qilayotgan bo‘lsangiz, bunda ham dastlabki bosqichdanoq u yonimda turibdi, shunga ham, mana, besh yildan oshyapti. Ha, ha, shunga ham besh yildan ortiq vaqt o‘tdi, – qo‘shimcha qilib u eski hamyonini paypaslab qo‘ydi. – Bu yerda hammasi, hammasi aniq-tiniq qayd etilgan; agar istasangiz, men sizga aniq sanalarigacha aytishim mumkin. Ammo eslashim mushkul. E, mening ustimdan qo‘zg‘atilgan sud jarayoniga qancha zamonlar bo‘ldi, u adashmasam rafiqam qazo qilganidan ko‘p o‘tmay boshlangan edi.

K. unga yanada yaqinroq surilib o‘tirdi.

– Demak, oqlovchi jo‘ngina fuqarolik ishlarini ham ola-veradi deng? – so‘radi u. Sud bilan bunday me’yordagi qonun-qoida asosida aloqada bo‘lish ajib tarzda K.ni tinchlantirdi.

– E, bo‘lmasam-chi, – deb qo‘ydi savdogar va shivirlab qo‘shib qo‘ydi: – aytishlaricha, fuqarolik ishlariga u hatto boshqalarga qaraganda jiddiyroq yondashar ekan.

Biroq ma’lum bo‘lganidek, shu yerda o‘z og‘zidan gullab qo‘yanidan pushaymon edi. U K.ning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, astoydil o‘tindi:

– Bu gaplarimni unga aytib yurmang, iltimos!

K. tinchlantiruvchi ohangda, uning tizzalariga shapatilab qo‘ydi va dedi:

– Sizni qarang-u, nima, men sotqinmanmi?

– U o‘ch olmasa qo‘ymaydiganlardan, – dedi savdogar.

– E, sizdaqa sodiq mijozni, u hech qachon hech bir ba-loqa ro‘para qilmaydi, – dalda berdi K.

– E, qilganda qandoq! – e’tiroz bildirganday dedi savdogar.

– Darg‘azab bo‘lgan chog‘ida, uning ko‘ziga hech narsa ko‘rinmaydi, shunga qaramay, men allaqachondan buyon unga ishonib, umidvor bo‘lib kelaman.

– Bu qanaqasi bo‘ldi? – bilmoqchi bo‘ldi K.

– Bilmadim, hamma narsani sizga ishonib aytaverishim kerakmi yoki yo‘q – shubhali ovozda dedi savdogar.

– Menimcha, mumkin, – dedi K.

– Nachora, – dedi savdogar, – mening o‘zim qay darajadir sizga ishondim. Biroq shunga yarasha siz ham allaqanday siringizni oshkor etishingiz kerak va siri birning taqdiri bir, deganlaridek, shundagina oqlovchiga qarshi jipslashishimiz mumkin.

– Siz haddan tashqari ehtiyyotkorga o‘xshaysiz, – dedi K. – Yaxshi, men sizga shunday bir maxfiy sirni ochamanki, butunlay xotirjam bo‘lasiz. Nega siz oqlovchidan bunchalik hayiqasiz?

– Gap shundaki, – qo‘rqib-qaltirab so‘z boshlagan savdogarning xatti-harakatidan qandaydir bir pastkashlikning isi kelardi, – mening undan tashqari ham maslahatini oladigan bir necha oqlovchilarim bor.

– Nima bo‘libdi, bu unaqa darajada nojo‘ya ish emas-ku, – biroz jonlanib dedi K.

– Buni bu yerda nojo‘ya hisoblaydilar, – dedi savdogar. U o‘z iqrordan bo‘g‘ilib qolayozgandi, har qalay K.ning dal-dasi uni biroz o‘ziga keltirdi. – Bunga ruxsat etilmaydi. Ha, har qanaqa voqeа sodir bo‘lganda ham ishingizni zimmasiga olgan bir oqlovchi qatoriga yana xufiya oqlovchilarni ham jalb qilish farmoyish bilan ta’qilanganadi. Men bo‘lsa aynan shu yo‘lga o‘tib olganman, mening undan tashqari yana beshta xufiya oqlovchilarim bor.

– Beshta-ya! – baqirib yubordi K. Uni aynan oqlovchilar-ning sanog‘i hayratga solgandi. – Bundan boshqa yana naq beshta maslahatgo‘y oqlovchim bor deng!

Savdogar boshini qimirlatib tasdiqladi.

– Yana bir, oltinchisi bilan kelishmoqchi bo‘lib yuribman.

– Sizga buncha oqlovchining nima keragi bor? – qiziq-sindi K.

– Menga ularning hammasi asqotadi, – uqtirdi savdogar.

– Balki, qanday asqatib qolishini tushuntirib berarsiz? –

Buning tagiga yetmoq istardi K.

– Bajon-u dil, – dedi savdogar. – Mayli, aytganim bo‘lsin, hammasidan oldin qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayonida men mag‘lubiyatga uchrab qolishni hech istamayman, bu o‘z-o‘zidan tushunarli. Shuning uchun ham hech narsani ko‘zdan qochirmaslik kerak, balki ularning birontasidan men uchun foydali biron-bir narsa chiqib qolishi mumkin, mabodo bu yuz bersa, zarradek chora bo‘lsa ham men loqayd qaramasligim, uni qo‘ldan chiqarmasligim kerak. Agar loqaydlikka yo‘l qo‘yiladigan bo‘lsa, menda bor imkoniyatlarning hammasini boy berish mumkin.

Misol uchun idoramdagи bor mol-mulkimni olib ko‘raylik, bir vaqlar idoram qariyb butun bir qavatni egallagan edi; endi-chi, u-bu narsa qayd qilishga arang yetadigan asosiy binoning dumি kabi bo‘lgan katalakdek hujracham qoldi. Mening ishim teskarisiga shunaqa aylanib ketdiki, men bor budimdan ajralib qolmadim, balki butun kuch-quvvatimni boy berib, adoi tamom bo‘ldim. Ha, tegirmon toshi yurgizganlaridek qachonki ustingdan jinoiy ish qo‘zg‘atilsa, boshqa biron narsani eplashga na vaqt, na hafsala qoladi.

– Bundan chiqdi, o‘zingiz kuyib-pishib sud jarayonini izga solib borar ekansiz-da? – aniqlashshrmоqchi bo‘lardi K. – Ayniqla, ana shu faoliyatning xususida men mufassal bilmoq istardim.

– Bu borada men jo‘yali bir narsa deya olmayman, – dedi savdogar. – Avvaliga biron-bir ish chiqarmоqchi bo‘lib bu bilan o‘zim shug‘ullanib ko‘rmoqchi bo‘ldim. Ammo

keyin buning bahridan o'tdim. Haddan tashqari tinka-madorni quritadi-yu, natija qurg'ur esa umuman ko'rinxinmaydi. Tinim bilmay yelib-yugurib, hammasini o'zing tashkillash-tirasan, murosayı madoraga olib kelishning boshi-keti yo'q, oxiri bunga mening kuchim yetadiganga o'xshamadi. Hat-toki oddiygina o'tirib kutishning o'zi dahshatli darajada zo'riqtiradi. O'zingizdan qolar gap yo'q, devonxonalaridagi havoning qanchalik og'ir, iflosligini bilasiz.

– Men u yerda bo'lganimni siz qayerdan bilasiz? – so'-radi K.

– Men qabulxonada kutib o'tirganimda, siz o'tib qol-gandingiz.

– Buning to'g'ri kelib qolganini qarang! – hayqirdi K. Bu uni shunchalik hayratga soldiki, boshida savdogarni juda ham betayin kishi deb o'ylaganini u tamoman unutgandi. – Ha, men u yerga bir marta borgandim. Men kirib borganda, siz qabul-xonada o'tirgan ekansiz-da. Shunda menga ko'zingiz tushgan.

– Buni juda ham to'g'ri kelib qolgan, deb bo'lmas, – bo-siqlik bilan dedi savdogar, – men u yerga Xudoning bergen kuni borib turaman.

– Ehtimol, menga ham zuv qatnab qolishga to'g'ri kelib qolar, – dedi K. – Ammo o'sha safargidek hurmat-e'tibor bilan qabul qilishlari dargumon. Hammalari mening oldimda o'rnilaridan turib qo'l qovushtirib, tavozeda bo'lgandilar – ehtimol, hakam deb o'ylagan bo'lsalar kerak.

– Yo'q, – dedi savdogar. – Biz sud xizmatchisiga salom bergani o'rnimizdan turgandik. Sizning ayblanuvchi ekanli-ningizni ham bilgandik. Bunday ma'lumotlar bir lahzada tar-qalib ulguradi.

– Bundan chiqdi, siz hammasidan voqif bo'lgansiz, – deb qo'ydi K. – Unda men sizga rosa o'ziga bino qo'ygan guppi ko'ringan bo'lsam kerak? Bu haqida ham gurung-lashgandirsizlar?

– Yo‘q, – dedi savdogar, – qaytaga hamma jim bo‘lib qoldi. Shunga qaramay u yerdagi gap-so‘zlarning bari nodonlikdan.

– Nega nodonlik bo‘lar ekan? – qayta so‘radi K.

– Nima qilasiz buni mendan surishtirib, – darg‘azab vishilladi savdogar. – Aftidan, siz bundagi kishilarni bilmaysiz yoki ular haqida noto‘g‘ri tasavvurga egasiz. Diqqat bilan eshititing, bunday noqulay vaziyatlardagi suhbatlarda juda ham tusmollab, ko‘r-ko‘rona fikr yuritiladiki, aql bilan hech nimani tushunib bo‘lmaydi. Kishi horg‘in, boshiga har qanaqa o‘y-fikrlar zo‘rlab to‘ldirilgandan keyin, antiqa mish-mish, bid’at, kurakda turmaydshan gap-so‘zlarning bolalab ketishini ko‘ring. Men boshqalar haqida kuyunib gapirib yotaman-u, o‘zimniki unikidan salgina bo‘lsa-da yaxshi bo‘lmaydi. Misol uchun shunday bir irim bor, go‘yo ayblanuvchining taqdiri uning qiyofasida, ayniqsa, uning lablarida shundoq ko‘rinib turarmish. Ha, hakam sizning lablaringizga qarab hukm chiqaradi, buni esa u yerda o‘tirgan kishilar bemalol tasdiqlashlari mumkin. Yana qaytarib aytaman, bu juda kulgili, ahmoqona irim, ma’lumotlarning katta qismi unga teskari vaziyatdan xabar berib turadi, ammo bu kishilar to‘dasiga tushib qolsangiz, bu xurofotga qarshi turish dushvor bo‘lib qoladi. Nima uchun bu uy-dirmalar shu darajada kuchli, bir o‘ylab ko‘ring-chi! Bizlardan birimizni gapga solganingizni eslaysizmi? U hatto sizga javob ham qilolmagan. Albatta, u yerda kishini zo‘rlab, kuch bilan har maqomga solish mumkin, biroq uni, ayniqsa, sizning lablaringiz karaxt qilib, tang ahvolga solib qo‘ygani aniq. Keyin u sizning lablaringizga qarab faqtgina sizning emas, o‘zining ustidan chiqariladigan hukmni ham o‘qiganini hikoya qilib yurdi.

– Mening lablarimga qarabmi? – K. hayron qolib, buni so‘rarkan, cho‘ntagidan oynachasini olib, chehrassha qaradi.

— Lablarimda hech qanaqa alohida alomatlar borligini ko‘rmayapman. Siz-chi?

— Men ham, — dedi savdogar, — mutlaq hech narsani!

— Bu odamlar namuncha irimchi bo‘lishmasa! — hay-qirdi K.

— Men sizga nima deyapman o‘zi? — istehzo qildi savdogar.

— Nahotki, ular o‘zlaricha yig‘ilib olib, hammasini boshlariga kelgan o‘y-xayollar bo‘yicha hal qilib qo‘ya qolaveradilar? — bilmoqchi bo‘lardi K. — Men esa hozirgacha ham bir chekkada yakkamoxovga o‘xshab, hammasini ichimda saqlab kelaman.

— Ular ham tez-tez uchrashavermaydilar, — aniqlik kiritdi savdogar, — ular juda ham ko‘pchilik. Bu yerga bar-chalarining to‘planib kelishi mumkin emas. Qolaversa, ularning yakdil dard-u tashvishlari ham yo‘q hisobi. Ba’zan qandaydir guruhbozlar chiqib, ularning umumiy maqsadlaridan so‘z ochib, boshlarini qovushtirmoqchi, nimalarga- dir ishontirmoqchi bo‘ladilar, biroq ko‘p o‘tmay bu xato ekanligi ko‘rinib qoladi. Sudda jamoa bo‘lib hech narsaga erishish mumkin emas. Sudda har bir ish juda puxtalik bilan olib boriladi va alohida-alohida o‘rganiladi, so‘ngra bundan qolganlar xabar topishadi, ammo u qanday yuz bergani, qanday qilib amalga oshirilganligi hech kimga ma’lum bo‘lmasdan, sirli tarzda qolaveradi. Xullasi kalom, bu kishilarning hech qanaqa mushtarak tomonlari yo‘q To‘g‘ri, ular ba’zan-ba’zan qabulxonalarda uchrashib qoladilar, biroq ko‘pincha sukut saqlab o‘tirishlari to‘g‘ri keladi. Bu irim-sirim, bid’atlar esa eskidan qolgan va o‘z-o‘zidan ko‘payib yotadi.

— Kishilarni qabulxonada ko‘rar ekanman, — gap suqdi K., — ularning bu yerda sarg‘ayib kutib o‘tirishlari butunlay foydasiz ko‘rindi menga.

– Yo‘q, kutib o‘tirish foydadan xoli emas, – e’tiroz bildirdi savdogar. – Foydasizi hammasiga o‘zлari aralashishga intilishlari. Men sizga aytdim-ku, bundan tashqari, mening yana besh oqlovchim bor. Boshda men ham hamma ishni beshqo‘llab bitta oqlovchining o‘ziga topshirsa bo‘ldi, deb o‘ylaganman. Biroq bu mutlaq noto‘g‘ri bo‘lgan. Endi esa ahvolim bitta oqlovchiga topshirib qo‘ygandan-da qiyinroq. Albatta, bular siz uchun tushunarsiz!

– Tushunarsiz, – K. ham bu so‘zni qaytarar ekan, go‘yo bu bilan savdogarni tinchlantirib, haddan tashqari tezlik bilan irod etayotgan nutqining sur’atini sal to‘xtatmoqchi bo‘ldi va kaftini uning kaftiga qo‘ydi. – Men sizdan faqat bir narsani o‘tinib so‘rayman: sal sekinroq gapiring, o‘zingizdan qolar gap yo‘q, bularning barini ko‘rib-bilish menga suv va havoday zarur, ammo paydar-pay yog‘ilayotgan so‘zlarining ortidan chopib, ularni anglab, mohiyatiga yetib olishga hech ulgurolmayapman.

– Buni siz menga yaxshi eslatdingiz, – dedi savdogar.

– Ma’lumingizkim, siz yoshsiz, yangilardansiz. Ustingizdan jinoiy ish qo‘zg‘atilganiga bor-yo‘g‘i yarim yil bo‘ldi. Bu juda ham navqiron, o‘n gulidan bir guli ochilmagan, kelajagi bor sud jarayoni! Eshitganmiz, eshitganmiz. Men esa allaqachon hammasi haqida ming martalab o‘ylab chiq-qanman, men uchun bu dunyoda tushunadigan, mag‘zini chaqish kerak bo‘lgan hech narsa qolmagan.

– Ustingizdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish shunchalik uzoq cho‘zilgandan, balki, o‘zingiz xursanddirsiz? – bilmоqchi bo‘ldi K. U ishi shu savdogarga bog‘liq bo‘lib turganida to‘g‘ridan to‘g‘ri bunaqa savolga tutib uni ranjitishni istamasdi. Biroq to‘g‘ridan to‘g‘ri javob ham ololmadi.

– Ha, mana, qariyb besh yildan buyon ustimdan qo‘zg‘atilgan jarayonni qirchang‘i otdek surgicalab kelaman, – derkan, savdogarning nafasi ichiga tushib, boshini egib oldi. – Bu hazilakam muvaffaqiyat emas.

U jim bo'lib qoldi. K. Leni kelmayaptimi, deb qulqoq soldi. U bir tomondan qiz kelib qolishini istamas, chunki u hali juda ko'p narsa haqida savdogardan so'rab-bilib olishi kerak, Leni kelsa do'stona gurungning beliga tepishi turgan gap, boshqa tomondan, Lenining sho'rva ichirib kelaman, deb oqlovchining oldida shunchalik uzoq qolib ketganligi uni ezar, nimaga kerak bo'ldi bu, deya o'ylayverib sil bo'lib ketdi.

– Men u paytlarni juda yaxshi eslayman, – yana tilga kirdi savdogar va K.ning ham butun vujudi qulqoqqa aylandi, – o'shanda mening boshimdan kechayotgan sud jarayoni ham ayni sizning hozirgi vaziyatingizdek desa bo'-lardi. O'shanda menga faqat mana bu oqlovchi xizmat qilar, ammo men undan ko'p ham rozi emasdim.

Mana hozir men hammasini bilib olaman, deb o'yladi K. va bir jonlanish bilan boshini qimirlatdi, go'yo u bu bilan savdogarni eng muhim savolga mutlaq oshkoraliq bilan javob berishga da'vat qilayotganday bo'ldi.

– Mening ustimidan qo'zg'atilgan jinoiy ish jarayoni, – davom etdi savdogar, – bir joyda turib qolgandi. To'g'ri, ishni ko'rish boshlangan, men biron-bir so'roq qilishlardan qolmasdim, hujjat yig'ib, barcha idora daftarlарini ko'tarib, sudga taqdim qilib chiqdim, keyin bilsam, bularning bari ortiqcha, keraksiz yugur-yugurlar ekan, yana har doim oqlovchining oldiga chopganim-chopgan, u ham son-sanoqsiz arznomalar tayyorlab berishdan charchamasdi...

– Son-sanoqsiz arznomalar deysizmi? Qanday qilib? – qayta-qayta surishtirdi K.

– Bo'lmasa-chi! – dedi savdogar.

– Bu men uchun favqulodda muhim bir yangilik bo'ldi, – dedi K. – mening ishim bo'yicha esa u hali-hamon birinchi arznomani tayyorlayotir. U hecham jonimni koyitay demaydi. Ha, u mening ishimni qanchalik bema'ni bir ahvolga soldi, men buni endigina ko'rib turibman.

— Him, bu qog'oz hali tayyor emasmi, balki, jo'yali bir sabablari bordir, — deb qo'ydi savdogar. — Ha, bundan tashqari, keyinroq ma'lum bo'ldiki, bu arznomalarning men uchun sariq chaqalik ham foydasi yo'q ekan. Ulardan bit-tasini men hatto o'qiganman, uni xushmuomala sud xiz-matchilaridan biri ko'rsatgandi. Ochig'i, u sirdan ilmiy ruhda tayyorlangan ko'rinsa-da, mohiyatan biron-bir jo'yali gapdan xoli edi. Hammasidan oldin, jimjimador lotincha iboralar qalashtirib tashlangan, mening ularni tushunishga tishim o'tmadi, so'ng butun-butun sahifalar sud nomiga bittelgan ohorsiz balandparvoz oldi-qochdi faxriyalardan iborat, keyin alohida-alohida kazo-kazo to'ralar bardor-bardor qilinadi, to'g'ri, bu zotlarni ismi-sharifi bilan atab, madh etilmagan, lekin har biridagi nozik qochirim, alohida bag'ish-lovdan kim haqida gap ketayotganligini osongina fahmlab olish mumkin, nihoyat, o'z-o'zini ko'klarga ko'tarib alyor aytadi, nega oqlovchi sudga murojaat qilayotganda itdan battar tubanlashib, yaldoqlanib ketadi, hech bilolmadim va oxiri o'tgan yillardagi har qanaqa sud jarayonlari talqin qilinganday bo'lib, so'ngida meniki ham qistirib o'tilgandi. Aqlim yetgancha shuni aytishim mumkinki, bu hujjat tayyorlash-u ishni ko'rishlar haddan tashqari puxtalik bilan olib borilganiga gap yo'q. Men tanishish baxtiga tuyassar bo'lgani shunday qog'ozlardan bittasi, xolos. Ammo har qanaqa vaziyatdan qat'i nazar, men shuni ayni paytda qayd etib o'tishim kerakki, bu arznomalar mening ishim bo'yicha biron-bir ijobjiy siljish yasab, turtki berganini ko'rmadim. Bor haqiqatni oshkor qilar ekanman, bu bilan oqlovchining ishini qoralash niyatim ham yo'q.

— Bu oldga siljishni siz qanday tasavvur qilasiz o'zi? — so'radi K.

— Sizning savolningizda jon bor, — tabassum bilan dedi savdogar. — Bunday ishlar kamdan kam hollardagina joyidan

jiladi. Biroq bunaqa bo‘lishini men u paytlar bilmasdim. Bilganingizdek, men savdogarman, birinchi navbatda hozirgiga qaraganda ham ko‘proq savdo ishlari bilan shug‘ullansam derdim, buning uchun esa ish oxirigacha yetib borishi yoki hech bo‘lma ganda qandaydir darajada ravnaq olishi kerak edi. Buning o‘rniga ma’no-mazmuni bir xil bo‘lgan adoqsiz tergovlar olib borilardi, men ulardagi javoblarni, xuddi ibodatdagi oyatlar kabi yoddan hech narsani o‘ylamasdan aytib bera olaman, har haftada bir necha marta suddan idoramga yoki uyimga ishqilib, qayerda meni uchratish mumkin bo‘lsa, tinimsiz chaqiruv qog‘ozi yuboriladi; albatta bu mening ishlarim yurishuviga juda ham xalaqit berar, bir yomonning bir yaxshisi bo‘ladi, deganlaridek, telefon qilib bezovta qiladigan tanish-bilishlarim keskin kamaydi, natijada, hamkor oshna-og‘aynilarim, ayniqsa, qon-qarindoshlarim o‘rtasida, ustidan olib borilayotgan sud jarayoni xususida turli-tuman mish-mish ovozalar bolalab ketdi, bular, albatta, ortiq darajada menga ziyon-zahmat yetkazdilar, ammo yaqin kundarda hech bo‘lmasa ishni ilk bor ko‘rish haqida esa biron-bir alomat ko‘rinay demasdi. Shunda men oqlovchiga arz-dod qildim. U esa buni juda g‘alati qilib izohladni, uning gapidan bu jabhadagi jonni jabborga berib qilingan xatti-harakatlar oqibati nima bilan yakunlanishini taxminan shunday tasavvur qildim: ishni ko‘rib chiqishni hech kim tezlashtirishi mumkin emas, arz qilib, ishni bir yoqlik qilishni talab qilib, qattiq turib olishim behuda, bu ularga yetib ham bormaydi yo bu injiqlik bilan o‘zimni va uni halokatga yo‘liqtirishim mumkin ekan. Mening boshim qotib, o‘ylanib qoldim: balki, bu oqlovchining qo‘lidan kelmaydigan, ehtimol, qo‘lidan kelsa-da, qilishni istamagan ishni boshqasi istashi va uddalashi mumkindir. Va men boshqa oqlovchilarni izlashga tushdim. Bir zumda hammasini do‘ndirib tashlamoqchi bo‘lib otni qamchiladim: ammo naql qilganlaridek ishni ko‘rishni hech

kim hech qachon talab qila olmas, hech kim bunga erishi-shi ham mumkin emasligini qaydan bilibman, nima uchun bu haqida gapirayotganimni keyin aytarman, haqiqatan ham buning amalga oshishi hech mumkin emas ekan, bu jihatdan oqtovchi meni aldamagan; ammo men boshqa oqlovchilarga bekorga murojaat qilibman, deb afsuslanmayman. Ehtimol, siz doktor Gulddan xufiya oqlovchilar haqida eshitgandirsiz. Albatta, u bunday oqlovchilardan hazar qilganday, jirkаниш bilan gapirgandir, ular shunga loyiq. Faqatgina u bundaylarni o'zi kabilarga solishtirganda, jindekkina xatoga yo'l qo'yadi, bu aynan nimadan iboratligini men yo'l-yo'lakay izohlab ketaman. Ochig'i, Guld kabilar hamtovoqlari bilan suhbatlarida xufiya oqlovchilardan ustun, alohida hurmatga loyiqliklarini pisand qilishlari uchun o'zlarini yirik oqlovchilar deb ataydilar. Buni to'g'ri deb bo'lmaydi. Mayli, xayollariga kelganicha o'zlarini tasavvur qilishlari zo'r, yirik oqlovchimiz deb o'ylashlari mumkindir, biroq har qanday vaziyatda ham suddagi atamalarning ma'nosi qat'iy bir tartibda, o'zgarmasdir. Agar shunga amal qilinadigan bo'lsa, xufiya oqlovchilardan tashqari oqlovchilar mayda va yirikka bo'linadilar. Bunday holda mana bu oqlovchi va uning hamkasblari mayda oqlovchilar sirasiga kiradi, yirik oqlovchilar haqida esa men faqat ovozalardan eshitganman, xolos, taassufki, ulardan hech birini hozirgacha ko'rishga muvaffaq bo'lmadim, aftidan, „maydalar“ xufiyalardan jirkanib, yuqorida turganlaridek, yiriklar mayda oqlovchilardan darajalariга ko'ra shunchalik yuqori maqomda turishsa kerak.

– Yirik oqlovchi deganlari nimani bildiradi? – surishtira ketdi K. – Ular qanaqa odamlar o'zi? Qanday qilib ularni ilintirsa bo'ladi?

– Bundan chiqdi, siz ular haqida hech nima eshigmagan ekansiz-da, – dedi savdogar, – aftidan, har bitta ayblanuvchi bu oqlovchilar haqida xabar topgandan keyin, ularni ilin-

tirishni orzu qilmagan bo'lsin. Yaxshisi, bunday vasvasaga tushmaganingiz ma'qul. Yirik oqlovchilar degani kimlar o'zi, men buni tasavvurimga sig'dira olmayman, menimcha, ularni qo'lga kiritish umuman mumkin emas. Shu paytga-cha biron marta bo'lsin ular aralashgan sud haqida ishonch bilan gapirib berishim qiyin. Allakimlarnidir himoya qilish-gan bo'lsa bordir, ammo bu ayblanuvchining xohish-iroda-siga ko'ra bo'lishi mumkin emas; ular kimniki himoya qilish o'zlariga o'ng'ay va manfaatli bo'lsagina shularni himoya qiladilar. Ular o'z qo'llariga oladigan ish quyi sud bosqi-chi hududidan qariyb chiqayozgan bo'ladi. Yaxshisi, butunlay ular haqida xayol surmagan ma'qul, bo'lmasa, boshqa oqlovchilar bilan olib borilgan barcha muzokaralar, ularning barcha maslahatlari va yordamlari behuda bo'lib chiqadi; men buni boshimdan o'tkazganman: oxiri hammasini uloqtirishni istab qolasan va faqat to'shagingdan turmay cho'zilib yotgancha, bu haqida bir og'iz gap eshitmasam deysan. Biroq bunaqa ahmoqlik bilan hech narsa qilish mumkin emas, baribir, seni o'z to'shagingda ham tinch qo'yishmaydi.

– Demak, siz yirik oqlovchilar haqida avvalboshdanoq o'ylamagan ekansiz-da? – bilmoqchi bo'lardi K.

– O'ylaganman, ammo unchalik emas, – derkan, savdogar yana miyig'ida kulib qo'ydi. – Ularni butunlay unutish mumkin emas, ayniqsa, uzun tunlar boshga har turli o'y-xayollar keladi. Biroq men hammasidan ham ko'proq ishimda biron-bir sezilarli muvaffaqiyat bo'lishini astoydil istab qolgan vaqtimdan boshlab, xufiya oqlovchilarga murojaat qilishga tushdim.

– Ikkovlaringga bunday bahamjihat o'tirish qanchalik yarashibdi! – qo'lida idish-tovoq bilan qaytgan Leni eshik og'zidanoq sado berdi.

Haqiqatan ham ular bir-birining pinjiga tiqilgudek yaqin o'tirishar, ehtimol, sal qaltis harakat, jindekkina burilish bi-

lan boshlari bir-biriga urilib ketishi mumkin edi. Savdogar kaltabaqay bo‘lishiga qaramay, yanada bukchayib olgan, K. esa uning har bir so‘zini qoldirmasdan terib olish uchun unga juda ham yaqin bo‘lib, egilib olganicha o‘tirardi.

– Bir daqiqaga u yoqqa qara! – qiz shunday deb K.ga qaradi, holbuki, u hamon titrab-qaqshagancha, sabrsiz bir holda savdogarning qo‘lini tutib turardi.

– U mendan ishim haqida so‘zlab berishimni iltimos qildi, – savdogar Leniga tushuntirmoqchi bo‘lganday dedi.

– Him, ayt, aytaver, – istehzo qildi qiz.

Qiz savdogar bilan xushmuoamala edi, ammo juda yuqoridan turib gapirardi, bu K.ga yoqmadi, u allaqachon bu odam hurmatga loyiq ekanligini tushungan; qolaversa, boshidan o‘tkazgan ko‘rguliklar xususida ajoyib tarzda hikoya qilib berdi. Aftidan, Lenining u haqida chiqargan hukmiadolatdan emas. K. Leni shunday bir vajohat bilan savdogarning qo‘lidan shamlarni yulqib olganini, – qiz hamisha bir narsani ushlasa qattiq tutardi, – ha, uning qo‘llarini tizzalari ustiga tushirib, shimini kir qilmaslik uchun barmoqlarini peshbandi bilan yaxshilab artganiga razm solib turdi.

– Siz yana menga xufiya oqlovchilar haqida ham gapirib berishga xohish bildirgandingiz, – derkan, K. hech nar-saga shama qilmay, Leniga qo‘lini uzatdi.

– Buning senga nima keragi bor? – qiz shunday deb ohistagini K.ning qo‘lini qisib qo‘ydi-da, o‘z ishini davom ettirdi.

– Ha, ha, xufiya oqlovchilar haqidami, – derkan, savdogar qo‘lini peshonasiga olib bordi, go‘yo nima deyayotganligini esiga keltirmoqchi bo‘layotgandek.

Unga yordam berish umidida K. shipshitib qo‘ydi:

– Siz tezda sezilarli natijalarни qo‘lga kiritishni istaganigizdan keyingina xufiya oqlovchilarga murojaat qilgansiz.

– Mutloq to‘g‘ri, – deb tasdiqladi savdogar, ammo hech narsani qo‘sishma qilmadi.

Aftidan, u Lenining oldida gapirishni istamaydi chog'i, o'ylab qoldi K. Holbuki, u hammasini eshitishni istar, lekin sabrsizlanib turardi, shu sabab o'zini tutib turolmadi.

– Men haqimda xabar qildingmi? – u Lenidan so'radi.
 – Albatta-da, – javob qildi qiz. – U seni kutib o'tiribdi. Blokni qo'ya tur, u bilan keyin ham gaplashib olishga ulgurasan. Blok shu yerda bo'ladi.

K. tezda bir qarorga kela olmadi.

– Siz shu yerda qola olasizmi? – savdogardan iltimos qilgan bo'ldi K.

K. bu kishining o'zi shuni tasdiqlashini istardi, lekin Le-nining Blok haqida gapirganda, u bu yerda yo'qday o'zini tutishi unga yoqmadi. Ha, umuman, bugun K. ko'nglida Leniga qarshi qandaydir yashirin bir achchiqlanish, gina paydo bo'lganini his qildi.

Lekin yana uning o'rniga qiz javob qildi.

– U ko'pincha shu yerda tunab qoladi.
 – Shu yerda tunab qoladimi? – hayratlandi K.

U bo'lsa oqlovchining oldiga kirib, imkon qadar tezroq muzokarani tugatib qaytguncha, Blok uni kutib o'tirsa va keyin ular bирgalikda bu yerdan chiqib, bir xoli joyda hammasini boshdan oxirigacha muhokama qilishlariga umid bog'lagan edi.

– Ha, albatta, – dedi Leni. – Qani bo'l, Yozef oqlov-chi hammani ham xuddi sen kabi xohlagan paytida qabul qilavermaydi. O'zi betobligiga qaramay, yana soat o'n bir bo'lganida seni qabul qilayotganiga hatto ajablanmaysan ham. Sen buni xuddi shunday bo'lishi kerak, deb hisoblaysan chog'i, holbuki, faqat seni xursand qilay deb do'stlaring o'lib-tirilib yotadi. Albatta do'stlaring, qolaversa, mening o'zim bularning barini jon-u dilim bilan qilaman. Hech qanaqa minnatdorchilik bildirishning ham keragi yo'q. Bor-yo'g'i meni sevsang bo'ldi.

— Seni sevmoq? — K. buni o‘ylagan ilk daqiqadanoq uzoq taraddudlanib qoladi: ha, albatta, men uni sevaman, degan fikr tezgina xayoliga kela qolmadni.

Biroq ovoz chiqarib, gap yo‘sini ushbu masalaga burdi:

— Oqlovchi meni mijoz bo‘lganim uchun qabul qiladi. Agar bunga begonalarning yordami bilan muvofiq bo‘linayotgan ekan, demak, har qadamda Xudoning zorini qilishga va minnatdorchilik bildirishga to‘g‘ri keladi.

— Nima balo, u bugun chap yoni bilan turganmi, fe'l-at-vori bunchalik aynimasa, — Leni savdogarga qarab dedi.

„Mana endi bo‘lsa, kamina haqda ham go‘yo men bu yerda yo‘qdek gapirishga o‘tdi“, — o‘yladi K., hatto shu yerdagi savdogardan ham dili ranjidi, u ham xuddi Leni kabi hech bir andishaga bormasdan luqma tashladi:

— Oqlovchi uni yana boshqa bir sababga ko‘ra ham qabul qiladi: uning ustidan olib borilayotgan sud jarayoni menikiga qaraganda qiziqarli. Bundan tashqari, endigina boshlandi va unchalik darajada chuvalashmagan ham, shuning uchun oqlovchi bu ish bilan shug‘ullanishni istaydi. Keyinchalik hammasi o‘zgarib ketadi.

— Ha, ha — qahqaha otib, Leni savdogarga qaradi. — E, sen nimalarni valdirab yotibsani! Sen buning gaplariga ishonma, — endi u K.ga burilib, gapini davom ettirdi. — U haddan tashqari mehribon, mushfiq, ammo dahshatli tarzda safsataboz ham. Balki, shuning uchun ham uni oqlovchi ko‘zga ilmaydi. Harna bo‘lganda ham oqlovchi uni qabul qiladi, ammo qachon xayoliga kelib qolsa, ko‘ngli erisa huzuriga chaqiradi. Men uning uchun tirishib-tirmashib, yon bersin deb urinib ko‘rdim, lekin hammasi behuda ketdi. O‘zing tasavvur qilib olaver, ba’zan men unga Blok haqida xabar beraman, u esa faqat uch kun o‘tgandan keyingina uni huzuriga chorlaydi. Biroq ana shu payt Blok yo‘q bo‘lsa, yana qaytadan u haqida ma’ruza qilishga to‘g‘ri keladi. Shunday paytlar bo‘ladiki,

oqlovchi yarim tunda qo'ng'iroq qilib, uni o'z oldiga kiri-shini talab qiladi. Shuning uchun ham men Blokka bu yerda tunab qolishga izn berdim. Demak, endi u tunda ham tayyor bo'lib turadi. To'g'ri, u ba'zan Blokning shu yerdaligidan xabar topgach, bu qarorini bekor qiladi.

K. savdogarga savol nazari bilan qaradi. U kishi ham boshini qimirlatib, hali K. bilan yolg'iz qolgandagi kabi osh-koralik bilan tilga kirdi (ochig'i, u xijolatga tushib, o'zini yo'qotib qo'ygani ko'rinish turardi):

– Ha, o'z oqlovchingga borgan sari mute bo'lib qolasan.

– U faqat rahm-shafqat uyg'otish, achintirish uchun o'ziga shunday tus beradi, – dedi Leni. – Aslida esa bu yerda tunab qolishni yaxshi ko'radi, bu haqida menga bir necha marta uning o'zi aytgan, – qiz kichkinagina eshikcha oldiga keldi va uni lang ochib dedi: – Uning yotog'ini ko'rishni istaysanmi?

K. yurib kelib ostonadan, katalakdek, oynasiz, torgina karavotcha bor bo'yini egallagan g'arib hujrachani ko'zdan ke-chirdi. Karavotga faqat bir yon bilan yotilsa, sig'ish mumkin edi. Bosh tomondagi devorda kichkina bir taxmon ko'zga tashlanar, unda rasmiyatchilarda bo'ladigan bir saranjom-sarishtalik bilan sham, siyohdon, ruchka va bir bog'lam qog'oz alohida turar, – aftidan, ular sud hujjatlari edi.

– Demak, siz xizmatkorlar uchun mo'ljallangan mana bu hujrada tunar ekansiz-da? – so'radi K. savdogarga mu-rojaat qilib.

– Menga u yerni Leni bo'shattrib berdi, – dedi savdogar. – Bu joy juda ham qulay.

K. unga tikilib qaradi. Aftidan, Blok qoldirgan birinchi ta-assurot to'g'ri: uning tajribasi juda katta, shuning uchun ham ustidan qo'zg'atilgan ish hali-hamon sudralib kelar, shunga qaramay bu muvaffaqiyatlari unga juda qimmatga tushgannini tasavvur qilsa bo'lardi. Birdan bu odamning butun qad-di-qomati, afti-angori unga juda ham ayanchli ko'rinish ketdi.

— Buni qarang, u g‘ujanak bo‘lganicha uxlasa-ya! — K. butunlay u odamni tushunmasdan Leniga qarab o‘shqirdi.

Yo‘q, hozir u oqlovchining oldiga kirib, xizmatini rad etadi, bu raddiya esa faqatgina oqlovchining o‘zidangina emas, balki mana bu Leni va tasqara savdogardan ham uni xalos etadi.

Biroq u eshikka yetib bormasdan, savdogar ojizona ovozda uni chaqirdi:

— Janob prokurist! — K. achchig‘i chiqib ortiga o‘girildi. — Siz bergen va’dangizni unutdingiz, — derkan, savdogar yalinchchoqlik bilan turgan joyidan K.ga qarab intildi. — Siz mena qandaydir maxfiy sirni ma’lum qilmoqchi edingiz?

— To‘g‘ri! — dedi K. o‘ziga sinchkovlik bilan tikilib turgan Leniga shunchaki bir qur qarab olib. — Mana bo‘lmasa, eshitib oling: buning endi sirligi ham qolmadi. Men hozir oqlovchining huzuriga kiraman-u, uning yordamidan bosh tortaman.

— Bu uning xizmatini rad qilmoqchi! — savdogar baqirib yuborib, kursidan sakrab turdi va butun oshxona bo‘ylab yugurishga tushib, qo‘llarini osmonga qarab silkirdi. — U oqlovchini rad etmoqchi! — U qayta-qayta shunday deb hayqirardi.

Leni K.ga tashlanib, uni to‘xtatib qolmoqchi bo‘ldi, ammo savdogar uning yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lib oldi, shu bois ham qiz savdogarga musht tushira ketdi. Keyin mushtlarini yozmay K.ga tomon otildi, biroq anavi kimsa undan-da chaqqonroq harakat qildi, Leni K.ni quvib yetayotganida u allaqachon oqlovchi xonasiga yetay deb qolgandi. U endi eshikni yopmoqchi bo‘lganida Leni eshikning bir tabaqasiga oyog‘ini qo‘yib tutib qolmoqchi bo‘ldi va uni tirsagi bilan turtib, kattaroq ochishga urindi. Biroq, Leni qizning barmoqlarini shunday qattiq qisdiki, u voyvoylab eshikni qo‘yib yubordi. Xonaga kirishga qizning yuragi betlamadi, K. ham uni ichkaridan kalit bilan qulflab oldi.

– Men sizni allaqachondan buyon kutib o‘tiribman, – dedi karavotdan turib K.ga tikilib qaragan oqlovchi, u ko‘zoynagini taqib o‘qigan hujjatlar tungi stolda yoyilib yotardi.

Biroq uzr so‘rash o‘rniga K. dabdurustdan dedi:

– Men tezda ketaman.

K. undan uzr so‘ramagani uchun oqlovchi bu so‘zlarini e’tiborsiz qoldirdi va qo‘sishimcha qildi:

– Keyingi safar men sizni bunday allamahalda qabul qilmayman.

– Bu mening ham ko‘zlagan niyatimga to‘la mos keladi, – dedi K.

Oqlovchi unga savol nazari bilan qaradi.

– Marhamat, o‘tiring! – deb qo‘ydi keyin.

– Agar sizga shu qulay bo‘lsa, jonim bilan, derkan, K. oromkursini tungi stol yoniga surib unga cho‘kdi.

– Adashmasam, siz eshikni ichkaridan kalit bilan qulfladingiz chog‘i, – dedi oqlovchi.

– Ha, – deb javob qildi K. – Leni uchun shunday qildim. U hech kimdan rahm-shafqat kutishni istamagandi.

Biroq oqlovchi surishtirib qoldi.

– U yana sizga suykalyaptimi?

– Suykalyaptimi? – qayta so‘radi K.

– Ha, bo‘lmasa-chi, – dedi oqlovchi va tirjaydi. Kulgi bilan birga uning yo‘tali ham tutib qoldi, so‘ng u yana ishshayib dedi. – Ha, u juda yengiltak, buni o‘zingiz ham, ehtimol, allaqachon sezgandirsiz, – shunday derkan, u qo‘li bilan K.ning yelkasiga urib qo‘ydi.

– Nachora, siz bunga ahamiyat qilmasligingizga to‘g‘ri keladi, – deb qo‘ydi oqlovchi K.ning sukut saqlab o‘tirganini ko‘rib. – Shunisi tuzuk. Aks holda, ehtimol, sizning oldingizda uzr so‘rashimga to‘g‘ri keladi. „Qon bilan kirkagan, jon bilan chiqar“. Bular qizning odatiy qiliqlari, men allaqachon bularning bari uchun uni kechirganman va agar

siz eshikni mahkamlab yopmaganingizda, bu haqida hatto gapirmagan ham bo'lardim. Menga bu shilqimlikni doston qilishning keragi yo'q, ammo sizning hozirgi vajohatiningizga qarab turib, buning miridan sirigacha, bari-bari tilga olinmasdan qolmaydi chog'i. Uning tantiqlik bilan taltayib ketishining boisi ko'pchilik ayblanuvchilarga Leni ofatijon bo'lib ko'rindi.

Uning atrofida hammalari girdikapalak bo'lishadi, hammalari uni sevishadi, go'yo qizning o'zi ularning hammasini sevadigandek, keyin bo'lsa, meni yupantirmoq bo'lib, shubhasiz, roziligidan goh-gohida qiz ular haqida bilganlarini bitta qoldirmay menga aytib beradi. Mana siz bundan juda hayratlanib ketdingiz, meni esa bu hech ham ajablantirmaydi. Bu chaqnoq ko'zlar bor ekan, hech shubhasiz, bu go'zallik ayblanuvchilar nazaridan chekkada qolishi mumkin emas. Albatta, o'ziyam hayratlanarli-da, hatto qodir tabiatning kamdan kam uchraydigan mo'jizasi, deb atasa arziydi. Anglashilgandek, aybnomada sirtdan hech narsa o'zgarmaydi, bu aniq-ravshan. Aslida, bu sal g'alati emasmi, ko'pgina jinoiy ishlarni ko'ring: ularning aksariyatida ayblanuvchi o'zining har kunlik odatiy hayotini davom ettirib yuraveradi, yaxshi bir oqlovchini topadi-da, bor-yo'q hamma dar-disarliklarni uning zimmasiga yuklaydi, o'zi bo'lsa bu sud jarayoniga umuman tegishli bo'lmagandek tutadi. Yana shunaqa kishilar ham borki, bunaqa ishlarga juda ishqiboz bo'ladilar, ular olomonning orasidan adashmasdan har qanday ayblanuvchini yuziga qarab taniy oladilar. Qanday belgilar asosida? – deb so'rashingiz mumkin. Ehtimol, mening javobim sizni qoniqtirmasligi mumkin. Bu juda oddiy: ayblanuvchilarning bari husni tal'at egasi bo'ladilar. Albatta, ularni ko'hlik qilib qo'ygan omil sodir etgan jinoyatlari emas – holbuki, oqlovchilik kasbimga ko'ra, ularni shunday deb hisoblashim kerak, lekin ularning hammasi ham

aybdor – jinoyatchi emaslar axir va, albatta, ularadolatli jazo olish uchun sohibi husn bo‘lib tug‘ilmaganlar, shuning uchun ham ularning barchasi shunga yarasha jazolanmaydilar; ammo qo‘zg‘atilgan ishda bularning bari ularga qarshi dastak sifatida ko‘tariladi va shu bois ham bu ularga yomon ta’sir qiladi. Ma’lumingizkim, mana bu yoqimtoy – chiroyli kishilar ichidan haddan tashqari husni tal’at egalari – sohib-jamollar ham uchrab turadi. Biroq ularning hammasi go‘zal, hatto mana bu uch pulga qimmat Blok ham.

Oqlovchi gaplarini oxiriga yetkazmaganiga qaramay, K. allaqachon bir qarorga kelgan, u hatto oqlovchining so‘nggi so‘ziga javob bo‘lgandek da’vatkor bir tarzda boshini qimirlatgan bo‘lsa-da, aslida, o‘z-o‘zicha juda murakkab bir alfozda ko‘zlagan ishi o‘z tasdig‘ini topgandek edi: shu oqlovchi K.ning foydasini ko‘zlab qandaydir bir faoliyat olib borishi mumkinmi? Oqlovchi ham, aftidan, K. bu safar odatdagidan tashqari unga qarshi kayfiyatda ekanligini sezmasdan qolmadi, ammo biron nima demadi, ishqilib, K.ning o‘zi tilga kirsin, deb kutib o‘tiraverdi, biroq K. o‘jarklik bilan jim o‘tiraverganini ko‘rgach, oqlovchining o‘zi gap ochishga majbur bo‘ldi:

– Bugun siz mening oldimga biron-bir aniq maqsadni ko‘zlab kelgandirsiz?

– Ha, – deb javob qildi K. va qo‘llarini shamga yanada yaqinroq tutdi, ishqilib, oqlovchini yaxshiroq ko‘rish mumkin bo‘lsin, deb. – Shuni aytmoqchimanki, bugundan boshlab mening tarafimni olib sudda himoya qilish huquqidandan sizni soqit qilmoqchiman.

– Men sizni to‘g‘ri tushundimmikan? – oqlovchi buni so‘rash asnosida o‘zini to‘shakka tashlab, tirsaklarini yos-tiqchalarga tirab o‘tirdi.

– O‘ylashimcha, to‘g‘ri tushunibsiz, – derkan, K. unga tikka qarab, har vaqt har narsaga hozir-u nozir turardi.

— Bu nimasi, agar siz shuni rejalaشتirgan bo‘lsangiz, avval uni kengashib olish kerak edi, — oqlovchi shunday dedi-yu, jimib qoldi.

— Bu endi faqat reja emas, — dedi K.

— Bo‘lishi mumkin, — dedi oqlovchi ham. — Shunday bo‘lsa ham shoshilib nima qilamiz. — U „Shoshilib nima qilamiz“, deb aytishi bilan go‘yo, K.ni o‘z qo‘l ostidan chiqarishni xayoliga ham keltirmayotgani, agar ochiq-oydin vakili bo‘lib qolishining iloji bo‘lmagan taqdirda ham maslahatchisi bo‘lib qolmoqchi edi. — Hech kim shoshilayotgani yo‘q, — derkan, K. ohista o‘rnidan qo‘zg‘aldi va orom-kursining suyanchig‘idan tutib, qo‘srimcha qildi. — Men uzoq o‘yladim, hatto haddan tashqari uzoq o‘yladim. Biroq muqarrar bir qarorga kelib bo‘ldim.

— Unda mening bir necha og‘iz so‘z aytishimga ruxsat bering, — deb oqlovchi ustidan choyshabni yulqib otdi va karavotning bir chekkasiga o‘tirdi. Uning mo‘yi oqargan yalang‘och oyoqlari ayozdan qaltirardi. U K.dan divandagi qalin junro‘molni uzatib yuborishni iltimos qildi.

K. junro‘molni olib bera turib dedi:

— Siz bunaqada shamollab qolasiz.

— Yo‘q, behudaga emas, bularning bari juda ham muhim, — derkan, oqlovchi ustiga choyshabni tortib, junro‘mol bilan oyog‘ini o‘radi. — Sizning amakingiz mening qadrdon do‘stim bo‘ladi, o‘tgan vaqt orasida sizga mehrim tushib qoldi. Bunga men ochiq iqrorman. Bu yerda uyaladigan, xijolatga tushadigan hech narsa yo‘q.

K. uchun qariyaning hamma narsani his qilib turib hasrati ni eshitish yoqimsiz edi, holbuki, bularning hammasini izohlab berishni talab qilar, u esa bundan o‘zini olib qochishni istar, ustiga-ustak, u o‘z-o‘zicha bularning bari bir kuch bilan uni urib ezg‘ilayotganini ochiq e’tirof etib o‘tirar, ammo uning azm-u qarorini o‘zgartirolmas, u bir fikrga kelib bo‘lgandi.

– Do'stona his-tuyg'ular uchun tashakkur, – deb gap boshladi u. – Siz men uchun nima qo'lingizdan kelsa, nima mumkin bo'lsa hammasini qildingiz, bu natijalarning hammasi sizning sa'y-harakatlaringiz bilan bo'ldi, buni to'la anglab turibman. Biroq keyingi paytda buning o'zi yetarli emasligiga ishonchim komil. Ma'lumingizkim, men hech qachon fikr-u o'yimni zo'r lab birovga tiqishtirishga harakat qilmayman, ayniqsa, u yoshi ulug', shunga yarasha ko'p narsani ko'rgan bir kishi bo'lsa, agar men gohida beixtiyor bunga jur'at etgan bo'lsam, meni afv etishlarini o'tinib so'rayman, biroq shu yerga kelganda bu ish, xuddi o'zingiz talqin qilganingizdek, favqulodda jiddiy bir pallaga kirdi va unga shu paytga qadar bo'lganga qaraganda yanada sezilarli darajada kuch bilan aralashmasa bo'lmaydi. Vaziyat shuni talab qiladi.

– Men sizni tushunaman, – dedi oqlovchi. – Siz juda sabrsizsiz.

– Men-ku u darajada sabrsiz emasman, – K. biroz g'a заби qo'zib derkan, tezda so'z tanlashni bas qilib, gapini lo'nda qilib ayta qoldi:

– Ehtimol, amakim bilan kelgan birinchi tashrifimga e'tibor bergen bo'lsangiz, ustimdan qo'zg'atilgan jinoiy ishga qiziqish meni bu yerga yetaklamagan, balki bo'ynidan ip bog'lab, aytish mumkin bo'lsa zo'r lab olib kelingandim, shu uchun ham tezda uni unutib qo'ygandim. Ammo amakim qattiq turib olib, o'z boshimga tushgan ko'rgulikdan sizni ogoh etsam, bu men uchun foydali bo'ladi, degani uchun shunday qilgan edim. O'z manfaatlarini himoya qilish huquqini oqlovchiga qo'shqo'llab bergenidan keyin, tabiiyki, mening boshimga ag'darilgan sud jarayonidagi talay yugur-yugurlar, dardisarliklarni u o'z zimmasiga olar, bulardan qisman bo'lsa-da ozod bo'lib, erkinroq nafas olishim lozim bo'lardi. Ammo hammasi teskari bo'lib chiqdi. Siz mening

manfaatlarimni himoya qilaman deb ishimni o‘z qo‘lingizga olguningizga qadar men hech qachon ustimdan kechayotgan sud jarayoni borasida bunchalik xavotirga tushmagan edim. Ungacha men yolg‘iz o‘zim edim, o‘z ishimda biron-bir yutuqqa erishmagandim, hatto u nimadan iborat ekanligini qariyb tasavvur ham qilmagandim, keyin esa, nihoyat, mening himoyachim topila qoldi, shunga ko‘ra bu ish o‘z joyidan jilar degan umidda hammasini o‘rnidan qo‘zg‘atib yuboradigan turtki bo‘lishini orziqib kutdim, oxir-oqibat esa hammasini chuvalashtirib yubordingiz-u, ammo biron-bir narsaning uddasidan chiqmadingiz. To‘g‘ri, siz menga sud haqida shunchalar ko‘p narsa gapirib berdingizki, ehtimol, boshqa hech kim buncha narsani hikoya qilib berishning uddasidan chiqmas. Biroq endi toqatim toq bo‘ldi, suv boshdan o‘tdi, sud jarayoni ham shunday bir pallaga kirdiki, hozirgacha qilinganlari yetarli emas.

K. oromkursini itarib yuborib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi, qad-dini rostladi, qo‘llarini esa cho‘ntagiga solib oldi.

– Jinoiy ish jarayonining hammaga ma’lum bu bosqichida, – ohista va xotirjamlik bilan gap boshladi oqllov-chi, – amaliyotda ko‘ringanidek, hech qanaqa voqeа sodir bo‘lmaydi. Qanchadan qancha mijozlar sud jarayonining ushbu bosqichida xuddi sizning holatingizdek bir alfozda mening oldimda turishgan va xuddi siz qaytargan gaplarni qaytarishgan.

– Bu shuni ko‘rsatadiki, – dedi K., – bu kishilarning bari, xuddi men kabi haq bo‘lishgan. Sizning e’tirozingizga hecham qo‘shilolmayman.

– Men sizga e’tiroz bildirishga taraddud ko‘rganim yo‘q, – dedi oqllovchi, – faqat shuni qo‘shimcha qilishni istardimki, men sud ishlari tartibiga chuqr nazar tashlash imkonini berib, sizdan yanada mulohazakorroq bo‘lishni kutgan edim va men hamisha o‘z mijozlarim buni tushu-

nib olishlari uchun imkon yaratishga kuyib-pishaman. Endi bo'lsa hammasiga qaramay, menga ishonish kerakligini his qilmasligingizga iqror bo'lish qoldi. Bu menga hech qachon yordam bermagan.

Bu oqlovchi K.ning oldida qanchalik o'zini yerga urdi. Kasbi-korini deb kerilishlar qayerga g'oyib bo'ldi. Aftidan, u bu yerda butun kuchini, bor makrini ishga solmoqchi chog'i. Nega u bu xo'rlikni sotib oldi? Uning hamma tomondan oqlovchilik tajribasi chakki emas, ustiga-ustak, qo'yni-qo'nji to'lgan, o'ziga yetarli badavlat kishi bo'lsa, bitta mijozning uning xizmatini rad qilishi va bu uning orqasidan keladigan mablag'dan ajralib qolish uning uchun fojia emas-ku, axir. Qolaversa, xasta bir kishi bo'la turrib, har turli urintirib qo'yadigan og'ir ishlarga o'zini uraverishi kerak emas. Biroq hammasiga qaramay, u K.ga yelimday yopishib oldi. Nima uchun? Amakisi bilan oshna bo'lgani uchunmi? Yoki K.ning ustidan yuritilayotgan sud jarayoni unga haqiqatan ham odatdan tashqari noyob tuyuldimi va u buni ajrim qilib bermoqchimi? Ammo kimning oldida qilinadi? Bu imkoniyatni boy bermaslik uchun, K.ning oldida tili uzun bo'lish uchun shunday qilyaptimi yoki o'z hammaslaklari oldida nimaga qodirligini ko'rsatmoqchimi? Yo'q, K. unga sinchiklab qaragani bilan, turqidan hech narsani uqib ololmadi. U, balki, atayin yuziga shunaqa hech narsani ko'rib bo'lmaydigan tund tus berib, uning gaplari qanday taassurot uyg'otganini bilmoxchimi degan xayolga ham borishi mumkin kishi. Biroq, u K.ning jumlagini o'zi uchun xayrlı deb o'yladi chog'i, yana bidirlay ketdi:

– Siz, ehtimol, hayhotday kattakon devonxonada bironta yordamchim yo'qligiga e'tibor bergen bo'lsangiz kerak. Avvallari vaziyat boshqacha edi. O'shanda mening qo'limda bir qancha navqiron huquqshunoslar xizmat qilishardi. Endi

esa birgina o'zim ter to'kishga majburman. Bu qisman hayotiy tajribam o'zgarishlari bilan bog'liq, shuning uchun ham, asosan, bunaqa sud jarayonlari ichiga kirib ketishdan o'zimni tiyaman. Sizniki ham qisman shundaylar sirasiga kirsa-da, men bu ishning eng tubigacha tushdim. Va tushundimki, agar men mijozim oldida gunohga botishni va o'z oldimdagi burchimni buzishni istamas ekanman, bunday ishni boshqaga topshirish mumkin emas. Biroq barcha ishni o'z zimmasiga olish qarori albatta bir talay oqibatlarni ham boshlab kelardi: yurakdan joy olgan bu ishni uddalash uchun qolgan hammasining bahridan o'tishga to'g'ri kelar, buning ustiga suddagilar bilan yaqin bo'lmoq uchun bor shilqimlikni ishga solib, tirishib-tirmashish, oxirigacha bor kuchni ayblovga qarshi tashlash, har narsaga tayyor turish, zarurini nozaruridan saralab olish kerak bo'lardi. Hammasing ishonchini qozongunimcha holdan toyib, adoyi tamom bo'lar darajaga yetdim. Ammo bularning hammasiga qaramay, men biror marta ham bir to'xtamga kelish uchun ketgan vaqtimga achinganim yo'q, hatto boshqa ishlar qilish uchun buni boshimdan soqit qilish mumkin bo'lganida ham bunday qilmadim, bu jinoiy ishga jon-jahdim bilan yopishdim va bularning bari o'zini oqlab muvaffaqiyat qozonishi kerak edi. Bir hujjatda shunday o'qiganim bor: unda oddiy fuqarolik ishlari bilan mana bunaqa murakkab ishlar borasidagi farq aniq-tiniq ko'rsatib berilgan edi.

Unda shunday yozib qo'yilgan: birinchi voqeaga ko'ra, oqlovchi o'z mijozini sudning hukmi ijro etiladigan dor tagigacha yetaklab olib borishi kerak, ikkinchisida esa darrrov u mijozini yelkasiga mindirib olib borishi, hatto hukm o'qib eshittirilib, ijro etilgandan keyin ham yelkasidan tu shirmsligi kerak. Bor-yo'g'i shunday. Men buni vijdonan ado etganimga qaramay, haq emasga o'xshab shumshayib o'tiribman, ammo bunday ulkan ishni o'z zimmamga olga-

nimdan hech qachon pushaymon qilmasligimni aytavera-man. Hali o'rtamizda nima yuz beradi – bilolmay turibman, shuncha harakatim bir pul bo'lib, bu ishlarim bir chekkaga supurib tashlanadigan bo'lsa, shundagina men afsus-na-domat qilaman.

Biroq butun suhbat K.ni ishontirish o'rniga, uning qo-nini qaynatib yubordi. Oqlovchining bir ohangdagi ezmala-nishlari unga shunday tuyuldiki, u agar yana shunga ko'nsa, axir oqlovchi aynan shuni kutib turibdi, yana umidvor qi-lishlar avj olib, sud amaldorlarining ruhiyatini mast qiladi-gan balandparvoz so'zlar qalashtirilgan arznomalar ustidagi ish davom etar, ular ishni yuritib yuborishga shama qili-shaverar, holbuki, ishdagi to'sqinlik va qiyinchiliklar o'z holicha turaverar, xullasi kalom, oqlovchi ma'lum usullarni qo'llab, K.ni noayon umidlar va tahdidli vahimalar bilan qiyndardi.

Bularning bariga qat'iy bir nuqta qo'yish kerak deb o'y-lagan K. so'radi:

– Agar shu gaplarga ishonadigan bo'lsam, mening ishim bo'yicha yana qanday tadbir qo'llamoqchisiz?

Bu tomoshada hatto o'zi uchun tahqirlovchi savol yang-raganiga qaramay, oqlovchi norozilik bildirmadi va javob qila qoldi:

– Men shu paytgacha nima qilib kelgan bo'lsam, shuni davom ettiraman-da.

– O'zim ham shunday deyishingizni bilardim, – cho'rt kesdi K. – Endi ortiqcha gap-so'zlar bilan vaqtimizni ket-kazib o'tirmaylik.

– Yo'q, yana bir yo'lni ishga solsam ham bo'ladi, – dedi go'yo bu oqlovchining o'z hayotida yuz bergenidek, K. shunga hayajonlanishi kerak edi. – Ko'ryapsizmi, men o'z yordam berish huquqimdan mosuvo bo'lishdan emas, yo'q, balki sizning butun turqi tarovatingiz, axloqingizdan

tashvishdaman, holbuki, siz ayblanuvchi bo‘lishingizga qaramay, shu paytgacha men sizga haddan tashqari yaxshi munosabatda bo‘ldim, buni yanada aniqroq ifodalash kerak bo‘lsa, qo‘poliklaringizga beparvo, sovuqqon bo‘lib keldim, ana shularni bari meni o‘ylantirib, sizdan gumonsiratib qo‘ydi. Biroq bularning ham o‘ziga yarasha sabablari bor; bunaqangi ozodlikdan ko‘ra zanjirband etilish yaxshiroqdir. Nima bo‘lganda ham mayli, men boshqa ayblanuvchi-larga qanday murojaat qilaman, qanaqa munosabatda bo‘laman, sizga bir ko‘rsatib qo‘yishni istar edim; ehtimol, bu siz uchun foydali saboq bo‘lsa ham ajab emas. Men hozir Blokni huzurimga chaqiraman. Eshikni ochib, mana bu stol yoniga borib o‘tiring.

– Bajon-u dil! – mammuniyat bilan dedi K. va oqlovchi qanday buyurgan bo‘lsa shunday qildi: o‘rganishga u hamisha tayyor edi. Biroq qanaqa vaziyat bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zini bu ishlardan tashqarida ekanligini, hech qanaqa qaramligi qolmaganligini yana bir bor oqlovchidan aniqlashtirib olmoqchi bo‘lib so‘radi.

– Ammo men sizni vakilim bo‘lish vazifasidan ozod qildim, shu ma’lumotni qabul qildingizmi?

– Ha, – ohistagina dedi oqlovchi, – biroq siz bugunoq bu qaroringizni o‘zgartirishingiz mumkin.

U yostiqchalarga yaxshilab joylashib olib, choyshabni tumshug‘igacha tortdi va devor tomonga burilib, qo‘ng‘iroq chaldi.

Qo‘ng‘iroq bo‘lishi bilan xonaga Leni kirdi, u apiltapil alanglab, nima voqeа yuz bergenini tushunib olishga urindi. K. hamon oqlovchi to‘sagining bir chetida tinchgina o‘tirardi, bu qizni xotirjam qildi. U tabassum bilan K.ga bosh silkib qo‘yar ekan, unga javoban yigitning nigoji o‘zgarmadi.

– Blokni olib kir, – buyurdi oqlovchi.

Biroq qiz chiqib ketish va Blokni boshlab kelish o‘rniga o‘zi ham shu yerda bo‘lishi uchun, nomigagina – shunchaki eshikka yaqinlashib, shu yerdanoq qichqirdi:

– Blok! Oqlovchining oldiga! – Oqlovchi devor tomonga o‘girilib olgancha, hech narsaga e’tibor qilmayotgani ko‘ringani bois, qiz K.ning oromkursisiga suykalib oldi.

Bu lahzalarda qiz uni tinch qo‘ymas, goh oromkursining suyanchig‘idan oshib, egilib-bukilar, goh ikki qo‘li bilan, albatta, juda ehtiyyotkorlik va latiflik bilan uning sochlarini silar, yoki kaftlari bilan bo‘ynini siypalardi. Oxir-oqibat, K. buni bas qildirmoqchi bo‘ldi va qizning qo‘llarini mahkam ushlab oldi. Avvaliga qiz qo‘llarini tortib olishga urindi, biroq keyin bunga ham rozi bo‘la qoldi.

Blok birinchi chaqirgandayoq ostonada paydo bo‘ldi, u eshik og‘ziga kelib turgancha, kirsammi yoki yo‘q, deb go‘yo taraddudlanib, mulohaza qilayotgandek edi. U qoshlarini uchirib, boshini engashtirdi-da, oqlovchining oldiga kirish borasidagi buyruq yana qaytarilarmikan, deb qulog‘ini ding qilib turdi. K. uni chaqirib, dadillantirmoqchi bo‘ldi, ammo u faqatgina mana bu oqlovchidangina emas, balki, umuman, bu xonadonda bo‘lib o‘tayotgan hamma voqeadan qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoqchi, butunlay qo‘l silkitmoqchi edi, shu bois ham tomoshada qatnashmay, o‘zini chekkaga oldi. Leni ham indamay o‘tirardi. Bilardiki, uni birov haydayotgani yo‘q. Blok oyoq uchida xonaga kirdi, ammo titroqli bir alfozda qo‘llarini beliga tirab olgandi. Agar chekinish kerak bo‘lsa, har ehtimolga qarshi imkoniyat bo‘lsin, deb eshikni ham ochiq qoldirdi. U K.ga qaramadi ham, butun diqqatini yig‘ib, nigohini baland parto‘shakka tikkkan, uning ostida hatto oqlovchini ham ko‘rib bo‘lmasdi. To‘sakdagagi kishi haddan tashqari devorga qapishib olgandek turardi.

Parto‘shakning tagidan chiqqandek ovoz keldi.

– Blok shu yerdami? – so‘radi u.

Bu savoldan Blok shunday bir holatga tushdiki, bir sapchib gandiraklab ketdi, go'yo uni kimdir yelkasidan urib, keyin orqasiga tushirgandek, surobi to'g'rilangan bir alfovza itoatkorlik bilan go'ldiradi:

- Xizmattingizga muntazirman.
- Senga o'zi nima kerak? – so'roqqa tutdi oqlovchi. – Yana bekorga kelibdi.
- Ammo meni chaqirgandek bo'ldilar, nazarimda? – o'smoqchilar ekan, Blok bu savolni qanchalik darajada oqlovchidan so'rayotgan bo'lsa, shu darajada o'ziga ham berayotgan bo'lib, go'yo o'zini himoya qilmoqchiday qo'llarini keng yoydi-da, qariyb bu yerdan qochib qolishga tayyorlanib qoldi.
- Ha, chaqirilding, – dedi oqlovchi. – Lekin baribir sen bemahal, bekordan bekorga kelibsang. – Oqlovchi bir zum tin olib turdi-da, keyin qo'shimcha qildi:
- Sen hamisha shunday bemavrid paydo bo'lib qolasan.
- Oqlovchi gapirib turgan bu pallada, Blok uning karavotiga qaray olmas, olis bir chekkada turganday faqat uning ovozi qulog'iga kirar, ammo u bilan kim suhbat qurayotganini ko'rmaydigan bir so'qir kabi, o'ziga qaramasmikinlar deb xavfsirayotganga o'xshardi.
- Biroq, oqlovchini eshitish juda mushkul, chunki u devor-ga qarab gapirganidan, gaplari tez va past ovozda chiqardi.
- Men keta qolsam, sizga tuzuk bo'larmidi? – Blok izn so'radi.
- Kelibsangmi, tura tur-da endi! – dedi oqlovchi.
- Bu bilan oqlovchi Blokning istagini bajarmoqchi emas, balki aksincha, uni so'kib-jerkib qo'rqiymoqchi, bu so'zlar dan esa Blokni butun jismi joni qaltiroqqa kirishini ko'zlagan degan fikr-mulohazaga borish mumkin edi.
- Kecha men uchinchi darajali hakamning oldiga bordim, – dedi oqlovchi, – mening qadrdonim bo'lgan bu kishi

bilan suhbatimiz boshidan oxirigacha sen haqingda bo‘ldi. U nima deganlarini bilishni istaysanmi?

– O, albatta, sizdan o‘tinib so‘rayman, – dedi yolvorib Blok.

Biroq qoidasi xuddi shunday bo‘lganidek, oqlovchi tezda javob qilmadi, Blok yana bir bor o‘tindi, haddan tashqari egilib-bukildi, go‘yo tiz cho‘kkudek edi. Biroq shu joyda K. unga baqirib berdi.

– E, sen nima qilyapsan? – Leni uni tinchlantirmoqchi edi. Shunda yigit uning boshqa qo‘lini ham mahkam ushlab oldi. U muhabbati jo‘sghanidan, qizning qo‘llarini qisgani yo‘q edi, oxiri qiz voyvoylab, ularni tortib olishga urindi. K.ning o‘chini Blokdan olmoqchi bo‘lgan oqlovchi shu zahoti undan so‘radi:

– Sening oqlovching kim?

– Siz! – javob qildi Blok.

– Mendan boshqa yana kimlar bor? – qasdi-bastiga oldi oqlovchi.

– Sizdan boshqa yo‘q.

– Sen hamisha shunday bo‘l, allakimlarning gapiga kirib yurma! – amr etdi oqlovchi.

Blok uning nima demoqchiligini fahmlab qoldi va K.ga yovqarash qilib, boshini shubhaga o‘rin yo‘q, degandek silkidi. Agar bu g‘arazli norozilikni so‘zga aylantirsa bormi, ular haddan tashqari shaloq so‘kish tarzida yangrashi turgan gap edi. K. shunday odam bilan o‘z ishini do‘stlarcha muhokama qilishga taraddudlanib o‘tiribdi-ya!

– Mening senga halaqit berish niyatim yo‘q, – derkan, K. jahl bilan oromkursini surdi. – Nafsingni qondirmoq uchun neki qing‘irlik, pastkashlik bo‘lsa ishga sol, tiz cho‘k, oyog‘iga o‘zingni tashla – xullas, ne istasang bilganiningni qil. Men hech biriga xalaqit bermayman.

Biroq, Blokning har qalay oriyati junbishga kelib, K.ga nisbatan har qanaqa munosabatga qaramasdan, u yigitga qa-

rab surilib, bilaklarini unga sirmab-sirmab, oqlovchi oldidagi qo‘rquvini bazo‘r bosib, qichqirdi:

— Men bilan gaplashayotganda bunaqa ustimdan kulmang! Bu juda ham nojo‘ya qiliq. Siz nimaga meni xafa qilyapsiz?

Bu ham yetmagandek, yana janob oqlovchining oldilariida. Bu yerda ikkimizga ham, menga ham, sizga ham faqat marhamat yuzasidangina sabr-toqat qilib keladilar. Sizning mendan hech qanaqa ortiq joyingiz yo‘q, siz ham bir xom sut emgan banda, sizga qarshi ham jinoiy ish qo‘zg‘atilgan. Agar siz o‘zingizni kerakli kishi hisoblasangiz, men ham xuddi shunday kerakli kishiman, ehtimol, sizga qara-ganda ham kerakliroq bo‘lishim mumkin! Shuning uchun ham aynan men bilan bunday ohangda gaplashaman deb o‘zingizni har qanaqa mushkulliklarga solib yotmang! Ehtimol, siz o‘zingizni mana bu oromkursiga o‘tirish imtiyoziga egaman, deb hisoblar ekansiz, men ham xuddi o‘zingiz salmoqlab aytmoqchi bo‘lganizingizdek nafsimni qondirish, qur sog‘imni to‘ldirish uchun jonim halak bo‘lishi kerak emassi? Shu joyda sizning xotirangizga eski bir qismat naqlini solib qo‘yishga ruxsat eting: ayblanuvchi uchun bir yerda tinch o‘tirgandan ko‘ra, harakat qilish behroq, chunki sen bir joyda tinchgina, qimirlamay o‘tirsang, ehtimol, gunohlaringning hamma-hammasi butun yuqingga qo‘shilganidan zavori bilinmasligi, u haqida umuman bilmay qolishing, hatto tasavvur qila olmasliging mumkin.

K. hech narsa demadi, faqat bu dumbulboyvachcha uning ko‘ngliga urdi. U bir soatda necha maqomga kirib, qanchadik turlanib-tovlandi-ya! Nahotki ustidan qo‘zg‘atilgan sud jarayoni uning shunchalik aqli-hushini o‘g‘irlab, jirkanch bir kim-saga aylantirgan, kim uning do‘sti, kim dushmani, kim yori, kim ag‘yori ekanligiga fahm-farosati yetishidan ham mosuvo etgan bo‘lsa? Nahotki, oqlovchi uni atayin xo‘rlanayotganini ko‘rmayotgan bo‘lsa, ha, albatta, bu safar oqlovchi faqat bir

maqsadni ko‘zlagani o‘zining hokimiyatini K.ning oldida ko‘zko‘zlamoqchi ekan, bunga laqmalik bilan bo‘ysunib, vosita bo‘lishi mumkinmi? Agar haqiqatan ham Blok buni anglash iqtidoridan judo bo‘lgan yoki hech bo‘lmaganda u oqlovchidan shu darajada yurak oldirib qo‘yib, hatto anglab, his qilib turgani uchun ham unga yordam bera olmaydigan holga kelgan bo‘lsa, u qanday ayyorlik qila oladi, qanday qilib oqlovchini aldashga yuragi dov berib, undan tashqari yana bir necha oqlovchini bu ishga jalb qilganligini yashira oladi? Bunisi ham yetmagandek, u qanday qilib, har lahzada uning maxfiy sirini fosh qilishi mumkin bo‘lgan K.ning naq o‘ziga hujum qilishga jur’at qilishi mumkin?

Biroq Blok buni o‘ylab ham o‘tirmadi; u oqlovchining to‘shagiga yaqinlashib K.dan yozg‘irishga tushib ketdi.

– Janob oqlovchi, – murojaat qildi u, – o‘z qulog‘ingiz bilan eshitdingiz-a, bu odam men bilan qanaqa ohangda gaplashdi? Uning ustidan qo‘zg‘atilgan ish qandaydir arzimas fursatga cho‘zilgani besh qo‘lday ayon. Bu bo‘lsa menga uncha-muncha emas, sud jarayoni naq besh yilga sudralgan kishiga bilag‘onlik qilib nimalarnidir o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Yana bu ham yetmagandek, so‘kib-so‘ylab, haqorat ham qilishga o‘tdi. Hech narsadan xabari yo‘g‘-u, boloxonador qilib so‘kinishga, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqishiga o‘laymi, holbuki, men bu tadbirning ojiz tomonlarini juda yaxshi bilaman, qolaversa, sud ishlaridagi an‘analar, burch va tartiblar, talab qandayligidan yaxshigina xabardorman.

– Hech kim bilan ishing bo‘lmasin, – dedi oqlovchi, – nimani to‘g‘ri deb bilsang, shunday qil.

– Albatta, – dedi Blok, go‘yo o‘z-o‘zidan kuch olganday bo‘lib, u yoq-bu yoqqa alanglab, shundoq karavotning oldiga tiz cho‘kib o‘tirdi. – Qadrli oqlovchim, oldingizda naq tiz cho‘kkancha o‘tiribman! – dedi u. Biroq oqlovchi muz qotgandi. Blok bir qo‘li bilan parto‘shakni ehtiyokorona siypaladi.

Jimlik tushganidan foydalanib, K.ning qo‘lidan qo‘llarini bo‘shatish umidida Leni tilga kirdi:

– Qo‘yvor. Jonimni olay deding. Men Blokka yuzlansam deyman.

Qiz zipillab o‘tib, to‘shakning bir chekkasiga o‘tirdi. Blok bundan quvonchi ichiga sig‘may hovliqdi va bilinar-bilinmas imo-ishoralar bilan lab-lunjini qimirlatib, unga oqlovchi oldida o‘zini himoya qilishni o‘tindi. Aftidan, qanaqadir ma’lumotni yetkazib, oqlovchini qarmoqqa ilintirishi kerakdir. Balki, u faqat shuning uchun boshqa oqlovchilarni ishga solib kelayotgandir. Leni oqlovchiga qanday xushomad qilish kerakligini juda yaxshi biladi, shuning uchun ham u ko‘zлari bilan Blokka bir shirinlikni yalamoqchiday, baayni o‘pich olmoqchi bo‘lgandek, lablarini cho‘chchaytirib, uning qo‘liga ishora qildi. Blok shu joyda Lenining imo-ishorasiga ko‘ra oqlovchining qo‘lini olib, qayta-qayta cho‘lpillatib o‘paverdi. Biroq oqlovchi hamon malomat bilan indamay o‘tirardi. Leni oqlovchi tomon engashib, karavot ustiga o‘zini tashladi, – shunda uning butun qaddi qomati durkun, sog‘lom, go‘zal bir tarzda namoyon bo‘ldi. Qiz cholning boshiga engashgancha, uning uzun oq sochlarni silashga tushdi. Endi bunday holga hech ham indamay o‘tirib bo‘lmasdi.

– Buni unga ma’lum qilish uchun biron-bir qarorga kelganim yo‘q, – derkan, oqlovchi boshini bir tomonga sal burdi, – ehtimol, Lenining tegishishini yaxshiroq his qilmoq uchun shunday qilgandir. Blok esa boshini solintirib olgancha, go‘yo ta’qiqlangan qandaydir narsaga o‘tilgandek, qulog‘ini ding qilib tinglardi.

– Senga buning uchun nima monelik qilyapti? – qiziq-sindi Leni.

K.ning ko‘nglidan hissiyotlar kechar, go‘yo qandaydir ilmiy bir muloqotni eshitayotganday, u allaqachondan buyon

tez-tez qaytarilib turgan, hali yana ko‘p qaytariladigan bu gap-so‘zlar Blok uchun hech qachon o‘z yangiligini yo‘qotmaydigandek edi.

– U bugun o‘zini qanday tutyapti? – oqlovchi javob o‘rniga shuni surishtirdi.

O‘z fikrimni qanday aytsam ekan, deb buni bayon qilishdan oldin Leni Blokka qarab qo‘yib, biroz turib qoldi, u esa qanchalik yolvoruvchan nigoh bilan qizga ko‘zlarini tikib, qo‘llari bilan ham buni tasdiqlab turardi. Nihoyat, qiz qat’iy bir tarzda boshini qimirlatib, oqlovchiga dedi:

– U juda ham tirishqoq, mo‘min-qobil bo‘lib qolgan.

Bu pixini yorgan savdogar, keksa kishi o‘zi haqida yaxshi bir mulohaza uyg‘otib ber, deb shu qizchaga yolvorib, zorlanib turardi. Ehtimol, uning bu nigohlari ortida biron-bir ko‘zlagan fikr-o‘yi bordir, biroq shunga yarasha o‘z yaqini oldida uni oqlaydigan alomat bu ko‘zlarda zohir emasdi. Hatto bu baho uni kuzatib turganlarni ham haqoratlardi. Demak, oqlovchining ish uslubi o‘zi shunaqa! (qanday baxtki, K. bu bahri muhitda uzoq turib qolmaydi) – Mijozini butunlay yorug‘ olamdagি hamma narsani unutib qo‘yish darajasigacha olib borish, uni yolg‘on bir yo‘l bilan hukm o‘qilguncha umid uzmaslikka majbur qilib turishdan iborat. Nahotki, shu Blok uning mijozib bo‘lsa? U oqlovchining iti-ku! Agar bu kishi unga karavotning tagiga kir deb buyursa, go‘yo unda itning ini bordek, o‘sha yerdan turib huradi va itoatkorligidan o‘zicha lazzat ham oladi. K. diqqatini bir joyga jamlab, go‘yo hammasini aniq-tiniq eshitib turar, go‘yo unga eslab qolish topshirilgan-u, bu yerda nima gapirilgan bo‘lsa, bitta qolmay tinglab, hammasini oqizmay-tomizmay arshi a’loda axborot berishi lozimday edi.

– Butun kun bo‘yi u nima ish bilan mashg‘ul bo‘ladi? – so‘radi oqlovchi.

— Men uni atrofimda o'ralashib, ishimga xalaqit bermasın, deb xizmatkorlarning xonasiga qamab qo'yaman, — dedi Leni. — U hamisha o'sha yerda o'tiradi. Vaqt o'tgani sayin ora-sirada nima qilyapti, deb oynachasidan qarab turaman. U esa karavotda muk tushib o'tirib olgancha, deraza rafiga hujjatlarni yozib olib, sen unga nima bergen bo'lsang, shularni o'qigani-o'qigan. Daricha hovliga olib chiqishini, qanday joylashganini yaxshi bilganimdan, bu mening ichimni siqib yuboradi, axir u yer ikki devor orasi bo'lgani bois, u yerga yorug'lik qariyb tushmaydi. Blok bo'lsa shunga qaramay mutolaasini hech kanda qilmaydi. Uning qanday chidamli ekanligini shundan ham bilsa bo'ladi.

— Bularni eshitmoq meni xursand qiladi, — dedi oqlovchi. — Biroq u o'qiyotganlariga tushunarmikan?

Ularning suhbati kechayotgan paytda Blok to'xtovsiz lablarini qimirlatib shivirlar, qaysiki oldindan tayyorlab qo'ygan javoblari Leni tomonidan yangrashiga umid qilardi.

— Him, bu savolga, — dedi Leni, — ochig'i, aniq-ravshan qilib javob berishim qiyin. Harna bo'lganda ham men uning juda ham qunt bilan qiroat qilishiga guvohlik berishim mumkin. Butun kun davomida u bir betdag'i jumlalarni qayta-qayta o'qib, satrlar ustidan barmoqlarini yuritgani-yuritgan. Unga qarab tursang, goh uh tortib qo'yganini ham ko'rsa bo'ladi; shundan ham bu o'qish unga qanchalik mashaqqat keltirayotganligini, sen unga, aftidan, juda ham tushunarsiz, rosa boshni qotiradigan hujjatlarni berganiningni tasavvur qilsa bo'ladi.

— O, to'g'ri! — qo'shildi oqlovchi. — Ular haqiqatan ham oson emas. Yana men, ochig'i, uning bularga fahmi yetishiga ham ishona olmayman. Men faqat bu hujjatlarni Blokning qo'liga, uni oqlash uchun qanchalik og'ir kurash olib borishimga to'g'ri kelishini u tushunib yetsin, his qilsin, degan umidda bergenman, xolos. Axir men kimning xursandchiligi uchun bunchalik jonioqni jabborga berib yotibman? Xursand-

chiligi uchun... Blokning xursandchiligi uchun – yo‘q, bunday deyish faqat kulgili. U hech bo‘lmasa buni qadrlashni o‘rgansin-da. Ammo u bu bilan muntazam shug‘ullanadimi?

– Ha, qariyb dam olmasdan shug‘ullanadi, – javob qildi Leni. – Faqat bir bora tomog‘ini ho‘llab olishni iltimos qiladi. Men unga deraza tabaqasi osha stakanda suv uzataman. Soat sakkizlardagina u chiqib, ozgina tamaddi qilib oladi.

Blok mensimaygina ko‘z qirini K.ga tashlab qo‘ydi, o‘zining nomiga bo‘lgan bu maqtovlar unda shunday bir ko‘tarinki kayfiyat uyg‘otmasligi mumkin emasdi. Aftidan, unda yana umidvorlik uyg‘ongan, u erkingina harakat qilar, hatto butun pol bo‘ylab cho‘kkalab yurardi.

Mana yanada keskinroq o‘zgarish ham ko‘zga tashlanib qoldi: u oqlovchining so‘zlaridan toshday qotdi.

– Sen hamon uni maqtaganing-maqtagan, – dedi oqlovchi, – mening esa gapirishim juda qiyin. Gap shundaki, sud hakami Blokning o‘zi-yu, uning ustidan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni haqida bo‘lmag‘ur, noxush gap qilyapti.

– Juda ham noxushmi? – qayta so‘radi Leni. – Bu qanday bo‘lishi mumkin?

Blok ham qizga shunday bir yolvoruvchan nigoh bilan zoriqib qaradiki, allaqachon hakam tomonidan aytib bo‘lin-gan so‘zni qiz shu yerning o‘zida hoziroq uning foydasiga o‘zgartirib yuborishga qodirligiga ishonardi.

– Ha, noxush gap, – dedi oqlovchi. – Hatto Blok haqida uni gapga solsam, meni siltab ham tashladi.

„Menga shu Blok haqida gapira ko‘rmang!“ – dedi u. „Bu qanaqa bo‘larkin! Axir, Blok mening mijozim-ku“, e’tiroz qilib dedim men. „Siz bu ishni bekordan bekorga cho‘zyapsiz“, – gapidan qolmadi u. „Biroq men bu ishning natijasi yo‘q deb hisoblayman“. „Sizga qolsa, uni qancha sudrasangiz shuncha yaxshi-da“. – Haligi gapini yana qaytaradi u. „Men bunday deb o‘ylayman, – deb e’tiroz bildirishga

o‘tdim men ham. – Blok hamisha o‘z ustidan olib borilayotgan jarayon bilan astoydil shug‘ullanyapti, kun bo‘yi shu bilan band, u hatto har vaqt har narsaga tayyor turish uchun, allaqachondan buyon menikida yashaydi. Bunaqa serhafsallik kamdan kam kishida uchraydi. To‘g‘ri, „Uning shaxsida bir talay qo‘lansaliklar yo‘q emas, uning shunaqa odatlari borki, kishi undan jirkanib ketadi, u bir isqirt, biroq o‘zining ustidan olib borilayotgan jarayonning tashvishini qilishda u bekami-ko‘st, hech kamchiligi yo‘q“. Men uni atayin, „Hech kamchiligi yo‘q“, – dedim, lekin ma’lum bo‘lishicha, men bo‘rttirib yuboribman. U menga shunda mana bularni eslatib qo‘ydi: „Blok – pixini yorgan ayyor. U ana shunday san-solarlik bilan paysalga solishda ustasi farang bo‘lib ketgan. Ammo uning nodonligi ayyorligidan bir necha karra oshib tushadi. Qani u shunaqa darajada nodonligini o‘zi ham bila qolsa edi, u hatto jinoiy ish jarayonini ilk bora ko‘rish uchun yig‘ilishga qo‘ng‘iroq ham chalingani yo‘q, deb aytishlarini kutadimi-yey? Tinchlan, Blok!“ – dedi oqlovchi tizzalari qaltirab, turishga urinayotgan Blokka qarab, aftidan, u buni izohlab berishga izn so‘rash niyatida edi.

Shunda oqlovchi birinchi marta bularning barini Blokning o‘ziga bevosita izohlab berishga qaror qildi. U horg‘in ko‘zlarini solintirib qarasa-da, Blokka yoki uning yaqiniga razm solmadi, biroq Blok bu qarash ostida yana ohistagini cho‘kkalab qoldi.

– Sening uchun hakamning fikri hech qanaqa ahamiyatga ega emas, – gap boshladi oqlovchi, – har bir sas-saddodan ham qo‘rqaverma, o‘zingni shunaqa tutib shalvirayversang, men senga umuman hech narsani aytmayman. Go‘yo sening ustingdan o‘lim hukmini chiqarishayotganlariday tutasan o‘zingni. Ko‘zlarining shunga o‘xshatib javdiratma-yey, bunaqa tarzda senga biron-bir gapni aytish mumkin emas. Hech bo‘lmasa mening mijozimsan, uyal-e! Bu qilig‘ing bi-

Jan meni kuchlanirib turgan ishonchga putur yetkazyapsan. Ayt o'zing, asl maqsading nima sening, senga nima kerak o'zi? Axir hozircha yashayapsan, tirikchililing bir amallab o'tib turibdi, yana qancha bo'lsa ham, mening panohimda, homiyligimda qolaverasan. Bunchalik dahshatga tushmasang! Shunday hodisalar ham bo'lib turadiki, qayerdadir sen ham o'qigandirsan, hech kutilmaganda hukm ovozasi chiqadi. Anavi-manavi matallardagina bunaqasi uchrasa-da, bu bo'lgan haqiqat, ammo sening bunaqa dahshatga tushishlar-ning, qo'rqib-qaltirab turishlaring bu gaplarimning tamoman aksini ko'rsatadi, men ularda ishonch yetishmayotganini ko'raman. Gapning po'stkallasini aytganda, shunday emasmi? Bunday ahvolda men nima qila olaman? Hakamlardan biri o'z fikrini bildirdi, xolos. Biroq sen juda yaxshi bilasan, har qanaqa ishning tevaragida ming turli fikr-mulohazalar aytildi, qarashlar to'planadi, ularning qaysi biri to'g'riliqini mulohaza qilib, saragini sarakka, puchagini puchakka ayirish juda qiyin. Misol uchun, mana bu hakam jinoiy ish jarayoni boshidagi bir holatni muhim hisoblaydi, men bo'lsa butunlay boshqasini. Bu yerda bor-yo'g'i fikr-mulohazalar o'rtasida farq bor, boshqa hech narsa. Jarayonning muayyan bosqichida esa, eski taomilga ko'ra, qo'ng'iroq orani ochadi. Bir hakamning fikriga ko'ra, sud jarayoni ayni shu palladan boshlanadi. Hammasini hozir senga ipidan ignasigacha tu-shuntirib o'tirolmayman, deganim nuqtayi nazarlar har xil, noto'g'ri-to'g'riliqini ko'rsatish uchun kerak edi. Ha, sen bari-bir bularni tushunmaysan, shu bois ham faqat qarama-qarshiliklar ko'p bo'lishini aytishim mumkin, xolos.

Blok karavotdagi ipak gilamchani dovdiragancha chimidib o'tirar, uni hakamning fikri juda ham qo'rqihib yuborgani kundek ayon, shu bois ham oqlovchi oldidagi bu xo'rلانish onlarini butunlay unutib, faqat o'zi haqida xayol surar, o'zi-cha hakamning so'zini har tomonlama o'ylab ko'rardi.

— Blok! — Leni uni ogohlantirib, yoqasidan ushlab yuqoriga tortdi. — Mo‘ynani yulqilama, yaxshilab eshit. Oqlovchi senga nima deyapti, eshityapsanmi?

IX BOB

Ibodatxonada

K. topshiriq oldi: anchadan buyon bank bilan do‘stona hamkorlik qilib kelayotgan va bu sohada juda ham qadrلانадиган итальянни бир qancha san’at obidalariga ziyyorat qildirib chiqishi kerak. Boshqa payt bo‘lganida K. hech shubha-gumonga bormay, bunaqa topshiriqnini hammadan ham ko‘ra faxrli hisoblar, jon deb qabul qilar, biroq hozirgi sharoitda bankda qozonib kelgan obro‘-e’tiborini saqlash uchun katta sabr-bardosh talab qilinayotgan, ishi boshidan oshib, hayot-mamoti hal bo‘layotgan bir paytda istamaygina, majburan bu topshiriqqa rozi bo‘ldi. Zero, ish kabinetidan tashqarida o‘tgan har bir daqiqasi uning uchun qatorasiga mashaqqat va azob olib kelar, holbuki, u anchadan buyon ishda ham avvalgidek vaqtini barakali o‘tkazolmay ko‘ngli xunob edi. To‘g‘ri, ba’zan rosmana ishda allaqanday arzimas hujjatni tayyorlashga soatlab ter to‘kishga to‘g‘ri kelar, u biron narsaga chalg‘ib o‘tirishdan benasib, ishsiz qolgan lahzalarda bundan beshbattar darajadagi qayg‘u uni o‘z is-kanjasiga olar edi. Shunda o‘zi guvoh bo‘lganidek, direktor muovini uni ta’qib qilib yurgani yetmaganday, yo‘qligida ish bo‘lmasiga shap etib kiradi-da, stoli yoniga o‘tirib olib, uning uymalashib yotgan qog‘ozlarini titkilab, K. qariyb yillar davomida aloqa qilib kelayotgan, do‘sti-qadrdon bo‘lib ketgan mijozlarini qabul qilishga tushib, hatto ularni K.ga qarshi qayrayotganday tuyular, ha, yana u qanaqa xatolik sodir qilgan bo‘lishi mumkin, biroq keyingi paytda har tomonidan ana shu xato-yu kamchiliklar unga tahdid solayotgan-

day, ulardan qayerga qochib qutulishini bilmayotganday his qilardi o‘zini. Mayli, o‘sha qanaqadir, hatto juda ham faxrli bo‘lgan ishga oid yumushni – kichik bir ziyoratni topshirishdi ham deylik – ehtimol, bu keyingi paytlarda uning hayot chorrahasida sodir bo‘lgan sof tasodifiy hodisadir, lekin bu ham hamma-hammasini yaxshilab pishitib olish uchun qo‘l kelgan bo‘lmasin, chunki so‘nggi kunlarda doim unga bu tasodiflarning bari, ishqilib, ishini yaxshilab tekshirib olish uchun uni anchayin o‘z ish bo‘lmasidan uzoqroqqa jo‘natish va o‘sha yoqlarda ushlab turish uchun qilinganday, yoki har qanaqa vaziyatdan qat‘i nazar, usiz ham kerakli yu-mushni hech bir qiynalmasdan uddalash mumkin deb pisanda qilinayotganday tuyula boshlagandi.

Juda ko‘p topshiriqlarni hech bir qiyinchiliksiz rad qilish mumkindir. Biroq u bir qarorga kelolmagandi; agar u qandaydir shubha-gumonlarida mayda-chuyda bir asos ko‘rib, bu ziyoratni rad qildi ham deylik, ammo u bu bilan o‘zi qo‘rqib yurganiga iqror bo‘ldi degani emasmi? Shuning uchun ham u bu kabi topshiriqlarni hech bir qarshiliksiz, imi-jimida, e’tiborsiz qabul qilaverar, hatto kunlardan birida qattiqqina shamollab turganiga qaramay, juda ham oson emas, jiddiy-gina ikki kunlik xizmat safariga chiqishga to‘g‘ri kelganida ham lom-mim demadi, hartugul Xudo yorlaqab, yoqimsiz kuz havosi, kun bo‘yi yomg‘ir yog‘ib chiqqaniga qaramay, buni ham biron talofatsiz o‘tkazdi.

Nihoyat, mana shu safardan boshi yorilar darajada og‘rib, qaytib kelar ekan, ertaga u italiyalik mehmonga yo‘ldoshlik qilishga to‘g‘ri kelishidan xabar topdi. Bu safar ushbu topshiriqni rad etishga qutqu soladigan har xil vaj-korsonlar ancha-muncha edi, ayniqsa, oldindan o‘ylab qo‘yilgandek bo‘lgan bu topshiriqning bevosita uning xizmat vazifasiga hech qanaqa daxli yo‘q edi. Hech shubhasiz, ish, hamkorlik uchun tashrif buyurganlarning ko‘ngliga qarash uchun meh-

mondo'stlik taomillariga rioxalish qilish kerak bo'ladi, ammo K. uchun bu hech qanaqa ahamiyatga ega emas, u shuni biladiki, ishda uni o'z qobiliyati, kasbi-koriga oid muvaffaqiyati va omilkorligi, o'z ishini yaxshi bilgani uchun ushlab turishibdi, agar ish uning qo'lidan kelmasa, qolganlarining barchasi hech bir foydasiz, hatto mana bu italiyalikni fav-qulodda sehr-jodu bilan o'ziga maftun etgan taqdirda ham bundan hech ish chiqmasdi. U bir kun ham o'zining ishdagi nufuzidan ajralib qolishni istamas, – bundan keyin ishga yaqinlashtirmaydilar deb haddan tashqari qo'rqrar, holbuki u bu dahshat – qo'rquvlarga qanchalik bo'rttirib yopishib olinsa, shunchalik qalbi notinchlanib, yuragi o'z o'mnida bo'lmay qolishini juda ham yaxshi anglab turardi. Ammo bunaqa kutilmagan vaziyatda topshiriqni rad etish uchun biron-bir arzirli bahona topolmadi. K. unchalik bilmasa-da, har qalay, kerakli darajada italyan tilini egallab olgan, undan ham asosiysi o'smirlik yillardanoq san'at masalalariga qiziqib kelganidan, uning bu narsaga tishi o'tar, bankda esa K. faqatgina o'z kasbi-kori yuzasidan bo'lsa-da, qadim osori-atiqalarini muhofaza qilish mahalliy jamiyatiga a'zo bo'lganidan xabar topishgani bois, uning bu sohadagi bilimiga juda katta ahamiyat bilan qarashardi. Mehmon san'at ishqibozি bo'lib chiqqan ekan, unga hamroh sifatida san'atshunos yo'l boshlovchi maqomi, o'z-o'zidan tushunarliki, K.ning zimmasiga tushar edi.

Ertalabdanoq yomg'ir yog'ib turar, to'palang shamol ko'tarilgan, K. oldda turgan kun haqida o'ylarkan, avval-danoq g'ijinib, g'azabi keldi. U hali soat yetti bo'lmasdan bankka keldi-da, mehmonning tashrifi unga xalaqit ber-gunicha ayrim ishlarini bitirib olmoqchi bo'ldi. U horg'in edi, kecha yarim tungacha o'tirib, italyan tili sarfi-narxini qarab chiqqan, ishqilib, birmuncha tayyorgarlik ko'rgandek bo'lgandi; hozir esa deraza oldiga borib, tevarakni kuzat-

moq istadi, chunki u ko‘p vaqtini yozuv stoli yonida o‘tirishdan ko‘ra, shu yerda o‘tkazishni xush ko‘rardi, ammo orziqtiruvchan bu xayolni yengib, ishga o‘tirdi. Taassufki, ko‘p o‘tmay xonaga chopar kirdi va janob direktor janob K. kelganmi yoki yo‘q, ko‘z tashlab kel, deb yuborganini, mabodo u shu yerda bo‘lsa, qiyin bo‘lmasa, tez qabulxonaga o‘tsin, deb aytganini, italiyalik mehmon ham kelib turganini unga xabar qildi.

– Hozir boraman, – jajji so‘zlashkichni cho‘ntagiga tiqib, oldindan mehmonga sovg‘a sifatida taqdim qilish uchun tayyorlab qo‘yilgan, shaharning diqqatga sazovor joylari tushirilgan albomni olib qo‘ltig‘iga qistirdi va direktor qabulxonasiga muovininining ish bo‘lmasi orqali o‘tib bordi. U xursand bo‘lib ketdi, shunday erta ishga kelsa-yu, yana darrov, ehtimol, hech kim kutmagan bir paytda direktorning nazariga tushib o‘tirsa. Ma’lum bo‘lishicha, muovinning ish bo‘lmasi hali bo‘m-bo‘sh, go‘yo unda hali yarim kecha sokinligi hukmron edi. Albatta, direktor uni chopar orqali qabulxonada bo‘lishini so‘raganida muovinning o‘z joyida yo‘qligini ko‘rgan bo‘lishi kerak. Qachonki K. qabulxonaga kirganida, hashamatli chuqur oromkursilarga cho‘kkani ikki kishi o‘rnidan turib, uning istiqboliga yurishdi. Direktor unga ochiq chehra bilan tabassum qildi, aftidan, u K.ning kelgandan xursand bo‘lgani ko‘rinib turar va uni darrov italyanga tanishtirdi. U janob ham K.ning qo‘lini qattiq qisib, ilk bor uchraganda aytildigan allanimalar deb so‘rashdi. K. mehmon nima demoqchi bo‘layotganini darrov tushuna olmadi, so‘zlar unga qandaydir notanish edi, K. faqat keyinroq uning nima deganini fahmlaganday bo‘ldi. K. ham unga siyqasi chiqqan iboralar bilan javob qaytardi, italyan yana tirjayib, bir necha bor o‘zining hurpaygan qora mosh-guruch mo‘ylo-vini silab qo‘ydi. Mo‘ylovlariga atir sepib olgani shundoq bilinib turar, hatto uning yaqiniga borib hidlamoq istagini

uyg‘otardi. Hammalari o‘tirib, qisqagina suhbatlashib olish-gach, italyanni o‘qib-o‘qib tushunayotganligiga e’tibor qilib, qo‘rqib ketdi. Janob xotirjam, dona-dona qilib gapirganda-gina K. qariyb hammasini tushunar, biroq bunday hol kam-dan kam bo‘lar, holbuki, mehmon nutqining katta qismida paydar-pay luqmalarni qatorlashtirib tashlar, u bularga noi-loj, yuziga shodlik tusini berib, boshini qimirlatib o‘tirardi, xolos. Eng asosiysi u kishi doimo bir shavq bilan allaqan-day shevada o‘z fikrlarini ifoda qilar, K. esa bu italyancha so‘zlarni eshitib qolishga ham ulgurmasdi. Har qalay, direk-tor bularning barini tushunyapti deb bo‘lmasa-da, ora-sirada xuddi shu shevada ularga javob qaytarardi, shunga ko‘ra K. bu janob Janubiy Italiyada tug‘ilgan bo‘lsa kerak, degan taxminga bordi, direktor u yerda bir necha yil yashagandi. Har qanday voqedan qat‘i nazar, bu italyan bilan fikr al-mashish, biron-bir narsani tushuntirib, izohlab berish mum-kin emasligini K. allaqachon tushunib olgan, u fransuzchada bundan ham beshbattar gapirar, bu ham yetmaganday, og‘zini mo‘ylovi yopib qo‘ygan, sal boshqacha bo‘lganida lab-lun-jining harakati, imo-ishorasiga ko‘ra ham uni tushunish osonroq bo‘larmidi? K. hali ko‘p ko‘ngilsizliklar bo‘lishini taxmin qildi, holbuki direktor ishtirokida uni tushunishga bir yengillik bo‘lib, o‘zining italiyalikni aldash yo‘lidagi ham-ma urinishlari behuda bo‘lib chiqdi. Shuning uchun K. uning oromkursida yalpayib olgani-yu gohida yengil-yelpilik bilan yumshoq, botiq o‘rindig‘idan ko‘tarilib, o‘zini orqaga tash-lab-tashlab qo‘yishini, kaltagina bejirim kamzulchasinинг yenglarini qayririb, birdan tirsaklarini ko‘tarib, barmoqla-rining uchini qimirlatib, nimanidir astoydil tushuntirishiga alam bilan qarab o‘tirar ekan, butun diqqatini jamlab ko‘zini bir zum qo‘lidan uzmagan bo‘lsa-da, K. undan hech nimani anglab ololmadi. Biroq, bu o‘zining ishtirokisiz, butunlay g‘ayriixtiyoriy bir tarzda begonaning suhbatiga mahliyo bo‘-

lib o‘tirganday ko‘rsatish joniga tegdi. Zerikkanini his qilar-kan, bir parishonxotirlik bilan tursam-u, burilib, juftakni rostlab qolsam-chi, degan istak ko‘nglidan o‘tdi, ammo baxtiga shu zahoti bir qo‘rquv bilan hushyor tortib, o‘zini tutib qoldi. Nihoyat, italyan soatiga qarab, o‘rnidan sakrab turdi. U direktor bilan xayr-xo‘sish qilib, K. ga shunaqa ya-qinlashib keldiki, K. o‘zidan biroz uzoqlatmoq uchun ham o‘rnidan turishiga to‘g‘ri keldi. Italyancha shevaga tushunolmasdan, K.ning o‘zini yo‘qotib qo‘ygani direktorning e’tiboridan chetda qolmadi, u aqllilik va nazokat bilan, go‘yo bilinar-bilinmas qilib yo‘l-yo‘riq ko‘rsatayotganday bo‘lar, holbuki, aslida ham bu tinib-tinchimagan, takasaltang italyanning og‘zidan chiqqan har bir gapini, qisqagina bo‘lsada, K. uchun tarjima qilib turardi. Shunday qilib, italyanning vaqtı juda ziq bo‘lib, uning hal qilmasa bo‘lmaydigan bir ishi bor ekan, ammo shundan keyin u shu vaziyatni pesh qilib ziyyaratgohlarni shoshib-pishib ko‘rmoqchi emas, agar rozilik bildirsa, buni faqat u hal qilishi kerak, bitta ibodatxonani ko‘rmoqchi, ammo boshdan oyog‘igacha erinmasdan ziyyarat qilishni istaydi. U agar ibodatxonani tanishtirishda olim va yoqimtoy bu yigit hamrohlik qilsa, o‘zini juda ham baxtiyor hisoblar ekan, ha, u xuddi shunday dedi K. haqida. U butun kuchi bilan italyanni tinglamaslikka harakat qilib, direktorning yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi bilan darhol hammasini tushunib olaman deb o‘tirganda, mehmonning o‘zi agar unga ma’qul bo‘lsa, taxminan ikki soatlardan keyin, ya’ni o‘nlarda uchrashsak, deb iltimos qilib qoldi. U shu oraliqda ishini tugallab, ibodatxona oldiga yetib kelishiga umid qilardi. K. ishontirib javob qilgach, italyan avval direktorning, keyin uning qo‘lini, keyin yana direktorning qo‘lini mahkam qisib xayrslashdi-da, eshikka yo‘l oldi. Hatto direktor va K. uni eshikkacha kuzatib borganiga ham zarracha e’tibor qilmadi, ammo hamon og‘zi tinmasdan nimalarnidir gapirib borardi.

K. direktorning oldida o'tirar ekan, unga noxush ko'z tashlab qo'ydi. Direktor nima uchundir K. dan uzr so'ramoqchi bo'lganday, u bilan yonma-yon turib, do'stlarcha suhbatlashdi. Boshda u italyanni o'zi kuzatib qo'ymoqchi, unga hamrohlik qilmoqchi ham bo'ldi-yu, biroq keyin, buning sababini izohlab ham o'tirmasdan, K. ni yuborishga qaror qildi. K. ham uni uyaltirib qo'ymaydi. Bu odamning ko'p gaplarini tushunmasa ham mayli, bu ham fofia emas, zarar qilmaydi. Italyanga uni tushunishadimi yoki yo'q, ko'p ham muhim emas. Qolaversa, K. bu darajada italyanchani bili-shini direktor ham kutmagan: u o'z vazifasini qoyilmaqom qilib bajarishiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Shuning uchun ham u K.ning borishiga ruxsat berdi. K. qolgan barcha vaqtini ibodatxonani ko'rsatishda asqatib qolishi mumkin bo'lgan qiyin so'zlarni lug'atdan yozib olishga sarfladi. Bu yumush ayricha ekanligi bois, hafsala qilishni talab etardi, buning ustiga, orada choparlar pochtani olib kelishdi, xizmatchilar ma'lumotnomalar uchun kirishdi, ko'rdilarki, K. band, ammo ketishmasdan K. ularni tinglamaguncha eshik og'zida turaverishdi. Direktor muovini ham xalaqit berish imkonini boy berib qo'ymas, u atayin kirib kelib, K.ning qo'lidan lug'atni olib, hech bir keragi bo'lmasa-da, varaqlar, bu orada xona eshigi ochilib-yopilganda, qabulxonada kutayotgan mijozlarning yolvoruvchan va cho'chinqiragan nigohlari g'ira-shira ko'rinishi qolardi. Ular o'zlariga e'tibor uyg'otishni istaganliklari afti-angorlaridan shundoq ma'lum, bunga e'tibor qilishyaptimi, ishonchlari komil emas, bu vaqt oralig'ida K.ning o'zi esa xuddi bir darvozaning o'rtasida o'tirib qolgandek hissiyotda iboralar toplashga harakat qilar, lug'atdan kerakli so'zlarni izlar, topgach ko'chirib olar, ularni talaffuz qilishni mashq qilar, oxiri bu so'zlarni yodlab olishga urinardi. Biroq uning, odatda, juda yaxshi xotirasi go'yo butunlay o'zgarib, ishdan chiqqandek, o'ziga olmas

va ishning bunday baroridan kelmayotgani ham uning italyanga nisbatan xushomadini alangalatib yuborar, buning uchun ham qanchadan qancha g‘am-g‘ussa chekishga to‘g‘ri kelar ekan, oxiri, qat‘iy bir niyat bilan endi tayyorgarlikni yig‘ishtirmoqchi bo‘lib, lug‘atni qog‘ozlar tagiga tiqib yuborardi; biroq keyin ham butun ibodatxona bo‘ylab italyan bilan yurganda xuddi soqovga o‘xshab jimgina, og‘ziga tolqon solib yurishi mumkin emasligi, san‘at asarlarini sharhlashi kerakligini o‘ylab ko‘rar ekan, u yana tengsiz bir adovat bilan lug‘atni titkilashga tushardi.

Vaqt bo‘lgach, ketishga hozirlanib turganida, telefon jiringlab qoldi. Leni unga xayrli tong tilab, o‘zini qanday his qilayotganini surishtirdi. K. minnatdorchilik bildirdi va ibodatxonaga shoshayotganligini aytdi.

- Qanaqa ibodatxona? – hayron bo‘lib so‘radi Leni.
- Qanaqa bo‘lardi, o‘zing bilgandagiday.
- Sen ibodatxonada nima qilasan? – surishtirdi Leni.

K. unga nima ish bilan borayotganligini qisqagina tu-shuntirmoqchi bo‘ldi, biroq boshlashga-da ulgurmadi. Leni xuddi uning boshiga yaxshilab bir tushirganday qilib dedi:

- Seni tutib olganlar!

K. kutilmagan va g‘ayriixtiyoriy hissiyotni boshdan kechirmagan edi, shu bois ham qisqagina qilib Lenidan uzr so‘radi, bu sovuq simlarga hammasini aytishi o‘zi uchun ham, qiz uchun ham mumkin emas, noqulay edi, bu faqat qizdan uzoqda bo‘lgani uchun emas, qolaversa, uni mufassal eshitishi ham dushvor. Gapini muxtasar qildi.

- Ha, meni tutib oldilar!

Vaqt o‘tib borar, bir kor-hol yuz bersa u kechikib qolishi mumkin. So‘nggi daqiqalarda uning kallasiga shu fikr urildi, hammasidan oldin taksga tushib, g‘izillab yetib borishi va albomni unga topshirishga ulgurib, shu bilan uni o‘ziga moyil qilib olishi kerak. U albomni tizzalari ustiga qo‘ygan-

cha, sabrsizlanib, paydar-pay barmoqlari bilan uni doira qilib chalib borardi. Yomg'ir qariyb tindi, biroq havoning avzoyi buzuq, izg'irin turgan, bunaqada, ehtimol, ibodatxonada ham hech narsani ko'rib bo'lmas va, albatta, sovuq plitalar dastidan K.ning shamollashi yanayam zo'rayishi turgan gap.

Ibodatxona oldidagi xiyobon kimsasiz, bo'm-bo'sh edi. K.ning bolalik xotiralari esiga tushib ketdi, bu maydonda Xudoning bergen kuni o'tadigan ur-to'polon ajib marosimlarini tomosha qilib qolish uchun tevarakdagi uylarning darpardalari hamisha tortib qo'yilgan bo'lardi. Albatta, havo ochiq kunlarga qaraganda, tund ob-havoda shunaqa bo'lishi tushunarli. Ibodatxonada jon asari borligi umuman bilinmas, shunday pallada bu yerga kelish xayoli biron-bir boshga kelib qolishi ham dargumon. Ikki yon tomondagi mehroblarga ham zing'illab chopib chiqib, tevarakka razm soldi va faqat sholro'molga o'ralib olgan allaqanday kampirni uchratdi, xolos. Keksa onaxon Bibi Maryam surati oldida cho'kka tushgancha, undan hech nigohini uzmasdi. Uzoqdan bir bor xonaqoh xizmatchisi ko'zga chalindi, biroq u kishi ham oqsoqlanib, ibodatxona devorlari ortida g'oyib bo'ldi. K. ayni vaqtida yetib kelibdi: soat o'nga zang urdi, ammo italyan hali ko'rinsasdi. K. asosiy kirish joyiga qaytib keldi, nima qilishini bilmasdan biroz so'rrayib turdi-da, keyin sharros yomg'ir quyayotganiga qaramasdan, butun ibodatxonani tashqari tomonidan aylanib chiqdi – uni yon tomonlardagi kirish joy oldida italyan kutib o'tirmaganmikin, deb bir-bir razm soldi. Biroq, hech kimning qorasi ko'rinsadi. Ehtimol, qaysi paytda uchrashmoqqa kelishganlarini direktor noto'g'ri tushungandir? Ha, o'zi bu nusxani tushunish mumkinmi? Nima sodir bo'lganda ham, uni K. hech bo'lma ganda yarim soatlar kutib turishiga to'g'ri keladi. U rosa horib qaytib ibodatxonaga kirarkan, allaqanday gilamchaning bir laxtagi tashlab qo'yilgan o'rindiqchaga ko'zi tushdi,

payypoqni oyog‘i ostiga surdi-da, yoqasini ko‘tarib astoydil paltosiga o‘ralib, o‘rindiqqa cho‘kdi. O‘zini chalg‘itmoqchi bo‘lib albomni ochdi, uni biroz varaqladi, biroq buni ham bas qilishga majbur bo‘ldi: atrof qorong‘i bo‘lganidan, hatto shundoq yonidagi mehrobni ko‘rib bo‘lmasdi.

Yiroqdagi bosh mehrobda kattakon uchburchakda shamlar yonib turardi. K. ularni hali kirganda ham ko‘rganmidi, buni ayta olishi dargumon. Ehtimol, ular hozirgina yondirilgandir. Yumushlari yuzasidan bu yerda oyoq uchida xizmatchilar ivirsib yurar, ularning kelgan-ketganini ham bilmay qolarding. K. to‘satdan, undan uzoq bo‘lmagan tosh ustunlardan birida bir sham yonayotganiga ko‘zi tushdi. Hatto bu o‘z holicha juda ham go‘zal bo‘lsa-da, ammo yon tomondagi kichik mehroblarga nishon bo‘lgani bois, bosh mehrobdag‘i manzaralarni yorita olmas, balki, bu qorong‘ilikni battar quyuqlashtirardi, xolos. Italian kelmay qolib, ehtimol, humatsizlik qilgandir, ammo u farosat bilan oqilona yo‘l tutgani ko‘rinib turar, baribir bu yerga tashrif buyurganda ham hech narsani ko‘rib bo‘lmas, K.ning cho‘ntak fonari ishga solinganda ham, uning nurida suratlarni uzuq-yuluq, bir parchasiga ko‘z teshilgudek bo‘lib qarash mumkin bo‘lardi. Bu qanday bo‘lar ekan, deb sinab ko‘rmoqchi bo‘lib, K. yon tomondagi kapellaga o‘tdi va pastgina panjaralari bo‘lgan marmar zinapoyalardan ko‘tarilib olganicha, undan hatlab o‘tib, fonarini yoqdi-da, mehrobdag‘i suratlarga to‘g‘riladi. Suratlar oldida ischiroqning lipillab yonishi ularni ko‘rishga faqat xalaqit berardi xolos. Birinchisida, u suratning eng chekkasidan o‘rin olgan, ulkan kelbatli, qurol-aslahali rit-sarning bir qismini ko‘rishga bazo‘r muvaffaq bo‘lib qolganini ko‘z oldiga keltirdi. Askar shamshirga suyanib olgan, shamshir esa u yer-bu yerida siyrak o‘t-o‘lanlar ko‘rinadigan dalaning taqir yeriga botirilgan edi. Ritsar nimanidir diqqat bilan kuzatayotganga o‘xshardi. Faqat uning bir joyda qi-

mirlamasdan dong qotgani g‘alati chiqqandi. Aftidan, posbonlik qilish uchun tayinlangan bo‘lsa kerak. K. allazamonlardan buyon suratlarni tomosha qilmagan edi, ritsarga uzoq tikilib turar ekan, fonardan taralayotgan yashil nurlarga chidab bo‘lmasligi va uzoq tikilishning zo‘riquvidan tinimsiz ko‘zlarini pirpiratishga tushdi. U fonarini qolgan boshqa suratlarga bir-bir to‘g‘rilar ekan, oddiygina talqinda chizilgan Iso Masihnинг tobutda yotgan holatini ko‘rib qoldi, xuddi shu turishda bu suratni tamoman yangi deb atasa bo‘lardi. U fonarni cho‘ntagiga solib, oldingi joyga kelib o‘tirdi.

Endi italyanni kutib o‘tirishga hojat yo‘q, biroq ko‘chada yomg‘ir yog‘ar, xuddi g‘oyibdan kelgan marhamatdek ibodatxona ham unchalik sovuq bo‘lмаган panohgoh edi. K. biroz shu yerda kutib turishga qaror qildi. Uning shundoq yonida asosiy tantanalar minbari qo‘r to‘kkan, uning tegrasida ikki oltin tarxli xoch bor-bo‘yiga osilgancha suyanibgina turar, ular tepadan bir-biriga bog‘lab qo‘yilgan edi. Tashqi tomondan panjara va tosh ustunlar yam-yashil pechakgullar aksi bilan naqshlangan, ularni ushlab turgan farishtalar bir qaraganda tabassum qilayotganday ko‘rinsa, boshqa safar jiddiygina qarab turgandek bo‘laverardi. K. minbarga yaqinlashib keldi, uni aylanib yurib ko‘rdi: toshlarga solingen naqshlar favqulodda san’atkorona ishlangan, go‘yo quyuq zulmat bunda tutilgan va shu naqshlarda zarb etilganday ajabtovur muhit tasavvurini berardi.

K. qorong‘i burchaklarga qo‘llarini suqib, toshlarni ehti-yotkorlik bilan siypalab ko‘rdi. Avval u minbarning bunaqa tarzda bo‘lishini bilmasdi. Xuddi shu daqiqalarda u qo‘shni qatordagi o‘rindiqda kir bo‘lib ketgan qora mundir ilib olgan, chap qo‘lida tamakidon ushlab o‘tirgan cherkov xizmatchisi ko‘rib qoldi. U uzoqdan K.ni kuzatib o‘tirardi. Unga nima kerak, – degan xayolga bordi K. – Nahotki mening afti-angorimdan biron-bir shubhaga borish mumkin bo‘lsa?

Balki, u biron-bir sadaqadan umidvordir? Biroq shu yerda K. xizmatchining o'ng qo'li bilan tamakini barmoqlariga qisib olgancha, allaqanday noaniq tomonini unga ko'rsatayotganiga e'tibor berdi. U o'zi nima istaydi? K. hech narsani anglay olmasdan bir zum kutib turdi. Biroq xizmatchi tinchimasdan allanimanidir ko'rsatar, o'z xatti-harakati bilan bu imo-ishorani kuchaytirar, unga zo'r berardi.

– Nima kerak o'zi unga? – ohista g'udranib qo'ydi u, biroq uni bor ovozda chaqirishga botinmadı; so'ng esa qop-chig'ini qo'liga olib tor o'rindiqlar oralab siqilib, bu odam tomon yurdi.

U kishi bo'lsa, K.ning qo'lini bir chekkaga siltab tashladi-da, yelkalarini qisgancha oqsoqlanib nari ketdi. Mana, xuddi shunday lo'killab-lo'killab, irg'ishlab-irg'ishlab, bitta-bitta bosib borishni kuzatarkan, u bolaligida otda chopish xuddi shunday bo'ladi deb tasavvur qilishga urinishini esladi. Ha, xotirasiga bolaligi tushganini qarang, – o'yladi K. Hozir esa u cherkovda nima yumush bilan yuribdi, shunga aqli yetsa bo'ldi. Xuddi menga soqchilik qilayotgan-dek, men to'xtasam to'xtab, yursam yuradi, yana u bilan yursammikan? K. istehzoli bir tabassum bilan qariyaning orqasidan bosh mehrobgacha yon tomondagi barcha mayda sajdagohlarni aylanib chiqdi. Qariya hamon allaqayerni barmog'i bilan imlab ko'rsatishda davom etdi. K. atayin o'sha tomonga burilmadi; aftidan, qariya, ishqilib u ortimdan menga qorama-qora kelyaptimi deb bilmoq uchungina, uni chalg'itishga urinayotganday edi. Oxiri K. uni ta'qib qilishni bas qildi, bir qariyadan bunchalik xavfsirashni istamasdi, agar italyan kelganda bormi, bularni bari butunlay boshqacha yuz berar, diqqatga sazovor nodir obidalarni unga ko'rsatgan bo'lardi.

U albomni qoldirgan joyni topmoq ilinjida asosiy ibodatgohga kirar ekan, to'satdan toshustunlar orasida, meh-

robning bir chekkasida oq-ko‘kish tap-taqir toshdan bo‘lgan kichkina minbarchani ko‘rib qoldi. Minbar qanchalik kichkina bo‘lsa, uzoqdan shunchalik g‘arib, muqaddas bir ma’bud haykali qo‘yilishi saodatidan judo etilgan taqir joyga o‘xshardi. Ruhoniylarga joy yetishmaganday, uni shundoq panjaraga taqab, qaqqaytirib qo‘yishgandi. Bundan tashqari, minbar tepasidagi tosh ravoq juda ham uzun tushib kelgan, holbuki unda hech qanaqa naqsh solinmagan va yana shunchalik nishabki, minbarga chiqqan o‘rtacha bo‘ydagi biron-bir kishi ham bu yerda hech ham qaddini rostlashning sharoitini ko‘rmas, faqat panjaraga suyanibgina qad-dini tiklashi mumkin edi. Bularning bari ruhoniyni azoblash uchun atayin o‘ylab qilinganday tuyular, bo‘lmasa, kattakon bosh mehrobda shunga yarasha quling o‘rgilsin minbarga ega bo‘lish mumkin bo‘lgan holda bu bechorahol minbarcha kimga kerak, buni hech ham tushunib bo‘lmasdi. Agar hamisha bo‘ladigandek, ma’ruza qiladigan ruhoniyning oldida turadigan ischiroyq lipillab turmaganda K.ning, ehtimol, bu minbarchaga ko‘zi tushmagan bo‘lardi. Nahotki hozir bu yerda kimdir ma’ruza qilsa? Bo‘m-bo‘sh ibodatxonada-ya. K. minbarchaga olib boradigan, tosh ustunlarga tutashib ketgan zinapoyalarga razm soldi, ular shunchalik ingichka ediki, kishilarga xizmat qilish uchun emas, shunchaki tosh ustunlarni chiroyli ko‘rsatish maqsadida, bezak uchun qilingandek taassurot uyg‘onardi. Biroq ushbu joyda haqiqatan ham zinapoyalar ustida ruhoniy turganiga ko‘zi tushib, dovdirab, tabassum qilganini bilmay qoldi; u ham K. ga qarab, qo‘li bilan suyanchiqni tutib, go‘yo baayni minbarga chiqishga taraddud ko‘rayotgandek bo‘ldi.

Keyin bilinar-bilinmas K.ga bosh irg‘ar ekan, uning xochi borligi esiga tushdi va javobiga unga ta’zim qildi. Holbuki, uni birinchi bo‘lib egilishga rioya qildirmoqchi bo‘lgandek edi. Ruhoniy keskin burilib, mayda va ildam qadamlar bilan

minbarga ko'tarildi. Nahotki, hozir ma'ruza boshlasa? Aftidan, hammasiga qaramay cherkov xodimi uni voiz oldiga boshlab kelib, K.ga biron-bir haqiqatni anglatsa, ibodatxona bo'm-bo'shligidan qat'i nazar, bu foydadan xoli bo'lmasligiga aqli yetmagan chog'i.

To'g'ri, Bibi Maryam tasviri tushirilgan huv anavi joyda kampircha ham bor, u sal beriroqqa kelsa bo'lmasmikan? Haqiqatan ham agar va'zonlik qilinmoqchi ekan, nega unda-bunda cherkov munojotlari, ilohiy kuylar yangramayapti? Ammo organ sas-sado bermas, yuksak-yuksaklarda o'z ulug'verligi ila bu zulmatga yaqinlashishga ojizday edi.

K. undan tezgina aloqani uzsa bo'larmikan, deb o'yladi. Agar hozir ketmasa, ma'ruza qilinayotgan paytda bunga kech bo'ladi. Tugashini kutib, ancha vaqt qolib ketishga to'g'ri keladi, u shusiz ham xizmatdan qolib, qancha vaqt ni yo'-qotdi, italyanni kutib o'tirishga ham u ortiq burchdor emas. K. soatiga qaradi, qariyb o'n bir bo'libdi! Nahotki, hozir va'z boshlansa? Nahotki, K.ning bir o'zi butun qavmning o'rnini bosa olsa? Agar u ajnabiy bir kishi bo'lganida, ibodatxonani faqat tomosha qilish uchun bu yerga kelgan bo'lasmidi? Haqiqatni aytganda ham u faqat shuning uchun bu yerga tashrif buyurgandi. Ayni ish kunining qizg'in pallasi shunday bir choshgohda, yana ob-havoni balo urgan bir kunda va'z o'qiladi, deb o'ylamoqning o'zi borib turgan aqlsizlik bo'lur edi. Bu taqvodor, hech bir shubhasiz, bo'lg'usi ruhoniy - lo'ppi yuzli yosh yigit minbarga yanglishib, yoqib qo'yilgan chiroqlarni o'chirish uchungina ko'tarilayotgan bo'lsa kerak.

Biroq, bunday bo'lib chiqmadi. Ruhoniy ischiroqni ko'z-dan kechirdi, uning piligini burab biroz ko'tardi, keyin sekingga naqshinkor panjaraga engashgancha, minbarning ikki chetidan ikki qo'li bilan tutib oldi. U biroz vaqt shunday turib qoldi va boshini u yoq-bu yoqqa burmasdan cherkovga bir qur nazar solib chiqdi. K. oradagi uzoq o'rnlarni qoldirib,

birinchi qatordagi o'rindiqqa tirsagini suyagancha o'tirar edi. Qayerdadir, aniq qayerdaligini bilolmadi, go'yo imi-jimida eng muhim vazifani uddalagandek yonboshlab olgan qari cherkov xodimini elas-elash ko'rganday bo'lди. Ibodatxonada favqulodda bir sukunat ustuvor bo'lди. Biroq K. bu suknatni buzishga majbur, u hech ham bu yerda qolmoq uchun hozirlik ko'rib kelmagandi, agar ruhoniy o'z burchi, taqosi yuzasidan ma'lum bir belgilangan vaqtida muqaddas oyatlarni tilovat qilishga chog'langan ekan, uning holatini qayerdan ham bilsin. Endi K.ning ishtirokisiz tilovatni davom ettirishga to'g'ri keladi, mabodo K.ning ishtirokida bu ma'ruza ado etilganda ham, bu muvaffaqiyatning qadriga kim yetardi, anglashilgandek, K.ning bunga qurbi yetishi amrimahol.

K. sekingina o'rnidan qo'zg'aldi va paypaslanib, oyoq uchida o'rindiqlarning chekkasiga keldi va keng o'rtaloy-lakdan ketmoqni mo'ljalladi, u orqali hech bir to'siqqa uchramay yursa bo'lardi; ammo hattoki oyoq uchida yurganda ham tosh plitalar sas-sado berar, yuksak gumbazlar ostida biroz ojiz jaranglasa-da, ammo bir maromda qadamlar tovushini bir necha karra yangroq qilib chiqarardi. K. nimanidir yo'qtganday his qildi, yana ruhoniyning nigohlari ostida bo'm-bo'sh o'rindiqlarni oralab borarkan, unga ulug' bir ibodatxona qariyb hech nimani o'ylamasdan oddiy bir kishini kuzatib qo'yayotganday tuyuldi. U albomini qoldirgan joyidan olishi uchun ancha-muncha yo'l bosdi. U qariyb o'rindiqlarni ortda qoldirib, chiqib ketish uchun farqlasa bo'ladigan xoli, oradagi ochiq joyni tanlamoqchi bo'layotganda, birdan ruhoniyning ovozini eshitdi. Ovoz zalvorli, aniq bir nuqtaga yo'naltirilgan edi. Xuddi buni qabul qilishga tayyordek, ibodatxona gumbazlari gumburlab ketdi! Biroq ruhoniy o'z qavmini chorlayotgani yo'q, bu chaqiriq aniq-ravshan, undan qutulib hech qayoqqa ketib bo'lmasdi.

– Yozef K.!

K. ko‘zini yerga tikkancha bir joyda mixlanib qoldi. Hozircha u hali ham ozod, oldga qarab yurishi ham mumkin, uchta qoramtilg‘och darvozalarning biridan sirg‘alib chiqib ketsa ham bo‘lar, – ularga juda yaqin qolgandi. O‘zicha hech narsani tushunmagan, tushungan taqdirda ham diqqat qilishni istamaydigandek biror belgi berib chiqib ketishi hech gap emas edi. Biroq u to‘xtab burilgan va qo‘lga tushgan edi, demak, bu chaqiriq unga qaratilganini tushungan, shu bois labbay degandek ovoz kelgan tomonga yurdi. Agar ruhoni yana bir bor chaqirganda, K. muqarrar ketib qolgan bo‘lardi, biroq u qancha kutmasin, sas-sado chiqmadi, hamma yoq suv quygandek tinch edi, u shunda ruhoni nima ish bilan mashg‘ulligini ko‘rmoqchi bo‘lib, boshini birozgina burdi. U kimsa esa avvalgidek xotirjam, minbarda turar, ammo K.ning xatti-harakatiga e’tibor berib o‘tirgani ko‘rinib turardi.

Bu bolalarning jo‘ngina bekinmachoq o‘yiniga o‘xshar, agar K. qayrilib qaramaganda shu bilan nihoya topgan bo‘lar, biroq u qayrilib qaragandayoq ruhoni ham shu zahoti uni barmog‘i bilan imlab, o‘z yoniga chaqirgandi. Hammasi aniq-tiniq yuz berib turar, K. qisman qiziquvchanligidan, qisman ishga qorishib, tutilib qolishini istamaganidan ildam qadamlar bilan minbar tomon chopqilladi. U o‘rindiqlarning birinchi qatori to‘g‘risida to‘xtadi, ammo ruhoniya bu oraliq juda ham katta tuyuldi, u qo‘lini cho‘zib va ko‘rsat-kich barmog‘i bilan, minbarga yaqin kelib turishini ko‘rsatdi. K. yaqin joyga kelib, ruhoni uni ko‘rib qo‘ysin, degandek boshini ko‘tarib g‘oz turdi.

– Sen Yozef K. bo‘lasan! – derkan, ruhoniya naqshinkor panjarada turgan qo‘li bilan allaqanday aniq bo‘limgan nimadir amr qilmoqchi bo‘ldi.

– Ha, – deb beixtiyor javob qaytararkan, K. o‘z ismi-familiyasining avvallari qanchalik oson va hech nimani o‘yla-

may ochiq-oydinlik bilan atalib kelgani xayoliga keldi, mana endi bir qancha vaqtdan buyon, ismi-sharifini eshitganda haddan tashqari to‘lg‘anadigan bo‘lib qoldi, hatto birinchi bor ko‘rib turgan mana bu odamday uning nomini oldindan ko‘pchilik biladi, ilgarilari esa odamlar bilan tanishuv uning diliga yoqar; avval o‘zlarini tanishtirib, keyingina tanish-bilishchilik iplari bilan bog‘lanishardi.

– Sen – ayblanuvchisan, – juda xotirjam, ishonch bilan dedi ruhoniy.

– Ha, – deb javob berdi K. – menga bu xususda bildirishgan.

– Bundan chiqdi, sen men izlab yurgan kishining ayni o‘zi ekansan, adashmabman, – dedi ruhoniy. – Men qamoq-xona ruhoniysiman.

– Buni qarang, – dedi zarda qilib K.

– Men seni bu yerga chaqirib kelishni buyurgandim, – deb qoldi ruhoniy.

– Mening bundan xabarim yo‘q, – dedi K. – bu yerga bir italyanni ibodatxonani ziyyorat qildiray deb olib kelgandim.

– Ey, qayoqdagi bo‘lmag‘ur, oldi-qochdi gaplarni qo‘y, – buyurdi ruhoniy. – Qo‘lingdagi nima, muqaddas kitobmi?

– Yo‘q, – dedi K. – bu diqqatga sazovor mahalliy qadamjolarning albomi.

– Qo‘y uni! – derkan, ruhoniy K. albomni shunday bir jahl bilan irg‘itdiki, ichi to‘kilib ketgan albomning g‘ijimlangan varaqlari butun pol bo‘ylab sochilib ketdi.

– Ustingdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayonining salbiytus olganidan xabaring bormi? – so‘radi ruhoniy.

– Menga ham shunday bo‘layotganga o‘xshayapti, – deb qo‘ydi K. – men butun kuchimni ishga solib ko‘rdim, ammo hozircha biron-bir natijaga erisha olmadim. Ochig‘i, arznama ham hali tayyor bo‘lganicha yo‘q.

– O‘zing buning oxiri qanday xotima topadi deb o‘ylaysan? – surishtirdi ruhoni.

– Boshda hammasi yaxshilik bilan tugasa kerak, deb o‘ylardim, – dedi K. – endi bo‘lsa gohida o‘zim ham bunga shubhalanib qolaman. Buning oxiri nima bilan tugarkin, bilolmay boshim qotgan. Sen bilasanmi?

– Yo‘q, – deb cho‘rt kesdi ruhoni, – ammo hammasi noxush yakun topmasa, deb qo‘rqaman. Seni aybdor deb hisoblashadi. Ehtimol, sening ustingdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni sud ishlarining quyi bosqichidan nariga o‘tmas. Ammo har qanaqa voqeа bo‘lishiga qaramasdan, hozircha sening aybing bo‘yningga qo‘yilgan deb bilishadi.

– Biroq mening aybdor emasligim ko‘rinib turibdi-ku. Meni ayblastayotgani xato. Qanday qilib insonni hech narsadan hech narsa yo‘q aybdor hisoblash mumkin? Axir biz hammamiz odammiz-ku, yoki men boshqa bir jonivormi?

– To‘g‘ri aytasan, – dedi ruhoni, – ammo aybi borlarning hammasi ham shunday deyishadi-da.

– Hali sen ham menga qarshi qayrab qo‘yilganmisan deyman? – o‘snoqchiladi K.

– Oldindan hech narsani mo‘ljallayotganim yo‘q – dedi ruhoni.

– Buning uchun senga tashakkur, – dedi K. – Ammo sud jarayonida ishtirot etayotganlarning barchasi menga qarshi turishga ogohlantirilib, tezlab qo‘yilgan. Ular bu jarayondan bexabarlargacha ham yolg‘on-yashiq bilan ta’sir qilishi yapti. Shu bois ahvolim kun o‘tgan sari beshbattar bo‘lyapti.

– Sendagi ishning mazmun-mohiyati haqidagi tasavvur qanaqadir yanglishga o‘xshaydi, – dedi ruhoni. – Hukm birdan chiqarilmaydi, ammo hukmgacha doimiy suratda tergov qilib, so‘rovlar olib borishadi.

– Buni qarang, – derkan, K. boshini juda ham egib oldi.
– Ishning o'nglanishi uchun bundan keyin qanday tadbir
qo'llash kerak deb o'ylaysan? – surishtirishini qo'ymasdi
ruhoniy.

– Biron-bir ko'magi chiqib qolishi mumkin bo'lgan
yo'llarni izlashda davom etaman, – derkan, K. boshini ko'-
tarib, bunga ruhoniy qanday qararkin, deb razm soldi. – Eh-
timol, men hali foydalanib ko'rmagan son-sanoqsiz imkoniy-
yatlar bordir.

– Sen boshqalardan haddan ortiq yordam kutasan, – uning
gapini ma'qullamagan ohangda dedi ruhoniy, – ayniqsa,
ayollardan ko'p ko'mak istaysan. Nahotki, sen bu yerda yor-
dam hech qachon astoydil bo'lmasligini sezmagan bo'lsang?

– Bir qancha yuz bergen, hatto juda ko'p takrorlangan
voqealarga qarab, men ham sening bu fikringga qo'shilishim
mumkin, – dedi K., – lekin ayrimlari bundan mustasno. Ayollarning o'zi ulkan bir hokimiyat. Agar men bir qancha
tanish ayollarga ta'sir qila bilganimda edi, ular bir-biri bi-
lan bog'lanib, mening foydam uchun shunday ter to'kishar
edilarki, bu bilan men ancha-muncha muvaffaqiyatga erish-
gan bo'lardim. Ayniqsa, mana bunaqa sudda – axir bunda
qatorasiga xotinbozlar tanda qo'ygan-ku. Tergovgacha sen bir
hurliqo ayolni uzoqdan ko'rsat-chi, o'sha ofatijonning vas-
liga yetish uchun, u stoldan oshib o'tib, qolaversa, qoshidagi
ayblanuvchini ham unutib, oyog'ini qo'lga olib yuguradi.

Ruhoniy naqshinkor panjaraga qarab boshini yanada
engashtirdi. Go'yo hozir minbar tepasidagi ravoq uni bosib
qo'yadiganday tuyulib ketdi. Buning ustiga ko'chada obi-ha-
vo rasvo edi! U yoqda kun bulutligina emas, naq yarim ke-
cha bo'lгandek, zulmat bosgandi. Rangli ulkan oynalarning
birontasi yorishib, qop-qorong'i devorlarni yoritmasdi. Bu
ham yetmaganday ibodatxona xizmatchisi asosiy mehrob-
dagi shamlarni birin-ketin o'chirib yurardi.

– Sen mendan xafa bo‘ldingmi? – K. ruhoniyyidan surishtirdi. – Ko‘rinib turibdi, qanaqa adolatga xizmat qilayotganidan sening o‘zing ham voqif emassan.

Hech qanaqa javob bo‘lmadi.

– Albatta, men faqat, nima o‘zimga tegishli bo‘lsa, shundangina voqifman, – deb davom etdi K.

Ammo ruhoniy birdan yuqoriga qarab o‘shqirib qoldi:

– Nahotki, sen oyoq ostidan boshqa joyni ko‘rmay qolgan bo‘lsang!

Baqiriq darg‘azab chiqdi, ammo u ham har qalay odam-zodning ovozi edi, undan boshqalar cho‘chib ketgandek, irodasizlik bilan beixtiyor ko‘tarilgan bu ovozdan uning egasi ham cho‘chib tushdi.

Ikkovlari ham anchagacha jim qolishdi. Albatta, bu quyuq qorong‘ilikda, ruhoniy K.ni aniq farqlashi qiyin edi, kichkina ischiroq yorug‘ida K. ruhoniyni aniq ko‘rib turardi. Biroq nega u pastga tushmaydi? Baribir endi u hech qanaqa qiroat-u tilovat qilolmaydi, ammo buni unga K. ma’lum qilsa boshqacha tushunishi, foyda o‘rniga zarari tegishi mumkin. Albatta, K. ruhoniyning niyati yaxshiligiga zarracha ham shubhalanmaydi. U pastga tushib kelib, ular hamma narsani birgalikda kelishib olishlari turgan gap. Shunda ruhoniy unga hammasini o‘zgartirib yuboradigan hal qiluvchi maslahat berishi, masalan, bu ish jarayoniga qanday ta’sir o‘tkazish haqidagina emas, balki qanday qilib undan xalos bo‘lish yoki qanday qilib uning yonidan aylanib o‘tib ketish va bu jinoyat jarayonidan qutulgandan keyin qanday qilib yangi hayot boshlashi, tirikchiliginiz izga solish yo‘llari haqidha ham yo‘l-yo‘riq ko‘rsatsa ajab emas. Albatta, bir kuni shunday imkoniyat tug‘ilishi kerak-ku, – keyingi paytlarda K. hamma vaqt shu haqda o‘ylagani-o‘ylagan edi. Agar ruhoniy bu imkoniyat haqida bilsa, ehtimol, undan astoydil o‘tinib so‘ralsa, jazolovchilar davrasiga mansub bo‘lishidan

qat'i nazar, K.ga o'shqirib gapirganiga qaramay, K. adolat masalasini o'rtaga tashlaganda mo'min kishi ekanligi yuzko'zidan ko'rindi-ku – u yordam qo'lini cho'zishi – najot qal'asi darvozasini ochishi mumkin-ku.

– Pastga tushmaysanmi? – iltimos qildi K. – baribir hozir va'z aytishning imkonni yo'qqa o'xshaydi. Mening oldimga tush.

– Ha, barakatopkur, endi tushsam ham bo'ladi, – dedi ruhoni, u o'shqirib bergenidan xijolat chekayotganga o'xshardi. U chiroqni ilgakka ildirib, so'ziga qo'shimcha qildi. – Avval men ma'lum bir masofada turib, sen bilan gaplashib olishim kerak edi. Yaqindan esa menga ta'sir o'tkazish juda oson va men o'z burchimni hash-pash deguncha unutib qo'yaman.

K. uni pastda, zinapoyalar oldida kutardi. Ruhoni hali zinapoyada ekan, yurishga qulay bo'lsin uchun unga qo'lini uzatdi.

– Men uchun ozgina vaqt ajrata olmaysanmi? – undan iltimos qildi K.

– Sen qancha talab qilsang, men shunchaga tayyorman! – der ekan ruhoni, ushlab tur, deb K.ga chiroqni uzatdi va unga yaqinlashgan sari qaddi-qomatini tantanavor alfovza g'oz tutdi.

– Sen menga juda ulug' marhamat ko'rsatding, – dedi K. ular bu qorong'i, kichkina mehrob ustida yonma-yon u yoqdan bu yoqqa borib kelishar ekan. – Sud mahkamasining hamma a'zolaridan sening bir o'zing tuzuksan. Men sen bilan ochiqchasiga hech narsani yashirmay gaplasha olaman.

– Xato qilasan! – dedi ruhoni.

– Buning qayerida xatolik bo'lishi mumkin? – o'smoq-chilab so'radi K.

– Sen sudga baho berishda xatoga yo'l qo'yasan, – deb gap boshladi ruhoni. – Bu yanglish tushuncha haqida Krpun

Alifbosida nima deyilgan, mana qara: Krpun darvozasi oldida eshik og‘asi turadi. Va qatag‘onga uchragan biron-bir kishi kelib, undan Qonun qasriga o‘tkazib yuborishini iltimos qiladi. Ammo eshik og‘asi ayni paytda uni ichkariga o‘tkazib yuborishi mumkin emasligini aytadi. Arzgo‘y biroz o‘yga botib qoladi va yana iltimos qilib so‘raydi: u bu yerga keyinchalik kirsa bo‘ladimi? „Mumkin, – javob qiladi eshik og‘asi, – ammo hozir kirishi mumkin emas“. Baxtga qarshi qonun qasrining darvozasi hamisha bo‘lganidek ochiq, eshik og‘asi ham o‘z joyida muqim turadi, arzgo‘y esa egilib-bukilib, ichkariga qaragancha o‘lib-tirilib yotadi. Buni ko‘rib turgan eshik og‘asi miyig‘ida kulib qo‘yib, shunday deydi: „Agar sen shunchalik sabrsiz ekansan, mening taqiqlashimga qulq solmas ekansan, „Qonun qasri“ga kirishga bir urinib ko‘r-chi, faqat shuni yaxshi bilib qo‘y: kuch-quvvatim ichimga sig‘may turibdi, menga bas kelishing qiyin. Holbuki, men bu yerdagi soqchilarning eng nimjoni bo‘lsam kerak. Ichkarida, xonadan xonaga o‘tishda eshik og‘zida shunday darbonlar turadiki, biri-biridan zo‘ravon. Uchinchisiga yetib-yetmayoq ishontirib aytamanki, boshingga qiyomat azobini solib qo‘yishadi“. Arzgo‘y bunaqa to‘sqliar bo‘lishini kutmagan, axir u Qonun qasri hamma vaqt hamma uchun ochiq bo‘lishi kerak, unga hamma kirishi mumkin deb o‘ylagan edi-da; biroq bu yerda u to‘rt ko‘z bilan uni yeyman degandek vajohatla tikilib turgan eshik og‘asining haybatli og‘ir po‘stiniga, yapasqi burniga, uzun, yog‘li, quyuq qora mo‘g‘ulcha soqoliga razm solar ekan, ichkariga kirishiga izn berilguncha, yaxshisi, kutgan ma’qul, degan qarorga keladi. Eshik og‘asi unga kursicha keltirib berib, kirish tomoniga o‘tirib turishiga ruxsat beradi. Arzgo‘y unda kunlab o‘tiradi, yillab kutadi. Ishqilib, ichkariga kirib olish uchun u muttasil intiladi, eshik og‘asiga tinimsiz tavallolar qilib, uning joniga tegib ketadi. Ba‘zida

eshik og‘asi undan qayerda tug‘ilgan va shunga o‘xhash ko‘pdan ko‘p savollarni o‘smoqchilab so‘raydi, ammo nufuzi baland bir shaxs kabi arzgo‘yning so‘raganlarini javob-siz qoldirib, suhbat oxirida doim, hali uni ichkariga kiritish mumkin emas degan gapni takrorlaydi. Arzgo‘y yo‘lda bir qancha yaxshi narsalarni o‘zi bilan olib keladi, hatto ularning aksariyati qimmatbaho, noyob bo‘ladi, bularning barini u soqchini o‘z tomoniga og‘dirib olish uchun unga tuhfa etadi. Soqchi bularning barini qo‘shqo‘llab oladi, biroq mana bu gapni qistirib qo‘yadi. „Bularingni olaman, ammo sen bu biron narsani yengillashtiradi degan xayolga borib yurma“. Yillar o‘tsa-da, arzgo‘yning eshik og‘asidan imdod kutish ilinji o‘zgarmaydi. U yana boshqa darbonlar borligi, bu faqat shularning birinchisi, boshqalar ham hali Qonun qasriga kirishga to‘sinqlik qilishi turgan gapligini butunlay unutadi. Dastlabki yillar u o‘zining bu omadsizligini baralla arz-dod qilib yuradi, ammo keyinchalik bu gap ham eski-radi, o‘zi qarigan sari, o‘z-o‘zicha ming‘illab qo‘yadigan bo‘ladi, xolos. Oxiri go‘dakdek bo‘lib qoladi, u uzoq yillardan buyon qonun qasri og‘zida o‘tirib, soqchini shunchalik darajada sinchiklab o‘rganganki, uning jun yoqasi ichida nechta burga o‘rmalab yurganigacha biladi, u hatto mana shu burgachalarga iltijo qilib, eshik og‘asining ko‘nglini unga iydirib berishni o‘tinib so‘raydi. Uning ko‘zlariga chiroq nuri tushib, bundan qaroqlari qamashgan pallalarda, butun atrofiga qorong‘ilik tushdimi yoki ko‘rish qobiliyati uni aldayaptimi, hatto u shuni farqlay olmaslik darajasiga yetib qoladi. Biroq u endi bu qorong‘ilikda Qonun qasri darvozasidan hech o‘chmaydigan – porloq ziyo taralib tur-ganligini aniq ko‘radi. Xuddi mana shunday qilib, uning hayoti nihoyasiga yetib keladi. O‘lim oldidan hamma, u uzoq yillar sinovdan o‘tkazgan butun-butun o‘y-fikrlari bit-ta savolga javob olishga qaratilgan bo‘lib, ammo bu savolni

shu paytgacha biron marta bo'lsin eshik og'asiga berib ko'rmagan edi. U soqchini imlab oldiga chaqiradi, uning qaddi-qomati allaqachon bukchayib, bir joyda qotib bo'lgan, qaddini ko'tarishi hech mumkin emas. Natijada, endi soq-chining o'zi ancha egilishiga to'g'ri keladi – chunki endi o'zining bo'yiga solishtirganda bukilib qolgan arzgo'yniki jimjiloqday edi. „Sen yana nimani bilishni istaysan? – surishtiradi undan eshik og'asi, – Ochofatning o'zginasisanda o'ziyam!“ – „Aftidan, hamma kishi „Qonun qasri“ga intilishadi, – gap boshlaydi arzgo'y shunda, – lekin o'tgan bu uzoq yillar davomida ulardan birontasi ichkariga kiritishlarini mendan astoydil talab qildimi?“ Soqchi ko'radiki, qatag'onga uchragan bu kimsa juda ham haddan oshib ketdi, shu bois u javobni qulog'iga ilib olsin, deb butun ku-chi bilan qichqirib deydi: „Hech kimga bu yerdan kirishga ruxsat yo'q, bu darvoza birgina sen uchun belgilangan edi! Endi shuni ham taqiqlayman“.

– Demak, eshik og'asi bu kishini aldabdi-da, – dedi shoshib-pishib K. Bu hikoya uni tamoman o'ziga asir etgandi.

– Shoshmasang-chi, – dedi ruhoni, – va begonalarning gap-so'ziga ishonaverma ham. Men senga bu rivoyatni xamir uchidan patir deganlaridek, qonunning umumiy tushunchasi sifatida aytib berdim.

– Biroq bu kunday ravshan-ku, – dedi K., – sening birinchi izohing mutlaq to'g'ri bo'ldi. Bu kishiga hech qanaqa yordam berish mumkin bo'l maganidan keyingina eshik og'asi halokatdan qutqaruvchi haqiqatni oshkor qildi.

– Ammo avval undan buni so'rab-surishtirmagandi-da, – dedi ruhoni. – U bor-yo'g'i eshik og'asi edi-da va o'z burchini vijdanan ado etdi – sen shuni unutma.

– Sen nega uni o'z burchini ado etgan deb hisoblaysan? – so'radi K. – U umuman o'z burchini bajarmagan. Ehtimol,

uning burchi u yerga begonalarni kiritmaslik bo‘lgandir, biroq bu kishi shu eshikdan ichkarilashi belgilangan ekan, arzgo‘yni kiritish uning vazifasi edi.

– Sen kerakli darajada Qonun majmuasini hurmat qilmaydigan ko‘rinasan, – qizishdi ruhoniy, – shuning uchun ham, bu rivoyatni o‘zingcha talqin qilib yotibsan, unda eshik og‘asining Qonun qasriga kirish huquqi bo‘yicha ikkita juda muhim tushuntirishi bor; biri boshda, ikkinchisi oxirida. Birinchisi bo‘yicha, ayni paytda eshik og‘asi uni ichkariga kirishga ruxsat berishi mumkin emas, ikkinchisiga ko‘ra, bu kirish joyi faqat uning uchun belgilab qo‘yilgan. Agar izohlarda biron-bir ziddiyat bo‘lganida edi, sen haq bo‘lgan va eshik og‘asi bu kishini haqiqatan ham aldagani bo‘lib chiqar edi. Biroq bu yerda hech qanaqa bir-birini inkor etadigan qarama-qarshi fikr yo‘q. Aksincha, birinchi izohning o‘zi ikkinchisidan qariyb xabar beradi. Hatto eshik og‘asi kun kelib, oxir-oqibat, bu kishiga kiritishga ruxsat beriladi deb o‘ylaganidan o‘z javobi bilan arzgo‘yni umidvor qilgan va shu xatti-harakati bilan o‘z burchiga qarshi borgan, xizmat vazifasini suiiste’mol qilgan deyish mumkin. Shuning uchun ham Qonunning ko‘pdan ko‘p bilimdonlari eshik og‘asining bu xatti-harakatidan jiddiygina ajablanadilar. Ko‘pdan ko‘p yillar u o‘z postini bir zum tashlab ketmadi va faqat oxirida darvozani yopdi; u tamoman o‘zining xizmati muhimligini anglagan, shuning uchun ham oshkora, to‘g‘ridan to‘g‘ri gapning po‘stkallasini aytgandi: „Mening kuch-qudratim had bilmaydi“. U o‘zidan bo‘yni yo‘g‘onlarni hurmat qilar va buni ochiqdan ochiq e’tirof ham etgandi: „Men bu eshik og‘alari ichida eng nimjoniman“; u hech ham laqmamas, og‘ziga mahkam, shuning uchun ham haligina aytilganidek, bu o‘tgan yillar ichida faqat o‘zi „ishtirokisiz“ qoladigan savollar berardi. U sotilmagan, shuning uchun ham sovg‘a-salomlarni qo‘shqo‘llab qabul qilib olar ekan,

„Bularni olaman, ammo shu bois kirishga ruxsat beradi, degan xayolga borma“, – deb aytishni kanda qilmasdi, yana qaydaki, uning burchi haqida so‘z yuritilganda, hech narsani yumshatish ham, qahr-g‘azabli qilib ko‘rsatish ham mumkin emas: unda ochiqdan ochiq aytildi, bu odam, „O‘zining tavallolari bilan eshik og‘asining juda ham jogniga tegib ketardi“ va nihoyat, uning tashqi ko‘rinishi – pachoq qirra burni, uzun yog‘li mo‘g‘ulcha soqoli bilan uni o‘ta rasmiyatchi, fe’l-atvori ham rasvo edi degandek bo‘lishadi. Nahotki, bundan ortiq fidoyi eshik og‘asini topib bo‘lsa? Qolaversa, unda bundan tashqari, bir talay asqatadigan fazilatlar bor, kimki kirishiga ruxsat talab qilgan bo‘lsa, o‘zing buni anglab turgan bo‘lishing kerak. – U bo‘lg‘usi imkoniyatlar haqida imo-ishora qilganligi, qay bir darajadadir buni o‘z zimmasiga olganligini tushunganda edi. Yashirishning hojati yo‘q, u bir darajada nodon, bu al-batta o‘zi haqida fikri juda ham yuqoriligi bilan bog‘liq. Hatto u boshqa soqchilarning kuch-quvvati haqida gapirganda afti-angori chidab bo‘lmas tarzga kiradi, nachora, bu uning odati. Qilik‘iga qarab baholaydigan bo‘linsa, esipast bir maxluq ekanligi ayon bo‘ladi. Qonun bilimdonlari bu haqda shunday deydilar: „Hodisani to‘g‘ri qabul qilish va uni noto‘g‘ri talqin qilish hech qachon bir-biriga bog‘liq ekanini mustasno etmaydi“. Faqat bir narsani e’tirof etish kerak – nodonlik va o‘zini hammadan aqli bilish qandaydir oz miqdorda bo‘lsa-da birgalikda mavjud bo‘lishligi, eshik og‘asining fe’l-atvorida nuqson borligini ko‘rsatadi, shu jihatdan u darvozani qo‘riqlashni ham bo‘sashtiradi. Yana shuni qo‘sishmcha qilish kerakki, tabiatan bu kishi juda odamoxun – ulfat kishiga o‘xshaydi, u hamisha ham o‘zini rasmiyatchi bir qiyofada ushlab turolmaydi. Birinchi daqiqalardayoq hazil-huzul ila arzgo‘yni kirishga taklif qiladi, holbuki kirish joyini qattiq qo‘riqlashi kerak. Keyin

ham arzgo‘yni haydab yuborish o‘rniga, yuqorida aytilgan-dek kursicha keltirib, yana unga kirish tomonidagi joyga o‘tirishga ruxsat beradi. U necha-necha yillar qatorasiga bu kishining iltimoslarini tinglab, muxtasar savol-javoblar-u ora-siradagi sovg‘a-salom qabul qilishlarini aytmaganda, bu chidab bo‘lmas ahvolga qanday sabr qilib keldi ekan? Ichkariga kirishdan mosovo etilgan badbaxt arzgo‘y nega aynan mana shu eshik og‘asi bu yerga qo‘yilgan deb bor ovozi bilan o‘z omadsizligidan ayyuhannos solganda ham chidaydi, u uning qalbida rahm-shafqat tuyg‘ulari g‘imirlab yurgan degan xulosaga keladi.

Uning o‘rnida bo‘lgan hamma ham shunday qilaver-masdi. Mana, oxiriga kelib, bu soqchi arzgo‘yning birgina imo-ishorasi bilan uning so‘nggi savolini tinglash uchun engashadi. Faqatgina „Sen ochofat odamsan“, deya xitob qilgandan keyingina birdan yengilgina sabrsizlik g‘oliblik qiladi; axir eshik og‘asi hammasi shu bilan tugaganini yaxshi bilar edi-da. Bir qancha tafsirchilar bu xitobga bundan-da ancha-muncha yuqori baho berib, talqin qiladilar, ularning hisoblashicha, „Sen ochofat odamsan“, bahosi o‘z o‘rnida do‘stona, samimiyl yangragan, hech ortiqcha emas va qay bir ma’noda marhamat ko‘rsatib aytilgan kalimadir. Ishqilib, har na bo‘lganda ham soqchining surati-yu siy-rati siz tasavvur qilgandan behroq, chiroq shu’lasida bor-bo‘yicha namoyon bo‘ladi.

– Bu tarixni sen mendan ko‘ra yaxshi bilasan va u yog‘i ham senga ko‘proq ma’lum, – deb qo‘ydi K. Ular jum bo‘lib qolishdi. Keyin yana K. so‘z ochdi: – Demak, sen, bu odam aldamagan deb hisoblaysan, shundaymi?

– Mening so‘zlarimni noto‘g‘ri talqin qilma, – dedi ru-honi, – men faqat senga eng muhim gapni aytdim, xolos. Biroq sen uni haddan tashqari bo‘ttirib, yopishib olma-da. Qonunlar majmuasida hech nima o‘zgarmaydi, har qanaqa

izoh-u tasvirlashlar, har bir odamning o‘z shaxsiy fikr-mulohazasidan kelib chiqadi va bu ham biron-bir mushkulot – chorasisizlikka sabab bo‘ladi. Hatto shunday talqin qilishlar ham borki, bunga ko‘ra, eshik og‘asining o‘zi ham aldangan bo‘lib chiqadi.

– Albatta, bu juda ham haqiqatdan uzoq izoh, – dedi K. – U o‘zi nimaga asoslanadi?

– Ularning asoslariga ko‘ra, – dedi ruhoniy, – bunga eshik og‘asining esipastligi sababdir. Bu haqda shuni aytish mumkinki, eshik og‘asi Qonun uyining ichkarisi, undagi tartiblar haqida hech vaqoni bilmaydi, o‘sha tanish eshik oldidagi yo‘lak ma’lum, shuning uchun ham u shu yerda u yoqdan bu yoqqa borib kelib turadi, xolos. U qonun uyining ichkarisini og‘zidan ona suti ketmagan go‘dakday tasavvur qilar va arzgo‘yga qaraganda ham ko‘proq qo‘rqardi, deb taxmin qilishadi. Hammasidek ko‘ra uning qo‘rquvi arzgo‘ynikiga qaraganda bir necha barobar kuchli ham, arzgo‘y Qonun qasrining ichidagi mirg‘azab soqchilar kunini ko‘rsatish qulog‘iga quylganiga qaramay, zor urib ichkariga kirish payida bo‘ladi, eshik og‘asi esa hatto ichkariga kirishni istamaydi, buning ustiga, bu haqda hech nima aytilmaydi. To‘g‘ri, boshqalar uni sudda ishga qabul qilish allaqaysi zamonda, ichkarida, ehtimol, bu eng to‘rdagi xonada kechgan bo‘lsa ham ajab emas, deyishadi. Uni o‘zi eshik og‘asi qilib belgilashganmi, ichkaridan, balki qasrning eng to‘ridan kimningdir shunday ovozi keladi, deb bunga ham norozilik bildirishadi, u ichkariga bo‘ylamaydi, shuning uchun ham bir xil tusdagi soqchilarning uchinchisi bo‘lsa, unda shunday chidab bo‘lmas dahshat uyg‘otadi. Ammo bu xususda biron joyda bir narsa deyilmagan. Balki, bu unga taqiqlanmagandir, ammo u taqiq haqida ham hech qayerda lom-lim demagan. O‘tgan qator yillar davomida Qonun qasrining ichkarisi haqida biron narsa bilganligi dargumon. Bularning baridan

shunday xulosaga kelish mumkinki, uning o‘zi Qonundan voqif emas, shu bois ham bu boradagi har qanday mulo-haza har qanday vaqtda xato fikr bo‘lib chiqadi. Va bu xuddi mana shu arzgo‘yning hisobi bo‘yicha adashish bo‘lib, shunga ko‘ra yuz beradi. U albatta arzgo‘yga xuddi qo‘l ostidagi qaram kishiga qaragandek murojaat qiladi, ko‘p tomondan bu aniq-ravshan, hatto sen buning aynan nimaga shundayligini ham juda yaxshi eslaysan. Biroq bu yerda, aslida, bo‘ysunuvchi, eshik og‘asining o‘zidir, boshqa bir talqinda aytilgandek, juda ham aniq ko‘rinmasa-da, shundayligi bilinib turadi. Hamisha ozod kishi qaramlikdan baland turadi. Mohiyatan olib qarasak, arzgo‘y erkin kishi, u ehtimol, istasa boshi og‘gan tomonga ketishi mumkin, faqat unga Qonun qasrining ichkarisiga kirish taqiqlanadi, eshik og‘asi unga bor-yo‘g‘i shuni taqiqlay oladi. Arzgo‘y darvoza taraf-dagi o‘rindiqchaga o‘tirib, shu yerda butun umrini o‘tkazib yuborsa ham buni o‘z ixtiyori bilan qiladi, buni biron-bir naql bo‘yicha qilmaydi. Eshik og‘asi esa o‘z vazifasiga ko‘ra mana shu joyni qo‘riqlab turishga mahkum, u bu joyni – postni tashlab hech qayoqqa ketishi mumkin emas, biroq u Qonun qasrining ichkarisiga kirishni jon-jon deb istaganda ham u yoqqa qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, u Qonun uchun xizmat qilsa-da, uning xizmati shu yerni qo‘riqlab turish bilan cheklangan, ya’ni u bu yerga kirishi belgilab qo‘yilgan, mana shu bir kishiga xizmat qilishi lozim. Mana shu sabab bois, eshik og‘asi arzgo‘yga qaram bo‘lib chiqadi. U uzoq yillar, ya’ni mohiyatan olsak, o‘zining butun ongli hayotini xizmat taqozosiga ko‘ra boy beradi deb taxmin qilsak bo‘ladi; bu rivoyatda yaxshigina tasvirlangan: xo‘s, mana aytilgan kishi tashrif ham buyurdi – qarasa, esli-hushli, demakki eshik og‘asi unga uzoq payt ko‘z-qulqoq bo‘lib turishga majburdir, axir unga o‘z burchini bajarish buyurilgan, haligi kishi esa o‘z ixtiyoriga ko‘ra istaganda kelib, istaganda

ketadi, ammo eshik og‘asi unday qilolmaydi, kelganda qarab turadi, ketsa kutib o‘tiradi. Ha, eshik og‘asining xizmati bu kishi hayoti oxiriga yetgandagina nihoyaga yetishi mumkin, demak, uning oxirgi nafasi chiqguncha eshik og‘asi unga qaram bo‘ladi. Ko‘p bora rivoyatda ta’kidlanganidek, eshik og‘asiga bu haqda hech narsa ma’lum ham emas. Ammo bu yerda qonunni talqin qiluvchilar hayron qoladigan biron narsa ko‘rishmaydi. Ha, albatta, eshik og‘asi o‘z xizmat vazifasiga bog‘liq tarzda yanada yanglish yo‘lda bo‘lgani bois, bu talqinga qo‘shilish mumkin. „Men borib endi shuni ham taqiqlayman?“ – Rivoyatning oxirida biz eshik og‘asining ana shu gapini eshitganmiz, ammo rivoyatning boshida Qonun darvozasi „har doimgidek“ ochiqligi aytildi, agar u har doim, aynan har doim ochiq bo‘lar ekan, haligi kishining umri davomida qaram bo‘lmasdan shu narsa oldindan belgilangani uchun ochiq – demak, eshik og‘asi uni bekor qilishi – darvozani ochishi mumkin emas. Shu o‘rinni har xil talqin qilishadi: eshik og‘asi biron narsa deb javob qiliishi uchungina darvozani yopishni ma’lum qilgandir yo o‘z vazifasini ta’kidlab qo‘yish uchun ham bu gapni tilga olgan bo‘lishi mumkin, deydilar. Ehtimol, so‘nggi daqiqalarga kelib, sabr kosasi to‘lgan eshik og‘asi arzgo‘yning butun umrlik baxtsizligi va pushaymonligini yo‘qqa chiqarishga intilgandir. Biroq ko‘plar u darvozani yopishi mumkin emas, degan fikrga kelishadi. Hatto ular eshik og‘asini, oxir-oqibat, Qonun darvozasidan taralayotgan porloq shu’lani ko‘rib qolgan haligi kishidan ham haqiqatni ko‘rishda ha-qirdir, chunki u kirish joyini qo‘riqlash bilan ovora bo‘lib, eshikka teskari o‘tirib olganidan, ozgina bo‘lsa-da o‘zgarishni ko‘rmaydi ham, payqamaydi ham, deb hisoblashadi.

– Bularning bari a’lo darajada asosli, – dedi K. Ruhoniyning uqtirishlaridan ayrim joylarini o‘zicha qaytarib. – Asoslaringizni hammasi yaxshi, eshik og‘asi adashganiga

men ham ishonaman. Ammo mening avvalgi isbot-dalilim baribir o‘z kuchida qoladi, chunki ikki talqin ham ko‘p ji-hatdan bir-biriga mos keladi degan fikrdaman. Eshik og‘asi hammasini oxirigacha tushunib yetdimi yoki xato fikrda qolib ketdimi, bu mutlaqo muhim emas. Men arzgo‘yning o‘zi ham yanglish ishtibohda degan bo‘lardim. Agar eshik og‘asi hammasini oxirigacha anglab yetganda edi, degan gumon bilan qaraganimizda boshqa gap, ammo soqchi al-dagan bo‘lsa, uning yanglish tushunchasi ham arzgo‘yning gardaniga tushadi. Shunda, albatta, soqchini o‘zi aldamchi bo‘lib qolmaydi. Biroq, u shu daraja esipast ekan, uni tezlikda – o‘z xizmatidan kovushini to‘g‘rilab qo‘ysa bo‘lmas-midi? Bunda bir narsani nazardan qochirmaslik kerak, soq-chining yanglishganligi unga hech qanaqa ziyon-zahmat yetkazmaydi, ammo jabrdiyda arzgo‘yni esa musibatga ko‘mib tashlaydi.

– Sen bu yerda mutlaq bir-biriga zid talqin-tavsiflarni qalashtirib tashlayapsan, – dedi ruhoni. – Chunonchi, ko‘plar ham bu rivoyat eshik og‘asini hech kimga muhokama qilib, uni aybdor qilish huquqini bermaydi deb hisoblashadi. U bizga kim bo‘lib ko‘rinmasin, u Qonun xizmatkori hisoblanadi, demakki, qisman uning o‘zi ham Qonunga daxldor, zero, uni insoniy bir tuyg‘u bilan ayblast – sud qilish mumkin emas. Shunda eshik og‘asini arzgo‘yga qaram deb hisoblash ham to‘g‘ri bo‘lmay qoladi. Qonunga bog‘liq holda, hatto shunchaki bir darvoza og‘zida haqirgina bo‘lib qorovullikda turish ham, bu yorug‘ olamda o‘z maylicha tarallabedod yurishdan tenglashtirib bo‘lmas darajada af-zaldir. Xuddi soqchi allaqachondan buyon o‘z joyida tur-gandek, arzgo‘yning ham bunda bo‘lishi butunlay Qonunga muvofiq keladi. Qonun uning xizmatini aniqlab bergen, eshik og‘asining bunga loyiqlimi yoki yo‘qligiga shubha bilan qarash – bu Qonundan shubhalanish demakdir.

– Yo‘q, men bu fikrga hech ham qo‘sila olmayman, – dedi K. boshini chayqab. – Agar shunaqa o‘ylansa, demak, soqchi nima deb gapirgan bo‘lsa hammasini haqiqat deb qabul qilish kerak bo‘ladi. Biroq sening o‘zing buning mumkin emasligini hozirgina mutlaq asosli qilib isbotlab berding.

– Yo‘q, – dedi ruhoni, – hech ham hammasini haqiqat deb qabul qilish shart emas, faqat hammasidan muhimini anglab olish kerak, xolos.

– Juda ham qayg‘uli xotima! – dedi K. – Butun tuzumni yolg‘on zabit etajak.

K. buni gapining yakuni sifatida aytdi, ammo bata-mom – uzil-kesil xulosa qilmadi, chunki u bu rivoyatning hech bir tavsif-talqinidan chetda qolmay deb oxirigacha astoydil eshitarkan, yo‘l-yo‘lakay bu o‘zida ham ko‘pdan ko‘p fikr-mulohazalarning tug‘ilib turishiga sabab bo‘ldi, u bunga hech ham odatlanmagani bois, haddan tashqari holdan toygan edi. Bu uydirma fikrlar tez-tez yig‘ilishadigan sud amaldorlari davrasida muhokamada biron-bir narsaga yarab qolar, aslo unga emas lekin. Oddiy bir rivoyatning dudmalligi boshni shuncha qotirdi, uni kalladan uloqtirish kerak, shu yerda ruhoni ham ajabtovur tadbir ishlatdi, K. ning so‘nggi ogohlantirishini indamaygina qabul qildi, holbuki, u K.ning shaxsiy fikr-mulohazasiga ochiqdan ochiq qarshi edi.

Ular gap-so‘zsiz yonma-yon yurib ketishdi. K. qayerga ketayotganligini umuman bilolmasdan ruhoniya imkon qadar yaqin bo‘lishga tirishardi. Qo‘lidagi ischiroq allaqachon o‘chib qolgan edi. Birdan uning qarshisida allaqanday haykalchaning zarrin kumushi yiltirab ketdi-yu, yana shu zahoti atrofni zimiston bosdi. K. butunlay ruhoniya bo‘ysunib qolishni istamaganidan undan so‘radi:

– Adashmasam, biz asosiy chiqish joyiga qarab ketyapmiz?

— Yo‘q, — dedi ruhoniy, — biz undan juda ham uzoqdamiz. Sen hali ketmoqni ham istaysanmi?

K. bir lahzada oldin ketish haqida hatto o‘ylamagan bo‘lsasa-da, shu zahoti javob qildi.

— Albatta, ketmasam bo‘lmaydi. Men bankda prokuristman, kutib o‘tirishadi, bu yerga faqat bir hamkorimiz bo‘lgan xorijlikni ibodatxonani ziyyorat qildirmoq uchun kelgan edim.

— Nima ham qilardik, — dedi ruhoniy va K. bilan qo‘l tashladi. — Unda boraver.

— Ammo bu zulmatda bir o‘zim yo‘l topib ketishim amrimahol-da, — dedi K.

— Chap tomonga qarab yur, — tushuntira ketdi ruhoniy, — so‘ngra burilmasdan bu devorning oxirigacha borsang, chiqish yo‘lini topasan. — Ruhoni yana bir-ikki odim tashlagandi ham, K. juda baland ovozda unga baqirdi:

— Sendan iltimos qilaman, shoshmay tur!

— Kutyapman! — dedi ruhoniy.

— Menden senga boshqa hech narsa kerak emasmi? — so‘radi K.

— Yo‘q, — deb qo‘ydi ruhoniy.

— Biroq sen boshda mendan marhamatingni darig‘ tutmasdan, hammasini boshidan oxirigacha tushuntirib bergen eding, — dedi K. — endi esa menda boshqa ishing yo‘qdek alfozda qo‘yib yuboryapsan.

— Biroq, aytganingdek, sen ketishing kerak emasmi? — dedi ruhoniy.

— Ha, albatta, — derkan, K. shuni qo‘srimcha qildi, — sen meni tushunishing kerak.

— Avval sen mening kimligimni tushunib olishing kerak, — dedi ruhoniy.

— Sen qamoqxona ruhoniysigan-da, — K. shunday derkan, yana ruhoniyning oldiga yaqinlashib keldi: tezda

bankka qaytib borishi u darajada shart ham emasdi, u buni qayerdan to‘qib chiqardi, hali bemalol bu yerda bo‘lishi mumkin-ku.

– Demak, men ham sudda xizmat qilaman, – dedi ruhoniy, – nega sendan menga nimadir zarur bo‘lish kerak ekan? Sudga sendan hech narsa kerak emas.

Sud qachon kelsang quchoq ochib qabul qiladi, qachonki ketadigan bo‘lsang, xayr-xo‘sh degandek bo‘shatadi.

X bob

Xotima

K. o‘ttiz bir yoshga to‘ladigan kun arafasida, kechqurun soat to‘qqizlarga yaqinlashgan, ko‘cha shovqin-suronlari qariyb bosilgan pallada uning xonadoniga bo‘zargan yuzli, go‘yo boshlari uzunroq bo‘lishini istagandek silindrsimon shlyapalarini bostirgancha ikki janob kirib keldi. Kirish eshididan odatiy nazokat bilan o‘tib olishgach, ular yanada nazokat bilan K. joylashgan xonaga kim birinchi kiradi deb bir-birlariga yo‘l bo‘shatib bermoqchi bo‘lishardi. Uni bu tashrif haqida hech kim ogohlantirmagan bo‘lsa-da, odatiy mehmon kutadigandek ruhda u allaqachon eshik yonidagi kursiga o‘tirib olgancha, hammasi bir sidra qora bo‘lishi kerakdek tor, qora qo‘lqoplarini sekin, imillab barmoqlariga kiydi. U shu zahoti o‘midan turib, bu janoblarga qiziqish bilan razm soldi.

– Bundan chiqdi, meni sizlarga topshirishibdi-da? – so‘radi u. Ikki janob buni tasdiqlab, silindr shlyapalariga qo‘llarini olib borib, bir-biriga qarab qo‘yishdi. K. o‘zicha bu naqa mehmonlarni kutmaganiga iqror bo‘ldi. U derazaga yaqinlashib kelib, yana bir bor qorong‘i ko‘chaga termildi. Ko‘chaning shu tomonidagi qariyb hamma derazalarda biron-bir shu’la ko‘rinmas, ko‘pchiligining darpardalari tushirib

qo‘yilgan edi. Yuqori qavatdagi yorug‘ oynalardan birining panjarasi oldida ikki murg‘ak bolakay o‘ynashar, ular hali oyoq bosib tikka turib yurishni uddalay olmas, bir-birlariga tayanib turishmoqchi bo‘lishardi.

– Menga e‘tibordan qolib, qarib-chirigan masxaraboz artistlarni yuborishadi, – derkan yana bir bor bunga qoniqish hosil qilish uchun ularga qarab qo‘ydi K. Ular suvtekinga mendan qutulmoq istaydilar chog‘i. K. birdan ularga o‘girilib savolga tutdi:

– Qaysi teatrda sahnaga chiqasizlar?

– Qanaqa teatr? – bir janob boshqasiga qarab o‘s-moqchiladi, go‘yo undan biron-bir jo‘yali maslahat ol-moqchi bo‘lgandek, uning lablari nina bordek titrardi. Ikkinchisi xuddi soqovday hech narsa demay, yuzini bu-rishtirdi va o‘z darmonsizligini yengmoqchi bo‘lganday qimirlab qo‘ydi.

Ularning savollarga javob berishga tayyorlanmagani ko‘-rinib turar, K. o‘zicha g‘udranib, o‘z shlyapasini olishga ketdi.

Ikki janob ham zinaning o‘zidayoq K. o‘z qo‘l ostida bo‘lishini istardi, biroq K. ularni jerkib tashladi:

– Yo‘q, kerak emas, ko‘chada kutib turinglar, men axir kasal emasman-ku.

Biroq shundoq darvozaning oldida unga shunday tirkalib olishdiki, xuddi umrlarida biror marta boshqa odamga hech ham osilmagan deysiz. Orqadan bir yelka uning yelkasini shunday siqib kelar, tirsaklarini egib bo‘lmas, uzun qo‘llar K.ning qo‘lini ushlagancha, barmoqlarni abjirlik va yengib bo‘lmaydigan chapdastlik bilan ushlagancha zirqiratib qisishardi. Qaddilarini g‘oz tutib, bir maqsadga yo‘nalgandek uchchovi bir-biriga shunchalik tiqilib olgancha borishardiki, mabodo ulardan birini urib qolishsa, bu zarb ularning ucho-viga ham ta’sir qilmasdan qolmasdi. Bunaqa chambarchaslik, ehtimol, faqat jonsiz narsalardagina bo‘lishi mumkin.

Har bir chiroq shu'lasi ko'ziga tushishi bilanoq, K. o'z hamrohlariga yanada yaxshiroq qarab olmoqchi bo'lardi, xonasining nimqorong'iligiga qaraganda bu mumkin deb bilar, holbuki bunaqa bir-biriga qapishib ketayotgan bir vaziyatda buning imkoni qariyb yo'q edi. Ehtimol, ular yallachilardir, deb o'yladi qo'sha-qo'sha baqbaqalariga ko'zi tushib. Ularning yaltirab turgan chehralari bu xatti-harakatlarining aksi edi. Mana, qo'llariga qarang, ko'zlar chetlari gacha tozalangan, yuqori lablar artilgan, soqol ostilari te-kislab chiqilganga o'xshardi.

K. ularga yaxshilab qarab olmoqchi bo'lib to'xtadi, u bilan birga ikki janob ham to'xtashga majbur bo'ldi. Bu yer kimsasiz, qarovsiz changalzorning bir cheti edi.

– Nega buning uchun aynan sizlarni yuborishdi? – deb K. chinqirar ekan, bunda surishtirish ohangidan ko'ra sabrsizlanish ruhi kuchli jarangladi. Ular nima deb javob berishni bilmasdan, bo'sh qo'llarini tushirib, kutib turishdi, xuddi hamshiralalar bemor nafasini rostlab olmoqchi bo'l ganda kutganlari kabi.

– Bu yog'iga bir qadam ham yurmayman, – dedi K. o'ziga joy hozirlab. Ular javob qilishni ham o'zlariga ep ko'rmasdan chapdastlik bilan K.ni joyidan siljitishga urinib ko'rdilar, ammo u tixirlik qilib, bunga imkon bermadi. Endi menga bundan bu yog'iga kuch-quvvatim kerak bo'l maydi, shuning uchun uning hammasini ishga solib, zo'r berish kerak, o'ylardi K. Uning yodiga birdan qog'ozga tappa yopishib qolsa, buning uchun o'sha joyni qaychi bilan kesib olishi tushdi. Ha, bu janoblarga bu yog'iga qiyin bo'ladi.

Kichkina o'rmonchaning shu yerida, qaysiki xiyobon jinko'chaga tutashgan joyda unga froylyayn Byurstner yerda uzala tushib yotganday ko'rinish ketdi. Bu froylyayn Byurstnerga quyib qo'yganday o'xshab tursa-da, bu o'shami yoki

boshqaligiga K.ning ishonchi komil bo‘lolmadi. Biroq K. uchun bu froylyayn Byurstnermi yoki boshqa bittasi, umuman, hech qanaqa ahamiyati yo‘q edi, u birdan o‘z-o‘zidan har qanaqa qarshilik ko‘rsatish bema‘nilik ekanligini anglab qoldi. Agar u birdan qarshilik ko‘rsatib, ularni g‘aflatda qoldirganda ham hech qanaqa qahramonlik yuz bermas, jonlari o‘ziga shirin ko‘rinib ketgan bu janoblar o‘zlarini muhofaza qilishlari kerakligini tushunib yetishar, bu esa ularga birozgina ortiqcha tashvish tug‘dirardi, xolos. U quvonch bilan o‘rnidan qo‘zg‘alib harakatga tushdi va bu ruh qisman haligi janoblarga ham ko‘chib o‘tdi. Ular K.ga istagan tomonga boshlash imkonini berishdi, shu tufayli u janoblarni froylyayn Byurstner oldidan chiqadigan tomonga boshladи, biroq, buni u qizni ortda qoldirib ketishni istaganidan yoki uni uzoqdan turib ko‘rib olish uchun ham qilmоqchi emasdi, balki u qizni ko‘rgan ekan, faqat shu nishonani unutib qo‘ymasligi uchungina bu tomonga yurgandi. Raqiblarining tengma-teng qadam tashlab borishlari go‘yo bu fikrni qo‘llab-quvvatlagandek – u aqli-hushimni oxiriga cha yo‘qotmaslik mening hozir qiladigan yagona ishim, deb o‘z-o‘ziga qaytargani-qaytargan edi. Men hamisha hayotiy ehtiyojlarimni qondirish uchun yigirmata qo‘lim bo‘lishini orzu qillardim, bularning bari olqishlasa bo‘ladigan maqsadlardan olisda emasdi. Bu albatta noto‘g‘ri bo‘lgan. Nahotki men hozir ustimdan qo‘zg‘atilgan jinoiy ish jarayoni bir yil davom etishiga qaramasdan biron-bir saboq chiqarib olmaganimni ko‘rsatsam? Nahotki men shunday ahmoq sarkashligimcha o‘tib ketsam? Nahotki, men haqimda ish qo‘zgatilganda uni oxiriga yetkazmoqchi bo‘lganim-u endi nihoyasiga yetganda hammasini boshidan boshlashga intilib, tirishib-tirmashgan deb aytib yurishsa? Yo‘q, yo‘q, shunday deb gapirib yurishlarini aslo istamayman! Bu yo‘lda menga hardamxayol va hech narsani his etmaydigan, aql-idrokdan

mosuvo kishilarni hamroh qilib qo‘ygani uchun yaratgandan minnatdorman, chunki nima kerak bo‘lsa, belgilab olish o‘z ixtiyorimda.

Shu orada froylyayn Byurstner ham qariyb yon tomon-dagi ko‘chaga burilayozdi, biroq endi K. uningsiz ham o‘z ixtiyorini hamrohlariga topshirib qo‘ygandi. Oy shu’lasi ostida uchchovi ham o‘z ixtiyorlari bilan ko‘prikka yetib keldilar: ikki janob K.ning har bir, eng kichik xatti-harakatigacha hech bir so‘zsiz ta’qib qilishar, u panjara tomon shunchaki burilar ekan, ikkisi esa butun gavdasi bilan uning ortidan shunday qilishdi. Suv oy shu’lasida mavjlanar va titrar, shu tariqa buta va daraxtlar baayni bir-biriga do‘sraldek yondashib zikh o‘sgan bu kichik orolchaga sekin taralardi.

– Men hech ham bu yerda to‘xtashni istamagan bo‘ladim, – dedi K., hech bir e’tirozga o‘rin qoldirmaydigan qilib, hammasiga hozir-u nozir hamrohlariga qarab.

K.ga uning orqasida hamrohlari biri ikkinchisiga qarab befahmlarcha o‘pkalagandek ko‘rindi; ular yana mo‘lgina yo‘l bosdilar.

Ko‘cha yuqoriga qarab o‘rlab borar, qayerdadir ularga mirshablar to‘qnash kelar, ular o‘z kuzatuv joyida turgan yoki shag‘alli yo‘lga qarab yurgan bo‘lar, goh uzoqdan, goh juda yaqindan o‘tib qolishardi. Hurpaygan mo‘ylovli biri qurolini dastasidan ushlab olgancha, atayin bu shubhali to‘dani ko‘rish uchun yaqin kelganga o‘xshardi, shunda ikki janob ham to‘xtab, mirshab ham bir nima deyishga endigina og‘iz juflagandi, K. birdan hamrohlarini zo‘r berib oldinga siltadi. Shu yurishda K. xavfsirabgina, mirshab orqamizdan ta’qib qilib qorama-qora kelyaptimi, yoki yo‘q, deb buni ko‘rib olmoqchi bo‘ldi. Ular u ko‘rinmay qoladigan burilishga kelganda, K. oyog‘ini qo‘liga olib yugurishga tushdi, shunda hamrohlari ham nafaslari qisilishiga qaramasdan

unga ergashishdi. Tez orada ular shahar chekkasiga kelib qolganday bo‘lishdi, chunki hech bir yo‘l-yo‘laksiz dala boshlandi. Kichkinagina, bo‘m-bo‘sh va qarovsiz tosh koni oldilaridan chiqdi, albatta, uning binosidan hali ham shahar nuqsi ketmagandi. Shu yerga kelib, ikki janob to‘xtashdi: ular bu joyni oldindan belgilab olishganmi yoki uzoq chopib kelishgandan haddan tashqari charchashgani uchunmi – aytish qiyin. K.ni o‘z holiga tashlaganicha, bu yog‘i nima bo‘larkin, degandek jimgina kutib, boshlaridan cho‘zinchoq shlyapalarini yechib tosh koniga alanglashar, dastro‘mollari bilan peshonalaridagi terni artib qo‘yishardi. Hammasi tabbiy bir xotirjamlikda oy yorug‘i ostida yotar, biri ikkinchi olamga daxldorday edi.

Vazifaning keyingi qismini kim amalga oshiradi, degandek, bu haqda yoqimli gap-so‘z tashlagandan keyin, – aftidan, bu janoblarga vazifalari aniq taqsimlab berilmagandi, – ulardan biri K.ga yaqinlashib kelib, uning kazulini, nimchasini, oxiri ko‘ylagini ham yechib oldi. K.ning eti sovuqdan beixtiyor junjikib ketdi. U janob bo‘lsa dalda beradigan ohangda uning yelkasiga urib qo‘ydi. Keyin esa juda sarishtalik bilan kiyimlarini taxlab, joyladi, to‘g‘ri, yaqin o‘rtada buning imkonи bo‘lmasa-da, go‘yo hali bullardan foydalanishning mavridi keladiganday. Ikkinci janob, tosh konida loyiq bir joy izlab topguncha, bu kishi K. bir joyda turib, tungi salqindan sovqotib, qaltiroqqa tushib qolmasligi uchun uning qo‘l ostidan olib, birgalikda orqa-oldiga borib-kelib turdi. Unisi o‘sha joyni topib, bularga qo‘l silkib imladi va shundan keyingina birinchi janob K.ni o‘sha yoqqa boshladi. Shundoq quduq yonida bir bo‘lak xarsang turardi. Ikki janob K.ni yerga yotqizdilar-da, uni devor to-monga qaratishib, boshini o‘sha xarsangga qo‘ydilar. Biroq, ularning barcha sa‘y-harakatlariga qaramay, K. ham ularga qo‘shilib biron-bir ish qilishga urinsa-da, uning turishi nota-

biiy va zo‘riqvchan bir holda qolaverdi. Shu bois birinchi janob ikkinchisidan K.ni qulay yotqizishga urinib ko‘rishni so‘radi, ammo bundan hech bir ish chiqmadi. Oxir-oqibat K. qanday yotsa, uni shunday holda qoldirdilar, holbuki, uni birinchi bor yotqizishganida hozirgisiga qaraganda qulayroq joylashtirilgan edi. Keyin birinchi janob kamzullini yechib, nimchasining yuqorirog‘ida belidagi tasmasiga osilgan qindan qassoblarning uzun, ingichka dudama pi-chog‘ini oldi-da, tepagacha ko‘tarib, yaxshilab keskir qilinganmi, deb yorug‘ga solib damini tekshirdi. Yana g‘azabni keltiradigan soxta navozish-sansalorlik boshlandi: birinchi janob pichoqni K.ning boshidan oshirib, ikkinchisiga tutqazdi, ikkinchisi esa yana K.ning boshining ustidan birinchisiga qaytarib berdi. Va K. birdan boshi ustida pichoq qo‘ldan qo‘lga uzatilayotganda unga yopishib changallab olishi va uni o‘z bo‘g‘ziga botirishi kerakligini tushundi. Biroq u bunday qilmadi. Hali qo‘l tekkizilmagan bo‘ynini burib, yana bir bor tevarakka razm soldi. U o‘z burchini oxirigacha ado etishi mumkin emas, butun ishni o‘z bo‘yndan soqit ham qilolmaydi, ammo kim bo‘lsa ham so‘nggi tomchi uchun kerak kuchni ayagan kishi, bu so‘nggi xato uchun javob beradi. Uning nigohi tosh koniga tutashib ketgan uylarning yuqori qavatiga tushdi. Xuddi chiroq lop etib yongandek, birdan o‘sha yuqoridagi derazalardan biri lang ochilib, nimjongina bir kishi ko‘rindi. U birdan shiddat bilan oldga egildi va qo‘llarini yanada oldinroqqa cho‘zdi. Kim bo‘ldi bu? Do‘stmi? Bir olivjanob kimsami? Bir falokatni bilib qolganmikan? U yordam bermoqchidir? Balki, u yolg‘izdir? Yoki hamma uning ortida turibdimi? Ehtimol, hamma yordam berishni istar? Ehtimol, hali yana qandaydir dalillar unutilgandir? Hech shubhasiz, bunaqa dalil-asoslari ish berishi mumkin, holbuki, yashashni istaydigan inson xohishiga qarshi mantiq barqa-

ror, uni yerparchin qilish mumkin emas. Qani shunaqa odil qozi, u bunaqa hakamni biror-bir marta ko'rmadi. Bu yerda u adolatli oliy sud, uni qayerdan izlasa bo'ladi? U qo'llarini ko'tarib kaftlarini birlashtirdi.

Biroq uning bo'g'ziga birinchi janobning qo'llari allaqachon tekkan, ikkinchisi bo'lsa bu orada pichoqni olib, yurakka chuqur botirgan va uni ikki bor aylantirgandi ham. Shunda u so'nayotgan ko'zları ila ikki janobning yuzida ham go'yo bir-birlarining pinjiga kirib ketmoqchi bo'layotgandek, endi xoli qo'ysak bo'larmikan degan bir jonsaraklikning guvohi bo'ldi.

— Xuddi it kabi, — derkan, u oxirgi gapini shunday bir tarzda aytdiki, go'yo bu sharmandali hukm yana bir qancha vaqt uning yashamog'ini ta'minlaydigandek edi.

MUNDARIJA

Nashriyotdan	3
<i>I bob.</i> Qamoq. Frau Grubax bilan, keyin esa Froylyayn Byurstner ila gurung.....	5
<i>II bob.</i> Tergovning boshlanishi	47
<i>III bob.</i> Bo‘m-bo‘sh majlisxona. Talaba. Devonxonada	70
<i>IV bob.</i> Froylyayn Byurstnerning dugonasi.....	105
<i>V bob.</i> Mirg‘azab	115
<i>VI bob.</i> Amaki, Leni	125
<i>VII bob.</i> Oqlovchi. Fabrikachi. Rassom	155
<i>VIII bob.</i> Tijoratchi Blok. Oqlovchini rad qilish	229
<i>IX bob.</i> Ibodatxonada.....	276
<i>X bob.</i> Xotima	309

Adabiy-badiiy nashr

FRANS KAFKA

JARAYON

Roman

„Ziyo nashr“ nashriyoti
Toshkent – 2022

Muharrir
Badiiy muharrir
Musahhih
Sahifalovchi

*Oybek Haydarov
Nasiba Ergasheva
Malika Kamolova
Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019
13.07.2022da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 ^{1/32}.
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi. Sharqli
bosma tabog‘i 16,8. Adadi 1000. Shartnoma № 142–20.
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“
Mas’uliyati cheklangan jamiyat
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlod“
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 28-a uy.
„Yangi asr avlod“ MCHJ
Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Qatortol ko‘chasi, 60-uy.

Kafka, Frans.

K 30 Jarayon. [Matn]: roman / F. Kafka; tarjimon: V. Fayzullo. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 320 b.

ISBN 978-9943-6831-0-5

UO'K: 821.112.2

KBK 83.3(2Ros=Nem)

FRANS KAFKA
JARAYON



ZIYO NASHR

fb.com/zio.nashr
 zionashr@gmail.ru



ISBN 978-9943-6831-0-5

9 789943 683105